**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

F.A. ABDURAXMONOV

INTEGRATSIYA VA IQTISODIY GLOBALLASHUV

(Darslik)

TOSHKENT – 2024

UO‘K: 339.24
KBK 65.5.2
A - 53

F.A. Abduraxmonov. Integratsiya va iqtisodiy globallashuv. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024, 236 bet.

ISBN 978-9910-01-155-9

Mazkur darslikda ikkita bir-biri bilan uzviy bog‘langan va bir-birini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya masalalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan yoritib berilgan. Ushbu darslik dunyoning turli mintaqalarida ro‘y berayotgan zamonaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan tanishishni o‘z ichiga oladi. Darslikda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining zamonaviy xususiyatlari ochib berilgan bo‘lib, u 5231100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

UO‘K: 339.24
KBK 65.5.2

Taqrizchilar:

T.A. Hasanov – i.f.d. (DSs), dotsent;

N.S. Ismailova – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent;

N.B. Xolmatov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Ushbu darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11-sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN ISBN 978-9910-01-155-9

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024.

KIRISH

Zamonaviy dunyo integratsiya jarayonlari bilan rivojlanmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida integratsiya savdo-iqtisodiy, valuta, bojxona va siyosiy birlashmalari sifatida shakllanmoqda. Bu obyektiv va tabiiy jarayon. Integratsiya jarayonlari sayyoramiz miqyosida chuqurlashib, takomillashib kuchayib bormoqda. Integratsiya jarayonlari birinchi navbatda ko‘plab xalqaro va nodavlat tashkilotlarning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon bir tomondan globallashuvning ta’sirida yuz berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mazkur voqelik bevosita global iqtisodiy o‘zgarishlarni yuqori darajaga ko‘tarmoqda. Bunday sharoitda har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini milliy manfaatlarini ko‘zlab va ayni bir paytda boshqa davlatlar bilan teng manfaatli hamkorlik asosida rivojlantirishi, integratsion guruhlarda faol ishtirokchi bo‘lishi talab etiladi. Globalizatsiyaning chuqurlashuvi hozirgi kunda butun dunyoni “bir qishloqqa” aylantirgan sharoitda mamlakatda xalqaro iqtisodiy munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro iqtisodiy siyosat, diplomatiya sohalarida yetuk mutaxassislar tayyorlashni yuqori bosqichga ko‘tarishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) kabi integratsion guruhlarning faol a’zosi hisoblanadi. Shuningdek, bir qator boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ayni bir paytda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari, ya’ni qo‘shni davlatlar bilan integratsiyalashish yuzasidan faol va samarali siyosat yuritmoqda. Jumladan, 2023-yilning 14-15-sentabr kuni Tojikiston Respublikasining poytaxti Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan sammitda mamlakatimiz Prezidenti mintaqamizda integratsiyani rivojlantirish bo‘yicha bir qator takliflarni ilgari surdi va vazifalarni o‘rtaga tashladi.

Globalizatsiya sharoitida mamlakatimizning integratsion uyushmalarda ishtiroki orqali milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish, barqaror

va tez sur’atli iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan strategiyani amalga oshirish yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek yetuk mutaxassislarni talab etadi. Umuman, har bir davlatning rivojlanishi, eng avvalo, to‘g‘ri ishlab chiqilgan siyosat va uni amalga oshiruvchi kadrlar sifati bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqib, mazkur darslik jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, jahondagi integratsiya jarayonlarini chuqur bilish zamonaviy davr talabidir. Integratsiya jarayonlarining mohiyatini tushunish xalqaro munosabatlar sohasidagi bo‘lajak mutaxassislarga mamlakatimiz va umuman mintaqa uchun maqbul bo‘lgan hamkorlik strategiyasini tanlashda munosib harakat qilish imkonini beradi.

Fanning asosiy maqsadi zamonaviy dunyodagi integratsion jarayonlarning va globallashuvning rivojlanishini o‘rganishdan iborat. Jumladan, xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda globalizatsiyaning yuzaga kelish sabablari, shart-sharoitlari va mohiyatini ochib berish, ularning nazariy asoslarini yoritish, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning milliy va jahon iqtisodiyotiga ta’sirini ko‘rib chiqish, integratsion jarayonlarning zamonaviy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, dunyoning turli mintaqalarida integratsiya, savdo-iqtisodiy, valuta, bojxona va siyosiy birlashmalar qanday shakllanganligini tushuntirishdir.

Darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan.

Darslik to‘qqizta bobdan iborat bo‘lib, jumladan, birinchi bobda integratsiyaning nazariy asoslari, uning shakllari, darajasi va samaradorlik ko‘rsatkichlari, ikkinchi bobda Yevropada iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanishi va hozirgi holati, uchinchi bobda Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, to‘rtinchi bobda Osiyo-Tinch okeani mintaqalarida iqtisodiy integratsion jarayonlarning zamonaviy tendensiyalari, beshinchi bobda Janubiy

Osiyo, Arab dunyosi, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlaridagi integratsion jarayonlar, oltinchi bobda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi integratsiyalashuv muammolari, yettinchi bobda BRIKS va ShOS integratsion guruhlarning rivojlanishi, sakkizinchi bobda Markaziy Osiyo davlatlaridagi integratsiyalashuv holatlari va to‘qqizinchi bobda globallashuv nazariyalari hamda global muammolar tahlili amalga oshirilgan.

Darslik sifatini yaxshilash bo‘yicha akademik hamkasblar va talabalarning fikr-mulohazalari hamda takliflarini yuksak qadrlayman va chin dildan e’tirof etaman.

I BOB. ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) va globalizatsiyaning mohiyati.

1.2. Integratsiyaning nazariy asoslari.

1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va darajasi.

1.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning samaradorlik ko‘rsat-kichlari.

1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) va globalizatsiyaning mohiyati

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishida ikkita bir-biriga parallel va o‘zaro bog‘liq jarayonlar, ya’ni bir tomondan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va ikkinchi tomondan, globallashuv chuqurlashib borilayotganligi yaqqol kuzatilmoqda. Boshqacha aytganda, minta-qaviylashuv va globallashuv dunyo mamlakatlarini rivojlantirishning asosiy jarayoni hisoblanmoqda. Xalqaro iqtisodiy integratsiya fenomeni ikki iqtisodiy tendensiya- mintaqaviylashuv va globallashuvning o‘zaro ta’siri sifatida taqdim etilmoqda.

Jahon integratsiyasi tarixi dastlabki davlatlar tashkil topgan davrlarga borib taqaladi va chuqur ildizga ega. Ko‘p asrlar davomida dunyo mamlakatlari va xalqlarini bir-biriga bosqichma-bosqich yaqinlashishi jarayoni kuzatiladi. Bugungi kunda ushbu jarayon umumiy olganda sezilarli ravishda tezlashdi va barcha sohalarga tegishli bo‘lmoqda. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar va huquq doktrinasidan kelib chiqsak, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, ayni paytda deyarli butun dunyo mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Ilk ko‘rinishi iqtisodiy sohani tashkil etgan integratsiya bugunga kelib bir qator sohalarni qamrab oldi

va bevosita globallashuvni rivojlanishiga olib keldi. Globalizatsiya dunyo davlatlari va barcha jamiyatlarning o‘zaro munosabatlari yangi fazasini va umumiyligini ifoda etadi.

Dunyoda 150 dan ortiq mintaqaviy savdo-iqtisodiy ittifoqlar mavjud (ularning aksariyati 1990-yillarning ikkinchi yarmida yoki undan keyin tuzilgan), ular iqtisodiyotni birlashtirish darajasi, ushbu guruhga kiritilgan davlatlar soni, integratsiya usullari, ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha farqlanadi. Jahon savdosi umumiy hajmining kamida 2/3 qismi mintaqalararo savdo-iqtisodiy aloqalar hissasiga to‘g‘ri keladi[1].

1-jadval

Asosiy mintaqaviy (xalqaro) iqtisodiy integratsion tashkilotlar

Integratsion tashkilotlar	**Ishtirokchilar**	**Integratsiya-lashuv darajasi**
Yevropa Ittifoqi-YEI (1992) (European Union-EU)	Avstriya, Belgiya Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya, Daniya, Estoniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Litva, Luksemburg, Malta, Hollandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shvesiya, (Buyuk Britaniya-2020-yil chiqib ketgan)	Iqtisodiy ittifoq
Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi – MDH (1991) (The Commonwealth of Independent States (CIS))	Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston, (Ukraina-2018-yilgacha). Gruziya-2009-yilgacha)	Iqtisodiy ittifoq
Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi – (1985)(South Asian Association for Regional Cooperation – (SAARC))	Bangladesh, Butan, Hindiston, Maldiv, Nepal, Pokiston, Shri-Lanka	Iqtisodiy ittifoq

[1] В. Л. Хейфец. Международная интеграция: учеб. пособие. СПб.: ГУАП, 2022. – стр.5

Integratsion tashkilotlar	Ishtirokchilar	Integratsiya-lashuv darajasi
Arab Mag‘rib Ittifoqi (1989) (The Arab Maghreb Union (AMU))	Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Tunis	Iqtisodiy ittifoq
G‘arbiy Afrika mamlakatlarining iqtisodiy hamjamiyati – (1975) (Economic Community of West African States – (ECOWAS))	Benin, Burkina-Faso, Gambiya, Gana, Gvineya, Gvineya-Bisau, Kabo-Verde, Kot-d’Ivuar, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra-Leone, Togo	Iqtisodiy ittifoq
Janubiy Tinch okeani mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlik ittifoqi(1981) (South Pacific Regional (Trade and Economic Cooperation Agreement – (Sparteca))	Avstraliya, Vanuatu, Kiribati, Marshall Orollari, Mikroneziya Federatsiyasi, Nauru, Niue, Yangi Zelandiya, Kuk Orollari, Palau, Papua-Yangi Gvineya, Samoa, Solomon orollari, Tonga, Tuvalu, Fiji	Savdo bitimi
Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi-(1994) (North American Free Trade Agreement (NAFTA)) (The United States-Mexico-Canada Agreement (USMCA)) (2020)	AQSH, Kanada, Meksika	Erkin savdo hududi
Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (1984) (Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC))	Avstraliya, Bruney, Vetnam, Hongkong, Indoneziya, Kanada, Xitoy, Koreya Respublikasi, Malayziya, Meksika, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Peru, Rossiya Federatsiyasi, Singapur, AQSH, Tayvan, Tailand, Filippin, Chili, Yaponiya	Erkin savdo hududi
ASEAN Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi – (1967) (Association of Southeast Asian Nations-(ASEAN))	Bruney, Burma, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand, Vetnam	Erkin savdo hududi

Integratsion tashkilotlar	Ishtirokchilar	Integratsiya-lashuv darajasi
Lotin Amerikasi integratsiya uyushmasi (1980) Latin American Integration Association – LAIA	Argentina, Boliviya, Venesuela, Braziliya, Kolumbiya, Kuba, Meksika, Paragvay, Peru, Chili, Urugvay, Ekvador	Erkin savdo hududi
Janubiy Konusning umumiy bozori (1991) MERKOSUR (MERCOSUR) ispancha Mercado Común del Sur (Southern Common Market)	Argentina, Braziliya, Venesuela, Paragvay, Urugvay	Umumiy bozor
Markaziy Amerika umumiy bozori (1960) (Central American Common Market – (CACM))	Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua	Umumiy bozor
And umumiy bozori (And Millatlar Hamdo‘stligi, And guruhi) (1969) Andean Community	Boliviya, Kolumbiya, Peru, Ekvador	Umumiy bozor
Karib dengizi hamjamiyati va Karib dengizi umumiy bozori (1973) (Caribbean Community and Common Market – (CARICOM))	Antigua i Barbuda, Bagama orollari, Barbados, Beliz, Dominika, Grenada, Gayana, Gaiti, Montserrat (Brit.), Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent -Vinsent va Grenadin, Surinam, Trinidad va Tobago, Yamayka	Umumiy bozor
Sharqiy va Janubiy Afrika uchun umumiy bozor (1993) (Common Market for Eastern and Southern Africa – (COMESA))	Burundi, Komor orollari, Kongo demokratik respublikasi, Jibuti, Misr, Keniya, Liviya, Mavrikiy, Madagaskar, Malavi, Ruanda, Svazilend, Seyshel orollari, Sudan, Uganda, Zambiya, Zimbabve, Eritreya, Efiopiya	Umumiy bozor

Manba: Muallif tomonidan tuzildi.

Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bir-birini taqozo etuvchi hamda ayni bir paytda ayrim olimlar fikrlaricha ba’zi jihatlarda

bir-biriga zid tushunchalardir. Ammo ikkala tendensiya globallashuv va mintaqaviylashuv ko‘p jihatdan sayyoramizning turli burchaklarida birgalikda muvaffaqiyatli mavjud bo‘lmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya globalizatsiyadan yoki iqtisodiy globalizatsiyadan farqli o‘laroq ko‘proq mintaqaviy integratsiya hisoblanadi. Ayni paytda mintaqaviy integratsiya baynalmilallashuv va globallashuv tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Bularning barchasi alohida mamlakatlar va jamiyatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy, harbiy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning tobora kuchayishi, jahon iqtisodiyotida mustahkam o‘rin egallashi, jahon siyosatida muhim rol o‘ynovchi subyektga aylanishi barobarida u xalqaro iqtisodiy integratsiya mavqeyiga erishdi va bevosita shu nom bilan ataladigan bo‘ldi. Geografik tarqalishining amalda globalligi tufayli mintaqaviy integratsiya haqiqatan ham xalqaro global siyosiy hodisaga aylandi.

Hozirgi vaqtda umuman olganda olimlar o‘rtasida mintaqaviy, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari va globallashuvga nisbatan yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Ammo o‘tgan o‘n yilliklar davomida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya tushunchalarini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish borasida juda ko‘p ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuvning mazmuni, mohiyati, ahamiyati hamda rivojlanish xususiyatlarini ochib berishda jahon hamjamiyatida to‘plangan nazariy asoslarning ayrimlarini ko‘rib chiqish talab etiladi.

“Integratsiya” atamasi XX asrning 30-yillarida ilk bor nemis olimlari H. Kelzen, D. Shindler va R. Shmedlarning asarlarida ifodalanib, ular integratsiyani ijtimoiy munosabatlarni tahlil etish sifatida ko‘rib, odamlarni (davlatlarni) ma’lum bir holatda qandaydir ijtimoiy-siyosiy birlashishlarini nazarda tutganlar. Ular integratsiyani ko‘proq xususiy, masalan, milliy iqtisodiyotga qo‘llamasdan faqat global miqyosda ko‘rganlar. Chunki xalqaro hamjamiyatning rivojlanishi, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlar sohasida o‘sha davrda integratsiya g‘oyalarini amalga oshirish uchun hali zarur shart-sharoitlar yaratilmagan edi.

Ularning g‘oyalari nemis huquqshunosi va siyosatshunosi Karl Shmitning (1888-1985) asarlarida yanada rivojlantirildi. Uning nazariyasiga ko‘ra ma’lum bir nuqtadan boshlab mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi hududning miqdoriy va sifat jihatidan o‘sishini, kengayishini ta’minlaydi. Ushbu holatda anneksiya yoki harbiy bosqinchilik talab qilinmaydi, chunki katta makonning shakllanishi boshqa qonunlar asosida, ya’ni bir nechta davlatlar yoki xalqlar tomonidan yagona diniy yoki ijtimoiy-madaniy shakllarni qabul qilish asosida sodir bo‘ladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya to‘g‘risidagi ta’riflar, tushuntirishlar, tasnif va tavsiflashlar, guruhlashtirishlar ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga rivojlandi. Bu bevosita G‘arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiy integratsiyasi amaliyoti fonida yuz berdi. Mazkur davrda shakllangan ta’riflar ko‘p jihatdan neoliberalizm g‘oyalariga asoslanadi.

Amerikalik olim B. Balass iqtisodiy integratsiyani “jarayon va holat” sifatida ta’riflaydi. Jarayon sifatida iqtisodiy integratsiya turli millatlarga (davlatlarga) mansub iqtisodiy birliklar orasida kamsitishlarni (diskriminatsiya) bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat. Holat sifatida bu mamlakatlar o‘rtasida kamsitishning turli shakllarini mavjud bo‘lmasligi bilan ifodalanadi.

Neoliberal yo‘nalishiga muvofiq izlanishlar olib borgan olimlar- A. Predol va V. Repke integratsiyani bir nechta mamlakatlarni o‘z ichiga oladigan geoiqtisodiy makonni yaratish deb tushuntirganlar. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi savdo va moliya-valuta sohalarini davlat nazoratidan chiqarib tashlash zarur edi. Ular integratsiya muammolarini tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish asosida mamlakatlar bozorlarini birlashtirishda ko‘rganlar. Shunday qilib, integratsiya nazariyasi iqtisodiy asosga tayanib ifodalanadigan bo‘ldi.

A’zo davlatlar o‘rtasidagi tovar aylanmasiga alohida e’tibor qaratildi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini, mamlakatlar aholisi farovonligini ko‘tarish, integratsiya doirasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berishi asoslandi.

Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy integratsiya alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning turli darajadagi, ya’ni xalqaro, mintaqaviy va alohida korxonalar o‘rtasidagi (mikrodarajada) birlashishi va o‘zaro ta’siri jarayoni sifatida tushuntiriladi.

Rus olimi O. N. Misko mintaqaviy (xalqaro) iqtisodiy integratsiya jarayonlarini nazariy jihatdan tadqiq etilishini uch davrga bo‘ladi[2].

Bular: 1) 1957-60; 2) 1960-1980-yillar; 3) 1990-yildan hozirgacha. Bunday guruhlashtirishni tadqiqotchi bevosita shu davrlarda jahon mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya yo‘nalishida yuz bergan jarayonlarning xususiyatlariga ko‘ra belgilaydi. Hozirgi paytda ushbu yo‘nalishda tadqiqot obyekti va predmeti kengaydi va buning asosiy sabablari globallashuv sharoitida integratsiya jarayonlarining o‘zgacha tus olishi, integratsiyaning motivlari, zamonaviy mexanizmlari, oqibatlari o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Holland iqtisodchisi Yan Tinbergen integratsiyaning ikki turini ishlab chiqdi: bojlar, soliqlar va cheklovchi qonunchilikni bekor qilishdan iborat "salbiy" integratsiya va millatlararo organlar hamda integratsiya uyushmasini shakllantirish siyosatini yaratishga qaratilgan "ijobiy" integratsiya[3].

Mintaqaviy integratsiya va globallashuv masalalari Markaziy Osiyo olimlari tomonidan ham keng o‘rganilib kelinmoqda.

Qozoq olimi K.G. Sheryazdanova bergan ta’rifga ko‘ra ***XII:*** “Xalqaro iqtisodiy integratsiya qo‘shni davlatlar iqtisodiyotini barqaror iqtisodiy aloqalar asosida yagona xo‘jalik majmuasiga birlashtirish jarayoni, milliy xo‘jalik tizimlarining yaqinlashishi va o‘zaro moslashuv jarayoni bo‘lib, u xalqaro mehnat taqsimoti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarining iqtisodiy manfaatlariga asoslanadi. Integratsiya shuningdek, ma’lum bir tizimning harakat va rivojlanish jarayoni bo‘lib, unda ishtirokchilarning aloqalari kuchayadi va ularning mustaqilligi pasayadi. “Integratsiya” tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, integratio – birikish, kengayish, integer – yaxlit, yagona, ma’nolarini anglatadi hamda

[2] О.Н. Мисько. Международная экономическая интеграция. – СПб: Университет ИТМО, 2015. – стр.174

[3] Tinbergen, J. International Economic Integration. /J. Tinbergen. - Amsterdam: Elsevier, 1954. - p.78.

qismlarning o‘z xususiyatlarini saqlab qolgan holda bir butunga birlashishlarini nazarda tutadi”[4].

O‘zbek olimlari N.S. Ismailova va U.U. Shagazatovlar **XII**ga quyidagi ta’rifni berganlar: “Iqtisodiy integratsiya mamlakatlar o‘zaro iqtisodiy hamkorligining natijasi bo‘lib, u xo‘jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi”[5].

O‘zbek olimi A.M. Alimov ta’rifiga ko‘ra: “Mintaqviy iqtisodiy integratsiya–bir nechta mamlakatlarning mintaqaviy darajadagi qo‘shma faoliyatini ko‘zda tutadi, ular iqtisodiyotni u yoki bu turdagi yagona mintaqaviy xo‘jalik majmuasiga birlashtirishga olib keladi”[6].

Tojik olimi D.Z. Ikromov fikricha **XII:** “Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yuqori, samarali va istiqbolli bosqichi, iqtisodiy aloqalarni baynalmilallashtirishning esa yangi va murakkab bosqichidir. Bu bosqichda nafaqat milliy iqtisodiyotlar bir-biriga yaqinlashadi, balki iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etish ham ta’minlanadi. Binobarin, iqtisodiy integratsiyani davlatlararo shartnomalar va muvofiqlashtirilgan tartibga soluvchi organlar shaklida iqtisodiy mexanizmlarni yaqinlashtirishga olib keladigan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o‘zaro hamkorlik sifatida ifodalash mumkin[7].

Zamonaviy holatdan kelib chiqib ta’kidlasak, hozirda bir tomondan, jahon iqtisodiyotining yaxlitligi va uning globallashuvi kuchayib bormoqda, bu esa o‘z navbatida, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, savdoni erkinlashtirish, zamonaviy aloqa va axborot tizimlarining yaratilishi, jahonda umumiy texnik standartlar va me’yorlarni joriy etilishi bilan bog‘liq. Bu jarayon ayniqsa transmilliy

[4] Шерьзданова К. Г.Современные интеграционные процессы: учебное пособие. Астана: Академия гос. упр. при Президенте РК, 2010, стр. 10

[5] Исмаилова Н.С., Шагазатов У.У. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик -Т.: Иқтисодиёт нашриёти, 2019. 164 б.

[6] А.М. Алимов. “Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari”. -T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2016. 96 bet.

[7] Д.З. Икромов. Международная экономическая интеграция. Учебник и практикум. - М.: Юрайт. 2020. стр.14

korporatsiyalar (TMK) faoliyati orqali namoyon bo‘lmoqda. Boshqa tomondan, mintaqaviy miqyosda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy yaqinlashuv va o‘zaro aloqalar chuqurlashmoqda, jahon iqtisodiyotining nisbatan mustaqil markazlarini yaratish yo‘lida yirik mintaqaviy integratsiya tuzilmalari shakllanmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mintaqaviy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va integratsiya birlashmalariga a’zo mamlakatlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish vositasiga aylandi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarga asoslangan qo‘shni davlatlar iqtisodiyotini yagona iqtisodiy kompleksga birlashtirishni nazarda tutuvchi jarayondir. Bu jarayonning muhim jihatlaridan biri bu iqtisodiyotdir, chunki bunday birlashmalarning asosiy motivi iqtisodiy manfaatlardir.

Tor ma’noda olganda integratsiya – bu o‘zaro munosabatlarni faollashtirish va umumiy xususiyatlarga asoslangan davlatlarning manfaatlar asosida ixtiyoriy yaqinlashishi jarayonidir (siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqalar).

Xalqaro iqtisodiy integratsiya baynalmilallashuvning eng yuqori darajasi bo‘lib, bunda chuqur barqaror munosabatlar va mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlarning birlashuvi sodir bo‘ladi hamda yagona pul, moliya, huquqiy tizim va davlatlarning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishning umumiy makoni vujudga keladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "integratsiya" tushunchasiga turli ta’riflarni keltirilishini, birinchidan, maqsadlari va funksiyalari bo‘yicha farq qiladigan integratsiya jarayonlarining ko‘plab modellari, turlarining mavjudligi bilan izohlash mumkin, ikkinchidan, alohida davlatlar yoki davlatlar guruhlari tomonidan olib boriladigan milliy manfaatlardagi farqlarni ko‘rsatish mumkin. Shunga qaramasdan mintaqaviy yoki xalqaro integratsiyaning iqtisodiy, siyosiy maqsadlari, tamoyillari, roli va ahamiyatini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- iqtisodiy makonni kengaytirish va xo‘jalik hayoti baynalmilallashuvini o‘stirish;

- kapitalni xalqarolashtirish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish samarali bo‘lishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish;
- ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan sherik mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda iqtisodiy tizimlarni tarkibiy qayta qurish;
- ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishning "ko‘lam ta’siri"ni oshirish;
- qiyosiy ustunliklar asosida mintaqaviy va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish;
- turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarini to‘liq yoki qisman birlashtirish;
- ilmiy-texnik va ishlab chiqarish sohalarida hamkorlik bazasini shakllantirish va takomillashtirish;
- milliy iqtisodiyotlarning ochiqliligi darajasini oshirish va savdoni erkinlashtirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va oqibatda tovar va xizmatlar narxini pasaytirish orqali a’zo mamlakatlarda iqtisodiy farovonlikni o‘stirish;
- tovarlar, xizmatlar, resurslar, kapital, ishchi kuchi harakatidagi to‘siqlarni bartaraf etish;
- turli mamlakatlar o‘rtasida umumiy bozorlarni shakllantirish;
- transport, logistika yo‘nalishlarida qulay muhitni yaratish orqali tovar va xizmatlar harakatini tezlashtirish;
- iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish;
- mamlakatlar o‘rtasida siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa iqtisodiy bo‘lmagan sohalarda o‘zaro tushunish hamda hamkorlikni mustahkamlash;
- mamlakatlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini barcha yo‘nalishlarda mustahkamlash. Qarama-qarshiliklarni bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik. Qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish va saqlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi muammolarni hal qilish va uchinchi mamlakatlarga nisbatan tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun ishtirokchi mamlakatlarning sa’y-harakatlarini birlashtirish.

Mamlakatlar bir-biri bilan integratsiyalashuvi uchun bir qator shartlar bo‘lishligi taqozo etiladi. Mamlakatlar o‘rtasida integratsion birlashmalarni tuzish va samarali faoliyat yuritishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy rivojlanish sharoitlarining yaqinligi va bozor munosabatlari yetukligining darajasi bo‘yicha o‘xshashlik;
- umumiy chegaraning mavjudligi yoki hech bo‘lmaganda geografik yaqinlik;
- iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi;
- mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalarning mavjudligi;
- ishtirokchi mamlakatlarning siyosiy irodasi;
- boshqa integratsiya birlashmalari uchun "ustunlikni namoyish qilish effekti"; Integratsiya bloklarining muvaffaqiyati ta’siri ostida boshqa davlatlar ushbu tashkilotga qo‘shilish istagiga ega bo‘ladilar. Yevropa Ittifoqining namoyish effekti 13 ta Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lish uchun ariza berishga undagan. Bundan tashqari, dunyoning turli burchaklarida integratsion guruhlar ham bevosita Yevropa Ittifoqining namoyish effekti ostida tashkil topgan;
- "Domino effekti". Integratsiya a’zo mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarini mintaqalararo hamkorlikka yo‘naltirishga olib kelganligi sababli, birlashmadan tashqarida qolgan davlatlar guruhga kiruvchi mamlakatlar bilan savdo qilishda ba’zi qiyinchiliklarga duch keladilar. Natijada, ular ham integratsiyaga qo‘shilishga majbur bo‘ladilar.

Iqtisodiy hayotni baynalmilallashtirishning navbatdagi bosqichi jahon iqtisodiyotining globallashuvi bo‘lib, uning asosini iqtisodiy integratsiya tashkil etadi va keyingi rivojlanish ko‘pchilik transmilliy kompaniyalar uchun yagona bozorni shakllantirish yo‘nalishi hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarning globallashuvi xalqaro munosabatlar

sohasidagi ijtimoiy hayotning turli sohalari, shu jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, turizm va boshqalarning o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘zaro ta’sirining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda hech bir mamlakat xalqaro me’yorlar va iqtisodiy faoliyatning asosiy ishtirokchilarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olmagan holda iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantira olmaydi va amalga oshirolmaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayoni o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va farqlar mavjud. Rus olimi Yu.V. Shishkovning ta’kidlashicha: “Agar globallashuv baynalmilallashtirishning yangi sifati, uning kengligi bo‘yicha maksimal rivojlanishi bosqichi bo‘lsa, integratsiya uning chuqur rivojlanishini eng yuqori bosqichidir[8].

Iqtisodiyotning globallashuvi jahon taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Bu iqtisodiy makonning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda tarmoq tuzilishi, axborot va texnologiyalar almashinuvi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarqalish geografiyasi jahon konyunkturasini hisobga olgan holda aniqlanadi hamda iqtisodiy o‘sish va pasayishlar umuman olganda, sayyoraviy tusga ega bo‘ladi.

Ushbu jarayonda ishtirok etuvchi barcha mamlakatlarning tashqi omillari (iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy) ta’siri ostida yuzaga keladi. Globalizatsiya milliy to‘siqlarsiz yagona jahon bozorini (bozorlarini) shakllantirish va barcha uchun umumiy huquqni yaratishni ko‘zda tutadi.

Globallashuvning asosiy oqibatlari xalqaro mehnat taqsimoti, migratsiya (kontsentratsiya), global miqyosda kapital, inson va ishlab chiqarish resurslarining harakati, qonunchilikni standartlashtirish, iqtisodiy va texnologik jarayonlar, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatlarining yaqinlashishi va uyg‘unlashuvidir. Bu tizimli xususiyatga ega bo‘lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obyektiv jarayondir. Globallashuv natijasida dunyodagi barcha subyektlar bir-biri bilan bog‘lanib, bir-biriga tobe bo‘ladi.

[8] Шишков Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XX1 века. Почему не интегрируются страны СНГ.- М.: НПШ “Тысячелетие, 2001 -стр.17

Globallashuv jahon iqtisodiyotining tuzilishi va faoliyatidagi miqdoriy, lekin asosan sifat o‘zgarishlarini ifodalaydi. Globalizatsiya va integratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikdan tashqari, mintaqaviylik o‘rtasida ham bog‘lanish mavjud. O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab mintaqaviy integratsiyadan xalqaro iqtisodiy integratsiyaga aylangan tashkilotlarda mintaqaviylikning rivojlanishida yangi tendensiyalar kuzatildi va yangi mintaqaviylik nomini oldi.

"Yangi mintaqaviylik" mintaqaviylikning ikkinchi to‘lqinini ifodalaydi. "Yangi mintaqaviylik" bu ko‘p qutbli dunyo tartibining ifodasi, butun dunyo bo‘ylab tarqalgan integratsiya hodisasi, uning mazmuni iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik, ijobiy integratsiyaning katta vaznga ega bo‘lishi, ya’ni siyosiy ishtirok etish, shuningdek, yuqori darajada mintaqaviylashtirish, ya’ni madaniy va kommunikativ bir xillik, bular esa pirovard natijada mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirishga olib keladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi jarayonida dunyoning turli burchaklarida tashkil topgan integratsion guruhlarning maqsadlari umumiyatla bir xil bo‘lsa-da turli tabiiy, obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra tegishlicha integratsiyaning turli shakllari yoki modellari vujudga keldi.

Integratsiya modelini ma’lum bir mintaqadagi integratsiya jarayonlarining namunasi sifatida tushunish mumkinligi sababli, mavjud modellarni asosan mintaqaga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Shimoliy Amerika integratsiyasi modeli;
2) Umumyevropa integratsiyasida ishtirok etish modeli;
3) Mintaqaviy integratsiyaning Osiyo modeli;
4) Sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiyasi formati;
5) Lotin Amerikasini mintaqalashtirish modeli;
6) Yevroosiyo integratsiyasi modeli;
7) Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xalqaro munosabatlarni rivojlantirish modeli;
8) Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning transkontinental hamkorlik modeli;
9) Arab dunyosining integratsiya modellari;

10) Turkiy integratsiyaning rivojlanish modeli;
11) Afrika qit’asining integratsiya modeli[9].

1.2. Integratsiyaning nazariy asoslari

Ta’kidlash joizki, integratsiyaning asosiy nazariyalari bevosita G‘arbiy Yevropa integratsiyasi doirasida shakllantirilgan.

XX asrning o‘rtalarida integratsiya jarayonining ilmiy tushunchalari institutsional tizim, madaniy ramzlar va iqtisodiy kompleksning birligiga asoslangan bir xil makon yaratish g‘oyasi atrofida qurilgan.

Integratsiyani o‘rganishda tushunchalar, nazariyalar va yondashuvlarning umumiyligini tizimlashtirishda tadqiqotchilar odatda zamonaviy iqtisodiy va siyosatshunoslik ta’limotlarini tasniflash metodologiyasiga tayanadilar. Hozirgi vaqtda integratsiya tushunchalari va nazariyalarini tasniflashda iqtisodiy adabiyotlarda quyidagi maktablar ajralib turadi: federalizm, funksionalizm, bozor-institutsional (neoliberal), tarkibiy, dirijizm (neokeynsianizm), neofunksionalizm, kommunikatsiya va boshqalar.

Yevropa integratsiyasining asosiy nazariyalaridan biri ***federalizm*** nazariyasi hisoblanadi. XX asrning 30-yillarida Panyevropa loyihasi tug‘ildi, uning asosiy maqsadi "Yevropa xalqlari Federatsiyasi" ni yaratish va bir vaqtning o‘zida birinchi jahon urushi tugashi sharoitida Fransiyaning mintaqadagi mavqeini mustahkamlash edi. Yevropada federalizm rivojlanishining navbatdagi bosqichi ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin Yevropa mintaqasida yangi davlatlararo mojarolar paydo bo‘lishining oldini olish zarurligini hisobga olgan holda davom ettirildi. "Federalizm" atamasi (lotincha foedus) teng huquqli sheriklar o‘rtasida tuzilgan bitim, tenglik asosida tuzilgan shartnomani anglatadi. Yevropa integratsiyasi jarayonlari sharoitida federalizm faqat odamlar va hukumatlar o‘z siyosiy suverenitetidan ixtiyoriy ravishda voz kechganda va hamjamiyatga a’zo davlatlarga tegishli qarorlar qabul qilish uchun

[9] Либман А. М. Модели экономической интеграции: мировой и постсоветский опыт. -М., 2009. 412 с.

vakolatlar beriladigan milliy organlar tizimini yaratishda sodir bo‘ladi. Yevropa integratsiyasining federalistik nazariyasi uning asosi sifatida umumiy tashqi xavfsizlik va mudofaa siyosatini shakllantirishni nazarda tutadi, ammo Birlashgan Yevropaning yagona mudofaa infratuzilmasini yaratish bo‘yicha birinchi g‘oyasi amalga oshirilmadi. G‘arbiy Germaniya, Fransiya, Italiya va Beniluks mamlakatlarini (Belgiya, Luksemburg, Niderlandiya) o‘z ichiga olgan va 1952-yil 27-mayda Parijda imzolangan Yevropa Mudofaa Hamjamiyatini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma Fransiya parlamentining uni ratifikatsiya qilishdan bosh tortgani uchun kuchga kirmadi.

Funksionalistlar va federalistlar iqtisodiy va siyosiy sohalar o‘rtasidagi munosabatlar muammolariga, ya’ni integratsiyaning siyosiy va institutsional jihatlariga e’tibor qaratganlar.

Funksionalizmning asoschisi Devid Mitrani (1888-1975) bo‘lib, olim xalqaro hamjamiyatning ideal shaklini izlamaslik, balki u bajarishi kerak bo‘lgan funksiyalarni ochib berish kerak deb hisoblagan. ***Funksionalizmga*** ko‘ra, suverenitet faqat funksiya orqali o‘tkazilishi mumkin. Mitrani o‘zining 1943-yilda yozgan “Working peace system” asarida davlat emas, balki funksiya jahon hamjamiyatida birlashtiruvchi tamoyil bo‘lishi kerakligi g‘oyasini ilgari surgan. Mitrani federalizmni harakatlarning mexanik tarqalishi deb hisoblagan, u davlatlar umumiy muammolar (qashshoqlik, muammoni hal qilishda davlatlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik) asosida birlashishi kerakligini ta’kidlagan. Funksionalizm harakatlarning uzluksizligiga asoslanadi, ya’ni bunda bosqichma-bosqich o‘zaro bog‘liqlik tizimi yaratilib muammolar birgalikda hal qilinadi. Funksionalizmning asosiy tamoyili oqilona tartibga solish orqali davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni minimallashtiradigan funksional sohalarni aniq ajratib olishdir. Funksional hamkorlik siyosiy emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy rejalar hamda vazifalarni tuzishdan boshlanadi, masalan, umumiy resurslarni boshqarish, ishsizlikka qarshi kurash va sog‘liqni saqlash kabi. Funksionalizmda ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o‘rtasida o‘zlarini qiziqtirgan masalalarni hal qilish uchun xalqaro tashkilotlar tashkil etish asosiy qadam sifatida qaraladi.

Neofunksionalizm doirasida integratsiya mantig‘i birinchi bo‘lib, Ernest Xaas (1924-2003) tomonidan ishlab chiqilgan va tahlil qilingan.

Funksionalizmning rivojlanish bosqichi sifatida neofunksionalizm maktabi institutsionalizm nazariyasini rivojlantirdi va Yevropa integratsiyasining siyosiy iqtisodiyotini asosi bo‘ldi. D. Mitrani va E. Xaas g‘oyalari Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini qurishda amaliy ifodasini topdi. Funksionalizmdan farqli o‘laroq neofunksionalizmda integratsiya jarayonida siyosiy omil zarurligi tan olindi. E. Xaas siyosatni "quyi"va "yuqori" ga ajratdi. "Quyi" siyosat farovonlik va iqtisodiy o‘sishni yaxshilash bilan bog‘liq sof pragmatik maqsadlarni o‘z ichiga oladi. "Yuqori" siyosat esa tashqi siyosat strategiyasini, milliy manfaatlarni himoya qilishni va davlatning xalqaro obro‘sini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Shunday qilib, integratsiya jarayonining "quyi subyektlari" manfaatlar guruhlar va siyosiy partiyalar, "yuqori" esa millatlararo organlar hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari iqtisodiy integratsiya nazariyasida integratsiya mexanizmini har xil baholash orqali farq qiluvchi bir qator yo‘nalishlar mavjud. Bular neoliberalizm, korporatsionalizm, strukturalizm, neokeynschilik, dirijizm yo‘nalishlaridir. Ilk neoliberalizm vakillari (1950-1960) shveysariyalik iqtisodchi V. Repke va fransiyalik M. Alle to‘liq integratsiya deyilganda davlatlarning iqtisodiy siyosati va mavjud milliy hamda xalqaro huquqiy hujjatlardan qat’i nazar, bir necha mamlakatlar miqyosida stixiyali bozor kuchlari va erkin raqobat ta’siri asosida amalga oshiriladigan yagona bozor makonini barpo etishni tushunganlar. Ularning fikricha, davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga aralashuvi inflatsiya, xalqaro savdoning nomutanosibligi kabi salbiy hodisalarga olib keladi. Biroq, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi, davlatlarning faol ishtirokida mintaqaviy davlatlararo ittifoqlarning shakllanishi dastlabki neoliberallar qarashlarining nomuvofiqligini ko‘rsatdi.

Keyingi bosqich neoliberalizm tarafdorlari qatorida bo‘lgan Vengriyada tug‘ilgan amerikalik iqtisodchi ***B. Balassa*** birinchi bo‘lib integratsiyaga ikki tomondan, ya’ni jarayon va holat tomonidan qarab

baho berdi. Integratsiyani oddiydan murakkab shakllargacha rivojlanayotgan jarayon sifatida ko‘rish integratsiya jarayonining bosqichlarini tizimlashtirish imkoniyatini berdi. B. Balassa integratsiya muammosini biroz boshqacha yo‘nalishda ko‘rib chiqdi, ya’ni u iqtisodiy integratsiya davlatning iqtisodiy ishlarda yanada faol ishtirok etishiga olib kelishi darajasiga e’tibor qaratdi. Bunda ham iqtisodiy va ham siyosiy jarayonlar asosida sodir bo‘layotgan integratsiya evolutsiyasiga katta e’tibor berildi.

O‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida korporatsionalizm yo‘nalishi vujudga keldi, ularning vakillari amerikalik iqtisodchilar S. Rolf va Uolt Rostou fikrlaricha, integratsiya jarayoni xalqaro korporatsiyalar tomonidan tezlashtirilishi mumkin, ularning faoliyati jahon iqtisodiy munosabatlarining oqilona va muvozanatli rivojlanishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Ular transmilliy korporatsiyalar (TMK) bozorlarni birlashtirish, iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishdan manfaatdor va shuning uchun ular ko‘pincha integratsiyani shakllantirishda davlat institutlariga ta’sir ko‘rsatadi deb ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, boshqa mamlakatlarda ko‘plab korxonalar, filiallar, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ega bo‘lgan TMKlar investitsiya jarayonlarini faollashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta tuzish, ishlab chiqarishni yangilash, tovar mahsulotlari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, iste’mol bozorini to‘ldirish va eksport hajmini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan boshlang‘ich nuqta bo‘lgan. Shuningdek, mahsulot sifati, xizmat ko‘rsatish tizimlari va zaruriy qulay muhitni tashkil etish bo‘yicha xalqaro standartlarni ilgari surish va joriy etish TMKlarning yana bir muhim rolidir. Ularning faoliyati milliy iqtisodiyotning jahon narxlariga, jahon moliyaviy vositalariga va boshqaruv tizimiga oson o‘tishiga yordam beradi, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni tezlashtiradi, xalqaro ilmiy, ishlab chiqarish va moliyaviy tuzilmalarga qo‘shilishni ta’minlaydi.

Strukturalizm vakillari-shved iqtisodchisi G. Myurdal, P. Striten, F. Perru integratsiyalanadigan makonda tovarlar, kapital va ishchi kuchi harakatini to‘liq liberallashtirish g‘oyasini tanqid qilib, bozor mexanizmining erkin amal qilishi ishlab chiqarishni rivojlantirish va

joylashtirishda nomutanosibliklarga olib keladi, daromadlar tengsizligini chuqurlashtiradi deb ishonganlar. Iqtisodiy integratsiya ular tomonidan integratsiyalashgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarning chuqur jarayoni sifatida ko‘rib chiqildi, buning natijasida sifat jihatidan yangi integratsiyalashgan makon, yanada mukammal iqtisodiy organizm vujudga keladi. Ularning fikricha, integratsiyani rivojlantirish qutblari bo‘lib yirik firmalar, sanoat kompaniyalari, butun sanoat sohasi hisoblanadi.

O‘tgan asrning 70-yillarida neokeynschilik g‘oyalari keng tarqaldi va ushbu yo‘nalish vakillari amerikalik iqtisodchi R. Kuper va boshqalar xalqaro iqtisodiy hamkorlikning markaziy masalasini, ya’ni xalqaro iqtisodiy hamkorlikning turli xil afzalliklaridan foydalanish barobarida har bir mamlakat uchun maksimal erkinlik darajasini saqlab qolishni ko‘targanlar. Neokeynschilar xalqaro integratsiyani rivojlantirishning ikkita mumkin bo‘lgan variantini ilgari surdilar: birinchisi, iqtisodiy maqsadlar va siyosatni majburiy muvofiqlashtirish orqali keyinchalik milliy erkinlikni yo‘qotish bilan integratsiya; ikkinchisi iloji boricha ko‘proq milliy avtonomiyani saqlab qolish sharti bilan integratsiya. Ushbu variantlarning hech biri sof shaklda taqdim etilmasligini taxmin qilib, ular integratsiyalashgan tomonlarning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirish orqali ularni maqbul tarzda birlashtirish zarur deb hisoblaydilar.

Neokeynscha tendensiyaning bir turi ***dirijizm*** bo‘lib, uning nazariyotchilari integratsiya jarayonlarida bozor mexanizmining hal qiluvchi rolini inkor etadilar va xalqaro iqtisodiy tuzilmalarni yaratish va faoliyat ko‘rsatishi integratsiyalashgan tomonlar tomonidan umumiy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, ijtimoiy qonunchilikni kelishish, kredit siyosatini muvofiqlashtirish deb hisoblaydilar. Ushbu yo‘nalish gollandiyalik olim Yan Tinbergen tomonidan taqdim etilgan. Uning fikricha, garmonik turdagi integratsion hamkorlikda a’zo davlatlar tomonidan suveren vakolatlarining ma’lum bir qismini umummanfaatlar uchun maxsus tashkil etilgan xalqaro tuzilmalarga topshirish masalasida ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ya. Tinbergen integratsiya

jarayonlarida ishtirok etayotgan mamlakatlarni jahon hukmronligini orzu qilgan biron bir super davlatning xohishiga koʻra emas, balki oʻzaro kelishuv asosida oʻz suveren huquqlarini ixtiyoriy ravishda kamaytirishga chaqirgan.

Integratsiya nazariyalarini oʻrganishda yuqoridagilardan tashqari bevosita integratsiya tushunchasiga turli iqtisodiy maktab vakillarining bergan ta'riflari ham muhimdir. Integratsiya jarayonlari oqibatida dunyo ancha xilma-xil va ayni paytda yanada mustahkamroq boʻldi. Jamoaviy qarorlar va global tashabbuslarning yangi sifati paydo boʻlmoqda, bu global integratsiyaning atributidir. Uning hamma narsani qamrab oluvchi tabiati koʻplab nazariyalar va tushunchalarning postulatlari bilan tasdiqlangan. Shunday qilib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan jahon integratsiyasi jarayonining genezisi va rivojlanishining qonuniyatlari oʻrganildi. Quyida integratsiyaga berilgan ta'riflarni koʻrib chiqamiz:

(1) U. Rostouning bosqichlar nazariyasi – jahon integratsiyasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya rivojlanishining qonuniyati sifatida tushuniladi;

(2) G. Morgentau va R. Ostuda tomonidan siyosiy realizm tushunchasi, D. Bobrouning "modernist" nazariyasi, K. Doychaning kommunikativ nazariyasi – integratsiya – bu umumiy tarixiy jarayonning universal xarakteridir;

(3) M. Kaplan va Ch. Rouzkranslarning tizimlar nazariyasi – integratsiya koʻp mezonli kategoriya boʻlib, koʻp qadamlar va lahzalarni oʻz ichiga olgan organik tizim sifatida tushuniladi;

(4) J. Gelbreyt, D. Bella, va Z. Bjezinski tomonidan industrial va postindustrial jamiyat nazariyalari–Umumiy integratsiya – bu ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari natijasida yuzaga kelgan oʻzgarishlar asosida iqtisodiy rivojlanishning natijasidir;

(5) G. Kanna – integratsiyaning futurologik nazariyasi iqtisodiy tizimlarning rivojlanishiga olib keladigan progressiv jarayondir;

(6) P. Sorokin va K. Klensning konvergensiya nazariyalari-integratsiya ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi farqlarni yumshatish tufayli

rivojlanishning obyektiv namunasidir; global integratsiya jarayonining natijasi "global sintez" tizimlaridir; jahon tartibini tashkil etish va milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o‘zgartirish jarayonining "integral" modelini amalga oshirish jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega.

1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va darajasi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish yo‘lidagi eng yuqori nuqtadir. XII natijasida ushbu integratsiyalashgan mintaqaga xos bo‘lgan yaxlit iqtisodiy majmualar shakllanib, uning doirasida yagona valuta, yagona davlatlararo va millatlararo boshqaruv organlari joriy etiladi, umumiy infratuzilma yaratiladi va qo‘shma moliyaviy jamg‘armalar shakllantiriladi. To‘liq integratsiya jarayoni sodir bo‘lishidan oldin manfaatdor davlatlar bir qator bosqichlardan o‘tishlari lozim bo‘ladi.

Har bir integratsion guruhning iqtisodiy modeli uzoq tarixiy jarayonning natijasidir, ushbu jarayonda mintaqaviy iqtisodiy majmuani tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro bog‘liqligi quriladi va bu yerda ularning o‘zaro ta’siri mexanizmi mustahkamlanadi. Shuning uchun har bir mintaqaviy iqtisodiy tizim o‘ziga xosdir va uning tajribasini mexanik ravishda olish samarasiz yo‘ldir. Shu bilan birgalikda, mavjud savdo-iqtisodiy guruhlarning qiyosiy tahlili dalolat beradiki, mintaqaviy integratsiya rivojlanishining ma’lum umumiy qonuniyatlari, bir qator maxsus bosqichlardan ketma-ket o‘tishi va unda har bir bosqichning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari, integratsiya intensivligining turli darajalari, chuqurligi va ko‘lami mavjudligini ko‘rsatadi. Integratsiyani oddiydan murakkab shakllargacha rivojlanayotgan jarayon sifatida ko‘-rish integratsiya jarayonining bosqichlarini tasniflash imkonini beradi[10].

Ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan integratsiya bosqichlarining klassik tasnifi tadqiqotchi B.Balassa nomi bilan bog‘liq. U o‘zining

[10] Мисько О.Н. Международная экономическая интеграция. – СПб: Университет ИТМО, 2015. – стр. 26

"Iqtisodiy integratsiya nazariyasi" (1961) asarida integratsiyaning oltita shaklini ko‘rsatadi:

(1) Imtiyozli savdo bitimi.
(2) Erkin savdo hududi.
(3) Bojxona ittifoqi.
(4) Umumiy bozor.
(5) Iqtisodiy va valuta ittifoqi.
(6) To‘liq iqtisodiy integratsiya[11].



1-rasm. Iqtisodiy integratsiya bosqichlari.

Tipologiya turli davlatlarga tegishli bo‘lgan kompaniyalarni kamsitishni (diskriminatsiya) bekor qilish mezonlari va ishlab chiqarish omillari harakatini liberallashtirish darajasi asosida amalga oshirilgan. Har bir keyingi bosqich avvalgisidan ishlab chiqarish omillari harakatini liberallashtirishning yuqori darajasi bilan farq qiladi. Eng yuqori bosqichda iqtisodiy, ijtimoiy va pul-kredit siyosatini uyg‘unlashtirish va birlashtirish amalga oshiriladi.

Imtiyozli savdo bitimi (A Preferential Trade Agreement) – bu ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o‘rtasida bir-biriga ma’lum imtiyozlar, soliq imtiyozlari, bojxona to‘lovlari, to‘lovlardan ozod qilish va ushbu

[11] Balassa B. The Theory of Economic Integration. - NYC: Routledge; 1 edition, 2011. p.173

shartnomada ishtirok etmaydigan uchinchi mamlakatlarga qulay kreditlar berish shaklida imtiyozlar berish to‘g‘risidagi bitim hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu imtiyozlarning barchasi tariflarni butunlay bekor qilish bilan emas, balki kamaytirish orqali beriladi. Aynan ushbu bitim ko‘pincha iqtisodiy integratsiyaga tayyorgarlik ko‘rishda birinchi qadam hisoblanadi va shartnomada ishtirok etuvchi mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun o‘zaro yoki bir tomonlama imtiyozlar beradi. Imtiyozli shartnomalarni boshqarish uchun davlatlararo organlar tuzilmaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning eng birinchi va eng oddiy shakli erkin savdo hududi (Free Trade Area/Agreement) bo‘lib, uning doirasida o‘zaro hamkorlik qiluvchi mamlakatlar o‘rtasida savdo cheklovlari olib tashlanadi va bojsiz erkin savdo joriy etiladi. Shu bilan birga, ishtirokchi davlatlarning har biri ushbu zonaga kirmagan uchinchi davlatlarga nisbatan belgilangan bojxona siyosatini saqlab qoladi. Erkin savdo hududini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlar birinchi navbatda, bojxona to‘lovlariga o‘zaro moratoriy asosida (Standstill) amalga oshiriladi, bu aslida mamlakatlar ularni bir tomonlama ravishda oshira olmasligini yoki o‘zaro savdo uchun boshqa yangi to‘siqlarni joriy eta olmasligini ko‘rsatadi. Erkin savdo zonasining maqsadi ixtisoslashuv, mehnat taqsimoti va eng muhimi, qiyosiy ustunliklar natijasida savdo o‘sishi uchun almashinuvdagi to‘siqlarni kamaytirishdir.

Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (European Free Trade Association, EFTA) (YEESA) erkin savdo hududining klassik namunasi hisoblanadi. YEESA 1960-yil 3-mayda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga (hozirgi Yevropa Ittifoqi) qo‘shilishni istamagan davlatlar tomonidan Yevropa davlatlariga alternativa sifatida tashkil etilgan va ular o‘sha paytda Yevropa umumiy bozorini yaratish rejalarini juda ambitsiyali deb hisoblaganlar. Dastlab Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Avstriya, Shveysariya va Portugaliya davlatlari ushbu integratsiya guruhiga kirganlar, Finlandiya bir yildan keyin qo‘shilgan. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga Islandiya, Norvegiya, Shveysariya va Lixtenshteyn kiradi. Stokgolm Konvensiyasi qoidalariga ko‘ra, YEESAning bojxona

siyosati faqat sanoat tovarlariga nisbatan shakllangan. YEESA mamlakatlari uchinchi mamlakatlarga nisbatan milliy bojxona siyosatini olib boradilar va YEESA hududida uchinchi mamlakatlardan olib kiriladigan mahsulotlarga yagona tarif cheklovi mavjud emas, bu ularga o‘zlarining savdo-iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Iqtisodiy integratsiyaning keyingi bosqichi ***bojxona ittifoqi (Custom Union)*** hisoblanadi. Bojxona ittifoqi integratsiyalashgan mamlakatlar o‘rtasida bojsiz savdoni joriy etishdan tashqari, yagona tashqi savdo siyosatini shakllantirish va uchinchi mamlakatlarga qarshi jamoaviy proteksionizm shaklida namoyon bo‘ladigan umumiy tashqi savdo tarifini joriy etishni ta’minlaydi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan sifat jihatidan farqi shundaki, ittifoq doirasida sherik mamlakatlarning milliy ishlab chiqaruvchilari tashqi chegaralarni umumiy bojxona to‘sig‘i bilan to‘sib, kuchli himoyaga ega bo‘ldilar. Bu bosqichda ishtirokchi davlatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi. Erkin savdo hududi doirasida esa uchinchi davlatlar tashqi bojxona darajasidagi farqlardan foydalangan holda bozorlarni egallab olishlari mumkin bo‘ladi. Biroq ikkala holatda ham davlatlarning siyosati faqat ayirboshlash sohasi bilan cheklanadi va davlatlararo munosabatlar darajasida o‘zaro savdo va moliyaviy hisob-kitoblarni rivojlantirish uchun bir xil sharoitlar mavjud bo‘ladi.

Bojxona ittifoqining maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirish va a’zo davlatlar o‘rtasida yaqin siyosiy va madaniy aloqalarni o‘rnatishdir. Bojxona ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomada quyidagilar qayd etiladi:

- tovarlarning o‘zaro savdosida bojxona tartib-taomillarini bekor qilish;
- ichki bojxona chegaralarini bosqichma-bosqich olib tashlash;
- bojxona nazoratini ittifoqning tashqi perimetriga o‘tkazish;
- uchinchi davlatlar bilan tarif va tarifsiz tartibga solishning yagona tizimini joriy etish;
- umumiy imtiyozlar tizimini yaratish.

Umumiy bozor (Common market) – xalqaro integratsiyaning ushbu bosqichida ishtirokchi davlatlar ishlab chiqarishning barcha omillari:

tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi to‘g‘risida kelishib oladilar. Umumiy bozor doirasida davlatlar milliy suverenitetining bir qism funksiyasi millatlararo institutlar zimmasiga o‘tkaziladi. Ular ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtiradi, shuningdek, umumiy bozor doirasidagi faoliyatni tartibga soladi. Umumiy bozorni shakllantirish bojxona ittifoqi doirasida hal qilib bo‘lmaydigan vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Yagona bozorni shakllantirish uchun bir qator asosiy vazifalarni bajarish zarur hisoblanadi, qaysiki bularni bojxona ittifoqi doirasida hal etib bo‘lmaydi. Bojxona ittifoqi a’zo davlatlar o‘rtasida bojxona to‘lovlarini soddalashtirish va uchinchi davlatlar uchun umumiy savdo siyosatini yaratish orqali yagona bozorga o‘tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Ammo bunday sharoitlar yagona bozorni yaratish uchun yetarli hisoblanmaydi. Iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma siyosatni ishlab chiqish; nafaqat savdo, balki ishlab chiqarishning barcha omillari (kapital, mehnat, texnologiya, axborot) davlatlararo harakati uchun to‘siqlarni mutlaq bartaraf etish, ijtimoiy va mintaqaviy rivojlanishda ishtirok etish uchun jamg‘armalarni yaratish kabilar umumiy bozorni yaratish uchun qilinishi zarur bo‘ladigan vazifalar hisoblanadi.

Umumiy bozordan maqsad–ishtirokchi davlatlar o‘rtasida kapital, ishchi kuchi, tovarlar va xizmatlar harakatini ular ichida bo‘lgani kabi osonlashtirishdir. A’zo davlatlar o‘rtasidagi jismoniy (chegaralar), texnik (standartlar) va soliq (soliqlar) to‘siqlari imkon qadar maksimal darajada yo‘q qilinishidir.

Ushbu turdagi integratsiya iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirishning tashkiliy jihatdan yuqori darajasini talab qiladi. Tegishli muvofiqlashtirish ishlari ishtirokchi mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarining davriy yig‘ilishlarida, iqtisodiy blok vazirliklarining doimiy yig‘ilishlarida amalga oshiriladi, shuningdek, mamlakatlardan birida doimiy davlatlararo kotibiyat mavjud bo‘ladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yuqori sifatli shakli bu iqtisodiy va valuta ittifoqidir (An economic and monetary union

(EMU). ***Iqtisodiy va valuta ittifoqi*** doirasida ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy hamkorligi nafaqat tovarlarning erkin harakati bilan cheklanib qolmasdan, balki taqdim etilayotgan xizmatlarning erkin harakati, kapital harakati va mehnat resurslari almashinuvini ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy ittifoq hududida iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning barcha spektrlarini uyg‘unlashtirgan va sherik mamlakatlarning milliy qonunchiligini birlashtirgan milliy boshqaruv va iqtisodiy faoliyatni boshqarish organlari faoliyat ko‘rsatadi. Valuta ittifoqida umumiy valuta kursi, umumiy pul-kredit siyosati, shu jumladan, foiz stavkalari va pul miqdorini tartibga solish uchun yagona Markaziy bank faoliyat ko‘rsatadi. Valuta ittifoqi iqtisodiy integratsiya jarayonlarining muhim elementi hisoblanadi, chunki bojxona ittifoqi, umumiy bozor yoki iqtisodiy ittifoqning samarali ishlashi valuta sohasida chuqur integratsiyasiz samarali bo‘lmaydi.

Yuqoridagi barcha bosqichlar natijasida integratsiya qurilishining yakuniy bosqichi boshlanadi va mantiqan iqtisodiy hamda valuta ittifoqidan kelib chiqqan holda to‘liq integratsiya yoki siyosiy ittifoq tuziladi. Ishtirokchi davlatlar yagona tashqi siyosatga, shu jumladan, milliy xavfsizlik siyosatiga o‘tadilar; ushbu bosqichda hududiy joylashuvidan qat’i nazar, milliy va millatlararo organlarda yagona fuqarolik joriy etiladi va saylov tartib-qoidalarining huquqiy fuqarolik bazasi shakllantiriladi. Adliya va ichki ishlar sohasidagi hamkorlik amalga oshiriladi, madaniy-ma’rifiy va fuqarolik-huquqiy institutlarning faoliyati ham sezilarli darajada kengayadi.

Iqtisodiy integratsiya odatda izchil jarayon bo‘lib, integratsiyalashadigan bozorlarning potensialini to‘liq amalga oshirish uchun, ya’ni moslashish, iqtisodiy diversifikatsiya va barcha imtiyozlar va cheklovlarni olib tashlash maqsadida o‘tish davri talab etiladi va bu integratsiya jarayonlarini tezlashtirishning muhim shartlaridan biridir. Shuning uchun amaliyotda darajali va turli tezlikdagi integratsiya farqlanadi. Bunga turli xil iqtisodiy, texnologik va siyosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda muayyan davlat rahbarlarining ushbu jarayonga faol kirishmasligi ortidan integratsiya jarayonlari sekinlashishi mumkin.

Turli darajada integratsiya qilish imkoniyati integratsion birlashmalarning muhim xususiyati bo‘lib, bunda ishtirokchilar integratsiyaga kirishish darajasini mustaqil o‘zlariga muayyan sharoitda maqbul bo‘lgan holdan kelib chiqib tanlashlari mumkin. Integratsiyaning tezligini Yevropa Ittifoqi misolida ko‘radigan bo‘lsak, umumiy yagona bozor yaratish uchun rasman 36 yil vaqt ketgan.

Integratsion uyushmalarni yoki tashkilotlarni tuzishda va ularning butun faoliyati davomida ishtirokchilar institutsional muhitni yuzaga keltiradilar. Bu institutsional muhit tashkilotning kelishilgan shartnoma va qonunchilik bazasi doirasida qaror qabul qilish mexanizmlari, nizolarni hal qilish mexanizmlari asosida "o‘yin qoidalarini" belgilab beradi.

Integratsion o‘zaro hamkorlikning tanlangan shakliga qarab institutsional mexanizmlarning shakllanishi belgilanadi. Integratsion hamkorlik oddiy shakllarda olib borilganda doimiy tartibga soluvchi yoki yuqori darajadagi boshqaruv organlari odatda tuzilmaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyada davlatlarning umumiy hududiy chegaralarining mavjudligiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Hududiy chegaralar omili tashqi sharoitlarga taalluqli bo‘lishiga qaramasdan, eng samarali integratsiya bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq kabi ilg‘or shakllar faqat umumiy hududiy chegaralar mavjud bo‘lgandagina shakllanishi mumkin deb hisoblanadi. Garchi bu omil hal qiluvchi bo‘lmasada, muhimdir. Ushbu omilga asoslanib, integratsion tashkilotlar quyidagilarga bo‘linadi:

(1) mintaqaviy (hududiy yondashuv, ya’ni umumiy chegaralarning mavjudligi);

(2) xalqaro (umumiy chegaralar mavjud emas);

(3) transkontinental (turli kontinentlarda joylashgan mamlakatlar hamkorligi).

Hozirgi kunda yuqoridagi integratsion tashkilotlar dunyoning turli mamlakatlarida aralash holda faoliyat ko‘rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy integratsion jarayonlar tabaqalashtirilgan mexanizmlar tufayli tobora shakllanmoqda va turli tezlikdagi va ko‘p

yo‘nalishli xarakterga ega. Bu geosiyosiy va geoiqtisodiy motivlar bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy maqsadi integratsiyani rivojlantirish va integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishdir.

1.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Har qanday integratsion birlashmani tuzishdan maqsad ishtirokchi mamlakatlar tomonidan o‘zaro hamkorlik asosida iqtisodiy afzalliklar va foyda olishdir. Maqsadni amalga oshirish yo‘nalishlarini aniqlash iqtisodiy hamkorlik sohalarini tanlashdan iborat bo‘lib, unda ishtirok etuvchi mamlakatlarning integratsion salohiyati va raqobatdoshlik ustunliklaridan foydalanish orqali iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Boshqacha aytganda, har qanday integratsiya birlashmasi o‘zaro hamkorlik va iqtisodiy sohalarni belgilaydigan integratsiya potensialini amalga oshirish uchun o‘z modeliga ega bo‘lishi kerak, ularning birgalikda rivojlanishi ishtirokchi mamlakatlarga afzallik va imtiyozlar beradi.

Integratsiya potensiali integratsion birlashmada ishtirok etuvchi mamlakatlarning tabiiy, ishlab chiqarish, sanoat, mehnat, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslari to‘plami bo‘lib, ulardan birgalikda o‘zaro manfaatli foydalanish integratsiyalashuv samarasini beradi. Aynan integratsiyalashuv natijasida mamlakatlar qo‘shimcha iqtisodiy foyda va afzalliklarga ega bo‘ladilar.

Raqobatbardoshlik ustunliklari – integratsiyalashgan mamlakatlarning tabiiy, xomashyo, moliyaviy resurslari, innovatsion texnologiyalari, malakali kadrlari, arzon ishchi kuchi kabi resurslari bo‘lib, bu o‘z navbatida, ularga boshqa mamlakatlarga nisbatan arzonroq va samaraliroq muayyan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Integratsiyalashgan mamlakatlarning integratsiya salohiyati va raqobatdosh ustunliklaridan samarali foydalanish uchun integratsion birlashmalar integratsion hamkorlik strategiyasini shakllantiradi.

Integratsion hamkorlik strategiyasini amalda qo‘llash uchun integratsion hamjamiyatga a’zo davlatlar iqtisodiyotning tanlangan

tarmoqlarining samarali birgalikda rivojlanishini ta’minlash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun huquqiy asos yaratadigan zarur shart-sharoitlarni shakllantirishlari kerak bo‘ladi. Integratsiya bosqichlari aslida cheklovlarni olib tashlash, integratsiya potensialini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qonunchilikni liberallashtirish va uyg‘unlashtirishga qaratilgan shartlardir.

Odatda, integratsion hamjamiyatlar integratsion hamkorlik strategiyasini quyidagi keng tarqalgan mexanizmlar orqali amalga oshiradilar:

- qo‘shma va transmilliy kompaniyalarni tuzish (birlashishtirish, qo‘shilish, alyanslar);
- integratsiyalashadigan tarmoq va sohalarda qo‘shma davlat loyihalari va davlatlararo dasturlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilishga qaratilgan hamkorlikni rivojlantirish (samarali ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish);
- integratsiyani rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega bo‘lgan sohalarda ilmiy tadqiqot ishlariga sarmoya kiritish;
- boshqa integratsiya hamjamiyatidagi sherik mamlakatlarga integratsiyalashadigan tarmoqlariga samarali texnologiyalarni o‘tkazish yoki sotish;
- integratsiyalashadigan tarmoqlar uchun xorijiy innovatsion texnologiyalarni birgalikda ishlab chiqish yoki sotib olish;
- hamkor mamlakatlardan ishlab chiqarishga ko‘proq malakali yoki arzonroq ishchi kuchini jalb qilish;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga qo‘shma sarmoyalar kiritish;
- maxsus jamg‘armalar va banklarni tashkil etish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik vositasidan foydalanish orqali integratsion samarali loyihalarni birgalikda moliyalashtirish mexanizmlarini va dasturlarini ishlab chiqish;
- mavjud resurslarni birlashtirish, masalan, integratsiya hamjamiyatining oziq-ovqat jamg‘armasini yaratish;

- ichki va tashqi savdoni kengaytirish uchun infratuzilmani birgalikda rivojlantirish;
- iqtisodiyotning integratsiyalashgan tarmoqlaridagi vaziyatni tahlil etish bo‘yicha qo‘shma veb-saytlar va axborot tizimlarini yaratish, integratsiya maqsadlariga erishishga yordam beradigan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish.

Integratsion hamkorlik strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, integratsion hamjamiyatga a’zo mamlakatlar integratsiya jarayonlariga jalb qilingan sohalardan iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita qo‘shimcha samara oladilar, a’zo davlatlarning qo‘shimcha iqtisodiy o‘sishi ta’minlanadi, shuningdek milliy strategik maqsadlarga erishish tezlashadi.

Integratsion hamkorlik strategiyasini amalga oshirilishi natijasida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning quyidagi samaradorliklariga erishiladi:

- yalpi ichki mahsulotning o‘sishi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish bozorini kengayishi, o‘zaro savdoning o‘sishi;
- raqobat muhitini rivojlanishi;
- integratsiyalashgan tarmoqlarda ishlab chiqarishning o‘sishi va ularni ishlab chiqarishdan olinadigan daromadning ko‘payishi;
- yangi ish o‘rinlarini yaratilishi va tegishlicha ishsizlikning kamayishi;
- ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlarning yaratilishi va ularning hajmini oshishi;
- jahon bozorlarida tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushadigan eksport daromadlarining oshishi va jahon savdosida integratsiyalashgan mamlakatlar ulushining o‘sishi;
- investitsiyalar oqimining ko‘payishi;
- iqtisodiy rivojlanish darajasining o‘sishi.

Tayanch iboralar: integratsiya, globalizatsiya, baynalmilallashuv, mintaqalashtirish, funksionalizm, federalizm, hukumatlararo boshqaruv, strukturalizm

Nazorat savollari

1. Jahon xo‘jaligining baynalmilallashuvi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Integratsiya kategoriyasiga batafsil xarakteristika bering.
3. "Salbiy" va "ijobiy integratsiya" nima?
4. Funksionalizm nazariyasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
5. Federalizm va hukumatlararo boshqaruvning iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi asosiy farqlarini tushuntirib bering.
6. Bela Balashsha tasnifi bo‘yicha integratsiya bosqichlarini sanab bering.
7. Integratsion birlashmalarni tuzishning asosiy shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
8. Integratsiyaning samaradorligi qaysi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi?

II BOB. YEVROPADA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

2.1. Yevropada integratsion jarayonlarning yuzaga kelishini tarixiy asoslari.

2.2. Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari.

2.3. Yevropa Ittifoqini boshqaruv organlari.

2.4. Yevropa Ittifoqi integratsiyasining samaradorligi va uning istiqbollari.

2.1. Yevropada integratsion jarayonlarning yuzaga kelishini tarixiy asoslari

Yevropa Ittifoqi hozirgi kunda turli tarix, madaniyat, iqtisodiy tuzilma va tashqi siyosat manfaatlariga ega bo‘lgan yigirma sakkizta davlatning ittifoqidir. (Buyuk Britaniya 2020-yil 31-yanvarda a’zolikdan chiqqan). Ta’kidlash lozimki, aynan Yevropadagi integratsion jarayonlarning rivojlanishi jahonning boshqa davlatlari o‘rtasidagi turli integratsion guruhlarning, tashkilotlarning tashkil topishiga turtki bo‘ldi. Shu jihatdan Yevropani integratsiyaning vatani deb atash mumkin.

Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi XX asrning eng muhim voqealaridan biri bo‘lib, Yevropada jamoat hayotida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Yevropa Ittifoqi yagona siyosiy, iqtisodiy tuzilma sifatida shakllangunga qadar murakkab yo‘lni bosib o‘tdi va uning tarixiy asoslari mavjud. Hozirgi Yevropa Ittifoqi tarixi o‘rganilganda aksariyat tadqiqotchilar uni XX asrning 50-yillari bilan bog‘laydilar yoki ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi voqealarga urg‘u beradilar. Ammo Yevropani yagona “bir bayroq” ostida birlashtirish g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan. Tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etganda Yevropani birlashtirish g‘oyasini beshta muhim mafkuralar bilan bog‘lash mumkin. Bular:

(1) Yevropeizm;
(2) Katolitsizm;
(3) Federalizm;
(4) Keynsianizm;
(5) Multikulturalizm[12].

Bularning har birini u yoki bu bosqichda yuksalishi integratsiyaning pragmatik vazifalari, talablari va qiyinchiliklari bilan belgilangan. Yuqoridagi mafkuralarga asoslanib, Yevropa integratsiyasining siyosiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillari mavjudligini ta'kidlash zarur. Tarixan integratsiyaning birinchi mafkurasi «Yevropa g'oyasi» (yevropachilik) – o'tmish va kelajakning umumiyligi hamda G'arbiy Yevropa xalqlarining madaniy ustunligi g'oyasi bo'lgan. Bu yerda siyosiy integratsiya ko'rinishi bo'lib, u milliy, ommaviy va siyosiy madaniyat sohasidagi umumiy qadriyatlar hamda yagona jamoaga daxldorlik hissi darajasini ko'rsatadi.

O'rta asrlarda Yevropada katolikning hayotni barcha jabhalarida hukmron bo'lganligi va ushbu mintaqada kuch bilan teokratik Yevropa davlatini barpo etishga urinishi katolitsizm mafkurasining ko'rinishi bo'lgan.

Zamonaviy Yevropa integratsiyasini tavsiflashda 1920-yillardagi federalizm mafkurasi asosiy Yevropani birlashtirish g'oyasi hisoblanadi. 1920-30-yillarda Panevropa harakati tarafdorlari Rixard Kudenxov-Kalergi va Aristid Briand federalizm g'oyasini ilgari suradilar. Rixard Kudenxov-Kalergi o'zining "Panyevropa manifesti"da barcha Yevropaning demokratik davlatlarini birlashtirishga chaqirib, bojxona chegaralarini yo'q qilish, tovarlarning erkin harakatini yo'lga qo'yish, urushlarning oldini olish uchun hakamlik mexanizmini yaratishni taklif etadi.

Davlat va huquq nazariyasiga ko'ra davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta'sis etishga asoslangan ittifoqi federatsiya deb ataladi. Federalizm davlat hokimiyatini ikkita darajada-

[12] Байков А. А. Идеологический компонент в эволюции Евросоюза. – Полис. Политические исследования. 2013. № 1. стр. 130-141

federal markaz va unga tobe bo‘lgan subyektlar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Tarixan federalizm subyektlar o‘rtasida kompromissni anglatib, unga ko‘ra doimiy shartnoma mavjud bo‘lishligini hamda ushbu hujjat asosida subyektlar muayyan funksiyalarni bajarishni federal markazga berishlari va ayni bir paytda sezilarli mustaqillikka ega bo‘lishlarini bildiradi.

Federalizm ko‘pincha mafkura sifatida tavsiflanadi. Federatsiya, o‘z navbatida, hokimiyatni tashkil etishning ma’lum tamoyillariga asoslangan hududiy tuzilmani anglatadi. Shuning uchun federalizm juda keng tushunchadir. Integratsiyaning boshqa nazariyalari orasida aynan federalizm Yevropani siyosiy birlashtirish harakatiga g‘oyaviy asos bo‘lgan. Umuman olganda, federalizm konsepsiyasi integratsiyaning strategik maqsadini, ya’ni davlatlardan yuqori turuvchi hokimiyatni tashkil etilishini va u hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliga ko‘ra boshqa-rilishini o‘rtaga tashlaydi. Tegishlicha davlatlardan yuqori turuvchi siyosiy institutlar tashkil etiladi va qatnashuvchi davlatlar muayyan suverenitetlarining bir qismini ularga o‘tkazadilar.

Yevropa iqtisodiy integratsiyasining ilk jarayonlarida Keynsianizm mafkurasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Keynsianizm iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning makroiqtisodiy nazariyasi bo‘lib, uning paydo bo‘lishi ingliz iqtisodchisi J.M. Keyns (1883-1946) nomi bilan bog‘liq. Ushbu nazariya Buyuk depressiya, inqiroz davrida jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatni tahlili natijasida shakllangan.

Keyns o‘zining “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936) kitobida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi g‘oyasini asoslab bergan. Bunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimi mukammal emasligi va shu sababli, mamlakatda maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali yuz berishi mumkinligi asoslanadi. Umuman olganda “aralash iqtisodiyot” g‘oyasi ilgari suriladi. Shuningdek, Keyns o‘z asarida davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali jamiyatning yalpi

talabini rag‘batlantirishi va bu orqali aholi bandligini ta’minlashi zarurligini ta’kidlaydi.

Ta’kidlash lozimki, Keynsning g‘oyalari Ikkinchi Jahon urushidan keyin asosiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariya keyinchalik postkeynsianizm, neokeynsianizm, neoliberalizm maktablari yaratilishiga asos bo‘ldi. Yevropaning iqtisodiyotini Ikkinchi Jahon urushidan keyingi qayta tiklanishi, 1950-60-yillardagi gurkirab rivojlanishida keynsianizm amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.

Keyns nazariyasi iqtisodiy jarayonlarda davlatning faol aralashuvini ma’qullasa, neoliberalizm vakillari esa, bu borada davlatning nisbatan cheklangan aralashuvini ustuvor deb hisoblaydilar.

Keyns integratsiya masalasida asosiy e’tiborni mintaqaviy integratsion tuzilmalar tarkibida tuziladigan siyosiy institutsional mexanizmlarga qaratadi. Keyingi bosqichlarda keynsianizmning o‘rnini neokeynsianizm egalladi. Neokeynsianizm xalqaro iqtisodiy integratsiyasini ikkita yo‘nalishda rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Birinchi yo‘nalishda integratsion tashkilotlar tuzib davlatning ayrim funksiyalarini ularga o‘tkazish bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishda har bir milliy davlatga ko‘proq erkinliklar berish orqali integratsiyani kuchaytirish hisoblanadi. Amalda bular ko‘pincha optimal ikkita yo‘l kesishmasida o‘z aksini topgan.

Neokeynsianizm yo‘nalishlaridan yana biri bu dirijizmdir. ***Dirijizm*** – davlatning iqtisodiyotni boshqarishda yetakchi, yo‘naltiruvchi roli yuqoriligini, iqtisodiy jarayonlarni va munosabatlarni tartibga solishda davlat organlarning faol ishtirok etishini bildiradi. Dirijizmning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– iqtisodiyotga ma’muriy aralashuv usullarining qo‘llanilishi;
– davlatning faol tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi;
– davlat sektorining kuchliligi;
– davlatning kapital quyilmalarni moliyalashtirishi.

Yevropa integratsiyasining ijtimoiy va madaniy omillarida multikulturalizm mafkurasi ham muhim bo‘lgan. ***“Multikulturalizm”*** atama sifatida ilk bor 1960-yilda Kanadada ishlatila boshlangan. Bu

mamlakatdagi ingliz va fransuz madaniyati va tili qarama-qarshiligi natijasida murakkablikka sabab bo‘layotgan vaziyatni tartibga solish jarayonida qo‘llanilgan. Keyinchalik ayrim davlatlar oliy ta’lim dargohlarida multikulturalizm alohida fan sifatida o‘qitila boshlandi hamda ilmiy-siyosiy tomondan e’tirof etildi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Yevropa iqtisodiyotini tiklashda ayrim Yevropa davlatlarining ilgari koloniyasi hisoblangan davlatlaridan ishchi kuchi migratsiyasi oqimi ko‘payib bordi. Ular bilan mahalliy aholi o‘rtasida diniy, madaniy farqlar mavjudligi hamda migrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvi qiyin kechganligi bilan bog‘liq jarayonlar ayrim holatlarda nizolarni keltirib chiqargan yoki tushunmovchiliklarni yuzaga keltirgan. Bunga javoban multikulturalizm g‘oyasi o‘rtaga tashlandi. Uning asosiy mohiyati immigrantlarning (etnos, xalq) mavjud yerlik aholiga nisbatan o‘z milliy madaniyatlarini ham tatbiq etishga intilishlarini bildiradi.

Agar an’anaviy Yevropa liberal mafkurasi alohida fuqarolarning teng huquqliklarini himoya qilish g‘oyasiga asoslangan bo‘lsa, multikulturalizm oldinga qadam tashlab, bu huquqni jamoaviy shaxslarga - ma’lum madaniyatlar vakillariga ham beradi. Shuning uchun, qaysidir ma’noda multikulturalizm – bu demokratiya yoki globallashuv sharoitida madaniy qadriyatlar tengligini ifodaladi. Ta’kidlash joizki, mazkur mafkura asta-sekinlik bilan amalga tatbiq etilishi barobarida ayrim paytlarda davlatlarda ko‘zlangan samarani bermadi. Hozirgi kunda multikulturalizm g‘oya, yo‘nalish sifatida amalda kam e’tirof etilmoqda. Tolerantlik yoki bag‘rikenglik, boshqa madaniyatlarga hurmat, ularni e’tirof etish, uyg‘unlikda umrguzaronlik qilish insonlar o‘rtasida integratsiyalashuvning ijobiy tomoni hisoblanadi.

2.2. Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari

Yevropa Ittifoqining tarixi 70 yildan ko‘proq murakkab va muvaffaqiyatli davrni o‘z ichiga oladi. Shu vaqt ichida u kamtarona iqtisodiy guruhdan Yevropaning yuzini belgilaydigan va zamonaviy

dunyoning markazlaridan biri bo‘lgan kuchli ko‘p tarmoqli yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy birlashmaga aylandi.

Yevropa Ittifoqi integratsiyasining shakllanishi va dastlabki hamjamiyatlarning tuzilishi ikkinchi jahon urushidan keyingi tarixiy shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘langan. Urushdan keyin Yevropa davlatlari iqtisodiyoti juda ham mushkul holatda qolgan edi. Bunday vaziyatda davlatlar o‘zaro kuchlarini birlashtirib iqtisodiyotni tiklashlari va shuningdek, katta sarmoya kiritishlari zarur edi. Urushdan keyingi “sovuq urush” holati, dunyoning ikkita lagerga ajralishi vaziyatida G‘arbiy Yevropa davlatlari bevosita AQSH bilan hamkorlikni rivojlantirdilar. Ko‘plab institutsional birliklar bevosita AQSH tashabbusi yoki ko‘magida tuzilgan. AQSH “Marshal plani” asosida G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yordam qo‘lini cho‘zdi. Keyingi asosiy masala avvaldan orzu bo‘lib kelgan, g‘oya sifatida tarqalgan Yevropani birlashtirishning tabiiy zaruriyati edi.

Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy ittifoqini yaratish orqali Yevropani birlashtirish g‘oyasi Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Uinston Cherchillga tegishli deb ishoniladi. U ***1946-yilning 19-sentabrida s***yurix universitetida " Yevropa Qo‘shma Shtatlari” kabi federativ tipidagi davlatni qurishga chaqirdi. Endigina yakunlangan ikkinchi jahon urushi butun dunyodagi odamlar va ayniqsa, yevropaliklar uchun qiyin tajriba va katta talofotlarga olib kelgan edi. Davlatlar o‘rtasida nizo va urushlarni batamom to‘xtatishga ehtiyoj mavjud edi.

Shunday qilib, Yevropani birlashtirish g‘oyasi ikkinchi jahon urushidan keyin ikkinchi bosqichni oldi. Uning harakatlantiruvchi kuchlari:

(1) Yevropa xalqlari tomonidan aniq amalga oshirilgan doimiy tinchlik zarurati;

(2) urush natijasida vayron bo‘lgan iqtisodiyotni tiklash uchun G‘arbiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurati;

(3) dunyoda bipolyar tizimining shakllanishi, bu yerda AQSH va SSSRning asosiy kuchlarga aylanishi;

(4) mustamlakachilik tizimining qulashi natijasida G‘arbiy Yevropa o‘zining sobiq siyosiy vaznini va ko‘plab ta’minot bozorlarini yo‘qotishi hisoblandi.

Yevropa Ittifoqining rivojlanish tendensiyalarini bir necha bosqichga bo‘lib o‘rganish talab etiladi. Bu har bir rivojlanish davrining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkoniyat beradi. 1946-yildan 1959-yilgacha bo‘lgan davr tinch Yevropaning ilk iqtisodiy integratsiyasini shakllantirish davri deyish mumkin.

1948-yilning may oyida Gaagada Yevropa Kongressi bo‘lib o‘tdi, unda Yevropaning 16 mamlakati vakillari, shuningdek, AQSH va Kanadadan kuzatuvchilar turli xil integratsiya rejalarini muhokama qildilar va zudlik bilan federal davlat tuzish taklifini ham o‘rtaga tashladilar. Kongressning natijasida 1949-yilning may oyida Yevropa Kengashi tashkil etildi. Dastlab u iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, madaniyat, qonunchilik, fan va texnika sohalarida hamkorlik bilan shug‘ullandi. Hozirda Yevropa Kengashining faoliyati inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish masalalariga qaratilgan.

1948-yilda AQSHning tashabbusi bilan ***Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YEIHT) (Organisation for European Economic Co-operation, OEEC)*** tuzildi. Keyinchalik, ya’ni 1961-yilda u dunyoning sanoati rivojlangan davlatlarini birlashtirgan iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (YeIHTT) (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) aylantirildi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, unga 38 ta davlat a’zo hisoblanadi.

1950-yilda Qo‘shma Shtatlar vositachiligi bilan ***Yevropa to‘lov Ittifoqi (The European Payments Union (EPU))*** ham tashkil etildi. U Yevropa mamlakatlari milliy valutalarini konvertatsiya qilishga va ularning tashqi savdosini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan trans-chegaraviy hisob-kitoblarni o‘rnatishga yordam berdi. Shuningdek, 1949-yilda Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotini ***(NATO) (North Atlantic Treaty Organization)*** yaratishda AQSH muhim rol o‘ynadi.

Yevropa hamjamiyatini tashkil etish borasidagi hal qiluvchi birinchi amaliy qadam bo‘lib Fransiya tashqi ishlar vaziri

R. Shumanning bayonoti hisoblanadi. U jamoatchi taniqli siyosiy arbob va Fransiyada urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash rejasining rahbari Jan Monne g‘oyalari asosida o‘zining “Shuman Deklaratsiyasi”ni 1950-yil 9-mayda e’lon qildi. Mazkur deklaratsiyada Yevropa davlatlari iqtisodiyotini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida umumiy bozor doirasida imkoniyatlar va vositalardan birgalikda foydalanish taklifi bayon etilgan edi. Shuningdek, deklaratsiyasida Yevropaning ko‘mir qazib olish hamda po‘lat sanoatini birlashtirish rejasi ham ilgari surildi. Shuman rejasining asosiy g‘oyasi harbiy sanoat uchun o‘ta muhim sanoat bo‘lgan ko‘mir qazib olish va po‘lat ishlab chiqarish Germaniya va Fransiya o‘rtasidagi har qanday harbiy harakatni imkonsiz qilishiga qaratilgan edi. Shuningdek, tinchlik o‘rnatilib mintaqada turmush darajasini oshirish vazifasini qo‘ygan edi.

Ushbu reja 1951-yil 18-aprelda Parijda Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Luksemburg (Beniluks) davlatlari tomonidan ***“Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi” (YEKPB) (ECSC – European Coal and Steel Community)*** shartnomasi nomi ostida imzolandi va 1952-yil 23-iyuldan kuchga kiritildi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi fonida yuqoridagi davlatlar ishtirokida “***Yevropa iqtisodiy hamjamiyati” (YEIH) (European Economic Community)*** va “***Yevropa atom energiyasi hamjamiyati” (Yevroatom)ni (European Atomic Energy Community)*** ta’sis etishga oid shartnoma 1957-yil 25-martda Rim shahrida imzolandi va 1958-yildan kuchga kirdi. YeIH birinchi navbatda tovarlar, xizmatlar, kapital va odamlarning harakatlanish erkinligini ta’minlash uchun mo‘ljallangan oltita davlatning bojxona ittifoqi sifatida tashkil etildi. Yevroatom ushbu davlatlarning tinch yadro resurslarini birlashtirishga hissa qo‘shishi kerak edi. 1958-yilda YEIHning qishloq xo‘jaligi siyosati bo‘yicha asosiy qoidalar qabul qilindi. Asosiy maqsad a’zo mamlakatlarning tashqi dunyodan oziq-ovqat bo‘yicha mustaqilligiga erishish edi. Fermerlarni hamjamiyatdan tashqaridagi mamlakatlar raqobatidan himoya qilish uchun proteksionizm siyosati amalga oshirildi. 1959-yilda YeIH a’zolari Yevropa

Parlamentini tuzdilar, u ilk davrlarda vakillik, maslahat beruvchi rolni va keyinchalik qonun chiqaruvchi organga aylandi.

Ikkinchi davr 1960-69-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davr YEIH uchun o‘sish davri bo‘lgan. 1965-yilda Yevropa hamjamiyatining yagona Kengashi tashkil etildi va YEIH, Yevroatom, YEKPB lar yagona kengash ostida faoliyat yuritdilar. Bu ko‘mir va po‘latni qayta ishlash sifatini yaxshilashga imkon berdi va a’zo mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilishni jadallashtirdi. Tez iqtisodiy o‘sish 1965-1966- yillarda ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi bilan yakunlandi. O‘sha vaqtdan boshlab YEIHda mahsulot sifatini oshirish va ortiqcha miqdorni kamaytirishga ustuvorlik berildi.

1970-1979-yillarda hamjamiyatda o‘sish kuzatildi. YEIH mamlakatlari soni ortdi. 1973-yilda Daniya, Irlandiya va Buyuk Britaniya unga qo‘shildi. 1970-yilda yagona valutani qabul qilish bo‘yicha birinchi qadamlar qo‘yildi. Tor yo‘lak bilan suzuvchi valuta kursi o‘rnatildi, talab va taklif qonunlari Markaziy bank siyosati bilan cheklandi. 1973-yilda neft eksport qiluvchi (OPEK)ga a’zo davlatlar bilan bog‘liq yuz bergan inqiroz tufayli hamjamiyat "Yevropessizm" nomini oldi va siyosiy elita orasida integratsiyaga nisbatan umidsizlikni keltirib chiqardi. Ushbu davrda YEIH birinchi marta atrof-muhitni muhofaza qilish masalasini hal qildi. Greenpeace tashkiloti tuzildi va atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini cheklovchi birinchi qonunlar qabul qilindi. Keyingi yillardagi neft inqirozlarining takrorlanishi ortidan YEIH ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish rejasini qayta ko‘rib chiqdi, ilgari yetakchi bo‘lgan og‘ir sanoat neft narxining ko‘tarilishi tufayli ahamiyatini yo‘qotdi. Neft kimyosi va elektrotexnika sohalari rivojlana boshlandi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini yoki “Umumiy bozor”ni tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklovlarni asta-sekinlik bilan bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoga umumiy boj tariflarini o‘rnatish;

- “insonlar, kapital, xizmatlar”ning erkin harakati uchun to‘siqlarni tugatish;
- qishloq xo‘jaligi hamda transport sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va o‘tkazish;
- valuta ittifoqini tuzish;
- soliq siyosatini birxillashtirish;
- qonunchilikni bir-biriga moslashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

1979-yildan e’tiboran YEIH mamlakatlari aholisi Yevropa parlamenti a’zolarini bevosita saylash imkoniyatiga ega bo‘ldilar va ularning hamjamiyat siyosatiga ta’siri oshdi. 1975-yilda YEIH mamlakatlarining alohida mintaqalari iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qadamlar qo‘yildi, nisbatan boy hududlar bilan nisbatan kambag‘al bo‘lgan hududlarni tenglashtirish uchun resurslarni qayta taqsimlash amalga oshirildi. Yevropa mintaqaviy rivojlanish jamg‘armasi tashkil etildi. 1979-yildan shartli hisob-kitob valutasi EKYuga asoslangan Yevropa valyuta tizimi amal qila boshladi.

Keyingi bosqich 1980 va 1990-yillarning boshlarini o‘z ichiga olib ushbu davrdagi asosiy muhim tarixiy voqea bu Berlin devorining qulashi va ikkita G‘arbiy va Sharqiy Germaniyaning birlashishi hisoblanadi. 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda Portugaliya va Ispaniya YEIHga a’zo bo‘lib kirdi. 1984-yilda YEIHning ilmiy va texnologik rivojlanishi uchun birinchi dasturi qabul qilindi. 1985-yilda Shengen hududini yaratish boshlandi. Ushbu jarayonda ishtirok etayotgan mamlakatlar fuqarolari, shuningdek, uchinchi mamlakatlar fuqarolari (agar ular kirish vizasiga ega bo‘lsa) Yevropa Ittifoqi bo‘ylab erkin harakatlanish huquqiga ega bo‘ldilar. Shengen shartnomasi dastlab yetti mamlakat tomonidan imzolandi: Belgiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Luksemburg, Gollandiya va Portugaliya.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ***Shengen*** hududiga quyidagi mamlakatlar kiradi: Avstriya, Belgiya, Daniya, Finlandiya, Fransiya, Gretsiya, Ispaniya, Luksemburg, Niderlandiya, Germaniya, Portugaliya,

Shvesiya, Italiya, Estoniya, Litva, Latviya, Malta, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Xorvatiya, shuningdek, Shveysariya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Islandiya (oxirgi 4ta mamlakat Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan Shengenga a'zo davlatlari). Irlandiya, Kipr, Bolgariya va Ruminiya Shengen hududiga kirmaydigan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardir. Ayni paytda Bolgariya va Ruminiyani ushbu hududga kirishiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Uzoq sinovlardan o'tib, hamjamiyat 1980-yillarning o'rtalarida yangi bosqichga o'tdi, ya'ni yagona ichki bozorni shakllantirish tugallandi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi batafsil harakat dasturini tayyorladi. Unda mavjud iqtisodiy siyosatning barcha sohalari bo'yicha 300ga yaqin chora-tadbirlar rejasi ularni amalga oshirish muddatlari bilan ko'rsatilgan.

YEIHga a'zo davlatlar o'rtasida bojxona tariflari yo'qligiga qaramasdan, ular o'rtasidagi savdo to'liq erkin emas edi, chunki bu YEIHning maqsad va vazifalarida ko'rsatilgan edi. Standartlar, milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar, import litsenziyalari va turli protsessual qoidalar bo'yicha mamlakatlar o'rtasida ma'muriy kelishmovchiliklar bunga xalaqit berar edi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun 1986-yilda ***Yagona Yevropa Akti (YAEA)*** (The Single European Act) qabul qilindi. Uning oldiga asosiy maqsad – jamiyat mamlakatlarining iqtisodiy va valuta ittifoqini yaratish qo'yildi. YAEA 1957-yilgi Rim shartnomasining birinchi yirik tahriri edi. Ushbu akt Yevropa hamjamiyatida 1992-yilning 31-dekabrigacha umumiy bozorni yaratishni ko'zda tutgan va YEIH ning umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati bo'yicha Yevropa siyosiy hamkorligi tamoyillarini shakllantirgan. U 1986-yilning 17-fevralida Luksemburgda va shu yilning 28-fevralida Gaagada imzolangan. Delor komissiyasi doirasida 1987-yilning 1-iyulida kuchga kirgan.

Navbatdagi bosqich 1990-2004-yillarni qamrab oladi. Ushbu davrni "chegarasiz Yevropa" deyish mumkin, chunki shu davrda YEIH integratsiyasi o'zining yuqori rivojlanish bosqichiga chiqdi. Jumladan, 1992-yilning 7-fevralida Maastrixtda Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi

shartnoma imzolandi (The Treaty of Maastricht). Maastrixt shartnomasini tayyorlashning hal qiluvchi bosqichi ikkita hukumatlararo konferensiya bilan bog‘liq bo‘ldi. Ulardan birida iqtisodiy va valuta ittifoqi matni, ikkinchisida esa siyosiy ittifoq bo‘yicha hujjat loyihalari ishlab chiqilgan.

Maastrixt shartnomasi uchta "ustun" tizimini yaratdi. Birinchisi, uchta hamjamiyat (YEKPB, Yevroatom va YEIH), ikkinchisi – umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati, uchinchisi – ichki ishlar va adliya. Maastrixt shartnomasi siyosiy integratsiya uchun ham yangi ufqlarni ochdi. Bunda Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning tashqi siyosatini muvofiqlashtirishdan umumiy tashqi va xavfsizlik siyosatiga o‘tish rejalashtirilgan edi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqining umumiy pozitsiyalari (dolzarb xalqaro masalalar bo‘yicha qabul qilingan) va Yevropa Ittifoqi davlatlarining birgalikdagi harakatlari (gumanitar missiyalar va uchinchi mamlakatlarda harbiy operatsiyalar shaklida) joriy etildi. A’zo davlatlar ushbu sohada o‘zlarining suveren huquqlarini saqlab qolishdi, ammo shu bilan birga, Ittifoq manfaatlariga zid bo‘lgan va uning birligini zaiflashtirishga olib keluvchi har qanday harakatlardan tiyilish majburiyatini olishdi.

Shartnomada adliya va ichki ishlar sohasida hukumatlararo hamkorlikni kuchaytirish belgilandi. Immigratsiya va boshpana olish masalalarini tartibga solishga alohida e’tibor qaratildi. Uyushgan jinoyatchilik va giyohvand moddalari savdosiga qarshi kurashish uchun Yevropa politsiya agentligi – Yevropol tashkil etildi. Yevropa Ittifoqi fuqaroligi birinchi marta joriy etildi. Bu Ittifoqning har bir fuqarosiga uning istalgan mamlakatida yashashga imkon berdi. A’zo davlatlarning fuqarolariga Yevropa Ittifoqining qaysi joyida bo‘lishlaridan qat’i nazar mahalliy hokimiyat organlariga va Yevropa parlamentiga ovoz berish va saylanish huquqi berildi. Fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun Yevropa Ittifoqining vakolatlari kengaytirildi. Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo‘yicha komissari Ombudsmen instituti joriy etildi.

1997-yilning 2-oktabrida Niderlandiya poytaxtida Amsterdam shartnomasi imzolandi. Bu Maastrixt Shartnomasining kengaytirilgan varianti bo‘ldi. Unda ichki ishlar va adliya sohasida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi, jumladan, immigratsiya, boshpana olish, nikohdan o‘tish, ajralish, aliment to‘lash, ota-onalik huquqi, tashqi chegaralarni qo‘riqlash kabi masalalar hal etildi.

1990-yildan boshlab hamjamiyat iqtisodiy va valuta ittifoqini qurishni boshladi. 1998-yil may oyida Yevropa Markaziy banki tashkil etildi va yagona valuta Yevroga o‘tadigan birinchi 11 ta davlat aniqlandi. 1999-yil 1-yanvardan boshlab yevro naqd pulsiz muomalaga, 2002-yil 1-yanvardan esa naqd pulda muomalaga kiritildi.

Yevropa Ittifoqining 27 mamlakatidan 20 tasining rasmiy valutasi yevro hisoblanadi. Ular birgalikda yevrozonani tashkil qiladi, bu yerda yevro yagona qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi. Quyidagi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hali ham o‘z milliy valutalaridan foydalanadilar: Polsha, Bolgariya, Shvesiya, Vengriya, Chexiya, Daniya va Ruminiya. Ro‘yxatda keltirilgan davlatlar barcha tegishli majburiyatlarni bajargandan so‘ng yevrozonaga kira oladilar. Maastrixt shartnomasiga ko‘ra, majburiy qo‘shilishni talab qilmaydigan Daniya davlati bundan mustasno hisoblanadi.

Ushbu davrda Yevropa iqtisodiy makonini (YEIM) (European Economic Area- EEA) yaratish to‘g‘risidagi bitim alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U 1992-yil may oyida Yevropa Ittifoqi va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (European Free Trade Association - EFTA) o‘rtasida imzolandi va 1994-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu shartnoma YEFTA mamlakatlariga "to‘rtta erkinlik" - tovarlar, xizmatlar, shaxslar va kapital harakatini kengaytirdi. Shunday qilib, YEFTA mamlakatlari Yevropa Ittifoqining yagona ichki bozoriga a’zo bo‘lishdi. 1995-yilda YEFTAning uchta a’zosi – Avstriya, Finlandiya va Shvetsiya Yevropa Ittifoqiga qo‘shildi. Shveysariya aholisining YEIMga a’zolik bo‘yicha referendumda qarshi ovoz berganligi tufayli shartnoma rad etildi. YEIMda uchta davlat Norvegiya, Islandiya va Lixtenshteyn a’zo

hisoblanmoqda. Yevropa Ittifoqiga a’zo barcha davlatlar YEIMga a’zo hisoblanadilar.

1990-yillarning boshidan Yevropa Ittifoqining xalqaro faoliyatini asosiy yo‘nalishi Sharq siyosati bo‘ldi. 1990-yilda Yevropa Kengashi (Council of Europe) Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan assotsiatsiya shartnomalarini (Yevropa shartnomalari) tuzishga qaror qildi. 1992-1996-yillar davomida mazkur shartnoma o‘nta davlat: Bolgariya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya va Estoniya bilan imzolandi. Shartnoma siyosiy, iqtisodiy, madaniy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishni, shuningdek, bosqichma-bosqich tovarlar, xizmatlar, shaxslar va kapitalning erkin harakatlanishiga o‘tishni maqsad qilgan. Amalda shartnomalar Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini Yevropa integratsiyasi orbitasiga kiritilishiga zamin yaratdi.

Ushbu davlatlarning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish imkoniyatlari to‘g‘risida qaror 1993-yil iyun oyida Kopengagenda bo‘lib o‘tgan Yevropa Ittifoqi sammiti tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, Yevropa Kengashi ushbu sammitda a’zolikka nomzodlik bo‘yicha mezonlarni tasdiqladi (Kopenhagen mezonlari va talablari).

Kopenhagen mezonlari Yevropa Kengashi tomonidan 1995-yilning dekabrida Madridda tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagilardan iborat:

- mamlakat davlatning geografik joylashuvidan qat’i nazar, Yevropa sivilizatsiyasiga tegishli bo‘lishi;
- Yevropa Ittifoqi shartnomasining asosiy tamoyillarini, xususan demokratiya, erkinlik, inson va fuqarolik huquqlari hamda erkinliklari tamoyillarini hurmat qilishi;
- davlat va jamoat institutlarining barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlashi;
- demokratik davlat bo‘lish va o‘z fuqarolariga demokratiya kafolatlarini berishi;
- qonun ustuvorligi va huquq ustuvorligini, inson va fuqarolik huquqlarini hurmat qilishni, shu jumladan, milliy ozchiliklarni himoya qilishni ta’minlashi;

- risoladagidek ishlaydigan bozor iqtisodiyotiga va barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lishi;
- Barcha salohiyatli a’zolar o‘z qonunlarini Yevropa qonunlari tamoyillariga moslashtirishlari kerak.

1994-1996-yillarda ushbu mamlakatlarning barchasi Yevropa Ittifoqiga kirish uchun rasmiy arizalarni yuborishdi. Ularni Yevropa Ittifoqiga kirishga tayyorlash jarayoni 10 yildan ortiq davom etdi. 2004-yil may oyida YeIga sakkizta Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek Kipr va Malta qo‘shildi.

2000-yilda “Asosiy huquqlar bo‘yicha Yevropa Ittifoqi xartiyasi” qabul qilindi. Xartiyaning muqaddimasida inson qadr-qimmati, erkinligi, tengligi va birdamligining asosini tashkil etuvchi huquqlarning bo‘linmasligi va universalligi ta’kidlangan.

Amsterdam shartnomasi va unga kiritilgan keyingi o‘zgarishlarga qaramasdan a’zo davlatlar institutsional boshqaruv organlari masalasida bir to‘xtamga kela olmadilar va shuning uchun radikal o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi hujjat loyihasini tayyorlash maqsadida yangi hukumatlararo konferensiyani o‘tkazishga qaror qilindi. Konferensiya 2000-yilning fevralida ishini boshlab shu yilning 11-dekabrida Fransiyaning Nissa shahrida uni nihoyasiga yetkazdi. Mazkur hujjat 2001-yilning 26-fevralida imzolandi va Nissa shartnomasi nomini oldi hamda 2003-yilning 1-mayidan kuchga kiritildi. Mazkur shartnomada bir qator hujjatlar bayonnoma va deklaratsiya shaklida ilova qilindi. Ularning asosiylari bo‘lib, Yevropa Ittifoqini kengaytirish va Yevropa Sudi Ustavi bayonnomasi hisoblandi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining keyingi bosqichi 2004-yildan hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 2007-yilning yanvar oyida esa Bolgariya va Ruminiya davlatlari YeIga a’zo bo‘lishdi. 2013-yilning 1-iyulidan esa Xorvatiya YeIning to‘liq a’zosiga aylandi. Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi tarixida yetti marotaba kengayish sodir bo‘ldi.

2-jadval

Yevropa Ittifoqi shakllanishining me’yoriy-huquqiy bazasi

Hujjatning nomlanishi	Maqsadlar	Integratsiyadagi roli
Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyati tuzish to‘g‘risidagi shartnoma (YEKPT) 1951-yil	ko‘mir, temir rudasi, po‘lat, cho‘yan va maxsus po‘latning umumiy bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish (YEKPT shartnomasi muddati 2002-yilda tugagan)	Kelajakdagi integratsiya jarayonlari uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish
Rim shartnomasi 1957-yil	Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) va Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyatining (Yevroatom) tashkil etilishi	Iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi
Bryussel shartnomasi 1965-yil	Yevropa institutlarining vakolatlarini soddalashtirish	Millatlar usti organlari ta’sirining kuchayishi
Yagona Yevropa akti 1986-yil	Portugaliya va Ispaniyaning qo‘shilishiga tayyorgarlik ko‘rishda institutlarni isloh qilish va yagona bozorga tayyorgarlik ko‘rishda qarorlar qabul qilishni tezlashtirish	Iqtisodiy integratsiyasining yangi bosqichi, milliy oliy organga yangi vakolatlar berish
Maastrixt shartnomasi 1992-yil	Yevropa valuta ittifoqiga tayyorgarlik va siyosiy ittifoq elementlarini joriy etish (fuqarolik, umumiy ichki va tashqi siyosat)	Chiziqli integratsiya modelidagi bosqich
Amsterdam shartnomasi 1997-yil	Kelajakdagi a’zo davlatlarning azoligiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Yevropa Ittifoqi institutlarini isloh qilish	Transchegaraviy-gorizontal integratsiyasining asosi
Nissa shartnomasi 2001-yil	Kelajakdagi a’zo davlatlarning a’zoligiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Yevropa Ittifoqi institutlarini isloh qilish	Millatlar usti institutlarni takomillashtirish
Lissabon shartnomasi 2007-yil	Global muammolarni hal qilishda Yevropa Ittifoqi samaradorligini oshirish	Rasmiy muassasalar sonining ko‘payishi

Manba: Muallif tomonidan tuzildi

Yevropa Ittifoqining sharqqa qarab keng ko‘lamli kengayishi sovuq urushning tugashi va dunyoning bipolyar tizimini qulashi tufayli mumkin bo‘ldi. Bu voqelik nafaqat Yevropaning, balki butun dunyoning taqdirini o‘zgartirdi. Shuningdek, u globallashuv jarayoniga kuchli yangi turtki berdi. Kapital harakatini liberallashtirish, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining keng tarqalishi

dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarining o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini keskin oshirdi.

3-jadval

Yevropa Ittifoqi shakllanishining asosiy sanalari

1946	Uinston Cherchillning syurixdagi nutqi
1951	Belgiya, Italiya Luksemburg, Niderlandiya, Germaniya Federativ Respublikasi va Fransiya o‘rtasidagi Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyatini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma
1952	Yevropa mudofaa hamjamiyati shartnomasi (muvaffaqiyatsiz)
1957	Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati va atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyatini ta’sis etuvchi shartnomalar – Rim shartnomasi
1965	Birlashish shartnomasi
1973	1-kengayish: Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya
1978	Yevropa valuta sistemasining yaratilishi
1979	Yevropa parlamentiga birinchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlar
1981	Gretsiyaning a’zolikka qabul qilinishi
1986	2-kengayish: Portugaliya va Ispaniya
1992	Maastrixt shartnomasining qabul qilinishi
1995	3-kengayish: Avstriya, Shvesiya, Finlandiya
1997	Amsterdam shartnomasining qabul qilinishi
2000	Nissa shartnomasi
2003	Yevropa konvensiyasi Yevropa uchun Konstitutsiyani amalga oshirish to‘g‘risidagi shartnoma loyihasini taqdim etishi
2004	4-kengayish: Estoniya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Chexiya
2004	Rimda Yevropa Konstitutsiyasini amalga oshirish to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi
2007	5-kengayish: Bolgariya va Ruminiya
2009	Lissabon shartnomasining qabul qilinishi
2013	6-kengayish: Xorvatiya

Manba: Muallif tomonidan tuzildi.

2023-yil holatiga ko‘ra quyidagi mamlakatlar Yevropa Ittifoqiga kirish uchun nomzodlar hisoblanadilar:

- Turkiya (1999) (1987-yilda ariza berilgan);
- Shimoliy Makedoniya (2005);

- Chernogoriya (2010);
- Serbiya (2019);
- Albaniya (2014);
- Bosniya i Gersegovina (2022);
- Moldaviya (2022);
- Ukraina (2022).

Bulardan tashqari, Gruziya (2022) va Kosovo nomzodlik mavqeini olishga da'vogar davlatlar hisoblanadilar. Ular Yevropa Kengashi tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishlari bilan nomzod bo'lishlari mumkin.

Umumiy maydonining 17 foizi Yevropada joylashgan Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi yillar davomida qizg'in tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Turkiya-Yevropa hamkorligining asosiy hujjati bo'lib, 1963-yil 12-sentabrda Anqarada imzolangan Assotsiatsiya shartnomasi (Anqara shartnomasi) hisoblanadi, u Turkiyaning YEIH, keyin esa Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarida asosiy hujjatdir. Shartnoma integratsiyaning 3 bosqichini o'z ichiga oldi – dastlabki, bojxona ittifoqini tuzish va yakuniy bosqichda to'liq a'zolikka erishishdir. Ammo bugunga qadar Turkiya o'n yillar davomida YEIga nomzod mamlakat sifatida turibdi. Bunga asosiy sabab qilib Turkiya va Gretsiya o'rtasidagi Kipr masalasi bo'yicha siyosiy kelishmovchiliklar, Turkiya ichidagi ayrim etnik muammolar, shuningdek, inson huquqlari yuzasidan muammolar ko'rsatiladi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining muhim nuqtalaridan biri bu ittifoq Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni bilan bog'liq bo'ldi. Gap shundaki, qabul qilingan turli shartnomalarga qaramasdan, ittifoqni boshqarishning mukammal institutsional mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan edi. Shuning uchun YeI davlatlari yagona Konstitutsiyani qabul qilishga astoydil kirishdilar. Bu ishga 200 nafardan ziyod yetuk mutaxassislar jalb qilindi. Konstitutsiya ilgari qabul qilingan barcha huquqiy aktlarning o'rniga yangi mukammal hujjat sifatida taqdim etilishi maqsad qilingan edi. Konstitutsiya matnining oxirgi loyihasi 2004-yilning iyun oyida navbatdagi sammitda ma'qullandi va umumxalq referendumi o'tkazishga qaror qilindi. Biroq, 2005-yilda

Fransiya va Niderlandiyadagi referendum natijalari, ya’ni mazkur davlatlar aholisining Konstitutsiya qabul qilinishiga rad javobi berishi ortidan uni ratifikatsiya qilish to‘xtatildi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida Yevropa Kengashi yangi shartnomani ishlab chiqish ustida bosh qotira boshladi. Murakkab jarayonlar, qizg‘in muhokamalar, qattiq mehnatlar natijasida yangi Lissabon shartnomasi yaratildi.

Lissabon shartnomasi (Treaty of Lisbon amending the Treaty on European Union and the Treaty establishing the European Community), (Islohot shartnomasi), 2007-yilning 13-dekabrida sammitda imzolangan va 2009-yilning 1-dekabridan kuchga kiritilgan. Mazkur shartnoma kuchga kirmagan Yevropa Ittifoqi Konstitutsiyasini almashtirish va Yevropa Ittifoqi boshqaruv tizimini isloh qilish maqsadida Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi mavjud shartnomalarga o‘zgartirish kiritish uchun mo‘ljallangan. Lissabon shartnomasining yaratilishi va qabul qilinishi Yevropa Ittifoqi Konstitutsiyasi loyihasining amalga oshmaganligi sababli siyosiy zarurat bilan bog‘liq bo‘ldi, shuning uchun shartnoma har kimga, ya’ni ham milliy suverenitet tarafdorlari, ham yagona umumyevropa hujjatini talab qiladiganlarga mos keladigan shaklda tayyorlangan.

Lissabon shartnomasida institutsional islohotlarning asosiy jihatlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, unga ko‘ra Maastrixtda yaratilgan uchta ustun tuzilishi bekor qilindi va shunga mos ravishda Yevropa hamjamiyati va Yevroatom tugatildi, Yevropa Ittifoqi yagona integratsiya tuzilmasiga aylandi va yuridik shaxs maqomini oldi, shu jumladan, keng xalqaro huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘ldi. Shuning bilan birgalikda, ikkita ta’sis shartnomasi saqlanib qoldi: (1) Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma va (2) Yevropa Ittifoqining faoliyati to‘g‘risidagi shartnoma.

Lissabon shartnomasi Yevropa Ittifoqi vakolatining besh turini nazarda tutadi:

(1) istisnolik;
(2) qo‘shma faoliyat;
(3) muvofiqlashtirish;

(4) a’zo davlatlarning harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish yoki to‘ldirish uchun harakat qilish vakolati;

(5) umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati (Yevropa xavfsizlik va Mudofaa siyosati) bo‘yicha maxsus kompetensiya.

Shartnomada Yevropa Ittifoqi siyosatining har bir yo‘nalishi qaysi turga tegishli ekanligi aniq belgilangan. Shartnomaga ko‘ra Yevropa Kengashi Prezidenti lavozimi o‘rnatildi u qayta saylanish imkoniyati bilan 2,5 yilga saylanadi. Bu Yevropa Kengashi va butun Yevropa Ittifoqi ishining samaradorligi va izchilligini ta’minlash uchun joriy etildi.

Xulosa qilganda, ayni paytda Yevropa Ittifoqi rivojlanishning umumiy siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlariga ega davlatlar hamdo‘stligidir. Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlari erkinlik, demokratiya, inson huquqlari va qadr-qimmati, tenglik va adolat ustuvorligi kabi qabul qilingan qadriyatlar va tamoyillarga amal qiladilar. Yevropa Ittifoqi yagona ichki yevropa bozorini boshqaradi, buning natijasida unga a’zo davlatlar o‘rtasida resurslar va xizmatlar, odamlar va kapitalning samarali harakati amalga oshiriladi.

2.3. Yevropa Ittifoqini boshqaruv organlari

Yevropa Ittifoqi milliy davlatlarning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud organlariga an’anaviy bo‘linishi bilan tavsiflanmagan millatlararo tashkilotdir.

Yevropa Ittifoqining boshqaruv organlari tizimi turli funksional muassasalar va hokimiyatlarga asoslangan. Yevropa Ittifoqi institutlari Yevropa Ittifoqining eng muhim va keng vakolatlarini amalga oshiradigan yuqori organlardir. Yevropa Ittifoqi institutlari nisbatan alohida, ammo shuning bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi apparatining ajralmas birligidir, ular o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda ishtirok etadilar, Yevropa Ittifoqi nomidan va uning topshirig‘iga ko‘ra faoliyat ko‘rsatadilar. Ittifoqning boshqaruv institutlari umumiy maqsadlar bilan bog‘langan holda ularning har birining alohida belgilangan vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish sohalari bor. Boshqaruv institutlarning

maqomi Yevropa Ittifoqi shartnomasida va Yevropa Ittifoqining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi shartnomada mustahkamlab qo‘yilgan. Yevropa Ittifoqining institutsional shakllanishi yetmish yillik tarix bilan o‘lchanadi. Ayni paytda YeI juda murakkab tashkiliy qurilmaga ega.

Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomaning 3-bo‘limi 13-moddasiga ko‘ra YeI boshqaruv institutlariga quyidagilar kiradi:[13]


- Yevropa Parlamenti (the European Parliament);
- Yevropa Ittifoqi Kengashi (the European Council);
- Kengash (the Council);
- Yevropa Komissiyasi (the European Commission);
- Yevropa Ittifoqi Sudi (the Court of Justice of the European Union);
- Yevropa Markaziy banki (the European Central Bank);
- Hisob palatasi (Auditorlar palatasi) (the Court of Auditors).

Yevropa Ittifoqining yagona to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylangan organi sifatida Yevropa parlamenti (YEP) fuqarolarning jamoaviy ovozini ifodalaydi. Uning a’zolari har 5 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yevropa fuqarolari tomonidan saylanadi. So‘nggi Yevropa saylovlari 2019-yilda bo‘lib o‘tgan. Ovoz berish huquqi 18 yoshdan boshlab Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida beriladi, ammo Avstriya va Maltada 16 yoshda, Gretsiya 17 yoshda ovoz berish mumkin. Yevropa Parlamenti milliy davlat parlamentlaridan farqli o‘laroq ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi va ayni bir paytda nazorat qiluvchi organ hisoblanadi.

Yevropa parlamenti Yevropa ko‘mir va Po‘lat hamjamiyati (1952) instituti tarkibida Bosh Assambleya nomi bilan tuzildi va keyinchalik u "Yevropa parlamenti Assambleyasi " deb nomlanadigan bo‘ldi. (1957, Rim shartnomasi). 1962-yildan mustaqil "Yevropa parlamenti" nomini olib, a’zo davlatlar tomonidan tan olingan va shartnomada mustahkamlangan (yagona Umumyevropa akti, 1986). Dastlabki davrlarda u faqat tavsiya berish vazifasini amalga oshirgan, a’zolari Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning parlamentlari tomonidan tayinlangan.

[13] https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/?uri=CELEX:12012M/TXT

1979-yildan boshlab esa u to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yevropa Ittifoqi mamlakatlari aholisi tomonidan besh yil muddatga saylanadigan bo‘ldi.



2-rasm. Yevropa Ittifoqini boshqaruvchi asosiy organlar.

Yevropa parlamentining "yalpi majlislar" deb ataladigan asosiy yig‘ilishlari yiliga 12 marta Fransiyaning Strasburg shahrida va yiliga 6 martagacha Belgiyaning Bryussel shahrida bo‘lib o‘tadi. Yevropa parlamenti barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan yevrodeputat deb nomlangan 705 a’zodan iborat. Har bir mamlakatda a’zolar soni har xil bo‘lib, aholisi ko‘proq mamlakatlar kichikroq va aholisi kam bo‘lganlarga qaraganda ko‘proq a’zolarga ega. Yevropa Ittifoqining turli mamlakatlaridan kelgan deputatlar xuddi milliy parlamentlar kabi o‘xshash siyosiy qarashlarga ega bo‘lgan siyosiy guruhlarga birlashgan holda faoliyat ko‘rsatadilar va milliy mansublikka qarab guruhlar tuzilmaydi.

Yevropa parlamenti Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi qonunlari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Agar parlament

va Kengash biron bir qonun hujjati bo‘yicha kelisha olmasa, yangi qonun qabul qilinmaydi. Parlament Yevropa komissiyasi Raisini saylaydi va butun Yevropa komissiyasini tasdiqlash yoki ishdan bo‘shatish huquqiga ega. Shuningdek, u Yevropa Ittifoqi budjetini tasdiqlaydi.

Yevropa parlamentining asosiy boshqaruv organlari Rais va byuro bo‘lib, unga Rais, uning 14 nafar o‘rinbosari va 5 kvestor kiradi. Har bir parlament sikli ikkita raisning o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Yevropa parlamenti uchta muhim vazifani hal qiladi:

(1) Qonunchilik (Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan birgalikda);

(2) Budjetni tasdiqlash yoki rad etish, budjet xarajatlarini Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan birgalikda nazorat qilish;

(3) Demokratik institutlar, xususan, Yevropa komissiyasi ustidan nazorat.

Yevropa parlamenti olida qo‘ygan vazifalariga muvofiq tegishlicha asosiy uchta funksiyani bajaradi. Deputatlar 20 ta doimiy komissiya tarkibiga kiradi va har biriga rais, byuro hamda kotibiyat rahbarlik qiladi. Hozirgi paytda quyidagi doimiy komissiyalar faoliyat ko‘rsatadi:

(1) Xorijiy ishlar;

(2) Rivojlantirish (hamkorlik siyosati);

(3) Xalqaro savdo;

(4) Budjet (tayyorlash bosqichi);

(5) Budjet ijrosi nazorati;

(6) Iqtisodiy va moliyaviy masalalar;

(7) Bandlik va ijtimoiy masalalar;

(8) Tabiatni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligi;

(9) Sanoat, ilmiy tadqiqotlar va energetika;

(10) Ichki bozor va iste’molchilar huquqini himoya qilish;

(11) Transport va turizm;

(12) Mintaqalarni rivojlantirish;

(13) Qishloq xo‘jaligi va qishloqlarni rivojlantirish;

(14) Baliqchilik;

(15) Madaniyat va ta’lim;

(16) Huquqiy masalalar;

(17) Fuqarolar erkinliklari, adolat va ichki ishlar masalalari;

(18) Konstitutsiya masalalari (YeIning qurilmasi, tamoyillari masalalari);

(19) Ayollarning huquqlari, gender tengligi masalalari;

(20) Petitsiya masalalari.

Doimiy komissiyalardan tashqari vaqtinchalik komissiyalar ham tuzilishi mumkin. Yevropa parlamentining vaqtinchalik komissiyalari, doimiy komissiyalardan farqli o‘laroq, ma’lum bir masalani o‘rganish uchun tuziladi va maxsus komissiyalar deb ataladi. Yalpi majlisda hisobot taqdim etilgandan so‘ng maxsus komissiya tarqatib yuboriladi. Umumiy qoida sifatida maxsus komissiyalarning vakolati maksimal bir yil davom etadi, ammo vaziyatga ko‘ra uni uzaytirishga ruxsat berilishi mumkin. Komissiyalarning asosiy vazifasi Yevropa komissiyasi tomonidan taqdim etilgan yangi qonunlar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish va tashabbus hisobotlarini tayyorlashdan iborat. Har bir qonun-chilik taklifi yoki tashabbusi uchun ma’ruzachi Yevropa parlamentidagi siyosiy fraksiyalar o‘rtasidagi kelishuv asosida tayinlanadi. Komissiya hisoboti muhokama qilinadi, unga o‘zgartirishlar kiritiladi, ovoz beriladi, keyin u Yevropa parlamentining yalpi Majlisiga yuboriladi.

Siyosiy fraksiyalar har qanday parlament faoliyatida asosiy rol o‘ynaydi; ular Yevropa parlamentining asosiy "siyosiy sahnasi" va "aktyorlari" hisoblanishadi. Bunday fraksiyalar 1957-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati to‘g‘risidagi shartnoma asosida tuzilgan parlament Assambleyasining birinchi yig‘ilishidan beri mavjud. Kvestorlarning vazifalari byuro tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatmalarga muvofiq deputatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ma’muriy va moliyaviy vazifalarni hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Yevropa Ittifoqi Kengashi (European Council) YeIning yuqori siyosiy organi hisoblanib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining saylangan rahbarlarini, ya’ni davlat rahbarlari yoki hukumat rahbarlarini birlashtiradi. Bu rahbarlar yiliga kamida to‘rt marotaba uchrashadilar. Ularning uchrashuvlari ko‘pincha "Yevropa sammitlari" deb nomlanadi.

Yevropa Ittifoqi Kengashi Yevropa Ittifoqi siyosatining asosiy siyosiy ustuvorliklari va umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Uni har ikki yarim yilda bir marta saylanadigan Prezident boshqaradi.

Kengash a’zo davlatlar hukumatlarining vakillari, ya’ni vazirlardan iborat. Agar Yevropa Ittifoqi Kengashi ishtirokchi mamlakatlar rahbarlarini birlashtirsa, Kengash ushbu mamlakatlar hukumatlarini birlashtiradi. Ammo barcha vazirlar birdaniga emas, balki yig‘ilishda ko‘rib chiqilayotgan mavzuga qarab yig‘iladilar, ya’ni Kengash amalda tegishli vazirliklarning vakillari ishtirokidagi hukumatlararo yig‘ilishlardan iborat bo‘ladi. Kengashning bosh qarorgohi Bryusselda joylashgan. Kengash ma’lum ma’noda a’zo davlatlarning konsensus asosidagi faoliyatidir, bu yerda davlatlarning manfaatlari o‘zaro to‘qnashadi va o‘zaro yon berishlar, muhokamalar natijasida yagona qarorga kelinadi va ovoz berish asosida qaror qabul qilinadi. Kengashga Raislik har 6 oyda almashib turiladigan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari vakili hisoblanadi.

Yevropa komissiyasi – Yevropa Ittifoqining asosiy ijro etuvchi organi bo‘lib, u butun Yevropa ittifoqini ifodalaydi, "tashabbus huquqi" ga ega, ya’ni qonunlar va siyosiy dasturlarni taklif qiladi, shuningdek, Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan qabul qilingan qonunlarning bajarilishi uchun javobgardir. Yevropa komissiyasi alohida a’zo davlatlar emas, balki butun Yevropa Ittifoqi manfaatlarini hurmat qilishni himoya va nazorat qiladi.

Yevropa komissiyasi har bir Yevropa Ittifoqi davlatidan bittadan, ya’ni 27 nafar a’zodan iborat. Yevropa Ittifoqi Kengashi Yevropa parlamenti tomonidan tasdiqlanadigan Yevropa komissiyasi Raisi nomzodini taklif qiladi. Shundan so‘ng, Kengash va Rais lavozimiga nomzod Yevropa komissiyasining tarkibini shakllantiradi – ular Yevropa komissarlarini tanlaydilar. Rais ham, Yevropa Komissarlari ham parlament va Kengash tomonidan tasdiqlanishi kerak. An’anaga ko‘ra, milliy hukumatlarning sobiq rahbarlari yoki vazirlar Yevropa Komissarlari bo‘lishadi. Komissarlar odatda tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha rahbarlik qiladilar. Komissiya bevosita Kengash qarorlarini ishlab chiqish, qarorlarining ijrosini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Muayyan masalalar

bo‘yicha taklif kiritishdan oldin komissiya milliy parlamentlar, hukumatlar, manfaatdor guruhlar, ekspertlar va keng jamoatchilikning fikrini oladi.

Yevropa Ittifoqi sud tizimi siyosiy bo‘lmagan mustaqil millatlararo institut sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu Yevropa integratsiyasining eng muhim huquqiy vositalaridan biridir. Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni tasdiqlaydiki, faqat mustaqil huquqiy tizim mavjud bo‘lgan sharoitda, Yevropa Ittifoqi qonunlarini himoya qilish va qo‘llashni ta’minlashga mo‘ljallangan sud mexanizmi bo‘lgandagina integratsiya barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin.

Yevropa hamjamiyati uchun odil sudni tashkil etish g‘oyasi 1950-yil 9-maydagi R. Shuman deklaratsiyasida bayon etilgan edi. Yevropa Ittifoqi o‘zining 70 yillik integratsiyalashuv tarixida juda ko‘p huquqiy hujjatlar qabul qildi. Yevropa Ittifoqi Sudi (European Court of Auditors) ushbu qonunlarning yagona talqin qilinishi va bajarilishini ta’minlaydi. Jumladan, a’zo davlatlar orasidagi shartnomalarga bir tomonning rioya etmasligi oqibatida kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqadi. Yevropa Sudi shuningdek, xalqaro shartnomalarni Yevropa Ittifoqi qonunlariga muvofiqligini oldindan tekshiradi, ularni milliy sudlarning talablariga binoan sharhlaydi. Yevropa Ittifoqi Sudi ma’muriy tribunal yoki fuqarolik sudi hamdir. Bulardan tashqari, maslahat va tushuntirishlar berish ham uning funksiyalari qatoriga kiradi. Sudning qarorlari yakuniy bo‘lib, uni ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Sud 27 sudyadan iborat. Sudda 8 nafar advokatlar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ular orasidan Bosh advokat tayinlanadi. Sudda ko‘rilayotgan ish bo‘yicha ishni chuqur o‘rganish va xulosalar taqdim etish uning asosiy vazifasi hisoblanadi. Uning xulosalari Sud uchun majburiy emas, ammo sudyalar qaror qabul qilishdan oldin Bosh advokat xulosalarini e’tiborga oladilar.

Keyingi YEI institutlari bevosita iqtisodiy, moliyaviy masalalar bo‘yicha shug‘ullanadigan organlardir.

Yevropa Ittifoqi Markaziy banki (YEIMB) nisbatan Yevropa Ittifoqining yosh institutlaridan biri hisoblanadi. Uning tashkil etilishi

Yevropa Ittifoqining iqtisodiy va valuta ittifoqini yaratish dasturini ilgari surish va amalga oshirish bilan bog‘liq. U ilk marotaba yagona yevropa aktini qabul qilish jarayonida tashkil topdi va undan keyin Maastrixt shartnomasi imzolanganda mazkur institut faoliyati sezilarli darajada qayta ko‘rib chiqildi va to‘ldirildi. Yevropa Ittifoqi Markaziy banki yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan organdir. U o‘z vakolatlari doirasida majburiy qarorlar chiqarish va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega. YEIMB Yevropa Ittifoqining moliya tizimini mustahkamlash va uning pul-kredit siyosatini tartibga solishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu ma’lum darajada yevroning boshqa jahon valutalariga nisbatan barqaror baholanishida aks etdi.

YEIMBning oliy boshqaruv organi Boshqaruvchilar Kengashidir. U YEIMB kengashi a’zolari va milliy Markaziy banklarning bosh-qaruvchilaridan iborat. Kengash yig‘ilishlari yiliga kamida 10 marta o‘tkaziladi. Qarorlar ko‘pchilikning ovoz berishi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kvorum bo‘lmagan taqdirda, rais kvorumni hisobga olmagan holda qaror qabul qiladigan ikkinchi yig‘ilishni chaqirishi mumkin.

Hisob palatasi Yevropa Ittifoqining barcha kirim va chiqimlari, ular tomonidan va ularning ishtiroki bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar, xarajatlar ustidan nazorat olib boruvchi organdir. Hisob palatasi 1992-yilda Yevropa Ittifoqini tuzish to‘g‘risida imzolangan Maastrixt shartnomasiga ko‘ra institut maqomini olgan. Hisob palatasi umumiy xarakterdagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bevosita qabul qilmaydi. Hisob palatasining qarorlari va xulosalari o‘ziga xos huquqiy xususiyatga ega va tor hamda ixtisoslashgan munosabatlar doirasiga taalluqlidir. Bu hisob palatasi vakolatlarining o‘ziga xos xususiyatlari va Yevropa Parlamenti hamda Kengashga Yevropa Ittifoqi budjetini qabul qilish, uning bajarilishini nazorat qilishda yordam beradigan yuqori auditorlik organi maqomidan kelib chiqadi. Yevropa Ittifoqiga a’zo barcha davlatlardan hisob palatasida vakillik qiladilar, tegishlicha uning tarkibi 27 nafar auditordan iborat. Auditorlik uchun nomzodlarni mamlakat milliy organlari ko‘rsatadilar. Lavozimga tayinlash a’zo davlatlar hukumatlarining umumiy roziligi bilan tuzilgan shartnoma

asosida amalga oshiriladi. Hisob palatasining vakolat muddati 6 yil qilib belgilangan. Barcha auditorlar ma’lum ixtisoslashtirilgan bo‘limlar asosida taqsimlanadi. Ushbu ichki tarkibiy bo‘linmalar Yevropa Ittifoqining asosiy yo‘nalishlari va faoliyat yo‘nalishlariga muvofiq tashkil etilgan.

Hisob palatasining asosiy vazifasi Yevropa Ittifoqi hisoblarini tekshirishdir. Hisoblar Yevropa Ittifoqi daromadlari va xarajatlarining umumiyligi bilan bog‘liq holda tekshiriladi. Hisob palatasi, shuningdek, Ittifoq tomonidan tashkil etilgan va Yevropa Ittifoqi budjetida nazarda tutilgan mablag‘lardan foydalanadigan har qanday organ yoki tashkilotning daromadlari hamda xarajatlari yig‘indisi bo‘yicha hisoblarni tekshiradi. Hisob palatasi Yevropa Ittifoqining daromadlarini nazorat qiladi, hisobvaraqlarni va g‘aznachilikda mablag‘larning haqiqiy tushumini tekshiradi. Xarajatlar Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan mavjud majburiyatlar va qilingan to‘lovlar asosida nazorat qilinadi. Hisob palatasining barcha faoliyatini aks ettiruvchi asosiy hujjat bo‘lib moliyaviy yil yakunlari natijalarini sarhisobi bo‘yicha qiladigan yillik hisobotidir.

Yevropa Itifoqi tizimida asosiy organlar bilan bir qatorda boshqa turdagi tuzilmalar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ularning aksariyati maslahat organlari bo‘lib, o‘zlariga tegishli muayyan sohalar bo‘yicha majburiy bo‘lmagan tavsiya va xulosalar beradi. Shuning bilan birgalikda ayrim holatlarda o‘ziga xos nazorat vazifasini ham bajarishi mumkin.

Shulardan biri Iqtisodiy va ijtimoiy qo‘mita (The European Economic and Social Committee – EESC) hisoblanadi. Yevropa hamjamiyatlari qoshida real iqtisodiyotning asosiy subyektlari bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar, fermerlar, ishchilar, hunarmandlar va boshqa manfaatdor guruhlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Mazkur qo‘mitada hozir YEI a’zo davlatlari vakillaridan 344 nafar kishi faoliyat ko‘rsatadi. Qo‘mita bevosita moliya, ijtimoiy jamg‘arma, ta’lim, kasb-hunar ta’limi, yoshlar muammosi, sog‘liqni saqlash, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, sanoatdagi raqobatdoshlik va transyevropa tarmoqlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi.

2.4. Yevropa Ittifoqi integratsiyasining samaradorligi va uning istiqbollari

Yevropa Ittifoqi integratsiyasining kengayishi va chuqurlashuvi bilan birga Yevropa Ittifoqining istiqboldagi tashkiliy qurilmasi haqidagi bahslar hamon davom etmoqda. Munozaralar markazida esa Ittifoqning kelgusidagi jug‘rofiy chegarasi, shakli va huquqiy maqomi qanday bo‘lishi lozimligi masalasi yotadi. Ayniqsa, Buyuk Britaniyaning YEI a’zoligidan chiqib ketishi ortidan bunday bahslar ko‘paydi. Ma’lumki, Buyuk Britaniya aholisi 2016-yilning iyun oyida referendumda YEI tarkibidan chiqish – "Brexit"ni yoqlab ovoz berishdi. 2017-yil martida Qirolicha Yelezaveta II tomonidan mamlakat parlamentining bu boradagi qonuni imzolandi va rasman kuchga kirdi.

Yevropa Ittifoqi kabi yirik va murakkab tizimning evolusiyasi ko‘plab ichki va tashqi omillar, shuningdek, o‘z rivojlanishining mantiqi va qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Bugungi kunda globallashuv integratsiya jarayonlari va mintaqaviy xarakterdagi yangi kuch markazlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Yevropa Ittifoqi kabi integratsiya tipidagi siyosiy va iqtisodiy loyihalar xalqaro siyosiy haqiqatni belgilaydi.

Bozorning birligi Yevropa integratsiyasining asosiy yutug‘idir. Jahon amaliyotiga kirgan tarifsiz to‘siqlarni yo‘q qilishning ko‘plab g‘oyalari va usullari Yevropa Ittifoqi institutlarida tug‘ilgan. Ushbu g‘oyalar, sinov va vaziyatga moslashishning qiyin davri tugagandan so‘ng, aksiomatik, aniq ko‘rindi va integratsiya muammolari muvaffaqiyatsizliklar emas, balki yuqori o‘sishlar va rivojlanishning yangi imkoniyatlarida namoyon bo‘ldi. Asosiy qo‘yilgan tamoyillar: kamsitishni taqiqlash, harakat erkinligi, uyg‘unlashtirish, o‘zaro tan olish, sheriklik, mutanosiblik, mukammal va samarali raqobat integrat-siyaning samaradorligini ta’minladi. Tartibga solish usullari nazorat, qonun, umumiy sanoat bozorlari, umumiy sanoat siyosati, islohot va aktuallashtirishdir. Harakat erkinligining ijobiy ta’siri yangi savdo

oqimlari, ta’minot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va yangi foydali faoliyatning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Yevropa Ittifoqining holatini tavsiflovchi asosiy barqaror parametrlarni tahlil etsak, barcha dunyodagi moliyaviy inqirozlarga qaramay, Yevropa Ittifoqi o‘z faoliyatini dinamik davom ettirmoqda. Turli xil inqirozlarni boshdan kechirgan hamda ba’zi sohalarda disfunksiyalarni namoyish etgan Yevropa Ittifoqi boshqa sohalarda juda samarali va hatto integratsiyani chuqurlashtirish uchun yangi loyihalarni amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda yana o‘nta davlatlarning YEIga a’zolikka da’vogarligi ham uning barqaror faoliyat ko‘rsatayotganidan darak beradi. Ularning yaqin kelajakda qo‘shilishi holati Yevropa Ittifoqining integratsiya konsepsiyalarini o‘zgartirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Buni quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumotlar faqat bir yilgi ko‘rsatkichlar bo‘lsada, u a’zo mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi salohiyatini ifodalaydi.

Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishga intilish nafaqat merkantil manfaatlar va iqtisodiy mulohazalar bilan belgilanadi, balki Yevropa birligi, umumiy mafkura, qadriyatlar tizimi va barcha Yevropa siyosiy tizimlariga xos bo‘lgan inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishga asoslanadi. Aynan shaxsning jamiyatdagi mavqe’i, uning siyosiy jarayondagi roli, hukumatlar tomonidan qandaydir mavhum ijtimoiy qatlam emas, balki shaxs ehtiyojlariga qaratilishi birlashish uchun samarali rag‘batlardan biri sifatida qaraladi.

Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish bo‘yicha qabul qilingan Kopenhagen mezonlari va talablari, a’zolikka da’vogarlarning arizalarini ko‘rib chiqish yuzasidan belgilangan jarayonlar tartibi, umuman olganda, salohiyatli nomzodlarni qabul qilishni ta’minlaydi. Bu esa ittifoqning kengayishi barobarida unda yangi muammolar yuzaga kelmasligini oldini oladi. Shuningdek, ittifoqqa qo‘shilgan davlatlar oldida ham iqtisodiy talablar qo‘yilgan.

4-jadval

Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2022-yil

	Mamlakatlar, YEI a’zolari	Maydoni km²	Aholi soni, kishi	YaIM, (XQP) mln.AQSH doll.	Jon boshiga YaIM, AQSH doll.	Inflatsiya darajasi, %	Ishsizlik darajasi, %
1	Avstriya	83,871	8,958,960	622,665	69,502	10,5	4,6
2	Belgiya	30,528	11,686,140	765,453	65,501	10,2	5,9
3	Bolgariya	110,879	6,687,717	214,047	32,006	14,3	4,6
4	Xorvatiya	56,594	4,008,617	170,490	42,531	12,7	6,4
5	Kipr	9,251	1,260,138	68,817	54,611	7,6	8
6	Chexiya	78,867	10,495,295	534,850	50,961	16,8	2,3
7	Daniya	43,094	5,910,913	433,778	73,386	9,6	4,6
8	Estoniya	45,228	1,322,765	61,356	46,385	17,5	5,8
9	Finlandiya	338,145	5,545,475	337,702	60,897	8,8	7,1
10	Fransiya	643,801	64,756,584	3,809,500	58,828	6,7	7,5
11	Germaniya	357,022	83,294,633	5,508,440	66,132	9,6	2,9
12	Gretsiya	131,957	10,341,277	408,252	39,478	7,6	11,4
13	Vengriya	93,028	10,156,239	445,929	43,907	25	3,5
14	Irlandiya	70,273	5,056,935	734,246	145,196	8,2	4,2
15	Italiya	301,34	58,870,762	3,191,737	54,216	12,3	7,9
16	Latviya	64,589	1,830,211	73,676	40,256	20,7	6,5
17	Litva	65,300	2,718,352	133,922	49,266	20	5,2
18	Luksemburg	2,586	654,768	9,329	142,49	6,2	4,3
19	Malta	316	535,064	33,141	61,939	7,3	2,9

	Mamlakatlar, YEI a’zolari	Maydoni km²	Aholi soni, kishi	YaIM, (XQP) mln.AQSH doll.	Jon boshiga YaIM, AQSH doll.	Inflatsiya darajasi, %	Ishsizlik darajasi, %
20	Niderlandiya	41,543	17,618,299	1,285,660	72,973	11	3,6
21	Polsha	312,685	41,026,067	1,860,244	45,343	15,3	2,6
22	Portugaliya	92,090	10,247,605	458,139	44,707	9,8	5,9
23	Ruminiya	238,391	19,892,812	828,217	41,634	14,1	5,2
24	Slovakiya	49,035	5,795,199	240,587	41,515	15	6,2
25	Sloveniya	20,273	2,119,675	111,581	52,641	10,8	4,2
26	Ispaniya	505,370	47,519,628	2,349,750	49,448	5,5	12,6
27	Shvetsiya	450,295	10,612,086	698,720	65,842	10,8	7

Manba: https://ec.europa.eu/eurostat/documents/2995521/15725179/2-18012023-AP-EN.pdf/e301db8f-984c-27e2-1245-199a89f37bca , https://viborc.com/unemployment-rates-in-europe-per-country-latest-data-for-2022/

Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomani imzolagan davlatlar Yevropa va valuta Ittifoqiga a’zo davlatlar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan mezonlar quyidagilardan iborat:

- Davlat budjeti kamomadi YaIMning 3 foizidan oshmasligi;
- Davlat qarzi YaIMning 60 foizidan kam bo‘lishi;
- Davlat ikki yil mobaynida valuta kurslari mexanizmida ishtirok etishi va oldindan belgilangan diapazonda milliy valuta kursini qo‘llab-quvvatlashi. Valuta kursi Yevropa valuta tizimi tomonidan belgilangan tebranishlar chegarasidan oshmasligi;
- Inflyatsiya darajasi Yevropa ittifoqining eng barqaror narx-navolarga ega uch a’zosi o‘rtacha qiymatidan 1,5 foizga oshmasligi;
- Davlat obligatsiyalari bo‘yicha uzoq muddatli foiz stavkalari inflatsiya darajasi eng past bo‘lgan mamlakatlardagi shu stavkalarning o‘rtacha qiymatidan 2 foizga oshmasligi.

Yevropa komissiyasi nomzodlarni arizalarini ko‘rib chiqishda muzokaralarni oltita tematik bloklarga guruhlashni taklif qilgan. Bular fundamental asoslar, ichki bozor, raqobatbardoshlik va inklyuziv o‘sish, ekologiya va barqaror aloqalar, resurslar hamda qishloq xo‘jaligi, tashqi aloqalar.

Ma’lumki, oxirgi yillarda ba’zi tashkil etilayotgan integratsion tipidagi tashkilotlar o‘zlarining nizomlarida yuksak maqsadlarni bayon qilsalarda amalda ularning faoliyatlarida bir tomonlilik kuzatilyapti. Sovuq urush davrlarida bo‘lgani kabi ikki qutblilikka intilishlar sezilmoqda. Bunday sharoitda dunyoda integratsiyani kuchaytirishga umumiy salbiy munosabat yuzaga kelishi tabiiydir. Bu shuni ko‘rsatadiki, integratsiya masalalarining murakkabligi va teskari yo‘nalishda harakat qilish xavfini e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Ushbu salbiy tendensiyalarni tushunish va ushbu muammoni hal qilishga urinish uchun integratsiya o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki aholi turmush darajasini oshirishni ta’minlash vositasi ekanligini tan olish kerak. Barcha mamlakatlar ishonchli institutlarni shakllantirish va integratsiya orqali mahsuldorlikning barqaror o‘sishi va qashshoqlikni kamaytirishni ta’minlaydigan samarali siyosat choralarini ishlab chiqishga alohida e’tibor berishlari kerak.

Tayanch iboralar: Yevropeizm, dirijizm, neokeynsianizm, multikulturalizm.

Nazorat savollari

1. Dirijizmning asosiy xususiyatlarini yoriting.
2. Multikulturalizmning mohiyatini ochib bering.
3. Neokeynsianizmning integratsiyaga bog‘liq asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. Kopenhagen mezonlariga nimalar kiradi?
5. Yevropa Ittifoqi shakllanishining asosiy bosqichlarini yoritib bering.
6. Yevropa Ittifoqini boshqarish organlariga xarakteristika bering.
7. Yevropa Ittifoqining kengayishi sabablarini izohlang.
8. Yevropa Ittifoqiga a’zolikka kirishning asosiy mezonlari nimalardan iborat?
9. Mamlakatlar o‘rtasida integratsion hamkorlikni rivojlantirish uchun qanday standart sharoitlar mavjud?
10. Yevropani birlashtirishning asosiy g‘oyalarini tushuntirib bering.
11. Qaysi qonuniyatlar asosida integratsiya ko‘p hollarda unda ishtirok etayotgan mamlakatlar farovonligining umumiy o‘sishiga olib keladi?
12. Yevropa valuta Ittifoqiga a’zo mamlakatlarga qo‘yiladigan talablarni sanab o‘ting.
13. Hozirgi bosqichda Yevropa iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy muammolari nimalardan iborat?
14. Yevropa Ittifoqi iqtisodiy integratsiyasi Markaziy Osiyo davlatlarida integratsion jarayonlarni rivojlantirish uchun model bo‘la oladimi?
15. Ochiq va yangi mintaqaviylik tushunchalarining mohiyati nimada?
16. Integratsion hamkorlik strategiyasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
17. Yevropa Ittifoqi va YeAST doirasidagi iqtisodiy integratsiyaning xususiyatlari nimalardan iborat?

III BOB. SHIMOLIY AMERIKADA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV XUSUSIYATLARI

3.1. Shimoliy Amerikada iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishini ichki va tashqi shart-sharoitlari. NAFTAning samaradorligi.

3.2. Shimoliy Amerika integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

3.3. Shimoliy Amerika integratsiyasining qayta tuzilishi sabablari va zamonaviy holati.

3.1. Shimoliy Amerikada iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishini ichki va tashqi shart-sharoitlari. NAFTAning samaradorligi

Zamonaviy sharoitda dunyoning deyarli hech bir mamlakati boshqa davlatlar bilan o‘zaro aloqasiz samarali rivojlana olmaydi. Mamlakatlar o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy, geosiyosiy yoki geoiqtisodiy manfaatlariga asoslanib birlashadilar. Shu jihatdan Shimoliy Amerikada ham integratsion birlashish o‘ziga xos bo‘lgan tashkilot sifatida yuzaga keldi.

XX asr oxirida dunyoda yuz bergan o‘zgarishlar Lotin Amerikasiga, uning tashqi iqtisodiy pozitsiyalariga va mintaqaviy integratsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1980-yillarning oxiridan boshlab Lotin Amerikasi davlatlarining aksariyati, shu jumladan, Meksika globallashuvning asosiy yo‘nalishlariga mos keladigan keng ko‘lamli makroiqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Bu jarayon uzoq vaqtdan beri rivojlanib kelayotgan asosiy tushunchalarga muvofiq neoliberalizm tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq edi. Dunyoning tubdan o‘zgargan iqtisodiy va siyosiy sharoitida turli mintaqalar mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ahamiyati keskin oshdi. Shu bilan birga, agar an’anaviy ravishda mintaqaviy integratsiya nisbatan taqqoslanadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ega davlatlarni qamrab olgan bo‘lsa, ya’ni rivojlangan mamlakatlar – YEIH doirasida, keyinroq esa – YEI doirasida

integratsiyalashgani holda, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda globallashayotgan dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi davlatlar orasida yangi mintaqaviy integratsion guruhlar tashkil etila boshlandi. Ulardan biri 1994-yilda AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasida tuzilgan ***Shimoliy Amerika Erkin Savdo Shartnomasi (North American Free Trade Agreement -NAFTA***-) edi.

Ta’kidlash lozimki, mintaqada integratsion jarayonlar, eng avvalo AQSH va Kanada o‘rtasida boshlangan.

Umuman olganda, Shimoliy Amerika davlatlaridagi integratsiya jarayonlari nisbatan uzoq tarixga ega, ular NAFTA shartnomasi imzolanishi va kuchga kirishidan ancha oldin boshlangan. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng, 1947-yilda "Abbott rejasi" (Kanada Moliya vaziri Duglas Abbott nomi bilan atalgan) qabul qilindi va keyinchalik amalga oshirildi, bu AQSH sanoat korporatsiyalari tomonidan Kanada iqtisodiyotining bir qator yetakchi tarmoqlari korxonalariga investitsiyalarni rag‘batlantirishni ta’minladi. Bu ishbilarmon doiralarning strategik intilishlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri talablariga siyosiy javob bo‘ldi va ikki mamlakatning iqtisodiy yaqinlashuvi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qildi. 1959-yilda AQSH va Kanada harbiy texnikani birgalikda ishlab chiqarish to‘g‘risida shartnoma imzoladilar, bu Kanadada mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishda AQSHning texnik va texnologik standartlarini joriy etishga yordam berdi. Ikkala mamlakat o‘rtasidagi navbatdagi integratsion bosqich 1965-yildagi avtomobil mahsulotlari savdosini liberallashtirish bo‘yicha tuzilgan shartnoma bo‘lib, bu o‘z navbatida boshqa ko‘plab tarmoqlarning integratsiyasini rag‘batlantirdi. Tarmoqlararo hamkorlik asosida erishilgan kelishuvning amalga oshirilishi iqtisodiyotning boshqa ko‘plab tarmoqlarini qamrab oldi va sanoat hamda tijorat aloqalarini integratsiyalashning keng tizimini shakllantirish jarayonini tezlashtirdi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu tendensiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, XX asrning 80-yillarida G‘arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi va dunyoning boshqa qismlarida integratsion birlashish jarayonlari fonida AQSH-Kanada iqtisodiy yaqinlashuvini

institutsionalizatsiya qilish masalasini kun tartibiga qo‘yildi. 1985-yil sentabr oyida Kanada hukumati tashabbus ko‘rsatib, Qo‘shma Shtatlarni ikki tomonlama erkin savdo rejimini o‘rnatish bo‘yicha muzokaralarni boshlashga taklif qildi. Mamlakatlar umumiy manfaatlarini ta’kidlashga, kelgusida harbiy-siyosiy va iqtisodiy yaqinlashishga tayyorliklarini namoyish etishga intildilar. Natijada 1987-yilning oktabrida ***AQSH-Kanada Erkin savdo shartnomasi (Canada – United States Free Trade Agreement, CUSFTA)*** imzolandi va 1988-yilning 2-yanvarida ratifikat-siya qilindi. Unga ko‘ra o‘n yil ichida AQSH va Kanada ikki tomonlama savdodagi ko‘p to‘siqlarni bartaraf etishlari va o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha harakatlar qilishlari belgilangan.

Kanada va AQSH o‘rtasidagi savdo aloqalari turli hujjatlar bilan tartibga solingan: 1988-yildagi Erkin savdo shartnomasi; Shimoliy Amerika Erkin savdo shartnomasi (NAFTA) bunda Meksika ham a’zo bo‘ldi (1992-yil 17-dekabrda imzolangan va 1994-yil 1-yanvardan kuchga kirgan); va 2020-yil 1-iyuldan USMCA (The United States-Mexico-Canada Agreement) shartnomasi. Har bir keyingi kelishuv avvalgisidan farq qilib, bu esa mavjud muammolarni hal qilish uchun yangi qoidalar va tamoyillarni ishlab chiqishni talab qilgan.

Mazkur integratsiya bloki yuqori darajada rivojlangan ikkita mamlakatni (AQSH va Kanada) hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ulardan jiddiy past bo‘lgan davlat Meksika iqtisodiyotini birlashtirishga qaratildi. Integratsiyaga kirishish maqsadida o‘zaro kelishuvni imzolash orqali uchta ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha o‘xshash bo‘lmagan ishtirokchilarning har biri o‘z manfaatlarini ko‘zlaganlar. NAFTAga qo‘shilish orqali Meksika Hukumati quyidagilarni maqsad qilib qo‘ygan edi:

- Meksika aholisi uchun yetarli miqdordagi yaxshi maoshli ish o‘rinlarini yaratish va shu bilan qo‘shni mamlakatlarga immigratsiyani to‘xtatish;
- to‘g‘ridan - to‘g‘ri xorijiy va ichki investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirish;
- iqtisodiy o‘sish va mehnat unumdorligini tezlashtirish;

- ishlab chiqarish majmuasini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish;
- ijtimoiy ta’minotning yuqori darajasiga erishish;
- Shimoliy Amerika bozoriga kirishni kafolatlash;
- AQSH tomonidan bir tomonlama harakat qilish imkoniyatlarini cheklovchi tashkiliy-huquqiy bazani yaratish;
- mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lish;
- moliya tizimi va milliy valutasining barqarorligini ta’minlash.

O‘z navbatida, Qo‘shma Shtatlar Meksikaning boy tabiiy resurslari bozoriga kirib Yevropa va Osiyoda integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida o‘zining yetakchi iqtisodiy mavqeini mustahkamlashni maqsad qilgan. Shuningdek, NAFTA bo‘yicha AQSH strategiyasi uchta ishtirokchi davlatning qiyosiy afzalliklarini birlashtirishdan iborat edi, bular: AQSHning yuqori texnologiyalari va investitsiyalari, Kanadaning tabiiy resurslari va Meksikaning arzon ishchi kuchi. Kanadaning shartnomani tuzishdan maqsadi nafaqat AQSH-Kanada Erkin savdo shartnomasi (Canada – United States Free Trade Agreement, CUSFTA) afzalliklarini saqlab qolish, balki uning ba’zi qoidalarini o‘zgartirish, shuningdek, o‘z mahsulotlarini Meksika bozoriga va kelajakda Lotin Amerikasi mamlakatlarining tez rivojlanayotgan bozorlariga ishonchli kirishini ta’minlash imkoniyati bilan bog‘liq edi. NAFTA konsensual xususiyatiga qaramasdan, kelishuv sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarning bog‘liqlik va assimmetrik xususiyatlarini birlashtirdi, bu esa Meksikaning uzoq muddatli tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

NAFTAning shartnomaviy-huquqiy bazasi quyidagilardan iborat edi:

- erkin savdo hududi to‘g‘risidagi asosiy bitim;
- mehnat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim;
- ekologiya sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim;
- avtomobillar, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va kiyim-kechak bo‘yicha alohida shartnomalar (shu jumladan, ikki tomonlama).

Shartnomaning asosiy maqsadlari ko‘p jihatdan boshqa integratsion guruhlar oldiga qo‘ygan maqsadlarga o‘xshagan holda quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- 10 yil ichida erkin savdo hududini shakllantirish;
- kompaniyalar uchun kelishilgan tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqish;
- a’zo davlatlar aholisining farovonligini oshirish;
- o‘zaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirish;
- mintaqada halol va adolatli raqobatni ta’minlash;
- intellektual mulk huquqini himoya qilish;
- o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish.

Shartnoma me’yorlari tovarlar savdosi, tovarning kelib chiqish qoidalari, bojxona, qishloq xo‘jaligi, savdo va subsidiyalar, standartlar, davlat xaridlari, investitsiyalar va xizmatlar, tadbirkorlarning trans-chegaraviy harakati, nizolarni hal qilishni qamrab olgan.

NAFTA shartnomasining imzolanishi nafaqat sherik hukumatlar tomonidan qo‘yilgan iqtisodiy va sarmoyaviy vazifalarni hal qildi, balki uch mamlakat o‘rtasidagi diplomatik, siyosiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam berdi. NAFTA nafaqat uch davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini liberallashtirish vositasi, balki investitsiyalar, ilmiy tadqiqotlar, xizmat ko‘rsatish sohasini liberallashtirish va nizolarni hal qilishni tartibga soluvchi shartnomalar tizimi edi; uch tomonlama hamkorlik doirasida, yuqorida aytib o‘tilganidek, mehnat qonunchiligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qo‘shimcha protokollar, bandlar mavjud.

Shartnomaning ayrim bandlari va ularning bajarilganligini tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagilarni keltirish mumkin.

NAFTA qoidalari bir qator qishloq xo‘jaligi tovarlari, ayrim xizmatlar, Meksikaning energetika sohasiga investitsiyalar, subsidiya qoidalari va antidemping qoidalari kabi sohalarni qamrab olmaydi. NAFTA bo‘yicha boj to‘lovlari 2008-yil 1-yanvar batamom bekor qilindi. Savdodagi cheklovlar esa 14 yil davomida bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Jumladan, Meksika 1994-yilning 1-yanvaridan AQSHdan

olib kelinadigan sanoat mahsulotlarining 50 %iga, boshqa tovarlarga esa 2008-yil 1-yanvardan bojxona to‘lovlarini bekor qildi. AQSH va Kanada o‘rtasidagi savdo bojlari 1998-yilning 1-yanvaridan CUSFTA me’yorlariga muvofiq, Meksika va AQSH o‘rtasidagi savdo, Kanada va Meksika o‘rtasidagi savdo bojlari 2008-yil 1-yanvardan bekor qilindi. Shakar, sut mahsulotlari, un va tuxum kabi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq ba’zi tovarlar bundan mustasno bo‘ldi. Tarifsiz cheklovlar masalasida, import va eksport cheklovlari, bojxona to‘lovlari va eksport soliqlari bekor qilindi.

Shartnoma har bir ishtirokchi mamlakatning inson salomatligi, hayvonlar va o‘simliklar hayotini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan har qanday sanitariya va fitosanitariya standartlarini qo‘llash, saqlash yoki joriy etish huquqini belgilab berdi. Ushbu qoidalar ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan, kamsitilmaydigan, shaffof va savdoni minimal darajada cheklashi kerak edi. Xizmatlar savdosida kamsitmaslik, savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi tamoyillari o‘rnatildi. Uchala mamlakatning har biri belgilangan me’yorlarga mos kelmaydigan choralarni ko‘rmaslikni o‘z zimmasiga oldi. Ular deyarli barcha xizmat ko‘rsatish sohalarini qamrab oldi. Ayni bir paytda xalqaro havo transporti, moliyaviy xizmatlar va hukumatlar yoki davlat korxonalari tomonidan qilinadigan davlat xaridlari esa bundan mustasno bo‘ldi.

O‘zaro iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlaridan biri qishloq xo‘jaligi edi. 2008-yil 1-yanvarga kelib NAFTA ga a’zo mamlakatlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘zaro savdosi uchun bir qator to‘siqlar bartaraf qilindi. Natijada NAFTA umumiy qishloq xo‘jaligi bozori shakllandi, o‘zaro savdo hajmi oshdi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga investitsiyalar ko‘paydi. Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosatni muvofiqlashtirishga kelishib olindi.

NAFTA shartnomasida o‘zaro investitsiyalarni tartibga solish uchun batafsil shartlar mavjud. O‘zaro kapital oqimlarining uchta asosiy rejimini belgilaydigan "investitsiyalar" bo‘limida: milliy rejim, eng qulay sharoit yaratish rejimi va kamsitmaslik rejimi keltirilgan. Ushbu bo‘limning boshqa muhim qoidalari xorijiy faoliyatdan olingan

daromadlarni erkin o‘tkazish; tegishli kompensatsiya bilan chet el mulkini ekspropriatsiya qilish mexanizmini yaratish; investitsiya nizolarini hal qilish tartibini aniqlash hisoblanadi.

Integratsiya doirasida ekologik hamkorlik to‘g‘risida mamlakatlar o‘rtasida shartnoma (NAAEC – North American Agreement on Ecological Cooperation) imzolangan bo‘lib, uning asosiy maqsadlari:

- a’zo mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni yaxshilash darajasini oshirish;
- barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish;
- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni faollashtirish;
- atrof-muhitni, shu jumladan, flora va faunani saqlash;
- savdo to‘siqlarini qo‘llamaslik;
- ekologik qonunchilik va tartibga solish qoidalarini ishlab chiqishda shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash.

NAFTA doirasidagi hamkorlikning navbatdagi sohasi mehnat kooperatsiyasi to‘g‘risidagi shartnoma (NAALC – North American Agreement on Labour Cooperation) bo‘lib, milliy mehnat qonunlari va qoidalarining samarali bajarilishini rag‘batlantirishga, mamlakatlar o‘rtasida mehnat hamkorligini rag‘batlantirishga qaratilgan. Mehnat kooperatsiyasi tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- uyushma va tashkilotlarning erkinligi huquqi;
- jamoaviy mehnat shartnomasi huquqi;
- namoyish va mitinglar o‘tkazish huquqi;
- majburiy mehnatni taqiqlash;
- bolalar va o‘smirlarning mehnat muhofazasi;
- minimal bandlik standarti;
- erkaklar va ayollar uchun teng ish haqi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasalliklarning oldini olish;
- baxtsiz hodisa yoki kasallik tufayli sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan taqdirda kompensatsiya to‘lash;
- migrant ishchilar huquqlarini himoya qilish.

Shartnomaga ko‘ra, mamlakatlar quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmalariga olganlar:

(1) Mehnatni muhofaza qilish sohasida: milliy mehnat qonunchiligi yuqori mehnat standartlariga javob berishi kerak.

(2) Qabul qilingan davlat choralari sohasida: mehnat qonunchiligini samarali amalga oshirishga ko‘maklashish; mehnat qonunchiligi buzilgan taqdirda, har bir tomon vakolatli organlarni tergov o‘tkazishga jalb qilishi shart.

(3) Xususiy harakatlar sohasida: mehnat qonunchiligi buzilgan taqdirda, tomonlar jabrlanuvchilarga sud majlislarida qatnashish imkoniyatini berishlari kerak.

(4) Kafolat protseduralari sohasida: mehnat qonunchiligi buzilgan taqdirda sud tergovi halol, teng va shaffof bo‘lishi kerak; sud nizolari bo‘yicha yakuniy qaror yozma ravishda ochiq taqdim etilishi kerak.

(5) Ommaviy axborot vositalari sohasida: tomonlar milliy qonunchilik, qoidalar va protseduralarning nashr etilishi yoki boshqa usullarini ta’minlashlari shart.

(6) Axborot sohasida: tomonlar mehnat qonunchiligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishga yordam berishlari va mehnat munosabatlari sohasida o‘qitishni rag‘batlantirishlari kerak.

Shunday qilib, Shimoliy Amerika mintaqasida erkin savdo zonasini yaratish bir qator omillarga bog‘liq bo‘ldi:

- ishtirokchi mamlakatlarning geografik yaqinligi va milliy iqtisodiyot tuzilmalarida bir-birini to‘ldiruvchi elementlarining mavjudligi;
- ular o‘rtasidagi yaqin savdo aloqalari va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayganligi;
- AQSH nazorati ostidagi TMKlar tarmog‘ining Kanada va Meksikada, Kanada TMKlarining AQSHda o‘sib borishi;
- Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va yangi industrial mamlakatlarining jahon bozoridagi pozitsiyalarining mustahkamlanishi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning assimmetriyasiga qaramay, Kanada va Meksikaning jahon iqtisodiyotining yetakchisi bo‘lgan AQSH

bilan birlashishi ularning tashqi savdo aylanmasining o‘sishiga hissa qo‘shdi, xalqaro mehnat taqsimotida ularning pozitsiyalarini mustahkamladi va ularga siyosiy maydonda katta ta’sir ko‘rsatdi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Yevropa Ittifoqidan keyin ikkinchi bo‘lgan Shimoliy Amerika mintaqaviy integratsiyasining paydo bo‘lishi nafaqat G‘arbiy yarim sharda an’anaviy manzarani o‘zgartirdi, balki butun dunyo iqtisodiy munosabatlari tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

NAFTA shartnomasi yangilanishiga qadar bo‘lgan davrdagi ma’lumotlar tahlil etilganda integratsiyadan uchala mamlakat ham ijobiy samara olgan. Jumladan, 1993-2017-yillarda a’zolar o‘rtasidagi savdo hajmi 297 mlrd. AQSH dollaridan 1170 mlrd. dollariga yetgan yoki to‘rt marotaba oshgan, bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish, bandlik, korporativ daromadlar va soliq tushumlarining ko‘payishiga olib kelgan. Mazkur davrda AQSHning qo‘shni davlatlarga eksporti 142 dan 525 milliard dollargacha, qo‘shnilarning AQSHga importi esa 151mlrd AQSH dollaridan 614 milliardgacha o‘sgan[14].

NAFTA bo‘yicha import bojlarining bekor qilinishi import qilinadigan tovarlar narxining pasayishiga olib keldi, bu inflyatsiya jarayonlarini jilovlashga yordam berdi va AQSH Federal rezerv tizimi, Kanada va Meksika Markaziy banki asosiy stavkalarni nisbatan past darajada ushlab turishiga imkon berdi. AQSH uchun Meksika va Kanada neftining arzonroq importi alohida ahamiyatga ega edi, chunki AQSH bozori chet eldan uni sotib olishga bog‘liqligi mavjud edi. Shuningdek, integratsiyaning kuchayishi ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, go‘sht mahsulotlari, sabzavot va mevalar narxini pasaytirishga yordam berdi.

Integratsiya mamlakatlarda YaIMning o‘sishiga omil bo‘ldi. Bunda avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi korxonalari va xizmat ko‘rsatish sohalarining hissasi yuqori bo‘ldi. Xususan, oziq-ovqat importiga an’anaviy ravishda yuqori Meksika bojlarining kamayishi amerikalik fermerlarga Meksika bozoriga go‘sht, guruch, soya mahsulotlari, olma, makkajo‘xori, o‘simlik moyi va boshqalarni yetkazib berishni sezilarli

[14] https://fas.org/sgp/crs/row/R44981.pdf

darajada oshirishga imkon berdi. Natijada, Meksika va Kanada AQSH qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tovarlarining asosiy xaridorlariga aylandi. Shu bilan birga, Shimoliy Amerika bozorlarining integratsiyasi 1980-1990-yillarda Yaponiya va G‘arbiy Yevropa ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatda sezilarli darajada yutqazgan AQSH avtomobilsozlik sanoatini modernizatsiya qilishga sezilarli hissa qo‘shdi. NAFTA doirasida Kanada Ontario viloyatidan AQSH orqali Detroit va Meksikaning Shimoliy shtatlarigacha Shimoliy Amerika avtomobilsozlik sanoatining texnologik jihatdan chambarchas bog‘liq korxonalarida raqobatbardosh ishlab chiqarish zanjiri rivojlandi.

NAFTAda ishtirok etish AQSH mehnat bozoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Kanada va Meksikaga eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning o‘sishi 5 million yangi ish o‘rinlari yaratilishiga sabab bo‘ldi. Amerikaning barcha eksport qiluvchi kompaniyalarining qariyb 43 foizi, ya’ni 130 mingdan ortiq korxona o‘z mahsulotlarini Meksika va Kanada bozorlariga yo‘naltirgan. Kanada va Meksikadan import ham AQSH bandligining o‘sishiga yordam berdi, chunki Meksikada sotib olingan tovarlarning 40 foizi AQSH laboratoriyalari va dizayn markazlarida ixtiro qilingan va ishlab chiqilgan[15].

NAFTA shartnomasida xususiy xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan kafolat rejimi ushbu sohadagi vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Agar ilgari Meksika va Kanada hukumati milliy iqtisodiyot ustidan tashqi nazoratdan qo‘rqib, AQSH korporatsiyalari tomonidan investitsiyalar oqimini tartibga solishga harakat qilgan bo‘lsa, endi Meksika va Kanada transmilliy kapitalning deyarli barcha to‘siqlarini bartaraf etishdi. Natijada, AQSH TMKlari deyarli to‘liq erkinlikka ega bo‘ldilar, buning natijasida 1993-2016-yillarda qo‘shni mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning to‘plangan hajmi 5,3 baravar oshdi: 85,1 mlrd. dollardan 451,5 milliard dollargacha o‘sdi[16].

[15] NAFTA, 20 Years Later: Do the Benefits Outweigh the Costs? Feb 19, 2014. A business journal from the Wharton School of the University of Pennsylvania.
[16] Villareal, M. Angeles, Fergusson, Ian F. NAFTA Renegotiation and Modernization/ https://ecommons.cornell.edu/items/07210efd-0980-4f13-9e90-9061427e331e

NAFTA shartnomasi yangilanmagunga qadar a’zo bo‘lgan mamlakatlarning asosiy ko‘rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin:

5-jadval

NAFTA mamlakatlarining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[17]

Ko‘rsatkichlar	**AQSH**		**Kanada**		**Meksika**	
	1994	**2017**	**1994**	**2017**	**1994**	**2017**
Aholi soni (mln. kishi)	263	327	29	36	93	129
Hududi (ming km. kv)	9827	9827	9985	9985	1964	1964
Nominal YaIM						
(mlrd doll.)	7309	19371	548	1627	508	1148
YaIM XPQ bo‘yicha (mlrd doll.)	7309	19371	654	1671	790	2372
Nominal jon boshiga YaIM (doll.)	27777	59332	19914	44415	5499	8890
Jon boshiga YaIM XPQ bo‘yicha (doll.)	27777	59332	22531	45639	8555	18370
Tovar va xizmatlar eksporti (mlrd. doll.)	730	2344	181	504	71	436
Eksportning YaIMdagi ulushi %	10	12	33	31	14	38
Tovar va xizmatlarning importi (mlrd. doll.)	804	2915	175	553	91	448
Importning YaIMdagi ulushi, %	11	15	32	34	18	39

NAFTA bank sektori faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, Kanadadagi AQSH banklari va AQSHdagi Kanada banklarining faoliyati kuchaydi. AQSH banklari va boshqa moliya institutlariga Meksikada o‘z filiallarini ochish imkoniyati berildi.

Makiladoreslarning (Meksikadagi erkin savdo hududlari) tez o‘sishida xorijiy kompaniyalar va asosan AQSHning pozitsiyalari kuchli

[17] fas.org/sgp/crs/row/R44981.pdf

bo‘ldi va bu Meksika iqtisodiyotini liberallashtirish jarayonini tezlashtirdi. Xorijiy kompaniyalarning asosiy hissasi texnologiyalarni uzatish bilan bog‘liq edi.

Shartnoma bir tomondan Meksikada, ikkinchi tomondan AQSH va Kanadada aholi jon boshiga daromadlarni tabaqalashtirish darajasini pasaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmadi. Integratsion guruhlarga a’zolik mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqni kamaytirishga yordam berdi. Shartnoma meksikalik sanoatchilarga AQSH texnologik yangiliklarini tezroq qabul qilishga yordam berdi va shu bilan ish o‘rinlari soni hamda sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatdi.

Ayni bir paytda integratsiya Meksika iqtisodiyotiga umuman olganda ijobiy ta’sir etgan bo‘lsada, ba’zi sohalarda salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, industrlashtirish va erkinlashtirish ortidan mehnat unumdorligi o‘sishi oqibatida qishloq xo‘jaligida bir qator fermerlar ish o‘rinlarini yo‘qotdilar. Aslini olganda bu tabiiy holdir. Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, dunyo mamlakatlarida urbanizatsiyalashish, sanoatlashish bevosita qishloq xo‘jaligi hissasining unumdorlik hisobiga qisqarishi va sanoatning o‘sishi bilan xarakterlangan. Meksikaning NAFTAga a’zoligi eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishiga hissa qo‘shdi, ammo ichki iste’molga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishda bu sezilmadi. Shuningdek, mamlakatning shimol va janubi o‘rtasida mehnat unumdorligi darajasida farqlar saqlanib qoldi. Bundan tashqari, aholining daromad darajasi bo‘yicha farqlarning chuqurlashi, 30 mingga yaqin kichik va o‘rta sanoat korxonalarining vayron bo‘lishi, makiladores zonalarida joylashmagan korxonalarda ish haqining kamligi kabilar salbiy holat sifatida ko‘rildi.

Kanada iqtisodiyotiga ta’siriga kelsak, u AQSH va Meksikaga nisbatan umuman olganda kamroq foyda oldi. Kanadaning NAFTAdagi ishtirokining muhim afzalligi boshqa sheriklarga nisbatan YaIMning tezroq o‘sishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Kanada iqtisodiyotining ixtisoslashuvi chuqurlashdi, kapital talab qiladigan va yuqori texnologiyali sanoat sohalari rivojlandi, Kanada eksportining raqobatbardoshligi oshdi, milliy eksportda sanoat mahsulotlarining ulushi ham muttasil ortib bordi. Ijobiy

ta’sirlardan yana biri bu o‘zaro savdoning o‘sishi bo‘lib, 1994-2018-yillarda AQSH bilan 2 baravar va Meksika bilan 4 baravar ko‘paydi. Kanada eksportining tovar tarkibi avtomobillar, uskunalar va sanoat mahsulotlari kabi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar foydasiga o‘zgardi. Ilgari yopiq bo‘lgan Meksika bozoriga, ayniqsa ilgari proteksionizm bilan himoyalangan avtomobilsozlik, moliyaviy xizmatlar, energetika va baliqchilik kabi sohalarga Kanadaning kirishi unga afzalliklar keltirdi.

Meksika hukumatining energiya, bank, telekommunikatsiya va transportni liberallashtirish siyosati tufayli Kanadaning Meksikaga eksporti yanada diversifikatsiya qilindi, bu esa Kanada kompaniyalariga Meksikaga eksportni kengaytirishga imkon berdi.

Kanada iqtisodiyotiga integratsiyaning yana bir ta’siri xorijiy investitsiyalar oqimining ko‘payishida namoyon bo‘ldi. NAFTA faoliyati Kanadaning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirdi va kanadaliklarga NAFTAga a’zo bo‘lgan boshqa ikki mamlakatdan kapitalni jalb qilish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Kanada iqtisodiyotiga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarning taxminan 70% NAFTA sheriklariga tegishli bo‘ldi. Kanadaning moliyaviy xizmatlar, transportni rivojlantirish, avtomobilsozlik, energiya, telekommunikatsiya xizmatlari, oziq-ovqat, ichimliklar ishlab chiqarish va kimyo sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli natijalarga erishildi. Investitsiya oqimlarining o‘sishi korxonalar va uskunalarni modernizatsiya qilish imkonini berdi. Kanada iqtisodiyotidagi asosiy investor AQSH bo‘lib, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalarning 3dan 2 qismi uning hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ayni bir paytning o‘zida, AQSH Kanadadan sarmoya oluvchi hisoblanadi, bu korxonalarning birlashishi, sotib olinishi, qo‘shma korxonalar, yangi loyihalar bo‘yicha strategik bitimlar asosida jalb qilingan sarmoyalardir. NAFTAga a’zolik Kanada qishloq xo‘jaligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, ishlab chiqarishning o‘sishini rag‘batlantirdi va bandlikni oshirdi. AQSHning Detroitiga yaqin joylashgan shaharlarda avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish va

ularni chegaraning har ikki tarafida yig‘ish tomonidan ham afzalliklarga ega bo‘ldi.

Kanada uchun NAFTA shartnomasida ishtirok etish xarajatlari yoki salbiy jihati ko‘p mehnat talab qiladigan sohalarda ish bilan band bo‘lganlarning qisqarishi va arzon ishchi kuchi omili tufayli Meksikaga ko‘chirilganligi, shuningdek, AQSHning yirik TMKlari bilan raqobatlasha olmaydigan kichik va o‘rta kompaniyalarning yopilishi hisoblanadi.

3.2. Shimoliy Amerika integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari

Shimoliy Amerikadagi iqtisodiy integratsiya ko‘plab yuqori rivojlangan davlatlarning muvofiqlashtirilgan tartibga solish faoliyatiga asoslangan G‘arbiy Yevropa va Osiyodagi integratsiyadan farq qiladi.

Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan keyin G‘arbiy Yevropa davlatlarini birlashtirishning asosiy sababi boshlanishida ko‘proq siyosiy edi: abadiy raqiblar Germaniya va Fransiyani yarashtirish orqali Yevropada yana bir halokatli urushning oldini olish istagi. Bu Rim shartnomasining muqaddimasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda ishtirokchi davlatlar Yevropa xalqlarining tobora yaxlit birlashuviga asos solishga intilishlari o‘z ifodasini topgan. Shimoliy Amerikada esa integratsiyaning maxsus modeli mavjud bo‘lib, u ko‘p jihatdan dunyoda taniqli bo‘lgan klassik Yevropa modelidan farq qiladi. Uning asosiy xususiyatlari, birinchidan, TMK kanallari orqali keng ko‘lamli kapital quyilishiga asoslangan integratsiyaning yuqori darajasi, ikkinchidan, AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori asimmetrik tabiati va uchinchidan, rivojlangan siyosiy ustki tuzilmaning mavjud emasligidir.

NAFTA shartnomasi dunyodagi eng yirik erkin savdo zonasini yaratdi, uning hududlari 21,78 million kvadrat kilometr, aholisi 500 million kishi, umumiy YaIM 28 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. (2022-yil)[18].

Yevropa Ittifoqida integratsiya guruhini yaratish tashabbusi ishtirokchi mamlakatlarning yuqori hokimiyatidan kelib chiqqan bo‘lsa,

[18] https://www.worlddata.info/trade-agreements/nafta-freetrade

Shimoliy Amerikada farqli o‘laroq, integratsiya pastdan yuqoriga ko‘tarildi, ya’ni AQSH, Kanada va Meksika kompaniyalari o‘rtasidagi mikrodarajadagi hamkorlik davlatlararo darajada mustahkamlandi.

NAFTAdagi iqtisodiy integratsiya G‘arbiy Yevropa integratsiyasidan, birinchi navbatda, monotsentrizm bilan farq qiladi, chunki AQSHni YaIM Kanada va Meksika YaIMdan bir necha baravar yuqoridir.

Yevropa Ittifoqidan farqli o‘laroq, NAFTAda millatlararo boshqaruv organlari mavjud emas. Shartnomaga rioya qilish savdo vazirlari darajasida erkin savdo bo‘yicha uch tomonlama komissiya tomonidan tartibga solinadi. U 30 ta qo‘mita va ishchi guruhlarning ishini nazorat qiladi. Shartnoma majburiydir, ya’ni qabul qilingan me’yor va majburiyatlarga rioya qilmaslik, komissiya qarorlarini e’tiborsiz qoldirish blokdagi sheriklarga qarshi savdo va boshqa sanksiyalarga olib keladi. Shimoliy Amerika integratsiya modelining markaziy tartibga soluvchi kuchi muayyan muammo yoki masalani davlatlararo mexanizmi bo‘lib, unda maxsus komissiyalar doirasida ko‘p tomonlama muhokama qilish orqali yakuniy yechimga erishiladi. Ushbu mexanizm puxta ishlab chiqilgan tamoyillar va qoidalarni o‘z ichiga oladi, xalqaro savdo va moliya sohasida arbitrajni ta’minlaydi, bitim qoidalari buzilgan taqdirda bir mamlakatning boshqa mamlakatga qarshi chiqishiga imkon beradi. O‘zaro da’volar qonunlar doirasida hal etilmasa mamlakat savdo va boshqalar bo‘yicha jazolarga duch keladi.

Millatlararo organlarning yo‘qligi NAFTA a’zolari o‘z pozitsiyalarini hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan majburiyatlarni bajarishga tayyor emasligi bilan bog‘liq. Yevropa Ittifoqida millatlararo organlar tomonidan ko‘rsatmalar qabul qilinganidan keyin taxminan bir yarim yil ichida ular qonunchilikka kiritilishi kerak. MDHda, Yevropa Ittifoqida bo‘lgani kabi, millatlararo organlar mavjud, ammo ularning aksariyat qarorlari ishtirokchi davlatlar tomonidan amalga oshirilmaydi.

Ushbu holatda ikki masala muhimdir. Birinchidan, millatlararo organlarni tashkil etilishi hamma vaqt ham integratsiyani kuchaytirmaydi. NAFTA va boshqa birlashmalarda, ishtirokchi mamlakatlar

hukumatlari yuqoridan qaror qabul qilmasdan integratsiya masalalari bo‘yicha kelishganda, yondashuv samaraliroq bo‘lganligi kuzatilgan. Shartnomaning bajarilishini maxsus hukumatlararo muassasa nazorat qiladi. Ikkinchidan, milliy hokimiyat organlarining qarorlarini amalga oshirishga jarimalar tizimi yordam beradi, ya’ni agar a’zo mamlakat komissiya qarorlarini e’tiborsiz qoldirsa, u blokdagi sheriklarning savdo va boshqa sanksiyalariga duch keladi.

Yevropa Ittifoqidan farqli NAFTAda, a’zo mamlakatlar kompaniyalari boshqa ishtirokchi mamlakatlar bozoriga kirganda, ular milliy kompaniyalar bilan bir xil tartibga solinadi. Yevropa Ittifoqida o‘zaro tan olish prinsipi qo‘llaniladi, ya’ni a’zo davlatlar bozoriga kirishda kompaniya o‘z mamlakati qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi. Bundan tashqari, xorijiy kompaniyaga nisbatan kamsitish taqiqlanadi. Shu bilan birga, YEIning ushbu yondashuvi milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirishga hissa qo‘shadi.

NAFTAda xizmat ko‘rsatish sohasini liberallashtirish barcha sohalarni qamrab olmaydi: har bir ishtirokchi o‘z sohaviy imtiyozlarini belgilab bergan. AQSHda bu telekommunikatsiya sohasi, Kanadada – sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, ta’lim, madaniyat, kino va media sohalari. Meksikada–neft va gaz qazib olish. Aviatsiya va dengiz transporti barcha mamlakatlar tomonidan chiqarib tashlangan. Konsensusga erishilgan tarmoqlarni to‘liq liberallashtirish va mamlakatlar milliy iqtisodiyot manfaatlarini hisobga olgan holda ba’zi tarmoqlarni olib tashlash amaliyoti yagona iqtisodiy makonni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

NAFTA nafaqat uning ishtirokchilarini iqtisodiy hamkorligiga, balki tashqi siyosiy aloqalarga, diplomatik va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga ham hissa qo‘shdi. Shimoliy Amerika rahbarlari sammitlari instituti sheriklarning siyosiy integratsiyasini targ‘ib qildi. Ushbu platforma doirasida o‘tkir mintaqaviy muammolar muhokama qilindi. NAFTA shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, investitsiyalar, xizmatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va ishchilar huquqlarini muvofiqlashtiruvchi shartnomalar to‘plami ham edi.

3.3. Shimoliy Amerika integratsiyasining qayta tuzilishi sabablari va zamonaviy holati

AQShH, Meksika va Kanada o‘rtasida tuzilib, 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kirgan NAFTAni modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi. NAFTAning o‘rnini Shimoliy Amerikada integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ochadigan ***AQSH– Meksika – Kanada shartnomasi (United States – Mexico – Canada Agreement, USMCA)*** egalladi. Uch tomonlama muzokaralarning tashabbuskori AQSHning 45-Prezidenti (2017-2021) bo‘lib, u mazkur shartnomani yangilash bilan AQSH uchun eng qulay sharoitlarga erishishni maqsad qilgan edi. AQSHning bosimi ostida Meksika va Kanada bir qator yon berishlarga bordilar, ammo bir qator sohalarda ular o‘zlari uchun strategik muhim AQSH bozoriga kirishni saqlab qolishdi. Boshqa tomondan USMCA Shimoliy Amerikaning raqobatbardoshligini yangilash uchun asos yaratadi. AQSH, Kanada va Meksika o‘zgaruvchan global siyosiy iqtisod sharoitida o‘zlarining iqtisodiy strategiyalarini muvofiqlashtirishlari ham shartnomani yangilashga asos bo‘ldi.

O‘zgarishlar D. Trampning 2016-yildagi AQSH saylovlaridagi g‘alabasidan keyin sodir bo‘ldi. Saylov kampaniyasi davrida ham bo‘lajak prezident tomonidan AQSHning erkin savdo zonasidan chiqish istagi bildirilgan. D. Tramp NAFTA AQSH ishlab chiqarish quvvatlarining toshib ketishiga, mamlakat iqtisodiy sektorining deindustrializatsiyasiga va AQSH bilan savdoda profitsitning o‘sishiga olib keldi degan bayonot bilan chiqdi. D. Trampning fikri shundan iborat ediki, AQSH saxiyligi tufayli xorijiy sheriklarga foydali savdo bitimlarini taqdim etgan va noqonuniy muhojirlarning mamlakatga bostirib kirishiga va amerikaliklardan ish joylarini "o‘g‘irlashlariga" ruxsat bergan va bu ish haqining kamayishiga olib kelgan. Bunday sharoitda u globallashuvga qarshi ikki tomonlama platformani taklif qildi: uning birinchi jihati mamlakatning savdo himoyasini kuchaytirishga qaratilgan izolatsionizm; ikkinchi jihat iste’molchilarning odatlari bilan bog‘liq edi. AQSH Prezidenti hukumat,

biznes va milliy iste’molchilardan Amerika tovarlari va mahsulotlarini sotib olishni so‘radi.

Tramp ish boshlashi bilan 2017-yil 23-yanvarda Meksika Prezidenti Enrique Peña Nieto NAFTA qayta tuzilishi muqarrarligini anglab, muammolarni qarama-qarshilik bilan emas o‘zaro muloqot yo‘li orqali hal etishni hamda beshta tamoyil va o‘nta aniq maqsadni ichiga oladigan taklif bilan chiqdi. 5 ta tamoyil quyidagilardan iborat bo‘ldi:

(1) milliy suverenitetni himoya qilish;

(2) huquqiy davlatni hurmat qilish;

(3) o‘zaro manfaatlarni qidirish (yutuq-yutuq);

(4) shimoliy Amerika integratsiyasi g‘oyalariga sodiqlik;

(5) shartnomaning xususiyatlarini hisobga olish.

Maqsadlar borasida Meksika rahbariyati bir qator muhim masalalarga e’tibor qaratdi, ulardan ba’zilari NAFTA muammolari bilan bevosita aloqasi yo‘q edi, ammo qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning eng og‘riqli jihatlariga ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, Meksika kun tartibiga quyidagi masalalarni qo‘ydi: AQSHdagi muhojirlar vaziyati, ya’ni ularning huquqlarini hurmat qilish, Meksikaga pul o‘tkazmalarida erkinlik, noqonuniy migratsiya va giyohvand moddalarni AQSHga tashish bo‘yicha asosiy manba hisoblangan Markaziy Amerika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish, AQSHdan noqonuniy qurollarni o‘tishi va Meksika jinoiy tuzilmalari qo‘liga tushishi masalalari.

Qo‘shma Shtatlar qo‘shni davlatlar ichki bozoriga, tabiiy resurslari va ishchi kuchi bozoriga kirishdan iqtisodiy foyda oldi. Shu bilan birga, Qo‘shma Shtatlarga Meksikadan noqonuniy muhojirlar oqimining ko‘payishi uning janubiy chegarasidagi vaziyatni beqarorlashishiga olib keldi. Bularning barchasi NAFTA bitimini yakunlash, uch tomonlama hamkorlik uchun yangi tuzilmalarni yaratish va hamkorlikni iqtisodiyotdan tashqari siyosiy sohaga kengaytirish choralarini ko‘rishni zarur bildi.

Meksika delegatsiyasining muzokaralar kun tartibidagi beshta vazifa NAFTA islohoti bilan bevosita bog‘liq edi. Shu jumladan:

(1) AQSH, Meksika va Kanada o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimida erkin savdo rejimini qo‘llab-quvvatlash; sog‘lom raqobat asosida AQSH va Kanadaga Meksika eksportini ko‘paytirish;

(2) NAFTAni modernizatsiya qilish uchun shartnomaga iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini kiritish: telekommunikatsiya, energetika, elektron tijorat;

(3) shartnomaning modernizatsiya qilingan matnida meksikalik ishchilarning ish haqini oshirishga hissa qo‘shadigan qoidalar mavjudligini ta’minlash; Meksikaning raqobatbardosh ustunligi ishchi kuchining past darajasi emas, balki yuqori mahsuldorligi bo‘lishi zarurligi;

(4) Meksika iqtisodiyotiga kiritiladigan milliy va xorijiy investitsiyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish; xalqaro investorlarga ishonchni uyg‘otadigan shartnomalar tuzish;

(5) AQSH bilan munosabatlarda yaxshi qo‘shnichilik tamoyillarini ta’minlash; shu munosabat bilan Meksika prezidenti devorlarni emas, balki ko‘priklarni qurishga chaqirdi.

O‘z navbatida AQSH tomonidan muzokaralar jarayonida quyidagi masalalar qo‘yildi:

(1) AQShHda ishlab chiqaradigan mahsulotlarning ko‘pchiligini Meksika va Kanada bozorlariga erkin kirish rejimini saqlash va shu bilan birga, AQSH kompaniyalari uchun jozibador bo‘lgan sohalarda AQSh manfaatlarini himoya qilish;

(2) AQSH qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qo‘shni mamlakatlarga targ‘ib qilish va Kanadaga sut mahsulotlari va parranda go‘shti importidagi cheklovlarni olib tashlash; AQSH don va alkogolli ichimliklar eksportiga to‘sqinlik qiluvchi kamsituvchi to‘siqlarni olib tashlash;

(3) AQSH, Kanada va Meksikaga bojsiz olib kirish huquqidan foydalanadigan tovarlarning "Shimoliy Amerika tarkibi" (NAFTAga a’zo mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotning qo‘shimcha qiymatini bir qismi) talablarini yangilash va mustahkamlash. Avtomobillar qiymatida "Shimoliy Amerika" komponentlari va qismlarining hissasini 62,5 dan 85 gacha% oshirish;

(4) Shimoliy Amerika davlatlarining energiya xavfsizligi va mustaqilligini ta’minlash maqsadida energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e’tibor berish; investitsiyalarni ko‘paytirish orqali energiya ishlab chiqarishni ko‘paytirishga intilish;

(5) AQSH korxonalarining Kanada va Meksikadagi davlat xaridlariga kirish rejimlarini yumshatish; AQSH telekommunikatsiya kompaniyalarining ushbu mamlakatlar bozorlarida erkin raqobatlashish imkoniyatlarini kengaytirish;

(6) Intellektual mulk huquqlarini "adekvat va samarali" himoya qilish masalasida AQSHning "umumiy qoidasiga" muvofiq Kanada va Meksika milliy qonunchiligini muvofiqlashtirish;

(7) Kanada va Meksikada amerikalik investorlarning faoliyatiga saqlanayotgan tarmoq va boshqa cheklovlarni kamaytiradigan yoki butunlay yo‘q qiladigan qoidalarni qabul qilish;

(8) Shimoliy Amerika Erkin savdo hududi shartnomasida mavjud bo‘lgan NAFTAga a’zo davlatlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish mexanizmini isloh qilish (dastlabki bosqichda o‘zaro maqbul yechimlarni topish uchun dastlabki maslahatlashuvlar amaliyotini kengaytirish);

(9) Yangi shartnomaga cheklash bandini kiritish, (sunset clause) agar uch tomon ham keyingi besh yillik muddatga uzaytirilishini e’lon qilmasa, uni besh yildan keyin avtomatik ravishda bekor qilishni nazarda tutadi (shu bilan AQSH shartnomadan chiqish huquqini saqlab qolishi);

(10) Modernizatsiya qilingan kelishuv doirasidan "AQShnikini sotib oling" ("Buy America") konsepsiyasini amalga oshirish amaliyoti bilan bog‘liq masalalarni qoldirish.

Shimoliy Amerika integratsiyasi shartlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha muzokaralar 2017-yil 16-avgustda boshlandi va 13 oy davom etdi. Muzokarachilar duch kelgan qiyinchiliklarning aksariyati ikkita holat bilan bog‘liq edi. Ulardan biri tabiiy obyektiv masalalar bo‘lib, bular yuzasidan tomonlar haqiqatda o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalar kiritish va shuningdek, yangi moddalar qo‘shishni zarur deb topdilar. Ikkinchi holat subyektiv bo‘lib, D. Trampning faqat Qo‘shma Shtatlar manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish istagi bilan bog‘liq edi, ushbu

masala bo‘yicha o‘zaro maqbul kelishuvlarga erishish jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

2018-yilning 5-martida uch tomonlama muzokaralarning yettinchi bosqichi yakunlandi, ammo kun tartibidagi barcha asosiy masalalar bo‘yicha kelishuvga erishilmadi. Buning ustiga o‘sha yili 25-maydan AQSH Prezidenti D. Tramp po‘lat va aluminiy importiga (mos ravishda 25 va 10%) tariflarni oshirdi. Bundan bevosita Meksika va Kanada metallurgiya kompaniyalari aziyat chekishdi, ular uchun AQSH bozori ustuvor hisoblanar edi. Bunga javoban Kanada Bosh vaziri Jastin Tryudo javob choralarini buyurdi va 16,6 milliard dollarlik AQSH tovarlariga bojlarni joriy etishga ruxsat berdi.

Murakkab muzokaralardan so‘ng tomonlar yangi kelishuvga erishdilar. AQSH-Meksika-Kanada shartnomasi 2018-yilning 30- noyabrida Argentinaning poytaxti Buenos-Ayresda G-20 sammitida qabul qilindi. 2019-yilning 19-iyunida Meksika Senati shartnomani ratifikatsiya qildi. Yangi shartnomaning amal qilish muddati o‘n olti yilni tashkil etadi, bu shubhasiz biznes kompaniyalariga o‘z faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi.

Biroq, yangi hujjat hamkorlik uchun yangi shartlarni anglatadi. Asosiy o‘zgarishlar Shimoliy Amerikada tarifsiz savdo qilish huquqini olish uchun avtomobillarga qo‘yiladigan talablar bo‘ldi. Birinchidan, avtoulovlarning kelib chiqish qoidasi avvalgi 62,5% ga nisbatan Shimoliy Amerika tarkibining 75% talabiga ko‘tarildi; ikkinchidan, avtomobillarda ishlatiladigan po‘lat va aluminiyning 70% Shimoliy Amerika ishlab chiqaruvchilari tomonidan ta’minlanishi belgilandi; uchinchidan, yengil avtomobil qiymatining 40% i (45% bir pikap yoki yuk mashinasi qiymatining) kamida soatiga 16 AQSH dollari to‘lanadigan ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak ("ishchi kuchi qiymati tarkibi").

Bundan tashqari, yangi shartnomada asl bo‘lmagan"(Shimoliy Amerikaniki bo‘lmagan) butlovchi qismlarni mintaqaviy tarkib hisobkitoblariga kiritilmasligini ta’minlash uchun barcha tarkibiy qismlarning yakuniy milliy kelib chiqishini qattiqroq tekshirishni talab qiladi, bu

asosan Meksikaning Xitoydan import qilgan tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

USMCA elektronika uchun kelib chiqish qoidalarini o‘zgartirmoqda. Elektron sanoatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ta’minot zanjirlari va past tariflarning ahamiyati bo‘lib, kelishuv tomonlarining geografik yaqinligi xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradigan samarali logistika koridorini yaratadi. Elektronika sanoatiga tegishli yana bir muhim jihat avtomobilsozlik bilan bog‘liq – elektronika sanoati avtomobillar uchun turli qismlarni yetkazib beradi, shuning uchun mintaqaviy xarajatlar kelishuvi talabi Meksikadagi elektronika sanoatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yangi bitim mehnat huquqlari bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi va ishtirokchilardan Xalqaro Mehnat Tashkiloti standartlariga rioya qilishni talab qiladi. Mehnat bobida Meksikadan kasaba uyushmalarining jamoaviy shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, yarashtirish ishlari uchun mustaqil tuzilmalarni tashkil etish, shuningdek, mustaqil sudlarni tuzishni talab qiladi. Ushbu kelishuvdagi talablarning bajarilishi AQSH-Meksika chegarasining har ikki tomonidagi ishchilar huquqlarini himoya qilishning samarali vositasiga aylanishiga umid beradi. Agar meksikalik ishchilar mustaqil kasaba uyushmalarini tuza olsalar va ish haqi hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha muzokaralar olib borsalar, bu Meksikadagi tengsizlikni yumshatishga yordam beradi.

USMCA shartnomasida valuta kursi, makroiqtisodiy siyosat, raqamli savdoni rivojlantirish, o‘rta va kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limlari mavjud. Shartnomada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun savdo siyosatiga, mashinasozlik sanoatida ish haqi, mahalliy xalqlarning huquqlarini hurmat qilish, madaniyat, energetika, avtomobil savdosi, qishloq xo‘jaligi, intellektual mulk, atrof-muhit sohalarida, shuningdek, nizolarni hal qilish sohasida hamkorlik qilishga alohida e’tibor qaratilgan. USMCA shartnomasi kuchga kirgandan keyin kamida 6 yilda bir marta ko‘rib chiqilishi kerak. Shartnoma muddati - 16 yil. Qayta ko‘rib

chiqilgandan so‘ng, shartnoma tomonlar tomonidan xuddi shu muddatga uzaytirilishi mumkin.

Shartnomaning bajarilishini nazorat qilish va o‘zgartirishlar kiritish uchun asosan NAFTA tuzilmalarini takrorlaydigan tashkiliy tuzilmalar shakllantirildi. USMCA ning asosiy organlari Erkin savdo komissiyasi va kotibiyatdir. Shu bilan birga, komissiya yiliga kamida bir marta vazirlar darajasida yig‘ilishi kerak, undagi barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi. Shuningdek, kichik qo‘mitalar, kengashlar va ishchi guruhlardan tarkib topgan yordamchi tuzilmalar mavjud.

Tayanch iboralar: NAFTA, USMCA, CUSFTA, Abbot rejasi, Vashington konsensusi

Nazorat savollari:

1. Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarni vujudga kelishining asosiy shart-sharoitlarini tushuntirib bering
2. Abbot rejasining mohiyati nimadan iborat edi?
3. Meksikaning NAFTAdan ko‘zlagan asosiy maqsadlari nimalar edi?
4. NAFTAning Yevropa Ittifoqi integratsiyasidan asosiy farqli tomonlarini ko‘rsatib bering.
5. Nega NAFTAni qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ildi?
6. USMCAni qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni izohlab bering.
7. USMCAning asosiy shartlari nimalardan iborat?
8. USMCAdagi zamonaviy tendensiyalar va uning istiqbollari
9. USMCA doirasida mehnat kooperatsiyasining asosiy talablari nimalardan iborat?
10. USMCAning institutlariga xarakteristika bering.
11. Makiladores nimani ifodalaydi?

IV BOB. OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQALARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

4.1. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasining (The Association of Southeast Asian Nations (ASEAN)) shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

4.2. ASEANning boshqaruv organlari.

4.3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Hukumatlararo forumining (The Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC)) tashkil etilishi va faoliyati. APEC rivojlanishida zamonaviy tendensiyalar

4.1. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasining (The Association of Southeast Asian Nations (ASEAN)) shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Osiyo qit’asi o‘zining iqtisodiy salohiyati va jahon siyosatiga ta’sir darajasi jihatidan XXI asrda xalqaro global munosabatlarining asosiy platformasiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ushbu mintaqa mamlakatlari birgalikda jahon YaIMning 50 foizdan ortig‘ini ishlab chiqarmoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mintaqaviy integratsiyaning eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (The Association of Southeast Asian Nations -ASEAN) hisoblanadi. ASEAN 1967-yilning 8-avgustida Bangkokda “Bangkok deklaratsiyasi” nomi ostida imzolangan. Uning asoschilari Indoneziya, Malayziya, Tailand, Singapur va Filippin davlatlaridan iborat edi. 1984-yilning 7-yanvarida Bruney-Darussalom, 1995-yilning 28-iyulida Vetnam, 1997-yilning 23-iyulida Laos va Myanma (Birma), 1999-yilning 30-aprelida Kambodja a’zolikka qabul qilindi. Hozirgi kunda Sharqiy Timur va Papua-Yangi Gvineya kuzatuvchi maqomini olgan. ASEAN asos solgan davlatlarning yer maydoni kontinental

Osiyoning bir qismini va bir qator qo‘shni arxipelaglarni qamrab oladi hamda alohida tarqoqligi bilan ajralib turadi.

ASEANda integratsiyalashuv jarayonlari 55 yildan ortiq vaqt mobaynida rivojlanib kelmoqda va bu davrda u mintaqaviy integratsiyaning asosiy tarkibiy qismiga hamda jahon iqtisodiyotining asosiy o‘yinchilaridan biriga aylandi. ASEAN Hind okeanidan Tinch okeaniga olib boradigan dengiz yo‘llari chorrahasida strategik muhim geosiyosiy pozitsiyani egallaydi. Ushbu yo‘nalish bo‘ylab Fors ko‘rfazidan neft Tinch okeanining eng yirik iqtisodiyoti – Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyga yetkazib beriladi. Uglevodorodlarni yetkazib berishda har qanday uzilishlar mintaqaviy energiya inqiroziga sabab bo‘lib global oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtaYi nazardan, Assotsiatsiyaning Janubi-Sharqiy Osiyoni tinch, farovon va yadro qurolidan holi mintaqaga aylantirish bo‘yicha sa’y-harakatlari uning xalqaro hamjamiyatdagi muhim rolini namoyish etadi.

Jahon hamjamiyatining Janubi-Sharqiy Osiyoga e’tibori mintaqada o‘tgan asrning 70-80 yillarida yuz bergan yuksak iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Yangi industrial davlatlar, Osiyo ajdarholari, Osiyo yo‘lbarslari nomini olgan davlatlar – Tayvan, Honkong, Janubiy Koreya, Singapur, Tailand, Malayziya, Indoneziya mazkur mintaqada joylashgan.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ASEANga a’zo mamla-katlarning asosiy ko‘rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin: Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilda dunyo bo‘yicha YaIM 101 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bunda ASEANning ulushi 10.0 foizga yetgan.

6-jadval

ASEANga a’zo davlatlarning asosiy ko‘rsatkichlari[19] (2022-yil)

Mamlakatlar	Aholi soni (mln. kishi)	Nominal YaIM mln. AQSH dollari	Nominal YaIM jon boshiga, AQSH dollari	YaIM (XQP bo‘yicha) mln. AQSH dollari	YaIM (XQP bo‘yicha) jon boshiga AQSH dollari
ASEAN	683.29	3,942,791	5,812	11,203,023	16,516
Indoneziya	277.432	1,391,778	5,016	4,398,729	15,855
Tailand	70.171	574,231	8,181	1,591,402	22,675
Singapur	5.659	515,550	91,100	757,726	133,894
Vetnam	100.345	449,094	4,475	1,450,281	14,458
Malayziya	33.410	447,026	13,382	1,230,823	36,846
Filippin	112.890	440,990	3,905	1,301,281	11,420
Myanma	54.205	63,988	1,180	278,156	5,131
Kambodja	16.944	32,602	1,924	98,405	6,092
Bruney	0.442	15,506	35,103	35,103	75,583
Laos	7.582	14,091	1,858	74,309	9,800

Iqtisodiy rivojlanishning yuqori salohiyatini hisobga olgan holda, ASEAN ushbu mintaqada manfaatlari chambarchas bog‘liq bo‘lgan Xitoy, AQSH, Rossiya, Hindiston, Eron kabi xalqaro va mintaqaviy markazlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Bundan tashqari, ASEAN boshqa xalqaro platformalar bilan ham o‘zaro hamkorlik qiladi, bu esa hamkorlikning barcha asosiy jihatlari bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishga imkon beradi. 2015-yilning 21-noyabrida Assotsiatsiyaning 27-sammitida ASEANning iqtisodiy hamjamiyatini

[19] https://www.imf.org/en/Countries ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolandi, bu tashkilotni tovarlar harakati, xizmatlar, investitsiyalar, kapital va malakali ishchi kuchi bo‘yicha erkin savdo iqtisodiy zonasiga aylantirdi.

Assotsiatsiya faoliyati ASEAN doirasida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan:

(1) siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash;

(2) iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

(3) ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlash.

ASEAN doirasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 1971-yildagi “Tinchlik, erkinlik va betaraflik hududi” to‘g‘risidagi Kuala Lumpur Deklaratsiyasi, 1976-yildagi Janubi-Sharqiy Osiyoda Do‘stlik va hamkorlik shartnomasi hamda ASEAN kelishuvi Deklaratsiyasi (Bali shartnomasi). Tomonlar assotsiatsiyaning asosiy hujjatlarida belgilangan o‘zaro munosabatlarning maqsadlari va tamoyillariga qat’iy rioya qilishga intiladilar. Ushbu holat Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga o‘zlarining "muloqot sheriklari" sonini faol ravishda kengaytirish, ASEAN mintaqaviy forumi mexanizmidan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda ASEAN+3 formatida Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya bilan, Sharqiy Osiyo sammiti orqali ASEAN+1-Avstraliya, Yangi Zelandiya va Hindiston) bilan hamkorlik rivojlangan.

ASEAN+1 integratsiya modeli doirasidagi barcha shartnomalarda tovarlarning kelib chiqishi mamlakatini aniqlash qoidalari to‘g‘risidagi qoidalar mavjud. Xususan, Avstraliya va Yangi Zelandiya bilan tuzilgan shartnomada tovarlarning kelib chiqishi mamlakati tovarlar ishlab chiqarilgan yoki sezilarli darajada qayta ishlangan mamlakatni anglatadi. Bu holda, tovarlarning narxi mintaqaviy komponentning kamida 40 foizini o‘z ichiga olishi kerak. Shunga o‘xshash ko‘rsatkich Yaponiya, Xitoy va Koreya Respublikasi bilan ASEAN shartnomalarida ko‘rsatilgan, Hindiston bilan munosabatlarda bu ko‘rsatkich 35% ni tashkil qiladi.

2004 yilda Assotsiatsiya faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida ASEAN Ustavini ishlab chiqishga qaror

qilindi. 2007-yilning 20-noyabrida Singapurda bo‘lib o‘tgan ASEAN-ning 13-sammitida Ustav "o‘nlik"rahbarlari tomonidan imzolandi. Uning qabul qilinishi ASEAN evolusiyasining yangi bosqichini boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi, u xalqaro huquqiy shaxsga ega bo‘lgan to‘laqonli mintaqaviy tashkilotga aylandi.

Janubi-Sharqiy Osiyo hamkorligini yangi mintaqaviylik yoki yangi mintaqaviy integratsiya tipiga kiritish mumkin. Eski mintaqaviy integratsiya asosan erkin savdo hududi va xavfsizlikni nazarda tutgan bo‘lsa, yangi mintaqaviylik hozirgi dunyo transformatsiyaga ko‘ra global xarakterga ega. Hozirgi mintaqaviylik mintaqaning tashqarisidan va ichidan paydo bo‘ladigan spontan jarayonga aylangan. Bundan tashqari, yangi mintaqaviylik bozor va jamoat tashkilotlariga, shuningdek, milliy davlatlarga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy, madaniy, siyosiy, xavfsizlik va ekologik jihatlarni qamrab oladigan keng qamrovli va ko‘p qirrali hodisadir. Yangi mintaqaviylik – milliy davlatlar, shuningdek nodavlat, bozor va jamoat tashkilotlarining o‘zaro ta’sirlarini murakkab jarayoni bo‘lib, bunda mintaqaviy, milliy va mahalliy institutlarning maqsadlari, tashkil etish va shakllanish jarayonlari farq qiladi. Yangi mintaqaviylik submintaqaviylik, makromintaqaviylik va megamintaqaviylikka bo‘linadi[20]. Submintaqaviylikka ASEANda ko‘rishimiz mumkin, bu yerda bir qator a’zo davlatlar tashkilot faoliyatini teng taqsimlangan holda boshqaradilar. Makromintaqaviylikka Yevropa Ittifoqining integratsiya jarayoni ko‘proq mos keladi va bunda rasmiy institutsional struktura shakllangan. Megamintaqaviylik Sharqiy Osiyodagi ATES (Asia-Pacific Economic Cooperation- APEC) mos keladi. Mintaqachilikning bu turida a’zo davlatlar rivojlangan davlatlar bilan birgalikda iqtisodiy hududni birgalikda yaratish istagida bo‘ladilar. Ular gorizontal va vertikal mehnat taqsimotining kombinatsiyasini o‘z ichiga olib, iqtisodiy yutuqlarning noteng taqsimlanishini, ochiqlikni, moslashuvchan ichki/tashqi hamkorlik sxemasini anglatadi.

[20] Yoshinobu Yamamoto. Globalism, Regionalism and Nationalism: Asia in Search of Its Role in the 21st Century. Wiley-Blackwell Publishers. 2000

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida integratsion jarayonlarning rivojlanish darajasini uch davrga bo‘lish mumkin.

(1) 1960 yil-"Pan-Osiyo" mintaqachiligining shakllanishi; Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining notekis rivojlanish darajasi va ular o‘rtasidagi mavjud siyosiy qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda, ular savdo-iqtisodiy sohasida va siyosiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni maqsad qilganlar. Jumladan, 1967-yilgi Bangkok deklaratsiyasida quyidagi maqsadlar bayon etilgan:

- hamkorlik va o‘zaro yordam asosida a’zo davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini jadallashtirish;
- mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda adolat va qonuniylikni hurmat qilish va BMT Ustavi tamoyillariga rioya qilish asosida mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash;
- maqsadlari o‘xshash umumiy va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

(2) 1960-1990 – Osiyo-Tinch okeani mintaqasida (Asia and the Pacific Region) ASEAN rolini kuchaytirish bilan hamkorlikni rivojlantirish;

(3) 1990 yildan - yangi Osiyo mintaqachiligi infratuzilmasining paydo bo‘lishi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida davlatlararo hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha dastlabki qadamlar XX asrning ikkinchi yarmida qo‘yilgan bo‘lsada, ammo Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy sohadagi integratsion jarayonlarining rivojlanishi o‘tgan asrning 1980-yillari oxirida butun mintaqa darajasiga etdi. Buning asosiy sababi Yevropa Ittifoqi va AQSHning Osiyo-Tinch okeani davlatlariga nisbatan proteksionizm va kamsituvchi tashqi iqtisodiy siyosatiga iqtisodiy qarshilik ko‘rsatish uchun hamkorlik qilish istagi, shuningdek, jahon siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga to‘liqroq qo‘shilish istagi bilan xarakterlanadi.

Ta’kidlash lozimki, ASEAN tashkil topgandan so‘ng 9 yil mobaynida, ya’ni 1976-yilgacha "integratsiya inqirozini" boshdan kechirdi, ammo bu inqirozga tashqi sabablar – AQSHning Vetnamga

intervensiyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Dastlabki davrda tashkilot tuzilganda mintaqadagi siyosiy va harbiy vaziyatni barqarorlashtirish istagi ta’sischilarda ustun edi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari ikki omil bilan belgilanadi: birinchidan, bu mintaqa jahon siyosatining yetakchi ishtirokchilari bo‘lgan Xitoy, Yaponiya, AQSH, Rossiya bilan o‘zaro hamkorlik sohasi, ikkinchidan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida rivojlanish darajasi bo‘yicha va integratsion o‘zaro harakatlarda ishtirok etuvchi davlatlarning ta’sir darajasi yuzasidan sezilarli farqlarning mavjudligi.

Ikkinchi bosqichda Assotsiatsiya doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarda integratsiya chuqurlashib bordi. Natijada rivojlanishning uchinchi bosqichida 2005 yilda yana bir tuzilma – Sharqiy Osiyo sammiti forumi tashkil etildi, unga ASEANga a’zo 10 mamlakat, shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya kirdi.

1992-yilda Singapur sammitida 15 yilga ASEAN ***Erkin savdo bitimini (ASEAN Free Trade Agreement, AFTA)*** (AFTA) tuzishga qaror qilindi. AFTAning strategik maqsadi o‘zaro savdo to‘siqlarini bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlikni oshirish va mintaqada iqtisodiy samaradorlikka erishish orqali a’zo mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat edi. Uning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kirgan:

(1) neft-kimyo, avtomobilsozlik, metallurgiya sohalaridan tashqari sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga boj stavkalarini 0-5% gacha kamaytirish;

(2) o‘zaro savdoni erkinlashtirish uchun umumiy samarali imtiyozli tarifni joriy etish;

(3) milliy standartlarni xalqaro normalarga muvofiq uyg‘unlashtirish;

(4) sanoat tovarlari o‘zaro savdosida miqdoriy cheklovlarni bartaraf etish;

(5) sifat sertifikatlariga nisbatan o‘zaro tan olish tamoyilini joriy etish;

(6) makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish;

(7) xizmatlarning o‘zaro savdosini liberallashtirish.

Integratsiya nazariyasiga ko‘ra, integratsiya birlashmasining umumiy YaIMi qancha ko‘p bo‘lsa, ishtirokchi mamlakatlar shuncha ko‘p foyda oladi. YaIMning umumiy hajmiga ko‘ra, ASEAN-Xitoy erkin savdo hududi, ASEAN-Yaponiya va ASEAN-Hindiston muhim rol o‘ynaydi. Muayyan integratsion birlashmani tashkil etishning afzalliklarini belgilovchi yana bir muhim omil – bu erkin savdo hududini shakllantirish davridagi o‘zaro savdo hajmi hisoblanadi. O‘zaro eksportning yuqori hajmi ASEAN-Yaponiya va ASEAN-Xitoy erkin savdo hududlarida ko‘proq kuzatiladi. Integratsiya natijadorligiga yana bir muhim omil iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va bir-birini to‘ldirish bo‘lib, bu o‘zaro eksportning integratsiya birlashmasining umumiy eksportidagi ulushini belgilaydi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham ASEAN–Xitoy erkin savdo hududi va ASEAN–Yaponiya erkin savdo hududi o‘zaro savdo ulushi eng yuqori hisoblanadi. Integratsiyada geografik yaqinlikning ahamiyati savdoni rivojlantirishda transport xarajatlarining pasayishi bilan bog‘liq. Xitoy ASEAN davlatlariga eng yaqin bo‘lganligi bois ushbu erkin savdo hududini boshqa hududlarga nisbatan katta raqobatdosh ustunliklarni ta’minlaydi. Keyingi o‘rinlarda bu bo‘yicha sheriklar qatorida Yaponiya va Janubiy Koreya yaqinroqdir.

ASEANda tashqi tarif stavkalarining umumiy ko‘lami shakllantirmagan. Unga a’zo har bir mamlakat o‘z shartlari asosida erkin savdo hududlari to‘g‘risida ikki tomonlama shartnomalar tuzishi mumkin.

ASEAN mamlakatlarida iqtisodiy o‘sishga ilk davrlarda tashqi omillar – rivojlangan mamlakatlarning kreditlari va yordami, iqtisodiyotni tashqi bozorlarga yo‘naltirish ta’sir ko‘rsatgan. Keyinchalik mintaqa AQSHning eksportidan butunlay mustaqil bozorga aylana boshladi, bu hozirda ichki talabning ancha yuqori ulushi bilan ajralib turadi.

4.2. ASEANning boshqaruv organlari

Yevropa Ittifoqidan farqli o‘laroq ASEANda boshqaruv strukturasi markazlashtirilmagan hisoblanadi, ammo keng tashkiliy tuzilishga ega. Assotsiatsiyaning eng yuqori organi – rasmiy va norasmiy uchrashuvlar darajasida o‘tkaziladigan davlat va hukumat rahbarlarining sammitlaridir. Har yili a’zo davlatlarning vazirlar darajasidagi uchrashuvlari o‘tkaziladi. Vazirlik organlari ishiga yordam berish uchun yuqori lavozimli amaldorlar va yuzdan ortiq ishchi guruhlar ishlaydi. Ulardan tashqari turli xil ijro etuvchi, muvofiqlashtiruvchi va doimiy ishchi organlar mavjud. ASEANning siyosiy va axloqiy me’yorlari-“ASEAN yo‘li” Indoneziyaning ikkita tushunchasiga asoslanadi: dialog – "mushavara" va konsensus – "mufacat". Mintaqaviy hamkorlik ushbu tushunchalarga asoslanadi. Bu muzokaralarning bosqichma-bosqich va norasmiy uslubi bo‘lib, siyosiy rahbarlarning shaxsiy aloqalarini roli kattaligi bilan xarakterlanadi, shuningdek, ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlari amaliyotida tashkilot a’zolarining ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi mustahkam o‘rnashgan. G‘arb an’analaridan farqli o‘laroq, Osiyo siyosiy madaniyatining muhim xususiyati shundan iboratki, ular muloqot jarayonining o‘ziga katta ahamiyat berishadi va qoida tariqasida tezda aniq natijaga erishishga intilmaydilar. Bu xalqaro mojarolarning oldini olishga yordam beradi, lekin ko‘pincha ASEAN kabi mintaqaviy birlashmalarning samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi.

ASEANda mintaqaviy integratsiya "yumshoq" variantda bo‘lib, unga a’zo davlatlar millatlararo organlarga maxsus vakolatlar bermaganlar. "Yumshoq" mintaqaviylik fuqarolik jamiyati vakillarining ishtiroki bilan tavsiflanadi. Agar ular davlat sektorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, tezroq va samaraliroq rivojlanadi. "Yumshoq" mintaqaviylik, qoida tariqasida, turli xil boshqariladi, bu yerda davlat va nodavlat aktyorlar ishtiroki kuzatiladi. "Qattiq" (hard regionalism) mintaqaviylikda esa faqatgina davlat tashabbusi rol o‘ynaydi. Yumshoq va qattiq variantlarga ko‘ra tashkilotni boshqarish strukturasi, uning ishlash prinsiplariga baho bersa bo‘ladi. "Yumshoq" mintaqaviylik ko‘pincha

doimiy muloqotga asoslangan erkin, norasmiy integratsiyani nazarda tutadi.

ASEAN boshqaruvi boshqa tarafdan funksionalizm asosida tashkil etilgan. Funksionalizm tamoyili bu oqilona tartibga solish orqali davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni minimallashtiradigan funksional sohalarni aniq ajratishdan iborat. Funksional hamkorlik siyosiy bo‘lmasdan, balki iqtisodiy va ijtimoiy rejalar hamda vazifalarni tuzishdan boshlanadi. Funksionalizmni mohiyati to‘g‘risida ushbu kitobning birinchi bobida bayon etilgan.

APEC va ASEAN savdo hamda investitsiyalarni erkinlashtirish, iqtisodiy va texnik hamkorlikni rivojlantirish, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini ta’minlash, tabiiy ofatlarni boshqarish hamda aloqa sohasida o‘xshash maqsad va ustuvorliklarga ega. Biroq, bu masalalar turli yo‘llar bilan hal qilinadi. APEC uchun ustuvorliklar iqtisodiy rahbarlarning ko‘rsatmalari bilan "yuqoridan pastgacha" belgilanadi. Keyin ularga ishbilarmon doiralar, ishchi guruhlar va salohiyatni oshirish loyihalarining bevosita ishtiroki bilan pastdan yuqoriga g‘oyalar va tashabbuslar qo‘shiladi. Boshqa tomondan, ASEANda asosan yuqoridan pastga yondashuvdan foydalanadi va ularning bajarilishi qonuniy majburiy mintaqaviy majburiyatlarga ega.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasining mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha forumi (ARF) ***(ASEAN Regional Forum (ARF))*** Osiyo-Tinch okeani mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha ASEAN doirasida ko‘p tomonlama milliy siyosiy muloqotning asosiy mexanizmi hisoblanadi. U 1994-yilda tuzilgan. Mazkur forum a’zo davlatlar o‘rtasida preventiv diplomatiyaning ko‘rinishi bo‘lib, siyosat va xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahat va konstruktiv muloqotni nazarda tutadi. Ushbu forumdan ham ko‘rish mumkinki, ASEANda boshqaruv ko‘proq o‘zaro muloqotlar, konsensuslar asosida olib boriladi.

ARF mojaroni kamaytirishga katta hissa qo‘shadi va mintaqadagi murakkab jarayonlarga majburiy qarorlar qabul qilish orqali emas, balki doimiy muzokaralar jarayonini olib borish, rasmiy darajadagi aloqalar,

pozitsiyalarni yaqinlashtirish va ishonchni mustahkamlash orqali barqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu faqat ARFni tashkil etish tamoyillari tufayli mumkin bo‘ldi. ARFda hozirgi kunda 27 ta davlat a’zo hisoblanadi. Avstraliya, Bangladesh, Bruney, Vetnam, Sharqiy Timur, Hindiston, Indoneziya, Kambodja, Kanada, Xitoy, KXDR, Laos, Malayziya, Mongoliya, Myanma, Yangi Zelandiya, Pokiston, Papua-Yangi Gvineya, Janubiy Koreya, Rossiya, Singapur, AQSH, Tailand, Filippin, Shri-Lanka, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi.

4.3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Hukumatlararo forumining (The Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC)) tashkil etilishi va faoliyati. APEC rivojlanishida zamonaviy tendensiyalar

1989-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida birinchi hukumatlararo iqtisodiy tashkilot bo‘lgan ***Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi (Asia Pacific Economic Cooperation Forum – APEC)*** tashkil etildi. Uning tashkil etilishiga Osiyo-Tinch okeani mintaqasining keng makonida savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning obyektiv zarurati sabab bo‘ldi. APECning tuzilgan paytdagi asosiy maqsadi mintaqaviy savdo va investitsiya qoidalarini o‘rnatish bo‘lgan. Hozirda ushbu forum 21 ta mamlakat iqtisodiyotini birlashtiradi: Ular: Avstraliya, Bruney, Kanada, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Filippin, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, AQSH, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Meksika, Chili, Yangi Gvineya, Vetnam, Peru va Rossiya.

Osiyo-Tinch okeanida mintaqaviy integratsiya Yevropada mintaqaviy birdamlikning o‘sishi ta’siri ostida va sovuq urush sharoitida suverenitetni ta’minlash zarurati tufayli paydo bo‘ldi va nisbiy afzallikka ega mintaqaviy lider paydo bo‘lishining oldini olish bilan rivojlanishni ko‘zda tutgan. Osiyo-Tinch okeani mintaqachiligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, uning rivojlanish tendensiyalari eng katta nisbiy ustunlikka ega davlatlarning gegemon yoki jamoaviy irodasi bilan belgilanmaydi. Ammo bu yerda ayni paytda bir-biriga raqobatchi bo‘lgan

yirik mamlakatlar manfaatlari to‘qnashadi. Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya, AQSH bir vaqtning o‘zida chuqur o‘zaro bog‘liqlik va shiddatli raqobat elementlarini birlashtirgan murakkab munosabatlarni shakllantirganlar.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining mintaqaviy iqtisodiy integratsiyasida ikkita asosiy impuls mavjud bo‘lib, bular ASEAN va Xitoy–Yaponiya-Koreya uchburchagi. Xitoy va Yaponiya ikkala institut doirasida ham iqtisodiy va siyosiy yetakchilikni da’vo qiladi, bu yerda raqobat vositalaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantirilgan.

Forumning maqsadlari 1991-yildagi Seul Deklaratsiyasida quyidagicha bayon etilgan:

(1) mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash;

(2) ishtirokchi mamlakatlarning o‘sib borayotgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda ko‘p tomonlama savdo tizimini mustahkamlash;

(3) GATT/JST qoidalariga muvofiq tovarlar, xizmatlar va kapital harakatidagi cheklovlarni olib tashlash.

APEC tuzilishi markazlashtirilmagan. Har bir mamlakat bir yil davomida tashkilotga rahbarlik qiladi va uning rahbari forumni boshqaradi hamda APEC rahbarlari, vazirlari va ishchi guruhlarining yig‘ilishlariga rahbarlik qiladi. APECning eng yuqori organi a’zo mamlakatlar Davlat va hukumat rahbarlarining norasmiy sammitlari bo‘lib, sammit davomida forumning yil davomidagi faoliyatini umumiy natijalarini sarhisob qiladigan va uni rivojlantirishning keyingi yo‘nalishini belgilaydigan deklaratsiyalar qabul qilinadi. APECning asosiy ishchi organlari Ishchi Maslahat Kengashi, (IMK) bir nechta ekspert qo‘mitalari va iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha bir qator ishchi guruhlardir. 1995-yilda tashkil etilgan Ishchi Maslahat Kengashi (APEC Business Advisory Council) doimiy organ bo‘lib, APECga a’zo mamlakatlarning ishbilarmon doiralari bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan asosiy ishchi organlardan biriga aylangan. IMK a’zolari mintaqada

biznes va investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar.

ASEAN va APEC tashkiliy tuzilishda ko‘p umumiyliklarga ega, ammo shuning bilan birgalikda ular bir - birini to‘ldiradigan va ayni paytda farq qiluvchi tendensiyalar-globallashuv va mintaqalashtirish mahsulidir. ASEAN yopiq mintaqaviylikning yorqin namunasidir va faqat Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini birlashtiradi. APEC ishtirokchilari, aksincha, "ochiq mintaqaviylik" tamoyiliga sodiqliklarini e’lon qilishgan. Boshqacha qilib aytganda, ASEAN ma’lum bir mintaqa – Janubi-Sharqiy Osiyo ichidagi integratsiya subyekti, APEC esa bir qancha sub-mintaqaviy guruhlar, shu jumladan, ASEANni o‘z ichiga oladi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mintaqaviy munosabatlarning muhim xususiyati to‘rtta huquqiy tizimning birgalikda yashashidir, ya’ni: anglo-sakson, kontinental, islomiy va sotsialistik.

APEC faoliyatini tahlil qilganda quyidagi xususiyatlar namoyon bo‘ladi:

- Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari muassasalar tashkil etishda boy va xilma-xil tajribaga ega;
- Mintaqaviy jarayonlarning konfiguratsiyasi bir vaqtning o‘zida bir nechta jalb qilish markazlari atrofida shakllanadi;
- Mintaqaviy a’zolarning iqtisodiy rivojlanish darajasida farqlar mavjud;
- Mintaqa muvozanatli tahdidlar (nisbiy ustunlikni kamaytirish manbalari) va imkoniyatlar (nisbiy ustunlikni oshirish yo‘llari) bilan ifodalanadi, mintaqaviylikning rivojlanish sur’ati a’zolarning ularga nisbatan xatti-harakatlariga bog‘liq;
- nodavlat aktyorlar (biznes, fuqarolik jamiyati vakillari va boshqalar) mintaqalashtirishning faol ishtirokchilari hisoblanadilar;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mintaqaviylik ayni bir paytda chuqur tarkibiy qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi, bu ularni mavjud muassasalarda ishlab chiqilgan amaliyotlar orqali hal qilish imkoniyatini cheklaydi.

Bugungi kunda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida umumiy mintaqaviy xavfsizlik tizimi mavjud emas, mintaqa bir qator tahdidlarga duch kelgan, bular:

(1) Janubiy Xitoy dengizidagi hududiy nizolar;

(2) terrorizm, ekstremizm va narkotrafik tahdidi;

(3) nazoratsiz mintaqaviy qurollanish poygasi;

(4) raketa va yadro texnologiyalarining tarqalish xavfi;

(5) Tayvan maqomining hal qilinmaganligi masalasi;

(6) Koreya Respublikasi va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi o‘rtasidagi Koreya yarim orolidagi nizolarga moyil muhit va boshqalar.

APECdan tashqari mintaqada ***Trans-Tinch okeani hamkorligi (Trans-Pacific Partnership***, TPP) faoliyat ko‘rsatadi. Trans-tinch okeani hamkorlik shartnomasi 2016-yilning 4-fevralida Yangi Zelandiyaning Oklend shahrida imzolangan. Hamkorlikning belgilangan maqsadlari tarif to‘siqlarini kamaytirish, ishtirokchi mamlakatlarda mehnat qonunchiligi, ekologiya, intellektual mulk va boshqa sohalarda ichki qoidalarni tartibga solishdan iborat. Ushbu hamkorlikni tashabbuskori AQSH bo‘ldi. Barak Obama prezidentligi davrida bu AQSH tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan edi. Ammo respublikachi Donald Tramp davrida AQSH hamkorlikdan chiqib ketdi.

TPPni shakllantirishda AQSH Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga eksportning oshirish bilan bir qatorda mintaqadagi boshqa iqtisodiyotlarning o‘sishi hisobiga mintaqadagi yangi iqtisodiy zonani shakllantirish asosida Xitoyning iqtisodiy ta’sirini muvozanatlashni maqsad qilgan edi.

Har tomonlama yoki kompleks mintaqaviy iqtisodiy sheriklik (Regional Comprehensive Economic Partnership, RCEP) integratsiyalashuvni chuqurlashtirish bo‘yicha keyingi qadam bo‘ldi. RCEP tuzish bo‘yicha shartnoma 2020-yilning 15-noyabrida Vetnamning poytaxti Xanoyda imzolangan. 1997-98-yillardagi moliyaviy inqirozdan so‘ng ASEAN mamlakatlari katta iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan bo‘lsalarda undan chiqib ketish bo‘yicha ham to‘g‘ri kelishilgan siyosat

yuritdilar. Krizis ularni yanada birlashishga undadi va birgalikdagi harakatga chorladi.

Yaqin kelajakdagi ASEAN va APEC mintaqaviy tashkilotlarining istiqbollari ko‘p jihatdan globalizatsiya sharoitida ularning faolliklari bilan belgilanadi. Boshqa tarafdan esa dunyodagi global siyosatdagi holat, o‘zgarishlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar, urushlarga bog‘liq bo‘ladi.

Tayanch iboralar: ASEAN, AFTA, APEC, siyosiy barqarorlik

Nazorat savollari

1. ASEANni tashkil topishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. APECning integratsion tuzilma sifatidagi asosiy xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bangkok deklaratsiyasining mohiyatini ochib bering.
4. Hozirgi bosqichda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) qanday rivojlanmoqda.
5. ASEAN tuzilishi va asosiy faoliyati to‘g‘risida ma’lumot xaritasini tuzing.
6. ASEANda Xitoy va Yaponiyaning ishtiroki unga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
7. ASEAN va APECning istiqbollarini tushuntirib bering.

V BOB. JANUBIY OSIYO, AFRIKA, ARAB VA LOTIN AMERIKASI MINTAQALARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

5.1. Janubiy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari.

5.2. Afrika mintaqasida integratsion jarayonlarning rivojlanishi.

5.3. Arab dunyosida integratsion jarayonlarning xususiyatlari.

5.4. Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsion jarayon–larning rivojlanish bosqichlari.

5.1. Janubiy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari

Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi (The South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC)) ayni paytda sakkizta davlatning iqtisodiy va siyosiy tashkilotidir. SAARC 1985-yil-ning 8-dekabrida Bangladeshning Dakka shahrida quyidagi yettita mamlakatlar doirasida tuzildi: Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Butan, Maldiv orollari, Shri-Lanka va Nepal. Afg‘oniston SAARCga 2007-yilda sakkizinchi a’zo sifatida qo‘shildi.

Yigirmanchi asrning 80-yillarida tashkilot yaratish g‘oyasi obyektiv integratsiya jarayonlari natijasida vujudga kelgan. Bu vaqtga kelib, har bir mamlakat asosan ichki bozorga yo‘naltirilgan o‘z iqtisodiy tuzilmalarini yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatlarning nafaqat mintaqalararo, balki global mehnat taqsimotidagi ishtirokining nisbiy torayishi tendensiyasi kuzatildi.

Rasman assotsiatsiya 1985-yilda tashkil etilgan bo‘lsada, uning poydevori o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab qo‘yila boshlangan. Umuman olganda, hamkorlik g‘oyasi tarixiy ildizlarga ega. SAARCni tashkil etish bo‘yicha birinchi aniq qadamlar 1977-yilda Bangladeshning Prezidenti Ziyoul Rahmon tomonidan qo‘yilgan. U 1977-80-yillarda

Nepal, Hindiston, Pokiston va Shri-Lankaga tashriflari davomida Janubiy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik tizimini yaratish imkoniyatlarini muhokama qilgan. Ikkinchi qadam sifatida u Butan, Hindiston, Maldiv orollari, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka hukumat rahbarlariga maktublar yuborib, mintaqaviy hamkorlik qilish maqsadida institutsional kelishuvlarni o‘rnatish imkoniyatlarini o‘rganish uchun sammit yig‘ilishini taklif qilgan. Assotsiatsiyaning tashkil topishini uchta alohida bosqich belgilab berdi. Birinchi bosqichda mamlakatlarning tashqi ishlar vazirlari va yuqori lavozimli amaldorlari 1981-yil aprel oyida Shri-Lankaning Kolomba shahrida birinchi yig‘ilishni o‘tkazganlar va integratsiya asosini yaratish ishlari 1983-yilga qadar davom etgan. Ikkinchi bosqich 1983-yil avgust oyida Nyu-Dehlida tashqi ishlar vazirlari yig‘ilishining chaqirilishi bilan boshlandi, bu jarayon siyosiy darajaga ko‘tarildi va Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilindi. Uchinchi bosqichda yettita ta’sischining davlat rahbarlari 1985-yil dekabr oyida Dakkada SAARCning birinchi sammiti yig‘ilishida uchrashdilar va SAARCning Ustavini qabul qildilar.

SAARCning asosiy maqsadi Janubiy Osiyo mintaqasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ijtimoiy taraqqiyot va madaniy rivojlanish yo‘lida doimiy hamkorlik qilishga. Uning Ustavida belgilangan maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Janubiy Osiyo xalqlarining farovonligini oshirish va ularning turmush sifatini yaxshilash;
- Mintaqadagi barcha shaxslarga munosib yashash va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini berish orqali mintaqadagi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy taraqqiyot va madaniy rivojlanishni tezlashtirish;
- Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida jamoaviy o‘ziga ishonchni, o‘zini o‘zi ta’minlashga (self-reliance) targ‘ib qilish va mustahkamlash;
- O‘zaro ishonch, bir-birining muammolarini tushunish va qadrlashni targ‘ib qilish, qo‘llab-quvvatlash;
- Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik va ilmiy sohalarda faol hamkorlik va o‘zaro yordamni rivojlantirish;

- Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash;
- Umumiy manfaatli masalalar bo‘yicha xalqaro forumlarda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish;
- Yuqoridagi kabi maqsad va vazifalarni qo‘ygan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

A’zo mamlakatlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirishni maqsad qilganlar;

(1) Qishloq xo‘jaligi va qishloqni rivojlantirish;
(2) Ta’lim va madaniyat;
(3) Biotexnologiya;
(4) Iqtisodiyot, savdo va moliya;
(5) Energetika;
(6) Ekologiya va atrof-muhitni muhofazalash;
(7) Turizm;
(8) Fan va texnologiya;
(9) Axborot, kommunikatsiya va media;
(10) Kambag‘allikni qisqartirish;
(11) Xavfsizlik;
(12) Mintaqa aholisining bir-birlari bilan aloqalari;
(13) Moliyalashtirish mexanizmlari;
(14) Ijtimoiy taraqqiyot.

SAARCdagi hamkorlik beshta tamoyil asosiga qurilgan. Bular: suveren tenglik, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik, a’zo davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va o‘zaro manfaatdorlik.

Mintaqaviy hamkorlik a’zo davlatlarning ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlarini to‘ldirish, mustahkamlashga qaratilgan. SAARC sammitlari har yili o‘tkaziladi va sammitga mezbonlik qiladigan mamlakat assotsiatsiya raisi hisoblanadi. Qarorlar yakdillik asosida qabul qilinadi, ikki tomonlama va bahsli masalalar SAARCning muhokamasiga qo‘yilmaydi.

Hozirgi kunda SAARCga sakkizta a’zo davlatlardan tashqari, to‘qqizta kuzatuvchi davlat uning sammitlarida kuzatuvchi sifatida

ishtirok etadi. Bular: Xitoy, AQSH, Myanma (Birma), Eron, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya, Mavrikiy va Yevropa Ittifoqi.

Geografik jihatdan SAARC Janubiy Osiyo yaxlit ekotizimi asosida tashkil etilgan. Unda ikkita quyi tizim ustunlik qiladi: shimoldan Himolay tog‘ tizimlari va Janubning okean mintaqalari. Shimolda Himolay Janubiy Osiyo mintaqasini Osiyoning qolgan qismidan ajratib turadi va mintaqa janubga qarab Hind okeaniga cho‘zilgan. Janubiy Osiyo hududiy-geografik majmua bo‘lib, u tabiiy sharoitlarning o‘ziga xos bir xilligi va ular bilan bog‘liq umumiy muammolar tavsiflanadi.

Janubiy Osiyo ayni bir paytda geosiyosiy mintaqa-geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu unga madaniy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda integratsiyalashuvni obyektiv voqelik qilib qo‘ygan. Tarix davomida Janubiy Osiyo mintaqasida odamlarning o‘zaro harakati, o‘zaro savdo va g‘oyalarning tarqalishi ularni iqtisodiy va madaniy jihatdan birlashtirgan. Subkontinentda Buddizm, Hinduizmi va Islom dini aralashmasi Janubiy Osiyo mintaqasida alohida o‘ziga xos madaniyatni yaratgan.

Bir tarafdan, SAARCni tuzishning zaruriy sharti mintaqaning ulkan resurs salohiyati, qulay geosiyosiy mavqei va uning ichidagi iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ishtirokchi mamlakatlar rahbarlarining mintaqaviy integratsiya alohida davlatlarning kuchini birlashtirishini, jahon iqtisodiyoti va siyosatida katta kuchga aylanishini hamda birgalikdagi hamkorlik barchaga foydali bo‘lishini tushunib yetganlaridandir. Boshqa tarafdan, Janubiy Osiyoda terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, qashshoqlik, aholining haddan tashqari ko‘payishi, ochlik va ichimlik suvining yetishmasligi, mintaqa davlatlarida aholining zich joylashganligi, tabiiy ofatlarning ko‘p sodir etilishi, energiya manbalarining yetishmasligi kabi ko‘plab muammolarning mavjudligi, shuningdek, mintaqa ikki tomonlama davlatlararo nizolardan aziyat chekishi, jumladan, ikki mintaqaviy kuchlar-Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi ziddiyatlar, ularning har birini yadro qurollariga ega bo‘lishi sabablaridan SAARC yuqoridagi

muammolarga birgalikda konstruktiv yechim topish uchun platformaga aylanishiga umid qilingan edi.

Dastlab assotsiatsiyaning asosiy maqsadlari iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va madaniy sohalarga qaratilganligi bayon etilganiga qaramasdan, Assotsiatsiya faoliyati ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi mavjud harbiy-siyosiy keskinlikni yumshatishga yordam beradi va uzoq davom etgan mojarolarni hal qilishga hissa qo‘shadi deb taxmin qilingan edi.

Assotsiatsiyaning o‘ttiz sakkiz yillik tarixi davomida SAARCning faoliyat yo‘nalishlari inson taraqqiyoti, sog‘liqni saqlash, aloqa, ayollar va bolalarni himoya qilish, atrof-muhit va boshqalarni o‘z ichiga olgan holda sezilarli darajada kengaydi, biroq, integratsiyaga to‘sqinlik qiladigan davlatlararo munosabatlar muammolari hali ham muhokama doirasidan tashqarida qolmoqda.

O‘tgan o‘n yilliklar davomida SAARC turli sohalarda ko‘plab integratsiya tashabbuslarini amalga oshirdi. Jumladan, umumiy mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish uchun Janubiy Osiyo universiteti South Asian University (SAU) (2010) ochildi, yoshlar uchun SAARC ko‘ngillilar dasturi, uyushgan turizmni rivojlantirish strategiyasi, SAARCni rivojlantirish jamg‘armasi va boshqalar tashkil etildi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashish choralari ko‘rilmoqda, xususan, terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha SAARC mintaqaviy Konvensiyasi (1987), ayollar va bolalarni fohishalik savdosi oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha SAARC Konvensiyasi (2002) qabul qilindi va SAARC oziq-ovqat banki tashkil etildi.

Iqtisodiy sohada ***Janubiy Osiyo Erkin savdo hududi (The South Asian Free Trade Area (SAFTA)*** 2004-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u kam rivojlangan ishtirokchilarini, xususan, Bangladesh va Shri-Lanka davlatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratgan, ya’ni ular uchun pastroq savdo tariflari belgilangan va eng sezgir, zaruriy tovarlarning ro‘yxatlari shakllantirilgan.

Shuningdek, integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida ishtirokchi davlatlar 2010 va 2020-yillar davomida konsolidatsiya rejasini ishlab chiqqan. Unga koʻra:

1. Tranzit savdo qoidalarini JST va SAFTA talablariga muvofiqlashtirish.
2. Transchegaraviy infratuzilmani takomillashtirish, savdo shartlari, kapital harakati, investitsiyalarni yaxshilash, loyihalarni amalga oshirish.
3. Bojxona hujjatlari va protseduralarini standartlashtirish.
4. Samarali mintaqaviy ta’minot zanjirlarini yaratish maqsadida yuk mashinalari uchun "yashil" kanallar va koridorlarni yaratish.
5. Mintaqaning Shimoliy-sharqidagi submintaqaviy va daryo infratuzilmasini takomillashtirish.
6. Hindiston va Bangladesh oʻrtasida tranzit savdosi boʻyicha kelishuvga erishish, shuningdek, Afgʻoniston, Hindiston va Pokiston oʻrtasida.
7. Pokiston, Hindiston, Bangladesh va Myanma birgalikda Afgʻonistonni rivojlantirish boʻyicha aniq harakatlar olib borish.
8. Umumiy "ochiq osmon" rejimini oʻrnatish.
9. Janubiy Osiyoda yagona SIM-karta joriy etish.
10. Mintaqa mamlakatlarining energiya resurslarini birlashtirish rejalashtirilgan.

Xususiy sektor deyarli barcha Janubiy Osiyo davlatlarining milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda ustun rol oʻynaydi va mintaqada oʻrtacha YaIMning 75 foizini ta’minlaydi. U qishloq xoʻjaligi, mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat va tibbiyot sanoati, qurilish, avtotransport hamda savdoda ustunlik qiladi. Davlat sektori mudofaa sanoati, energetika, transport, aloqa kabi asosiy kapital talab qiladigan sohalarda yetakchi oʻrinlarni egallaydi.

Mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari, birinchi navbatda, asosiy YaIM boʻyicha juda farqlanadi.

SAARC tuzilganida uning asoschilari mintaqaviy hamkorlikka funksional, hukumatlararo boshqaruv yondashuvini joriy etdilar. Bunga asosiy sabab bir tomondan, Hindistonning kichik mamlakatlar tashkilotda uning qarorlariga qarshi chiqishidan xavotiri bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kichik mamlakatlarning Hindistonning gegemonlikni qo‘lga olishidan xavotirlari bo‘lgan. SAARC tuzilmalari hukumatlararo xarakterga ega va hamkorlikning har qanday yangi sohasi SAARC davlat yoki hukumat rahbarlari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

SAARCning tashkiliy tuzilmasi cho‘qqisida har yili davlat yoki hukumat rahbarlarining sammit uchrashuvlari turadi. Sammit uchrashuvlarida assotsiatsiya qarorlarini qabul qilinadi. Ierarxiyada keyingi o‘rinda a’zo davlatlarning tashqi ishlar vazirlari yig‘iladigan vazirlar Kengashi turadi. Kengash siyosatni shakllantirish, taraqqiyotni ko‘rib chiqish, hamkorlikning yangi yo‘nalishlari to‘g‘risida qaror qabul qilish, zarur deb topilgan qo‘shimcha mexanizmlarni yaratish va assotsiatsiyani qiziqtirgan boshqa masalalarni hal qilish uchun javobgardir. Kengash yiliga ikki marta yig‘iladi va agar a’zo davlatlar rozi bo‘lsa, favqulodda qo‘shimcha yig‘ilish o‘tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, 1987-yilda SAARC kotibiyati tashkil etilgan bo‘lib, uning qarorgohi Nepalda Katmanduda joylashgan.

Ta’kidlash lozimki, SAARCning o‘ziga xos xususiyati unda integratsiyalashuv jarayonida bir qator qarama-qarshiliklarning mavjudligi hamda Hindistonning mintaqada iqtisodiy va siyosiy ma’noda yetakchiligidir. Bir tomondan, aynan Hindiston mintaqadagi integratsiya jarayonlarining asosiy tashabbuskori bo‘lib, Assotsiatsiya institutlarini yaratish va qonunchilikni birlashtirishga katta hissa qo‘shgan, ko‘plab iqtisodiy imtiyozlar bergan. Bundan tashqari, Hindistonning xalqaro ta’siri assotsiatsiyaga jahon siyosatida ko‘proq kuch beradi. Boshqa tomondan, Hindiston faqat o‘z shartlari bilan mintaqaviy qurilishga faol hissa qo‘shmoqda. Aynan Hindiston siyosiy masalalarni SAARC kun tartibiga kiritishni qat’iyan rad etib keladi. Garchi dastlab mintaqadagi boshqa davlatlarning ko‘plab vakillari SAARCni asta-sekin harbiy-siyosiy birlashmaga aylantirishni talab qilishgan va bu integratsiyadan

hududiy nizolarni, mintaqadagi chegara mojarolari va boshqa davlatlararo qarama-qarshiliklarni hal qilishda o‘zgarishlarni kutishgan bo‘lsada, Hindiston tomonidan yetarli harakat sezilmagan. O‘z navbatida, Pokiston Hindiston bilan 75 yildan buyon Kashmir masalasi bo‘yicha ziddiyatda bo‘lganligi, chegaraviy muammolar bois SAARCga chuqur integratsiyalashuvdan o‘zini uzoqroqda tutib turadi.

Janubiy Osiyoda chegaralarni o‘rnatish tajribasi bunday muhim siyosiy jarayon bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yaqqol ko‘rsatib turibdi. 1947-yilda Hindiston va Pokistonning Britaniya imperiyasidan mustaqilligi nafaqat mustamlakachilikka qarshi umumiy kurashda g‘alaba quvonchini, balki ko‘plab muammolarni ham keltirdi. Bu siyosiy jihatdan bo‘linish bilan bog‘liq. Janubiy Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi tarixan o‘rnatilgan savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar davlat chegarasining shoshilinch ravishda ajratilgan chizig‘i tufayli buzildi. Shuningdek, Hindiston bilan Bangladesh o‘rtasida ham chegaraviy nizolar mavjud.

Ta’kidlash joizki, Hindiston-Pokiston munosabatlarini yaxshi-lanishi iqtisodiy sohaga uch tomondan ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Birinchidan, Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkilotida rejalarni amalga oshirishga ko‘maklashish, uni yanada muhim iqtisodiy kuchga aylantirish. Ikkinchidan, ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini bir necha bor oshirishga hissa qo‘shish va Markaziy Osiyo davlatlari chegaralariga olib boruvchi mavjud avtomobil yo‘llaridan foydalanish yoki yangi avtomobil yo‘llarini qurish uchun sharoit yaratish. Bu o‘z navbatida, SAARC davlatlari va boshqa mintaqalarda savdoni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, mintaqada dinlar o‘rtasida har zamonda diniy nizolarning bo‘lib turishi ham umuman olganda, integratsiyalashuv jarayoniga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Janubiy Osiyoning barcha davlatlari, umuman olganda, milliy iqtisodiyotining tuzilishiga muvofiq agrar-sanoat yoki agrar davlatlar guruhiga kiradi. Bu mamlakatlarda muhim muammolar saqlanib qolmoqda, shu jumladan oziq-ovqat, demografik, tarkibiy va boshqalar.

Fuqarolarning emigratsiyasi mintaqa mamlakatlari uchun odatiy holga aylangan. Asosiy oqimlar Hindistondan Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlariga yo‘naltirilgan; Bangladesh, Pokiston va Shri - Lankadan - Fors ko‘rfazi mamlakatlariga. Inson resurslarining faol eksporti ularning ingliz tilini bilishlari sifati va bilimlari bilan bog‘liq. Hindiston chet elga ketgan fuqarolari, ayniqsa yuqori malakali kadrlar soni bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Hozirda Hind diasporasi soni 30 million kishidan oshadi. Shuningdek, malakasiz ishlar bo‘yicha ishchi kuchi emigratsiyasi mintaqa bo‘yicha yuqori.

Shuning uchun SAARCdagi integratsiyalashuv jarayonlari muammosini klassik realistik tomondan yondashib baholash mumkin, a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘plab siyosiy qarama-qarshiliklar tufayli ishonchsizlik hukmronlik qiladi va past rivojlangan mamlakatlar integratsiyaning chuqurlashishini ularning xavfsizligiga tahdid deb bilishadi, boshqacha aytganda, kuchli qo‘shnisining yanada mustahkam-lanishini suverenitetiga hujum sifatida ko‘radi. Shulardan kelib chiqqan holda, SAARC a’zolari uzoq muddatli istiqbolda integratsiya ularning manfaatlariga mos kelishiga qaramay, milliy manfaatlarni mintaqaviy manfaatlardan ustun qo‘yishda davom etmoqdalar. Shunday qilib, o‘ziga xoslikda muayyan tugunli doira shakllangan, ya’ni siyosiy muammolar mintaqadagi ishonchga to‘sqinlik qiladi, ammo aslida u muammolarni hal qilish kerak. Mintaqada o‘zaro ishonchsizlikning kuchayib borishi mintaqa davlatlarining harbiy xarajatlarini doimiy ravishda oshirishiga olib keladi, bu esa inson taraqqiyoti va mintaqaviy o‘ziga xoslik uchun qulay muhitni shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

SAARC integratsion tashkilotini dunyodagi boshqa integratsion tashkilotlari bilan taqqoslasak, ushbu mintaqa ko‘rsatkichlari past ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

7-jadval

SAARC integratsion tashkilotining dunyodagi boshqa integratsion tashkilotlar bilan taqqoslama tahlili (2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

Integratsion guruhlar	Maydoni, mln.kv.km.	Aholi soni, mln. kishi	YaIM, mln. AQSH doll., XQP	Jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM, AQSH doll.	A’zo mamla-katlar soni
SAARC	5.14	1930	4 360 000	2 259	8
ASEAN	5.06	680	3 600 000	5 294	10
EU	4.2	742	16 641 000	22 427	27
GCC	2.57	59	2 197 000	37 237	6
USMCA	21.78	500	26 000 000	52 000	3

Manba: World factbook ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi boblarda biz Yevropaning integratsiyalashuvi masalasini o‘rganganimizda aynan ularni birlashuvining dastlabki g‘oyasi siyosiy va tinchlik o‘rnatish, yagona yevropa xalqlari sifatida shakllanish ekanligini ko‘rgan edik. Janubiy Osiyo xalqlari yuqorida ta’kidlanganidek, tarix, madaniyat, din va boshqa jihatlardan juda ham bir-biriga yaqin xalqlar va shuning uchun ular Yevropa tajribasidan foydalanib tegishlicha faoliyat yuritsalar tom ma’nodagi integratsiyalashuvga erishadilar.

Shunday qilib, ushbu bosqichda SAARC ikkita ko‘p yo‘nalishli tendensiya bilan tavsiflanadi, ya’ni integratsiya va dezintegratsiya, birinchisi asosan ijtimoiy-iqtisodiy sohaga, ikkinchisi esa harbiy-siyosiy sohaga bog‘liq. Agar SAARCdagi iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarni Yevropa Ittifoqi va Osiyo-Tinch okeani mintaqalari davlatlari integratsiyalashuvi bilan solishtirsak, uning ancha orqada ekanligi kuzatiladi.

5.2. Afrika mintaqasida integratsion jarayonlarning rivojlanishi

1950-1980-yillarda mustaqillikka erishgandan so‘ng, deyarli barcha Afrika mamlakatlari mintaqaviy integratsiya konsepsiyasini qabul qila boshladilar. Juda ko‘p to‘planib qolgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal qilish yuzasidan milliy rejalarning barbod bo‘lishi ortidan postkolonial Afrika hukumatlari mintaqaviy yoki kontinental darajada siyosiy va iqtisodiy integratsiya orqali muammolarga yechim topishga harakat qilishdi.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati Afrikada juda dolzarb masala, ayniqsa, mavjud siyosiy va iqtisodiy zaiflik nuqtayi nazaridan yondashilganda. Mintaqadagi qashshoqlik, inson kapitaliga e’tiborsizlik, infratuzilmaning zaifligi, jahon savdosida ulushning pastligi kabi mavjud muammolarga birgalikdagi harakat oqilona olib borilgan sharoitda o‘zining samarasini beradi.

Afrikadagi integratsiya tarixi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, panafrikanizm g‘oyasi mustamlakachilik va irqchilikka javob sifatida rivojlangan paytdan boshlab uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlab, 1900-1945 yillarda qora tanli rahbarlar, ziyolilar va Afrika diasporasi a’zolari o‘rtasida munozara uchun platforma yaratishda bir qator panafrika kongresslari tashkil etilgan. U paytda asosiy mavzulardan biri iqtisodiy yoki siyosiy integratsiya emas, balki ko‘proq Afrika birligiga chorlovchi mafkuraviy va madaniy birdamlikka da’vat bo‘lgan. Bu davr Afrika integratsiyasining keyingi tarixi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki aynan shu davrda Afrika rahbarlarining butun avlodlari tarbiyalangan va asosiy g‘oyalarni rivojlantirgan.

1950 va 1960-yillarda Afrika integratsiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi Afrika davlatlarining mustaqilligi va mustamlakachilikni tugatish uchun birlashishga chaqiruvchi panafrika harakati bo‘lgan. 1957-yilda mustaqillikka erishgan birinchi Sahroi Kabir davlati Gana edi va 1963-yil oxiriga kelib, Afrika davlatlarining taxminan 80% mustamlaka hukmronligidan ozod qilingan. Afrikadagi integratsiyaning mafkuraviy asoslari millatidan qat’i nazar, afrikaliklar jamoasini

tavsiflovchi "Pan-Afrikanizm" tushunchalariga aylandi. Ushbu konsepsiyaning maqsadi Afrika xalqini qit'ani boshqa mamlakatlarga qaramlikdan ozod qilishning yakuniy g'oyasi bilan birdamlik asosida birlashtirish edi. 1963-1970-yillarda Afrikada integratsiya g'oyalari Afrikaning 32 mamlakati tomonidan ***Afrika birligi tashkilotini (Organization of African Unity –(OAE))*** yaratish shaklida amalga oshirildi. Afrika davlatlari uchun dekolonizatsiya va ozodlikning mavzusi umumiy maqsadga e'tibor qaratib, turli qarashdagi tarafdorlarini birlashtirishga yordam berdi.

Integratsiyaning ushbu bosqichini asosiy muammosi huquqiy ijro mexanizmlarining yo'qligi va a'zo davlatlar uchun o'ziga xos majburiyatlarning kamligi edi. OAE asosiy tamoyillaridan biri ichki ishlarga aralashmaslik prinsipi edi. Yana bir muammo shundaki, yangi mustaqil davlatlarning milliy rahbarlari hokimiyatni qit'a darajasiga topshirishga tayyor emas edilar. 1970-yildan 1980-yilgacha bo'lgan davr OAEning Afrikadagi integratsiya mexanizmi sifatida ahamiyatining pasayishi bilan ajralib turdi. Ustavda ko'rib chiqilgan iqtisodiy jihat keyingirejada qoldi.

Shunday qilib, yuqoridagi davrlarda Afrikadagi integratsiya va xalqaro hamkorlikning asosiy xususiyatlari o'zgarmadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotlarning o'sishi, mamlakatlarning jahon bozorlaridagi mavqeining yaxshilanishi, ijtimoiy taraqqiyot sohasidagi vaziyatning o'zgarishi Afrika xalqlari hayotida sezilarli sifat va miqdoriy siljishlarga olib kelmadi.

1990-2000-yillar 1991-yildagi Abuja shartnomasini imzolash va ***Afrika iqtisodiy hamjamiyatini (African Economic Community-(AEC))*** tuzish bilan belgilandi. Uning g'oyasi oltita aniq bosqichdan so'ng 2028-yilda Afrika iqtisodiy va valuta ittifoqini (shu jumladan yagona valutani) joriy etish edi. Oltita bosqich quyidagilarni o'z ichiga olgan:

(1) Mavjud mintaqaviy iqtisodiy hamjamiyatlarni mustahkamlash va zarurat bo'lganda yangilarini yaratish;

(2) Xalqaro savdodagi tariflarni va boshqa to'siqlarni barqarorlashtirish va sanoat integratsiyasini kuchaytirish;

(3) Har bir hamjamiyat ichida erkin savdo zonasini va bojxona ittifoqini tashkil etish;

(4) Kontinental bojxona ittifoqini yaratish maqsadida hamjamiyatlarning tarif va tarifsiz tizimlarini muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirish;

(5) Afrikaning umumiy bozorini yaratish va umumiy siyosatini qabul qilish;

(6) Barcha tarmoqlarning integratsiyasi, Afrika Markaziy bankini tashkil etish, yagona Afrika valutasini joriy etish, Afrika iqtisodiy va valuta ittifoqini va birinchi panafrika parlamentini tashkil etish[21].

Integratsiya shartnomalarini tuzishda BMTning ***Afrika bo‘yicha iqtisodiy komissiyasi (United Nations Economic Commission for Africa- (UNECA))***, muhim rol o‘ynadi, u mamlakatlarni tashqi dunyodan qaramligini kamaytirish va o‘zining kuchi bilan harakatlanishi, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishi uchun import o‘rnini bosish siyosatini olib borishga chaqirdi. UNECA tavsiyalarini inobatga olgan holda, Afrika birligi tashkilotining Ustavi (1963) mintaqaviylik tamoyiliga asoslangan va umumiy Afrika ittifoqini yaratishning strategik maqsadi aniqlangan.

Hozirgi vaqtda Afrikada rasman tan olingan sakkizta submintaqaviy integratsiya birlashmalari turli darajada faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular:

(1) Sharqiy Afrika hamjamiyati (The East African Community- (EAC));

(2) Rivojlantirish bo‘yicha hukumatlararo tashkilot (Intergovernmental Authority on Development- (IGAD));

(3) Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (Common Market for Eastern and Southern Africa -(COMESA));

(4) Saxel–saxara davlatlari hamjamiyati (The Community of Sahel-Saharan States- (CEN-SAD));

(5) Janubiy Afrikani rivojlantirish hamjamiyati (Southern African Development Community- (SADC));

(6) Arab Mag‘rib Ittifoqi (The Arab Maghreb Union- (AMU));

[21] http://www.au.int/en/content/treaty-establishing-african-economic-community

(7) Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (Economic Community of Central African States-(ECCAS)) ;

(8) G‘arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (Economic Community of West African States-(ECOWAS)).

Afrikani iqtisodiy rivojlantirishning so‘nggi rejalaridan biri bu Afrikaning rivojlanishi uchun yangi sheriklik - (New Partnership for Africa's Development – (NEPAD)), o‘zaro savdo va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirishga va milliy iqtisodiy siyosatni muvofiqlash-tirishga qaratilgan. NEPAD ikkita dasturga asoslangan – yangi asrda Afrikaning iqtisodiy rivojlanishini jonlantirish bo‘yicha hamkorlik dasturi- (Millennium Partnership for the African Recovery Programe – (MAP)) va Omega (Omega) rejasi. Birinchi dastur afrikaliklar o‘rtasidagi mojarolarni hal qilishga, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy yordam va tashqi qarz muammosini yechishga qaratilgan. Omega rejasi qishloq xo‘jaligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishning ustuvorligiga asoslanadi. Ikki dasturning birlashishi yangi deb nomlan-gan yagona dasturni ishlab chiqishga olib keldi - yangi Afrika tashabbusi (New African Initiative – (NAI),u 2001- yil iyul oyida Afrika birligi tashkilotiga a’zo mamlakatlar Davlat va hukumat rahbarlarining sammitida tasdiqlangan.

Dastur yetakchilik, jamiyatning barcha qatlamlari, milliy va xorijiy tadbirkorlarning keng ishtiroki kabi tamoyillarga asoslangan. Uning maqsadlari:

- qashshoqlik chegarasidan past darajada yashovchi odamlar sonini ikki baravarga kamaytirish;
- barcha maktab yoshidagi bolalarni boshlang‘ich maktab ta’limi bilan qamrab olish;
- boshlang‘ich va o‘rta umumiy ta’limda jinslar o‘rtasidagi tenglikka erishish;
- bolalar o‘limini 2/3 ga kamaytirish;
- mavjud ekotizimlar va mavjud ekologik resurslarni saqlab qolish bilan barqaror rivojlanish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish.

Yuqoridagilardan tashqari ***Afrika Kontinental Erkin Savdo Hududi (African Continental Free Trade Area-(AfCFTA))*** integratsion tashkilot sifatida 2021-yildan o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu integratsion guruhning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

(1) ishbilarmonlar va investitsiyalarning erkin harakatlanishi bilan tovarlar va xizmatlar uchun yagona kontinental bozorni yaratish; kontinental bojxona Ittifoqi va Afrika bojxona Ittifoqini shakllantirish;

(2) liberallashtirish rejimlari va vositalarini muvofiqlashtirish, mintaqaviy ittifoqlarda va umuman Afrikada savdo tartiblarini sodda-lashtirish orqali mintaqa ichidagi savdoni kengaytirish;

(3) bir-birini takrorlaydigan a’zolik muammosini hal qilish hamda mintaqaviy va qit’aviy integratsiya jarayonlarini tezlashtirish;

(4) ishlab chiqarish hajmini oshirish, kontinental bozorga chiqish va resurslarni yanada samarali qayta taqsimlash imkoniyatlaridan foydalanish orqali sanoat raqobatbardoshligini oshirish.

Ta’kidlash joizki, rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo‘lgan xususiyat, ya’ni turli hujjatlarning haddan ziyod qabul qilinishi va ularda juda ruhlantiruvchi balandparvoz bayonotlarning berilishi va ayni bir paytda ularning ijrosi ta’minlanmasligi yoki to‘liq bo‘lmasligi kuzatiladi. Xuddi shunday holat Afrika kontinentiga ham xosdir.

Afrikaning integratsion guruhlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi juda past, o‘zaro savdoning ulushi past, eksportning bir xilli tovar tarkibi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar bo‘yicha farqlarning kattaligi, a’zo mamlakatlar hukumatlari o‘rtasida sezilarli siyosiy farqlar mavjudligi, soliq tushumlarining pastligi sharoitida yaratilgan. Ushbu va boshqa parchalanuvchi omillar ko‘pincha integratsiya jarayonlarining rasmiy xususiyatini ko‘rsatadi.

Afrika integratsion guruhlari maqsadlarining shuhratparastligi bilan ajralib turadi. Lotin Amerikasi va Osiyoda integratsiya guruhlari asosan erkin savdo zonalarini yaratish maqsadlaridan kelib chiqadi, ko‘pgina Afrika guruhlari (shu jumladan 60-yillarda yaratilgan) umumiy bozorlarni, iqtisodiy va valuta ittifoqlarini 10 yil emas, balki 20-30 yil

uzoqroq moslashish davri bilan hamda ko‘plab mamlakatlarni o‘z ichiga olgan holda shakllantirishga qaratilgan.

Afrikada dezintegratsiyaga olib keluvchi omillar:

- tor bozorlar va kichik iqtisodiyot, aholi jon boshiga YaIMning o‘ta pastligi, bu investitsiyalar oqimiga, ishlab chiqarish va eksportni diversifikatsiyalashga salbiy ta’sir qiladi va resurslarni birgalikda foydalanishni zarurligiga olib keladi;
- sobiq metropoliyalar bilan barqaror iqtisodiy va siyosiy aloqalarning saqlanishi;
- umumiy siyosatni ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladigan ko‘plab integratsiya guruhlarining katta tarkibi (27 mamlakatgacha);
- integratsion guruhlarni tuzish bo‘yicha kelishuvlarda ko‘plab maqsadlarning belgilanishi;
- xususiy tadbirkorlik sektorining roli juda pastligi;
- davlat hokimiyati tuzilmalarining zaifligi.

G‘arbiy Afrikaning yetakchi guruhi-G‘arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (Economic Community of West African States-(ECOWAS)) bo‘lib, 1975-yilda 16 mamlakat tarkibida tashkil etilgan: Benin, Burkina-Faso, Kabo-Verde, Kotdivuar, Gambiya, Gana, Gvineya, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra-Leone, Togo va Mavritaniya (1999-yilda guruhni tark etgan).

ECOWASning maqsadlari ham boshqa integratsion guruhlar kabi shakllantirilgan, ya’ni mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish orqali aholi farovonligi darajasini oshirish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yilgan: mintaqada bojxona ittifoqi va umumiy bozorni bosqichma-bosqich yaratish; shu jumladan, sanoat, transport, aloqa, energetika, qishloq xo‘jaligi, tabiiy resurslar, pul-kredit va moliya sohalarida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish; mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish.

ECOWASning institutsional organlariga quyidagilar kiradi: oliy organ - Davlat rahbarlari konferensiyasi; sessiyalar orasidagi davrda Davlat va hukumat rahbarlarining Oliy organi ishlaydi (uchrashuvlar yiliga kamida bir marta o‘tkaziladi). Uning vazifasi tashkilot faoliyatiga

rahbarlik qilish; integratsiyaning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash; oxirgi chora sudi; guruhda yuqori lavozimlarga, shu jumladan, moliyaviy ishlar bo‘yicha mas’ul kotib va komissarlarni tayinlash. Oliy organga bo‘y-sunadigan va ijro etuvchi funksiyalarni bajaradigan Vazirlar Kengashi Oliy organ va Kotibiyat o‘rtasida o‘ziga xos vositachi vazifasini bajaradi. U Ijrochi kotib va Kotibiyatning boshqa rasmiy vakillarining vazifalarini belgilaydi; Kotibiyatning yillik budjetlarini tasdiqlaydi; har bir mamlakat tomonidan yillik badallar miqdori va boshqa daromad manbalarini belgilaydi; Kotibiyat ishi to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitadi. ECOWASning texnik organi Ijrochi kotib boshchiligidagi 14 kishilik kotibiyatdir.

5.3. Arab dunyosida integratsion jarayonlarning xususiyatlari

Arab Davlatlari Ligasi (The League of Arab States- (LAS)) barcha arab davlatlarini birlashtirgan tashkilot bo‘lib, 1945-yilning 22-martida Qohirada, ya’ni Ikkinchi Jahon urushi tugashi arafasida, xalqaro munosabatlarda yangi tizim shakllanishi va tashqi siyosiy yo‘nalishni belgilash paytida yuzaga keldi. Ligani tashkil etishda 1944- yilda qabul qilingan Aleksandriya bayonnomasi asos qilib olindi. Uning a’zolari bo‘lib quyidagi 22 ta davlatlar hisoblanadi: Misr, Iroq, Iordaniya, Qatar, Saudiya Arabistoni, Siriya, Livan, Aljir(Jazoir) (1962), Bahrayn(1971), Komor Orollari(1993), Jibuti(1977), Quvayt(1961), Liviya (1953), Mavritaniya(1973), Marokash(1958), Omon (1971), Falastin(1976), Somali(1974), Sudan (1956), Tunis (1958), Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)(1971) va Yaman. Siriya 2011-yilda a’zolikni to‘xtatgan. Ushbu davlatlar arab dunyosi deb ham yurtiladi. LAS panarabizm g‘oyasi asosida tashkil etilgan. Panarabizm – milliy ozodlik mafkurasi va barcha arab tilida so‘zlashadigan xalqlarning siyosiy birlashishini bildiradi. LAS g‘oyaviy, siyosiy jihatdan integratsiyalashuvni ko‘zlagani holda, tashkilot moliyaviy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, sog‘liqni saqlash va telekommunikatsiya,

madaniyat va ijtimoiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishni ham asosiy maqsad qilgan.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Yaqin va O‘rta Sharqda xalqaro munosabatlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati panarabizm mafkurasida o‘z ifodasini topgan Arab birligi targ‘ibotining kuchayishi edi. Panarabizm o‘zining sof shaklida, ushbu mafkura tarafdorlarining fikriga ko‘ra, Arab dunyosining mustaqil davlatlarga sun’iy bo‘linishini yengish zarurligi g‘oyasini ifodalaydi. Faqat Arab birligi orqali, Usmonli hukmronligi boshlanganidan beri to‘rt asr, keyin esa bir necha o‘n yillik Yevropa mustamlakachiligi bilan to‘xtatilgan Arab sivilizatsiyasining tabiiy rivojlanishiga qaytish mumkin edi. Panarabizm mafkurasining shakllanishi jahon mustamlakachilik tizimlarining qulashi sharoitida yosh arab davlatlari tomonidan milliy o‘ziga xoslikni izlash jarayonida sodir bo‘ldi[22].

Arab dunyosi submintaqalarga bo‘lingan: Arabiston yarim oroli, undan fors ko‘rfazining eng boy davlatlari alohida ajratilgan- Bahrayn, Qatar, Quvayt, Omon, BAA, Saudiya Arabistoni. (Yamandan tashqari barchasi kiritilgan), Mag‘rib- Aljir, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Tunis va Mashriq- Iordaniya, Iroq, Livan, Falastin, Siriya va Misr. Arab dunyosi davlatlariga nisbatan Yaqin Sharq so‘zi ham ishlatiladi. BMTning tasniflashiga ko‘ra Yaqin Sharq (Middle East) G‘arbiy Osiyo va qisman Shimoliy Afrika davlatlarini o‘z ichiga oladi.

Arab dunyosi Atlantika okeanidan Hind okeanigacha bo‘lgan yo‘lda geostrategik pozitsiyani egallaydi va musulmon dunyosida yetakchi o‘rinni egallaydi. Umumiy geosiyosiy, lingvistik, madaniy va diniy makonni ifodalovchi Arab mamlakatlari 14 million km. kv. maydonga ega bo‘lgan Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo hududlarini egallaydi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika juda xilma-xil bo‘lib, boy mamlakatlarni (asosan fors ko‘rfazi) va kambag‘al davlatlarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan mintaqada farqlar mavjudligi bilan bir qatorda (nafaqat aholi jon boshiga daromadlar, balki ichki bozorlar sig‘imi, YaIM o‘sish

[22] В.П. Румянцев. Идеология панарабизма и ближневосточная политика США и Великобритании в 1950-е гг. Издательства Томского университета, 2008.-стр.41

sur’atlari, resurslar mavjudligi, inflatsiya va ishsizlik darajasi va boshqalar), siyosiy (monarxiyalar va respublikalar) va konfessiyaviy masalalarda ham katta farqlar mavjud. (shialar va sunniylar).

Ushbu davlatlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, xalqaro munosabatlarda o‘ziga xos o‘ringa, o‘ziga xos tashqi siyosatga, tashqi siyosat yo‘nalishini shakllantirish va tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Biroq, ularning o‘xshashligi - hokimiyatni markazlashtirish, mamlakat rahbarlarining keng vakolatlari, davlatning iqtisodiyotdagi yuqori roli, rasmiylarning paternalistik ijtimoiy siyosat yuritish istagi, armiyaning siyosiy tizimdagi o‘rni, an’anaviy jamiyat elementlarining ta’siri, din hamjamiyati, Islomning siyosiylashuvi va boshqa omillar tashqi siyosat jarayoni nuqtayi nazaridan Arab mamlakatlari orasida ko‘plab umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Har bir alohida Arab mamlakatining tashqi siyosiy resurslari uning jami potensiali bo‘lib, tashqi siyosatda xalqaro maydonda natijalarga erishish uchun ishlatilishi mumkin.

Arab mamlakatlari zamonaviy jahon iqtisodiyotida muhim o’rin tutadi, bu birinchi navbatda energiya resurslarining katta zaxiralari va shunga mos ravishda jahon energiya eksportidagi mavqei, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, AQSh va boshqa bir qator davlatlarda energiya xavfsizligi muammosini hal qilishda asosiy rolni bajaradi. Hozirgi vaqtda Yaqin Sharqdagi va Shimoliy Afrikaning Arab mamlakatlarida tabiiy gazning tasdiqlangan hajmi global zaxiralarining uchdan bir qismini tashkil qiladi, shuningdek, ushbu hududda neft zaxiralarining hissasi 65 foizni tashkil etadi.

Arab davlatlarida suv resurslari tanqisligi mavjud. Arab dunyosida iste’mol qilinadigan yer usti suvlarining umumiy hajmining 57% Arab mamlakatlari hududiga qo‘shni arab bo‘lmagan mintaqalardan keladi. Suv muammolari sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligi sektori uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Suv yetishmasligidan tashqari, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun hududlarni cho‘llanishi ta’sir qiladi. Hozirda cho‘llar Arab dunyosi mamlakatining 68,4 foizini egallaydi.

Arab davlatlari Ligasi doirasida integratsiyani yaqinlashtirishga harakatlar bo‘lib, ilk davrlarda muvaffaqiyatsiz urinishlar bo‘lgan. 1950-yilda mamlakatlar mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash, qo‘shma mudofaa va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mintaqada barqarorlikni mustahkamlash maqsadida Qo‘shma mudofaa va iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitim imzoladilar. A’zo davlatlarning harbiy imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, xavf va tahdidlarni bartaraf etish uchun profilaktika va mudofaa choralarini ko‘rish uchun qo‘shma Mudofaa Kengashini tuzish ko‘zda tutilgan edi. Iqtisodiy Kengash iqtisodiy va savdo hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, bojxona to‘lovlarini kamaytirish, kapital oqimlari va jismoniy shaxslarni liberallashtirish orqali Arab davlatlarida turmush darajasini yaxshilashga ko‘maklashish maqsadida tuzilgan. Mamlakatlar 1950-yilgi shartnoma qoidalariga zid keladigan shartnomalar tuzmaslikka va’da berishgan. Keyinchalik iqtisodiy Kengash iqtisodiy va ijtimoiy Kengashga aylantirilgan. Keyingi yillarda sog‘liqni saqlash, yoshlar va sport, ijtimoiy siyosat, ichki ishlar, adliya, qurilish, transport, ekologiya, aloqa va axborotlashtirish, ommaviy axborot vositalari, elektr energetikasi, turizm va suv ta’minoti bo‘yicha 13 ta vazirlar kengashi, so‘ngra yana 18 ta kengash tuzilgan.

1950 - yillarda yetti davlat – Misr, Iordaniya, Iroq, Yaman, Livan, Saudiya Arabistoni va Suriya ikki tomonlama shartnomalarni almashtirib ko‘p tomonlama savdo va to‘lov shartnomalarini tuzish tashabbuslarini ilgari surdilar, bu esa bojxona to‘lovlarining pasaytirilgan stavkalari asosida mamlakatlar o‘rtasida imtiyozli savdo shartnomalarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. 1953-yilda Misr, Livan va Iordaniya savdoni rag‘batlantirish va tranzit savdosini tartibga solish to‘g‘risida bitim imzolaganlar. ***(Agreement on Trade Facilitation and Regulating Transit Trade).***

1957-yilda iqtisodiy birlik to‘g‘risidagi bitim imzolangan va unda quyidagi bandlar mavjud:

- iqtisodiy siyosat va qoidalarni muvofiqlashtirish;
- transport va tranzit qoidalarini muvofiqlashtirish;

- arablararo savdo shartnomalarini imzolash;
- qishloq xo‘jaligi, sanoat va savdo siyosatini muvofiqlashtirish, barcha ishtirokchi mamlakatlar fuqarolari uchun teng sharoitlarni kafolatlash maqsadida iqtisodiy qonunchilikni birlashtirish;
- mehnat qonunchiligi va ijtimoiy sug‘urta sohasidagi qonun hujjatlarini muvofiqlashtirish;
- soliq va bojxona qonunchiligini muvofiqlashtirish;
- fuqarolarning ikki tomonlama soliqqa tortilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- pul-kredit siyosati va valutani birlashtirish qoidalarini muvofiqlashtirish;
- statistik tasniflash usullarini birlashtirish;
- belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan boshqa choralarni qabul qilish.

Ushbu 10 ta moddaning amalga oshirilishi ***Pan-Arab Erkin savdo hududi (Pan Arab Free Trade Area (PAFTA))*** to‘g‘risidagi bitim uchun asos bo‘lgan. Shartnoma mamlakatlarning jahon bozorlarida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qiyosiy va raqobatdosh ustunliklarga ega rivojlanmagan tarmoqlarni himoya qilishni belgilab bergan. Unda savdo yoki kompensatsiya sxemalarining imtiyozli shartlari tamoyillari mavjud bo‘lgan. Mamlakatlarga tegishli ro‘yxatlar doirasida ayrim tovarlarni savdoni erkinlashtirishdan chetlashtirish, shuningdek bosqichma-bosqich liberallashtirishning o‘tish davrini qisqartirish huquqi berilgan. PAFTA 1998 yilgi Konvensiya asosida GAFTA ga aylantirilgan. (Convention on the Great Arab Free Trade Area).

1957-yilda Arab Ligasi iqtisodiy Kengashi Arab iqtisodiy Ittifoqini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim matnini tasdiqladi (Arab iqtisodiy birligi to‘g‘risidagi bitim-Agreement on Arab Economic Unity), unga ko‘ra mamlakatlar Misr, Iordaniya, Quvayt, Marokash, Suriya va Iroq iqtisodiy siyosatni va qonunchilikni birlashtirish to‘g‘risida kelishuvga erishdilar. Shartnoma bir necha yil o‘tgach, 1962-yilda imzolangan va 1964-yilda kuchga kirgan. Shartnomaning strategik maqsadi Arab Ligasi doirasida, shu jumladan, odamlar va kapital harakati erkinligi asosida iqtisodiy

birlashma tuzish bo‘lgan. Birinchi bosqich 1964-yilda Arab iqtisodiy Ittifoqi Kengashining shakllanishi bo‘lib, u bugungi kunda ham faoliyat yuritmoqda. U boshchiligida iqtisodiy hamkorlik, daromad va mol-mulkni ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish bo‘yicha bitimlar imzolangan. 1964-yilda Misr, Iordaniya, Iroq va Suriya davlatlari erkin savdo hududi doirasida savdoni erkinlashtirishga qaratilgan arablarning umumiy bozor shartnomasini imzoladilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan chora-tadbirlar, shartnomalar qabul qilinganligiga qaramasdan, Arab Ligasining sa’y-harakatlari quyidagi sabablarga ko‘ra o‘zaro aloqalarning o‘sishiga turtki bo‘lmadi:

(1) iqtisodiy maqsadlarning boshlang‘ich davrlarda aniq qo‘yilmaganligi va Birlashgan Arab Respublikasini tuzish istagida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish rejalarini ishlab chiqilmaganligi;

(2) A’zo davlatlar sonining o‘sishi, bu mamlakatlar o‘rtasidagi farqlanish darajasini oshirdi va ularning birlashishiga to‘sqinlik qildi.

1973-yilda jahon iqtisodiyoti yuz bergan neft inqirozi natijasida uning narxi 4 barobar oshdi, bu neft eksport qiluvchi mamlakatlar boyligining o‘sishini rag‘batlantirdi va mintaqa mamlakatlari aholisining daromad darajasidagi tafovutni oshirdi. Shuningdek, bu e’tiborni savdo hamkorligidan sarmoyaviy aloqalarga o‘tkazishga yordam berdi. Ammo investitsiya muhiti davlat moliyalashtirish fondlari shakllanishiga qaramay, investitsiya loyihalariga xususiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirmadi. Arab mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishini moliyalashtirish uchun birinchi shunday fond Quvaytda, keyin esa boshqa bir qator davlatlarda tashkil etilgan. 1968-yilda mintaqaviy rivojlanish fondlarini birlashtirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida ko‘p tomonlama Arab iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jamg‘armasi tashkil topgan. 1974-yilda Arab investitsiyalarini notijorat xatarlarga qarshi kafolatlash uchun mo‘ljallangan arablararo investitsiyalarni kafolatlash korporatsiyasi tuzilgan. 1975-yilda Iqtisodiy hamkorlikni, ayniqsa, savdo va investitsiya sohalarida rivojlantirish uchun mintaqaviy institutlar sifatida Islom taraqqiyot banki va 1976-yilda Arab Valyuta jamg‘armasi tashkil etilgan. Hamkorlik rivojlanishga moliyaviy

yordam ko‘rsatish, qo‘shma sanoat loyihalari, infratuzilmaga investitsiyalar kiritish orqali amalga oshirildi.

Mintaqada 1972-yildan buyon Arab qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tashkiloti Arab Ligasiga a’zo davlatlar tarkibida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu tovarlarning kelib chiqishi mamlakatini qoidalarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Tashkilot doirasida 2007-yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida va Arab mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarining qo‘shma strategiyasining ajralmas qismi sifatida 2005-2025-yillarda Arab mamlakatlarining qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan. To‘g‘onlarni qurish, suv resurslarini rivojlantirish, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilgan. 2009-yilda global oziq-ovqat inqiroziga qarshi kurashda Arab hamkorligini rag‘batlantirish uchun Ar - Riyod Deklaratsiyasi qabul qilingan va 2011-yilda uni amalga oshirishning operatsion rejasi tuzilgan.

1980-yillarda iqtisodiy integratsiya bo‘yicha ikkita shartnoma imzolangan. Ular orasida arablararo savdoni rivojlantirish va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (1981). Bu deklarativ xarakterga ega bo‘lib, sanoat mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlarga bojxona to‘lovlari va tarifsiz cheklovlarni to‘liq bartaraf etish bo‘yicha muzokaralarga tegishli bo‘lgan.

1981-yilda birinchi submintaqaviy integratsiya birlashmasi – ***Fors ko‘rfazining arab davlatlari hamkorligi Kengashi (Cooperation Council for the Arab States of the Gulf, Gulf Cooperation Council (GCC))*** Bahrayn, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon va Saudiya Arabiston davlatlari tomonidan tuzildi. U iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda, tashqi siyosatda va xavfsizlik sohasida o‘zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini rag‘batlantirishga mo‘ljallangan. Shartnoma Arab dunyosida savdoni erkinlashtirish, kapital va jismoniy shaxslarning erkin harakatlanishi bo‘yicha eng muvaffaqiyatli va muhim hujjatga aylangan.

Tashkilotning oliy organi Oliy Kengash bo‘lib, uning asosiy vazifasi GCC faoliyati to‘g‘risida qaror qabul qilishdir. Boshqa organ-

tashqi ishlar vazirlari yoki boshqa vazirlardan tashkil topgan Vazirlar Kengashi hisoblanadi. U hamkorlikning belgilangan yo‘nalishlari bo‘yicha Oliy Kengash va texnik qo‘mitalar harakatlarining muvofiq-lashtiruvchisi sifatida ishlaydi, qarorlar qabul qilish uchun Oliy Kengashga tavsiyalar ishlab chiqadi. Texnik va ma’muriy organ sifatida Bosh kotibiyat faoliyat yuritadi. Uning bosh qarorgohi Ar-Riyodda joylashgan. Texnik qo‘mitalar Oliy Kengash tomonidan tuziladi. 1981-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish, iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik, sanoat kooperatsiyasi, ijtimoiy va madaniy masalalar, neft siyosati bo‘yicha qo‘mitalar tuzilgan. Keyinchalik, GCC faoliyati mudofaa va xalqaro xavfsizlik kabi boshqa sohalarda kengaytirildi.

2009-yildan beri valuta Kengashi GCC doirasida bo‘lajak valuta Ittifoqi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Valuta ittifoqini tuzish uchun moliya va iqtisodiyot vazirlaridan tashkil topgan moliyaviy-iqtisodiy hamkorlik qo‘mitasi, yiliga kamida ikki marta yig‘iladigan Moliya organlari va Markaziy banklar boshqaruvchilari qo‘mitasi kabi muassasalar, bank nazorati, to‘lov tizimlari qo‘mitasi, shuningdek, malaka oshirish Markazi tashkil etilgan. GCCda millatlardan yuqori turuvchi tuzilmalar mavjud emas va bu a’zo mamlakatlarning milliy suverenitetini saqlash bilan bog‘liq deb tushuniladi. Valuta Kengashi bir qator millatlararo funksiyalarga ega.

1989-yilda mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirish va bojxona ittifoqini tuzish maqsadida Aljir, Liviya, Marokash, Mavritaniya va Tunis davlatlari ishtirokida ***Arab Mag‘rib Ittifoqi (Arab Maghreb Union, AMU)*** to‘g‘risidagi Marrakesh shartnomasi imzolandi. Xuddi shu davrda ikki tomonlama savdo shartnomalari tuzila boshlandi. AMU shartnomasi (1) mintaqaviy siyosiy barqarorlikka erishish va mamlakatlar siyosatini muvofiqlashtirish uchun o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga, (2) tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishini ta’minlashga, (3) mudofaa va ichki ishlarga aralashmaslik sohasida umumiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan. 2000-yilga kelib, asta-sekin Shimoliy Afrika bojxona Ittifoqi va umumiy bozorni shakllantirish rejalashtirilgan edi. Ammo 1994-yildan beri

mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy muammolar tufayli Ittifoqning faoliyati muzlatib qo‘yildi. Yuqori darajadagi uchrashuvlar 2008-yildan beri o‘tkazilmaydi.

AMU maqsadlaridan biri sifatida tovarlar, xizmatlar, kapital va shaxslarning erkin harakatlanishi belgilangan. To‘rt omilning asosiy natijalari odamlarning erkin harakatlanishi sohasida ro‘y berdi. Tunis mintaqadagi boshqa barcha ishtirokchi davlatlar fuqarolari tomonidan o‘z hududiga erkin kirish imkonini beruvchi yagona davlat bo‘ldi. Yana ikkita Davlat-Marokash va Liviyaga kelsak, odamlarning harakatlanish erkinligi prinsipi o‘zaro doirada va Tunis fuqarolariga nisbatan qo‘llaniladi. Ayni paytni o‘zida, viza talablari ikki tomonlama asosida kuchga qoladi, faqat Jazoir va Tunis o‘rtasida yo‘q bo‘lgan.

1997-yilda Arab davlatlari Ligasi iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi Panarab Erkin savdo hududi shartnoma doirasida ko‘p tomonlama savdoni erkinlashtirish sxemasini tasdiqladi. Unga 18 ta davlat: Aljir, Bahrayn, Misr, Iordaniya, Iroq, Yaman, Qatar, Quvayt, Livan, Liviya, Marokash, BAA, Omon, Falastin, Saudiya Arabistoni, Siriya, Sudan, Tunis 2005-yildan o‘zaro savdoda bojxona to‘lovlarini bekor qilgan.

Fors ko‘rfazi mamlakatlari o‘xshash va mukammal iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega. Ayni bir paytda a’zo mamlakatlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir-birlaridan farqlidirlar. GCC dinamik iqtisodiy o‘sish bilan ajralib turadi va bu neft narxlarining dinamikasiga bog‘liq.

Iqtisodiy faoliyatning asosini deyarli barcha mamlakatlarda neft va gaz sanoati tashkil etadi. Faqat bundan Bahrayn mustasno bo‘lib, mamlakatda moliya sektori ham rivojlangan. GCC mamlakatlarida neft va gaz sanoatining ulushi YaIMning 25-60%, eksportning 40-80% va davlat daromadlarining 45-95% ni tashkil qiladi.

Integratsiyalashuvda a’zo mamlakatlarning o‘zaro harakati muhim hisoblanadi. Shaxslarning erkin harakatlanishining maqsadi 1981-yildagi iqtisodiy shartnomada belgilangan. Unga muvofiq, ishtirokchi davlatlar boshqa a’zo davlatlar fuqarolariga harakat qilish, ishlash va yashash erkinligi, mulk huquqi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va kapitalning erkin harakatlanishi bo‘yicha o‘z fuqarolari bilan bir xil munosabatni

kafolatlaydi. 2001-yildagi iqtisodiy shartnomaga muvofiq ishtirokchi mamlakatlar fuqarolari boshqa a’zo davlatlar hududida iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida, shu jumladan, ko‘chib o‘tish va yashash, davlat va xususiy biznes sohalarida ishlash, pensiya va ijtimoiy sug‘urta tizimidan foydalanish, kasbiy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etish huquqiga ega.

GCC doirasida a’zo mamlakatlar fuqarolari vizasiz rejim va boshqa a’zo mamlakatda ishlaganda ishlash uchun ruxsat olish zaruriyatidan ozod qilingan. Uchinchi davlatlar fuqarolari uchun viza rejimi amal qiladi, uning davomiyligi mehnat shartnomasining davomiyligiga bog‘liq. Chet el mehnatini (uchinchi mamlakatlardan) yollashda homiylar xizmatidan foydalanish mezoni belgilanadi, bu milliy mehnat qonunchiligi bilan belgilanadi. Ish beruvchi mehnat vazirligidan ruxsat olgandan keyin uchinchi mamlakat fuqarolarini yollash yoki litsenziya bilan bandlik agenti xizmatlaridan foydalanishda tanlash huquqiga ega.

A’zo davlatlar shaxslarining erkin harakatlanish rejimi o‘zaro migratsiya oqimlarining ahamiyatsiz o‘sishini rag‘batlantirdi. Fors ko‘rfazi mamlakatlaridan ishchi kuchini asosiy import qiluvchi mamlakatlari Quvayt, Qatar va BAA hisoblanadi. Mintaqaviy ishchi kuchi tarkibida ham eksport qiluvchi, ham import qiluvchi yagona mamlakat Saudiya Arabistonidir.

Fors ko‘rfazidagi mehnat bozori demografik nuqtayi nazardan ajralib turadi va bunda xorijiy mamlakatlardan kelgan muhojirlarning ulushi yuqoriligi ko‘rinadi.

2012-yilgi sammitda Fors ko‘rfazi davlatlari doirasida hamjamiyat shakllanishiga ko‘maklashish uchun mo‘ljallangan Ar-Riyod Deklaratsiyasi tasdiqlandi. GCC nomini Fors ko‘rfazi Arab Ittifoqi Kengashiga o‘zgartirish, shuningdek, poytaxti Riyodda bo‘ladigan Yevropa Ittifoqi modeli bo‘yicha siyosiy, iqtisodiy va valuta ittifoqini tuzish hamda Kotibiyatni komissiya bilan almashtirish taklif etilgan. Ushbu tashabbusni hali amalga oshirishning iloji bo‘lmadi va buning sabablari quyidagilardan iborat:

- millatlararo institutlarning, ishlab chiqarish miqyosidan foyda ko‘radigan tarmoqlarda raqobatning yo‘qligi;
- infratuzilmaning nisbatan yomonligi;
- o‘zaro savdo hajmining pastligi;
- iste’mol talabi tuzilishining o‘xshashligi;
- o‘zaro nizolarni hal qilish mexanizmining yo‘qligi;
- milliy suverenitetni saqlashga intilish;
- jamoa xavfsizlik shartnomalarini amalga oshirishda, energiya resurslari ustidan davlat nazorati.

Ushbu markazdan qochish omillari fors ko‘rfazi submintaqasida integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda asosiy to‘siqdir.

Ko‘p tomonlama darajada Arab davlatlarida amalda ikkita erkin savdo hududi–Agadir shartnomasi va Panarab erkin savdo hududi, shuningdek Arab Mag‘rib Ittifoqi doirasida imtiyozli savdo hududi mavjud. 2001-yil may oyida 4ta davlatlar – Misr, Iordaniya, Marokash va Tunis erkin savdo hududini shakllantirish va siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarda o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Arab-O‘rta Yer dengizi erkin savdo hududi to‘g‘risidagi Agadir deklaratsiyasini qabul qildilar.

2004-yilda ***Agadir shartnomasi (Agadir Free Trade Area Agreement)*** imzolanib, 2006-yil 7-iyundan kuchga kirgan. Agadir shartnomasining maqsadi iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish, bandlikni qo‘llab-quvvatlash, mahsuldorlikning o‘sishiga ko‘maklashish va turmush darajasini yaxshilashdir. Muayyan maqsadlarga erishishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: o‘zaro savdoni liberallashtirish, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, shu jumladan, tarmoq, yanada qulay investitsiya muhiti va iqtisodiy integratsiyani shakllantirish uchun qonunchilikni yaqinlashtirish. Agadir shartnomasida JST shartnomalarining qoidalari, shu jumladan, xizmatlar savdosi to‘g‘risidagi Bosh bitim hisobga olinadi va shuning uchun, uni PAFTA shartnomasidan ajratib turadi. Agadir shartnomasida milliy qonunchilikni birlashtirish va xalqaro qoidalarni hisobga olgan holda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qoida mavjud.

Umuman olganda, Agadir shartnomasi mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Uning afzalliklari:

(1) sanoat tovarlari savdosida bojxona to‘lovlarini bekor qilish asosida ishtirokchi davlatlar o‘rtasida erkin savdo hududini shakllantirish;

(2) bir qator tarifsiz cheklovlarni liberallashtirish;

(3) JSTning sanitariya va fitosanitariya choralari to‘g‘risidagi qoidalarini hisobga olish;

(4) JST bo‘yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda himoya choralarini mexanizmlarini qo‘llash;

(5) diagonal tamoyiliga ko‘ra tovarlar kelib chiqishi mamlakatini aniqlash uchun qoidani tasdiqlash;

(6) nizolarni hal qilish tartibining mavjudligi;

(7) himoya qilish uchun qoidalarning kiritilishi;

(8) intellektual mulk huquqlarining mavjudligi.

Boshqa Arab mamlakatlari ichidagi erkin savdo hududlaridan farqli o‘laroq, Agadir shartnomasi kengroq xarakterga ega.

Arab dunyosi mamlakatlarida qariyb 78 yildan buyon integratsiyalashuv jarayonlari kechayotgan bo‘lsada va bir nechta shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar qabul qilingan bo‘lsada, umuman olganda, integratsiyalashuv darajasi boshqa muvaffaqiyatli integratsion guruhlarga nisbatan past darajada. Buning bir qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Jumladan:

(1) Arablararo mintaqaviy integratsiya tashabbuslari to‘liq emas va sekin sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Asosiy sabablar iqtisodiy va siyosiy xarakterga ega;

(2) Mamlakatlar sanoat mahsulotlarining keng assortimentini ishlab chiqaradi va tabiiy resurslarga ega, bu esa savdoning o‘sishiga yordam beradi. Ammo eksportning tovar tarkibining o‘xshashligi mamlakatlarni bozorlarda raqobatchilarga aylantiradi, natijada mintaqalararo savdoni rag‘batlantirish imkoniyatlarini toraytiradi;

(3) Arab mamlakatlarining eksport imkoniyatlarini yirik davlat sektori cheklaydi, shaffoflikning darajasi past;

(4) Yaqin Sharq resurslarga boy va resurslarga kambag‘al mamlakatlarni o‘z ichiga oladi, bu esa mintaqada resurslarni teng taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Resurslari kam bo‘lgan mamlakatlar o‘zlarining rentabelliklarini olish uchun resurslarga boy mamlakatlar bilan savdoni erkinlashtirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarni olib boradilar. Bu resurslarga boy mamlakatlarda savdoni o‘zgartirish effekti tufayli yuzaga keladi. Shu sababli, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun yetarli rag‘batga ega emas;

(5) Panarab erkin savdo hududiga 8 ta resurslarga boy va 12 ta resurslarga kambag‘al davlatlar kiradi, GCC ga faqat resurslarga boy davlatlar, Agadir kelishuviga esa faqat resurslarga kambag‘al davlatlar kiradi. GCC davlatlari ham, Agadir kelishuvi mamlakatlari ham bir vaqtning o‘zida PAFTAda ishtirok etadilar, ammo ularning a’zoligi mintaqalararo savdoga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi;

(6) Arab savdosini liberallashtirishdagi to‘siqlarga quyidagilar kiradi: kam quvvatli iste’mol bozorlari, eksportni diversifikatsiyalashning yo‘qligi, savdoni rag‘batlantirishning yo‘qligi, jahon tovar bozorlari konyunkturasiga ko‘proq bog‘liqlik. Arab integratsiyasi ishtirokchi mamlakatlarga ichki bozor imkoniyatlaridan ustunlikni ta’minlay olmaydi;

(7) Aholi jon boshiga daromadlarning tabaqalanishi integratsiya jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boy mamlakatlar mintaqadan tashqarida rivojlangan davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori sifatli mahsulotlarni import qiladi, bu esa mintaqadan tashqari iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantiradi;

(8) Mintaqa miqyosida Yaqin Sharq integratsiyasi yo‘lidagi markazdan qochish omili – bu siyosiy omil, masalan, bu borada siyosiy irodaning yo‘qligi, qaysi davlatlar integratsiya uyushmasiga a’zolikdan katta foyda olishlari haqida tashvishlanish, integratsiya uyushmasining mintaqa yoki submintaqaga siyosiy yetakchilikka ta’siri kabilar. Mintaqaviy birlashish to‘g‘risidagi bitimlar qoidalarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun siyosiy maqsadlarni iqtisodiy

maqsadlar bilan birlashtirish kerak. Ammo Yaqin Sharq mintaqasida siyosiy intilishlar iqtisodiy jihatlardan ustun turadi;

(9) Siyosiy, masalan, 2017-yilda fors ko‘rfazining aksariyat mamlakatlari va boshqa bir qator Arab davlatlari tomonidan Qatarni boykot qilishi va mintaqadagi qurolli to‘qnashuvlar integratsiya jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va o‘zaro munosabatlarda, uchinchi davlatlar bilan munosabatlarda savdo va sarmoyaviy aloqalarning parchalanishiga olib keladi. Ular eksport hajmini kamaytiradi, mintaqaviy infratuzilma loyihalari holatiga salbiy ta’sir qiladi. Harbiy va siyosiy mojarolar sayyohlik oqimiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Misr, Tunis, Iordaniya va Livan amaliyoti buni tasdiqlagan.

Arab dunyosi davlatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil etganimizda ular o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasi farq qilinishini ko‘ramiz:

8-jadval

Arab dunyosi davlatlarining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2022-yil

Davlatlar	Hududi, km^2	Aholi soni, mln. kishi	YaIM XQP, mln. AQSH dollari	YaIM XQP jon boshiga, AQSH dollari	Inflat-siya darajasi, %	Ishsizlik darajasi, %
Misr	1,002,450	113,1	1,446,158	12,781	13,9	7,0
Iroq	438,314	45,7	421,015	9,199	5,0	15,5
Iordaniya	89,342	11,3	105,758	9,319	4,2	17,9
Qatar	11,571	2,7	264,246	97,097	5,0	0,1
Saudiya Arabistoni	2,150,000	37,1	1,854,582	50,023	2.5	5,6
Siriya	185,180	23,5	105,665	4,497	55,7	9,6
Livan	10,452	5,3	69,103	12,987	171,2	12,6
Aljir(Jazoir)	2,382,000	45,8	512,040	11,187	9,3	11,6
Bahrayn	760	1,5	77,199	51,855	3,6	1,4
Komor Orollari	2,034	0.9	2,773	3,246	20,2	8,8
Quvayt	17,818	4,3	212,397	49,169	3,92	2,5
Liviya	1,760,000	6,8	135,269	19,797	4,6	20,7
Mavritaniya	1,030,700	4,9	26,632	5,441	9,5	11,1

8-jadvalning davomi

Marokash	710,850	37,9	361,057	9,519	6,7	10,5
Omon	309,501	4,7	164,710	35,337	2,8	2,3
Falastin	6,020	5,4	30,904	5,722	3,1	24,0
Sudan	1,886,000	48,4	172,883	3,571	138,8	18,7
Tunis	163,610	12,5	132,056	10,578	8,3	16,1
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	83,600	9,5	708,447	74,299	4,8	2,8
Yaman	555,000	34,6	70,725	2,042	29,1	13,6
Jibuti	23,300	1,1	5,691	4,991	5,2	27,9

Manba: CIA World Fact book 2022

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, YaIM va uning jon boshiga to‘g‘ri keladigan hajmi bo‘yicha a’zo davlatlar o‘rtasida farq yuqori qolmoqda. Qatar, Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Quvayt va BAA bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Siriya, Sudan, Komor orollari, Yaman, Jibuti esa rivojlanish ko‘rsatkichi jihatidan ancha qoloq.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida integratsiya jarayonlarini faollashtirish uchun quyidagilar zarur:

- Har qanday nizolarni diplomatik vositalar asosida hal qilish;
- milliy iqtisodiyot va institutlarni isloh qilish, ayniqsa, sanoat va xizmatlar, moliya sektori va ta’lim sohasida islohotlar o‘tkazish;
- ishsizlikning kamayishiga, ayollar bandligining oshishiga, harbiy xarajatlarning kamayishiga, daromadlarni toza energiya va infratuzilmaga qayta taqsimlashga olib keladigan tarkibiy islohotlarga e’tiborni qaratish;
- mintaqaviy hamkorlikni, o‘zaro va mintaqadan tashqari savdoni kengaytirish, turizm, transport, energetika, suv ta’minoti va ilmiy tadqiqotlar sohalarida mintaqaviy investitsiya loyihalarini faollashtirish.

Siyosiy barqarorlik iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishning zaruriy shartidir.

5.4. Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari

Lotin Amerikasida dunyoning boshqa rivojlanayotgan mintaqalarida yuz bergani kabi integratsion uyushmalar 1960-yillardan boshlab tashkil etilgan. Integratsiya jarayonlarining birinchi bosqichi 1960-yilning 18-fevralida Montevideo shahrida imzolangan ***Lotin Amerikasi Erkin Savdo Hududi – (Latin American Free Trade Association- (LAFTA))*** bilan boshlangan. Dastlab uning a'zolari bo'lib, Argentina, Braziliya, Chili, Meksika, Paragvay, Peru, Urugvay davlatlari bo'ldi. 1961-yilda Kolumbiya va Ekvador, 1966-yilda Venesuela, 1967-yilda Boliviya qo'shildi. Keyinchalik Kuba va Panama davlatlari ham a'zolikka qabul qilindi. Ushbu guruhga Lotin Amerikasi va Karib basseynining 85% foizi kirgan. Shartnomaning asosiy maqsadi o'z nomi bilan erkin savdo hududini shakllantirish edi, lekin u amalga oshmadi. A'zo mamlakatlar YaIM bo'yicha yirik va o'rta mamlakatlar edi. Ular iqtisodiyotni sanoatlashtirish va bozorlarni kengaytirish uchun iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlanish loyihani to'liq amalga oshirishga imkon bermadi. Uning doirasida o'zaro savdo imtiyozlari tizimi yaratildi, uning asosi, birinchi navbatda, o'zaro eksport obyekti bo'lmagan tovarlar edi. Mamlakatlar import o'rnini bosish konsepsiyasi uchun asos bo'lgan proteksionistik savdo siyosatini olib borishdi. Iqtisodiy tabaqalanishni kamaytirish, import o'rnini bosish siyosati asosida iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan submintaqaviy doirada savdo shartnomalari imzolandi.

Oradan 20 yil o'tib integratsion guruhning nomi ***Lotin Amerikasi integratsiyasi assotsiatsiyasiga (Association of Latin American Integration-, ALAI))*** o'zgartirildi. Zamonaviy LAI imtiyozlar hajmi 100% gacha bo'lgan imtiyozli savdo zonasini anglatadi. Bu 2-3 sheriklar o'rtasida savdo bitimlarini tuzishga imkon beradigan yanada moslashuvchan bitim edi, ammo erkin savdo hududi shakllanmadi.

Mintaqa miqyosida erkin savdo zonasini shakllantirish jarayoni 1826-yilda Panamada bo'lib o'tgan yig'ilishda Lotin Amerikasi

mustaqillik harakatining mashhur yetakchisi Saymon Bolivarning Lotin Amerikasida siyosiy integratsiyaga chaqirganidan keyin boshlangan. Ammo birinchi bosqich 130 yil o‘tib, 1959-yilda boshlangan. Umumiy Janubiy Amerika bozorini yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilganda, Lotin Amerikasi erkin savdo hududi tuzilib, keyinchalik Lotin Amerikasi Integratsiya Assotsiatsiyasi deb o‘zgartirildi.

Lotin Amerikasining ikkinchi integratsiya guruhi 1960-yilda Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rikaning beshta mamlakati tarkibida tashkil etilgan ***Markaziy Amerika umumiy bozori (Central American Common Market –(CACM))*** edi. A’zo davlatlar bojxona ittifoqini tuzmoqchi edilar, ammo 1990-yillarga qadar faqat imtiyozli savdo zonasiga erishdilar. CACM operatsiyasining dastlabki yillarida bojlarning kamayishi o‘zaro savdoning o‘sishiga yordam berdi, ammo keyinchalik o‘zaro savdo aylanmasining umumiy savdodagi ulushi kamaydi. Umuman olganda, 1990-2002-yillarda guruhning o‘zaro eksporti 667 million AQSH dollaridan 2598 million dollarigacha o‘sdi va ulushi 15,3% dan 11,5% gacha kamaydi.

LAFTAdagi muammolar yechimi bilan bog‘liq mintaqada parallel ravishda boshqa integratsion guruhlar tuzilgan. Ularning orasida ikkita uyushma alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Bular-And Hamjamiyati va MERKOSUR.

And hamjamiyati (Andean Community of Nations- (ACN)) 1969-yilda Kartagena shartnomasiga muvofiq paydo bo‘lgan. Unga Boliviya, Venesuela, Kolumbiya, Peru va Ekvador kirgan. ACN And davlatlarini ham o‘z ichiga olgan LAFTAdagi katta va kichik mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tufayli turg‘unlik holatida bo‘lgan bir paytda, shuningdek, unda nomukammal va murakkab qaror qabul qilish mexanizmi bo‘lganligi uchun tuzilgan. And mamlakatlari integrat-siyasining asosiy maqsadlari sanoatlashtirish, sanoat markazlaridan mustaqillik darajasini oshirish, AQSH bilan savdoning muhim qismini mintaqalararo tovar birjasi bilan almashtirish deb e’lon qilingan. Bundan tashqari, LAFTAdan farqli o‘laroq, And mamlakatlari o‘zlariga yuqori darajadagi integratsiya – bojxona ittifoqini yaratish vazifasini qo‘yganlar.

O‘zaro savdoda bojlarni avtomatik ravishda kamaytirish orqali savdoni tez erkinlashtirishni ham hamjamiyat o‘z zimmasiga olgan. And hamjamiyatidagi integratsiya jarayoni 3 asosiy bosqichdan o‘tdi. Birinchi bosqichda (1969-yildan 80-yillarning boshlariga qadar) And mamlakatlari davlatning jamiyat iqtisodiy hayotida faol ishtirokini o‘z ichiga olgan integratsiyaning "etatizm" modelini amalga oshirishga harakat qilishdi. Ular o‘zaro savdoni erkinlashtirish, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, xorijiy kapital faoliyatini tartibga solish va sanoatni birgalikda rejalashtirishda birmuncha yutuqlarga erishdilar. Integratsiyaning birinchi bosqichida 1970-yilda xorijiy kapitalga nisbatan qabul qilingan umumiy rejim muhim rol o‘ynadi, u dastlab xorijiy kompaniyalar faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini milliy kapital uchun saqlab qolishga mo‘ljallangan edi.

Ikkinchi bosqichda (1982-1988) ACNda, shuningdek, butun mintaqa chuqur integratsiya inqirozini boshdan kechirdi. Inqiroz barcha Lotin Amerikasi davlatlarini iqtisodiy rivojlanish va integratsiya modellarini o‘zgartirishga, ichki iqtisodiy siyosatni liberallashtirishga va jahon bozoriga ko‘proq ochiqlikka o‘tishga majbur qildi. Ushbu o‘zgarishlar ACNda mintaqadagi boshqa guruhlarga qaraganda ko‘proq ta’sir ko‘rsatdi, chunki bu yerda integratsiya davlat tomonidan tartibga solishning aniq elementlari bilan ajralib turardi. Yangi modelga o‘tish jarayonida And mamlakatlari katta qiyinchilik bilan ishlab chiqilgan va integratsiya yutuqlari sifatida ko‘rib chiqilgan ko‘plab yechimlardan, shu jumladan, xorijiy kapitalni tartibga solishning yagona rejimidan va sanoatni rivojlantirishning qo‘shma dasturlaridan voz kechishga majbur bo‘ldilar. 1989-yilda guruh rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlandi. Bunda Yevropa Ittifoqi misolida mamlakatlar hamjamiyatini tuzishga o‘tish maqsad qilindi. 1991-yilga kelib submintaqada erkin savdo hududini yaratish va 1995-yilda bojxona ittifoqini shakllantirishni o‘z ichiga olgan yangi ACN integratsiya dasturi ishlab chiqildi. Ushbu bosqichda ACN sezilarli o‘zgarish va modernizatsiyani amalga oshirgan.

1995-yil sentabr oyida a’zo davlatlar rahbarlari Kitodagi (Ekvador) yig‘ilishida And integratsiya tizimini yaratish orqali guruhning tashkiliy tuzilishini qayta tuzishga qaror qilishdi. And integratsiyasi tizimi quyidagi organlar va institutlarni o‘z ichiga oladi:

- Davlat rahbarlaridan tashkil topgan and prezidentlik Kengashi;
- Tashqi ishlar vazirliklari rahbarlarini birlashtirgan And tashqi ishlar vazirlari Kengashi;
- Kartagena shartnoma komissiyasi, uning vazifalari "savdo va investitsiyalar sohasida submintaqaviy integratsiya siyosatini shakllantirish, amalga oshirish va baholash";
- And Parlamenti;
- And Prezident Kengashiga bo‘ysunuvchi ishchi organ bo‘lgan Bosh Kotibiyat. Bosh Kotibiyatning vazifalariga assotsiatsiyaning asosiy siyosiy organlarining qarorlarini tayyorlash, ularning bajarilishini nazorat qilish va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatish kiradi. Bosh kotibiyat Lima (Peru) da joylashgan;
- And mamlakatlarining Qonunchilik tizimlarini birlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan And Adliya tribunali.

Janubiy umumiy bozor MERCOSUR mintaqaviy integratsiya jarayoni bo‘lib, dastlab Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay tomonidan tashkil etilgan hamda keyinchalik Venesuela va Boliviya qo‘shilgan. Venesuela 2016-yildan a’zolikdan chiqib ketgan.

MERCOSUR Janubiy Amerikaning yetakchi savdo blokidir. Janubning umumiy bozori sifatida tanilgan MERCOSUR a’zo davlatlar o‘rtasida tovarlar, kapital, xizmatlar va odamlarning erkin harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan. MERCOSURni tuzish Asunsón shartnomasi asosida 1991-yilning 26-martida sodir bo‘lgan. Uning rasmiy ish tillari ispan va portugal tillaridir. Ishchi hujjatlarning rasmiy versiyasi har bir uchrashuv o‘tkaziladigan davlat tili bo‘ladi. Boliviya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Surinam va Gayana davlatlari ushbu blokka assotsiatsiyalashgan davlatlar hisoblanadi.

Shartnomada a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdoda barcha bojlar va tarifsiz cheklovlarni bekor qilish, ya’ni erkin savdo hududini

yaratish, yagona tashqi tarifni joriy etish, kapitalning erkin harakatlanishi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa, sohasidagi siyosatni muvofiqlashtirish va 1994-yilning 31- dekabrida submintaqada bojxona ittifoqini shakllantirish nazarda tutilgan edi. Uyushmaning asosiy vazifalari qatoriga uchinchi mamlakatlar va guruhlar, xalqaro hamda mintaqaviy savdo-iqtisodiy forumlarda a’zo mamlakatlarning pozitsiyalarini muvofiqlashtirishning yagona siyosatini amalga oshirish ham kiradi. Yangi guruhning yakuniy maqsadi to‘rtta mamlakatning umumiy bozorini yaratish edi, keyinchalik unga Janubiy Amerikaning qolgan davlatlari qo‘shilishlari taxminlagan edi. Shartnomada umumiy bozorni shakllantirishning aniq shartlari belgilanmagan.

MERCOSURning shakllanishi o‘tmishda integratsiyaga unchalik qiziqish bildirmagan Janubiy Amerikaning eng yirik mamlakatlari Braziliya va Argentinaning tashqi iqtisodiy strategiyasida burilish yasadi. Ularning rivojlanish modellari asosan yuqori bojxona to‘lovlari bilan himoyalangan ulkan milliy bozorlarga qaratilgan edi. Braziliya ushbu strategiyani eng izchil amalga oshirdi, ammo xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi chuqur o‘zgarishlar, yirik savdo bloklarini shakllantirish tendensiyalarining kuchayishi, shuningdek, Lotin Amerikasida yetakchilikka intilish, rivojlangan mamlakatlar bilan muzokaralarda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash uni integratsiya ittifoqini yaratish yo‘lidan borishga majbur qildi. Boshqa mamlakatlar Braziliya bozoriga kirish ularga eksportni keskin kengaytirish va diversifikatsiya qilish imkonini beradi deb umid qildilar, bu esa dunyoning boshqa qismlari bilan aloqalarni rivojlantirish, jahon iqtisodiyotiga kirish uchun sharoitlarni yaxshilashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Dunyoda va qit’ada neoliberalizm hukmronligi, mintaqa davlatlarining "ochiq bozor iqtisodiyoti" ga o‘tishi davrida tuzilgan MERCOSUR integratsiya modeli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va milliy iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilish vositasi sifatida erkin bozor talablarining ustuvorligiga, savdoni erkinlashtirishga asoslangan edi. Bunda davlat yetakchilik rolni, faol ijtimoiy, sanoat va qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirishni nazarda tutmagan.

Lotin Amerikasidagi integratsion jarayonlarning keyingi bosqichi 1989-2004-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda bir qancha tashabbuslar ilgari surildi. 1989-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida (Enterprise for the Americas Initiative, EAI) rejasi tuzilib unga ko‘ra, 2000-yilga kelib G‘arbiy yarim sharda erkin savdo hududini yaratish ko‘zlangan. Tashabbus ham iqtisodiy, ham siyosiy maqsadlarni, jumladan, savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, aholi farovonligini ko‘tarish, G‘arbiy yarim sharining iqtisodiyoti va siyosatida AQSHning rolini oshirishni ko‘zlagan. Ammo NAFTA shartnomasi imzolanganligi sababli, ushbu loyiha to‘xtatilgan.

Lotin Amerikasidagi navbatdagi yirik integratsion guruh KARIKOM (Caribbean Community (CARICOM)) hisoblanadi.

Karib dengizi hamjamiyati Lotin Amerikasidagi qadimroq integratsiya uyushmalaridan biri bo‘lib, 1960 va 1970-yillarning boshlarida tashkil topgan va uning a’zolari bo‘lib quyidagi mamlakatlar hisoblanadi: Antigua va Barbuda (Antigua va Barbuda) (1974), Bagama hamjamiyati (1983), Barbados (Barbados) (1973), Beliz (Beliz) (1974), Gaiti (2002), Gayana (1973), Grenada (Grenada) (1974), Dominika (1974), Montserrat (Montserrat) (1974), Sent-Vinsent va Grenadin (Saint Vincent va Grenadines) (1974), Sent-Kits va Nevis (Saint Kitts va Nevis) (1974), Sent-Lyusiya (Saint Lucia) (1974), Surinam (1995), Trinidad va Tobago (Trinidad va Tobago) (1973), Yamayka (1973). Shuningdek, Birlashgan Qirollikning xorijdagi hududlari bo‘lgan beshta Assotsiat-siyalashgan a’zolar mavjud: Anguilla, Bermud, Britaniya Virjiniya orollari, Kayman orollari va Turks hamda Kaykos orollari.

Karib integratsiya tendensiyalari 1950-yillardan rivojlana boshladi, G‘arbiy Hindistonda Britaniya koloniyalari Federatsiyasi 1958-yilda tashkil etilib, 1962-yilga qadar faoliyat ko‘rsatdi. Uning o‘rnini Karib dengizi Erkin savdo uyushmasi (The Caribbean Free Trade Association (CARIFTA)) egallab, 1968-1973-yillarda faoliyat ko‘rsatgan. Karib dengizi mamlakatlarining integratsiya tendensiyalari va yaqinlashuvining rivojlanishidagi muhim bosqich 1973-yilda Chaguaramas shartnoma-sining imzolanishi bo‘lib, unda erkin savdo zonasini umumiy bozorga

aylantirishga qaror qilindi va integratsiya uyushmasini Karib dengizi hamjamiyati deb nomlashdi. Chaguaramas shartnomasiga ko‘ra, asosiy maqsad-tovarlar, xizmatlar, kapital va malakali ishchilarning erkin harakatlanishi bilan umumiy bozorni shakllantirish asosida a’zo mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyasini ta’minlash edi. 1973-2005-yillarda esa Karib dengizi hamjamiyati va umumiy bozor (CARICOM) integratsion tashkilot sifatida faoliyat yuritgan. 1989-yilda CARICOMga a’zo davlatlar davlat rahbarlarining navbatdagi sammitida yagona bozor va yagona iqtisodiyotni tuzishga qaror qilingan.

CARICOM tomonidan yagona bozor va iqtisodiyotni (CARICOM yagona bozori va iqtisodiyoti -The CARICOM Single Market and Economy, CSME) shakllantirish maqsadlari Grand Anse deklaratsiyasida va 1989-yilda qabul qilingan integratsiya tendensiyalarini chuqurlash-tirish bo‘yicha ish dasturida mustahkamlangan.

CSME doirasida asosiy elementlar quyidagilardan iborat:

(1) tovarlar va xizmatlarning mintaqalararo harakatiga barcha to‘siqlarni bartaraf etish va sotiladigan tovarlar hamda xizmatlarning maqbulligini ta’minlash uchun standartlarni uyg‘unlashtirish kabi chora-tadbirlar orqali erkin harakatlanish;

(2) har qanday a’zo davlatda CARICOM korxonalarini cheklov-larsiz tashkil etish huquqi;

(3) umumiy tashqi tarif (CET);

(4) undiriladigan bojxona tushumlarini va tashqi tovarlarni olib kirishni taqsimlashni ta’minlash;

(5) kapitalning erkin harakati;

(6) umumiy savdo siyosati;

(7) mehnatning erkin harakatlanishi, ijtimoiy nafaqalarni o‘tka-zishni ta’minlash, akkreditatsiya hamda ekvivalentlik bo‘yicha umumiy standartlar va choralarni belgilash.

Bular bilan birgalikda tegishli sohalardagi qonunchilikni, shu jumladan, kompaniya va intellektual mulk to‘g‘risidagi qonunlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, CSME faoliyati uchun muhim bo‘lgan iqtisodiy, fiskal va pul-kredit choralari va siyosatlarini uyg‘unlashtirish

belgilangan. CSME maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun institutsional tuzilmalar va munosabatlarni o‘zgartirish taklif qilingan.

2001-yilda Chaguaramas shartnomasi qayta ko‘rib chiqildi, unda 2008-yilgacha yagona bozorni shakllantirishni tugatish va 2015-yilda yagona iqtisodiyotni barpo etish belgilangan. Yagona bozor "to‘rt erkinlik" tovarlar, xizmatlar, kapital va shaxslarning erkin harakatlanishi tamoyillarini amalga oshirilishini va yagona iqtisodiyot yagona valutani joriy etish bilan Karib dengizi pul ittifoqini yaratishni anglatar edi.

“Yagona iqtisodiyot”ga nisbatan qayta ko‘rib chiqilgan shartnomada ko‘zda tutilgan asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

(1) makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish, muvofiqlashtirish va yaqinlashtirish uchun institutsional asosni yaratish;

(2) pul-kredit hamkorligi, valuta ittifoqi;

(3) fiskal siyosatni muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirish;

(4) moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirish;

(5) kapital bozori integratsiyasi;

(6) investitsiya siyosatini uyg‘unlashtirish;

(7) nomutanosiblikni kamaytirish va birdamlikni mustahkamlash.

Karib yagona bozorini joriy qilish 2006-yilda 12 ta davlat ishtirokida boshlandi. (Bagama hamjamiyati, Gaiti va Montserratdan tashqari). 2006-yilda imzolangan Yagona bozor deklaratsiyasi mintaqaviy integratsiyani yanada kuchaytirish va mustahkam mintaqaviy iqtisodiy makonni barpo etish orqali Karib havzasining hozirgi globallashgan dunyoda barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan edi.

CARICOMda 5 ta davlat, ya’ni Bagama orollari, Barbados, Surinam, Trinidad va Tobago hamda Yamayka iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha yuqori va qolgan 10 ta davlat esa past rivojlangan. A’zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tabaqalanishning yuqori darajasi ichki va tashqi siyosat bo‘yicha umumiy til topish vazifasini murakkablashtiradi. CARICOM a’zolari o‘rtasidagi “daromadlar bo‘yicha farq” 29:1. Kichikroq davlatlar asosan turizm va xalqaro moliyaviy xizmatlarga bog‘liq bo‘lsa-da, yirik a’zolar mineral, energetika, qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarini eksport qilishadi. Trinidad va Tobago o‘zining yirik energiya eksporti sektoriga ega bo‘lib, CARICOMda iqtisodiy jihatdan ustunlik qiladi va mintaqalar ichida tovarlarni ishlab chiqaruvchi yetakchi hisoblanadi.

CARICOM keng tashkiliy tuzilmaga ega. Asosiy boshqaruv organlari:

(1) CARICOMga a’zo davlatlar rahbarlarining konferensiyasi oliy boshqaruv organi;

(2) Iqtisodiyotning turli sohalari vazirlaridan tashkil topgan vazirlar doimiy qo‘mitasi;

(3) Tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topgan jamoatchilik Kengashi;

(4) Karib dengizi Adliya sudi;

(5) CARICOM Kotibiyati.

Yordamchi va qo‘shimcha muassasalar, jumladan, savdo Kengashi va iqtisodiy rivojlanish; moliya Kengashi va rejalashtirish; tashqi aloqalar Kengashi va jamiyat bilan aloqalar; ijtimoiy va gumanitar rivojlanish; huquqiy ishlar qo‘mitasi; budjet qo‘mitasi; Markaziy bank boshqaruvchilar qo‘mitasi. CARICOM doirasida moliya organlari ham tashkil etilgan. Karib dengizining eng kam rivojlangan mamlakatlariga, mintaqalarga va milliy iqtisodiyotlarning alohida tarmoqlariga yordam berish uchun Karib dengizi taraqqiyot banki va Mintaqaviy rivojlanish jamg‘armasi faoliyat ko‘rsatadi. CARICOM mamlakatlari imtiyozli savdo shartnomalarining keng tarmog‘iga ega va erkin savdo hududi shartnomalariga, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy sheriklik shartnomasini imzolagan.

Funksional hamkorlik CARICOM integratsiyasining muvaffaqiyatli jihati hisoblanadi. Funksional hamkorlikning o‘n birta yo‘nalishi mavjud:

1. Ta’lim
2. Sog‘liqni saqlash
3. Atrof-muhit va barqaror rivojlanish
4. Tabiiy ofatlarga tayyorgarlik
5. Mehnat

6. Madaniyat
7. Yoshlik
8. Sport
9. Gender va rivojlanish
10. Noqonuniy giyohvand moddalar savdosi
11. Axborot va kommunikatsiya

CARICOM mamlakatlari davlat hududining kattaligi, aholi soni, ichki bozorlarning sig‘imi, umumiy tovar aylanmasi va jalb qilingan investitsiyalar bo‘yicha kichikdir. Ularning G‘arbiy yarim sharning iqtisodiyotida va Lotin Amerikasi mintaqasida roli sezilarli emas. Shuning bilan birgalikda, mintaqaning integratsion birlashmalari orasida Karib dengizi hamjamiyati umumiy bozorni shakllantirishni davom etayotgan jamoalar, bojxona Ittifoqi bo‘lgan MERKOSUR yoki And Hamjamiyati bilan taqqoslaganda yagona bozor va iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida yutuqlarga erishgan.

Tayanch iboralar: SAARC, SAFTA, LAI, MERCOSUR, LAFTA, GCC, CAN, AMU, CARICOM

Nazorat savollari

1. Janubiy Osiyoda integratsiyalashuvning zaruriyati nimalardan iborat edi?
2. Janubiy Osiyo integratsiyasida Hindistonning roli va o‘rnini tushuntirib bering.
3. SAARCning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. SAARCning dunyodagi boshqa integratsion tashkilotlardan asosiy farqlari va uning xususiyatlarini batafsil yoriting.
5. SAARCning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan asosiy omillar va ularni yechimi to‘g‘risida fikrlaringizni bildiring.
6. Afrika birligi tashkilotining asosiy maqsadlariga nimalar kiradi?
7. COMESAning maqsad va vazifalarini ko‘rsatib, uning joriy holatini baholang.

8. ECOWAS qachon tuzilgan va undagi zamonaviy tendensiyalarni yoriting.

9. Panarabizm nima?

10. Nima uchun arab davlatlari integratsiyasida o‘zaro savdo aylanmasi darajasi past?

11. Arab Mag‘rib Ittifoqi nima maqsadda tuzildi?

12. Afrika davlatlarida integratsion guruhlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan nega ularning samaradorligi past?

13. Afrika davlatlaridagi integratsion jarayonlarning boshqa mintaqadagi integratsion jarayonlardan asosiy farqlari nimalardan iborat?

14. AfLTA nima uchun tuzildi va uning rivojlanish tendensiyalari nimalarda ko‘rinadi?

15. CARICOMning maqsad va vazifalari hamda undagi zamonaviy tendensiyalarni tavsiflang.

16. And Jamiyati nega, qachon va qayerda tuzildi?

17. PAFTA va LAFTA ning yo‘nalishlarini tavsiflang.

18. Agadir shartnomasining mohiyatini ochib bering.

19. GCC ni boshqaruv strukturasini yoritib bering.

VI BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI (MDH) DAVLATLARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUVNING XUSUSIYATLARI

6.1. Postsovet hududida reintegratsiyaning yuzaga kelishi omillari. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH) tashkil topishi.

6.2. MDHning rivojlanish bosqichlari.

6.3. MDHning boshqaruv organlari .

6.1. Postsovet hududida reintegratsiyaning yuzaga kelishi omillari. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH) tashkil topishi

Sovet Ittifoqining qulashi tufayli yangi tamoyillarga asoslangan murakkab jarayon boshlandi. Bu, birinchi navbatda, mustaqil davlatlar Hamdo‘stligining xalqaro tashkilot sifatida shakllanishida o‘z aksini topdi. Bu yangi mustaqil davlatlarning o‘zaro aloqalarini saqlab qolish istagini o‘zida mujassam etgan uchta tashkilotning ***Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH-1991-yil 8-dekabr, Minsk)*** iqtisodiy ***Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzEs, 2001-2014-yillarda faoliyat ko‘rsatgan)*** va harbiy sohada ***Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT- 1992-yil may oyida Toshkentda imzolangan)*** paydo bo‘lishiga olib keldi.

Masalaning tarixiga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, Oktabr inqilobi (1917) natijasida 1922-yil 30-dekabrda imzolangan Ittifoq shartnomasi asosida tashkil etilgan Sovet Ittifoqi o‘tgan asrning 80-yillar oxirida parchalanish xavfiga duch keldi.

Rus olimi G.A. Tsikunov Ittifoqning parchalanishini asosiy iqtisodiy sabablarini quyidagilarda ko‘rsatadi:

1. Mulkchilikning hamma joyda faqat davlat shaklining mavjudligi, bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida raqobatga yo‘l qo‘ymaganligi va jamoalarning sanoatni barqaror rivojlanishiga moddiy tomondan qiziqtirmasligiga olib kelganligi.

2. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga zarar yetkazgan holda harbiy-sanoat kompleksini takomillashtirish. Sovuq urush, Afg‘onistondagi urush va qurollanish poygasi harbiy-sanoat majmuasining budjetdan katta sarmoyalarni talab qilishiga olib kelganligi.

3. Qishloq xo‘jaligida majburiy kollektivizm, davlat-fermer-kolxoz boshqaruvi kabi muvaffaqiyatsiz tizimning joriy etilganligi.

4. Sovet iqtisodiyoti mamlakat fuqarolariga rivojlangan G‘arb davlatlari darajasi bilan taqqoslanadigan munosib turmush darajasini kafolatlay olmaganligi. Muhim tovarlarning yetishmasligi va mahsulot bilan ta’minlashdagi uzilishlar, bema’ni qonunlar va cheklovlar, iste’mol tovarlarining past sifati odamlarning iqtisodiy tizimga ishonchsizligini keltirib chiqarganligi.

5. Sotsialistik lager va uchinchi dunyo davlatlariga moliyalashtirish shaklida doimiy yordamning berilishi va buning uchun budjetdan katta miqdorda mablag‘lar ajratilganligi.[23]

Bularga qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, Sovet iqtisodiyotida neft omili ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Boshqacha aytganda, iqtisodiyot xomashyo yoki tabiiy resurslarga bog‘liq bir tomonlama rivojlangan. Xalqaro doirada neft krizislari darhol iqtisodiyotga zarba bergan.

Sovet Ittifoqi parchalanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun taklif qilingan kamroq markazlashgan ittifoq, “Suveren Davlatlar Ittifoqi”ni yaratish bo‘yicha muzokaralar 1991-yil avgustdagi muvaffaqiyatsiz davlat to‘ntarishiga urinishdan so‘ng to‘xtatildi, bu 19-avgustda boshlanib, 21-avgustda quladi. Natijada, 1991-yil dekabr oyida Belarus, Rossiya va Ukraina prezidentlari Sovet Ittifoqining parchalanishini e’lon qildilar va yangi suveren davlatlar ittifoqini yaratish bo‘yicha muzokaralarni to‘xtatdilar. Ittifoqning parchalanish jarayoni o‘sha yilning dekabr oyida Belarus, Rossiya va Ukraina tomonidan imzolangan Minsk kelishuvi bilan yakunlandi. Minsk kelishuvi MDHni rasmiy ravishda tashkil etdi, u yuqorida aytib o‘tilgan uchta davlatdan iborat bo‘lib, sobiq SSSRning barcha a’zo davlatlari va boshqa barcha davlatlar uchun ochiqligi aytildi.

[23] Цыкунов Г.А. Содружество независимых государств у исторической черты// Известия Иркутского государственного университета. – 2015. - №11. – С. 52-59.

Bitimning imzolanishini eng muhim natijasi sifatida 1922-yilgi Ittifoq shartnomasi asosida tuzilgan SSSR, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan o‘z faoliyatini to‘xtatdi va sobiq Ittifoq organlarining faoliyati Hamdo‘stlik davlatlar hududida to‘xtatildi. Bitim davlatlarning suveren tengligi, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishning oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyil va normalarini o‘z ichiga olgan edi. Bundan tashqari, bitimga ko‘ra a’zo davlatlar chegaralarining ochiqligi kafolatlandi, fuqarolarning harakatlanish erkinligi va MDH doirasida axborot uzatish erkinligi e’tirof etildi. Tomonlar standart harbiy-strategik siyosatni, shu jumladan, yadroviy qurol ustidan birgalikda nazoratni amalga oshirishga kelishib oldilar. Hamdo‘stlikning tashkil etilishi yagona Sovet Ittifoqi mamlakatidan mustaqil davlatlar qatoriga silliq o‘tishni kafolatlashni maqsad qilgan.

Biroq, boshlanishida bitim faqat uchta davlatni o‘z ichiga olgan edi. Jarayon boshida uch Boltiqbo‘yi davlatining o‘z mustaqilligini e’lon qilishi natijasida shartnomada ishtirok etishi mumkin bo‘lgan davlatlar soni 9 tani tashkil etdi.

1991-yilning 13-dekabrida Ashxobodda SSSR tarkibiga kirgan Markaziy Osiyoning beshta davlati: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston prezidentlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Natijada davlatlar MDHga qo‘shilishga roziliklarini, ammo parchalanayotgan Ittifoq subyektlarining teng ishtirokini ta’minlash va MDHning barcha davlatlarini ta’sischilar sifatida tan olish shartini qo‘ydilar.

MDH doirasida integratsiyaning keyingi bosqichi 1991-yil 21-dekabrda Almatidagi sammitida bo‘lib o‘tdi. SSSR o‘rnida tuzilgan yangi mustaqil davlatlar Minsk shartnomasini imzolagan uchta dastlabki davlatga qo‘shildilar. (Gruziyadan tashqari, Gruziya 1993-yilda qo‘shilgan). Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari yangi hududiy tashkilot faoliyatining ilk huquqiy asosi bo‘lgan MDHni ta’sis etish to‘g‘risidagi Shartnoma bayonnomasini imzoladilar. Sammitning yana bir hujjati Almati deklaratsiyasi bo‘ldi. Bir qancha muhim qoidalarni o‘z

ichiga olgan deklaratsiyani barcha 11 postsovet respublikalari imzolagan. Ushbu deklaratsiyaning imzolanishi bilan a’zo davlatlar vakillari “demokratik huquqiy davlatlar qurish va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z taqdirini o‘zi belgilash, tenglik, aralashmaslik huquqini o‘zaro tan olish asosida rivojlantirish, bir-birining ichki ishlarida kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan, iqtisodiy yoki boshqa bosim vositalaridan voz kechish” niyatini bildirdilar. Deklaratsiyada MDH “davlat ham, Millatlar usti subyekti ham emas” va “Hamdo‘stlik a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik o‘zaro tenglik asosida tuzilgan va Hamdo‘stlik a’zolari o‘rtasidagi kelishuvlar belgilangan tartibda ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi institutlar orqali tenglik tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi” deyilgan. MDHning Ustavi 1993-yilning 22-yanvarida Minskda qabul qilingan.

Ustav kuchga kirgandan so‘ng a’zo davlatlar iqtisodiy integratsiya bo‘yicha ishlay boshladilar va 1993-yilning 24-sentabrida Minskda 11 ta a’zo davlat tomonidan Iqtisodiy ittifoq shartnomasi imzolandi. Shartnoma matniga ko‘ra, MDHning iqtisodiy integratsiyaga bo‘lgan yondashuvida muhim o‘zgarishlar bo‘lishini anglatar edi, chunki u Yevropa Ittifoqi tajribasiga tayangan va Sovet o‘tmishidagi iqtisodiy aloqalarni saqlab qolishni maqsad qilmagan, yangi mintaqaviy integratsiya yondashuvini joriy qilishni bayon etgan edi. Masalan, shartnoma MDH ishtirokchilari oldiga qator aniq ustuvor vazifalarni belgilab bergan edi, jumladan, shartnoma tovarlar, xizmatlar, ishchilar, kapitalning erkin harakati tamoyillari asosida yagona iqtisodiy makonni shakllantirish zarurligiga asoslanishi; kredit, soliq, narx, bojxona va tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, xo‘jalik faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, bevosita ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni. Shunga qaramay, ko‘p tomonlama erkin savdo tashkiloti, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va valuta ittifoqi bosqichlariga bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutgan shartnoma Rossiya tomonidan ratifikatsiya qilinmaganligi sababli amalda qo‘llanilmadi.

Iqtisodiy integratsiya sohasidagi keyingi urinish 1995-yilda tashkil etilgan Bojxona ittifoqi bo‘ldi. Bojxona ittifoqi to‘g‘risidagi bitim dastlab Belarus va Rossiya tomonidan imzolangan, keyingi yillarda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston ham shartnomaga qo‘shilgan. Biroq, Rossiya bir tomonlama ravishda import soliqlarini oshirishi va keyingi iqtisodiy hamkorlik nuqtayi nazaridan uning ishonchini pasaytirishi kabi sabablarga ko‘ra loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, MDH dastlab siyosiy subyekt sifatida paydo bo‘ldi, ammo asta-sekin iqtisodiy tarkib bilan to‘ldirilishi kerak edi. Bu borada sanoat komplekslari asosida moliyaviy-sanoat guruhlarini yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish, qo‘shma tadbirkorlik va shu kabi ishlarni tashkil etish MDHning nafaqat siyosiy, balki jiddiy iqtisodiy guruh sifatida shakllanishini anglatar edi. Shu bilan birga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro manfaatli iqtisodiy manfaatlari birinchi o‘ringa chiqishi kerak edi, ular haqiqatan ham milliy iqtisodiyotlarni tarmoq darajasida bog‘lar edi. Integratsiya jarayonlari MDHda amalda yuqoridan boshlandi va ma’lum ma’noda boshqarildi. Oldinroq bitta iqtisodiy majmua sifatida faoliyat ko‘rsatgan birlik tarqalib dezintegratsiyani keltirib chiqardi. Dunyodagi ayrim davlatlar avvaldan ayro holda rivojlanib keyin birlashishga kirishib integratsiyani amalga oshirgan bo‘lsalar, sobiq Ittifoqda uning teskarisi yuz berdi, ya’ni ilgari bir-biri bilan zanjirday bog‘langan tizim uzilib ketdi. Natijada yana integratsiyalashuv kun tartibiga kiritildi.

Yevropa va postsovet hududidagi davlatlarining iqtisodiy integratsiyasini retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish shakli sifatida parchalanish va reintegratsiya jarayonlari tez-tez sodir bo‘lgan. Birinchi parchalanish va keyin reintegratsiya. Bunga Germaniya misoli bo‘lishi mumkin. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng, GDR va GFR tashkil etilgandan so‘ng, Germaniyaning ilgari yagona iqtisodiy takror ishlab chiqarish tizimida parchalanish jarayonlari sodir bo‘ldi. Xuddi shu paytni o‘zida, GDR SEV[24]ga integratsiya qilingan va GFR – YeIga.

[24] Совет еkономической взаиморомощи- O‘zaro iqtisodiy yordam Kengashi 1949-yilda SSSR tashabbusi bilan tuzilgan, 1991-yil iyun oyida tugatilgan. Iqtisodiy munosabatlarni ko‘zlab tuzilgan

Germaniya birlashgandan so‘ng milliy iqtisodiyot darajasida reintegratsiya jarayoni Sharqiy Germaniyaning Yevropa Ittifoqiga avtomatik integratsiyasi bilan boshlandi.

Ma’lumki, SSSRda umumiy energiya, transport va axborot infratuzilmasiga asoslangan o‘zaro bog‘liq tarmoqlarning yagona reproduktiv kompleksi mavjud edi. SSSR respublikalari o‘rtasida mehnat taqsimoti mavjud bo‘lib, davlat korxonalari respublika va butunittifoq tarmoq vazirliklari va idoralari tarkibiga kirgan. Shu bilan birga, tashqi savdoda davlat monopoliyasi mavjud edi. Sovet Ittifoqining qulashi parchalanish jarayonlarini keltirib chiqardi, korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning uzilishiga olib keldi va shuningdek, Sharqiy Yevropaning sherik mamlakatlari o‘rtasida ham sodir bo‘ldi. Shundan so‘ng mamlakatlar siyosiy mustaqillik va iqtisodiy suverenitetning afzalliklarini anglashga harakat qildilar.

Hozirgi kunda MDHning to‘liq a’zolari bo‘lib quyidagi davlatlar hisoblanadi: Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston. Turkmaniston assotsiatsiyalashgan a’zodir. Tuzilmadagi kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lgan davlatlar Afg‘oniston va Mo‘g‘uliston. Sobiq a’zolar bo‘lib Gruziya (2009-yilgacha) va Ukraina (2018-yilgacha) davlatlari hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotlarning yagona iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi samaradorligi ko‘p jihatdan MDHning har bir mamlakatining iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashishiga bog‘liq.

MDH xalqaro maydonda faoliyat yuritadigan millatlararo mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlardan biri sifatida uning kelajagi dunyodagi asosiy tendensiyalar – integratsiya va mintaqalashtirishga hamda asosan a’zo mamlakatlarning siyosiy xatti-harakatlari xarakteriga bog‘liq.

bo‘lsada, amalda sotsialistik mamlakatlarning o‘ziga xos lageri bo‘lgan. Sotsialistik iqtisodiy integratsiyani ifoda etgan.

6.2. MDHning rivojlanish bosqichlari

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin mamlakatlar uchun eng salbiy natija halokatli iqtisodiy tanazzul bo‘ldi. Bu masalani ta’kidlash uchun 1993-yil yanvar oyida Minskda bo‘lib o‘tgan MDH sammitida postsovet davlatlari sifatida ular bir-birlarisiz yashay olmasligini anglaganliklari bayon etilgan. Ushbu bayonotdan so‘ng 1993-yil sentabr oyida MDHga a’zo davlatlar o‘rtasida erkin savdo hududini, keyinchalik bojxona ittifoqini, undan keyingi bosqichda esa iqtisodiy ittifoqni shakllantirish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.

1994-yil 21-oktabrda Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskvada MDH davlatlari rahbarlari Kengashining yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan. Unda asosan a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyalashuvni rivojlantirish masalalari muhokama etilgan.

Keyingi yillarda 1995-yil yanvar oyida Rossiya va Belarus o‘rtasida Bojxona ittifoqi to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Davlatlar tomonidan imzolangan shartnomada:

(1) ishtirokchi davlatlar o‘rtasida tovarlarning erkin harakatlanishini o‘rnatish maqsadida barcha ichki to‘siqlarni bartaraf etish;

(2) uchinchi davlatlar bilan savdoda umumiy bojxona to‘lovlarini belgilash;

(3) bozor iqtisodiyoti va yagona qonunchilik tamoyillari asosida o‘z iqtisodiyotlarini tartibga solishning bir xildagi mexanizmini yaratish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Qozog‘iston va Qirg‘iziston 1996-yilda shartnomaga qo‘shilgan, Tojikiston esa 1999-yilda shartnomani imzolagan. Bu ittifoq samarasiz bo‘lganligini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Unda a’zolar o‘rtasida raqobatning yo‘qligi kuzatilgan. Yevropa Ittifoqining bojxona ittifoqi loyihalari o‘z chegaralarida raqobatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, MDH bojxona ittifoqi MDH hududida raqobatni yarata olmadi. Bundan tashqari, bojxona ittifoqi shartnomasini amalga oshirish Sovet Ittifoqining ishlab chiqarish tuzilmalarini himoya qilish tufayli samarasizlikni oshirdi va kichik davlatlar uchun ham,

ittifoqning yirik mamlakatlari uchun ham savdoda salbiy oqibatlarga olib keldi. Iqtisodiy tanazzulning davom etishi, turli iqtisodiy siyosatlar va boshqa davlatlar bilan savdo siyosati borasida jiddiy kelishmovchiliklar kabi omillar qisqa muddatda hujjatda qo‘yilgan maqsadlarni real bo‘lmaganligini ko‘rsatib qo‘ydi. Yuqorida qayd etilgan omillar natijasida MDH doirasidagi birinchi bojxona ittifoqi postsovet davlatlari iqtisodiyotini integratsiyalash maqsadida imzolangan ko‘plab kelishuvlarga qaramay, ta’sis shartnomalarida va bojxona ittifoqida ko‘zda tutilgan natijalarni bermadi.

1995-yil 10-fevralda Qozog‘istonning Olmaota shahrida MDH davlat rahbarlari Kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan, unda a’zo mamlakatlar chegaralarini qo‘riqlashda hamkorlik qilish konsepsiyasi muhokama etilgan.

O‘tgan yillar davomida MDH doirasida juda ko‘p integratsiyaga doir hujjatlar qabul qilingan, biroq ularning aksariyati amalda ijro etilmagan. Shunday qilib, MDH tuzilgan paytida qo‘yilgan maqsad va vazifalar ko‘pchiligi bajarilmasdan qoldi. MDH iqtisodiy integratsiyasining muvaffaqiyatsizligi ko‘p omillarga bog‘liq. Iqtisodiy jihatdan MDH ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy iqtisodiyotning ko‘lami va tuzilishi, aholi daromadlari, pul-kredit sohasining holati, to‘lov balansi va davlat moliyalari bilan farq qiluvchi mamlakatlar guruhi sifatida tavsiflanadi. Bu sobiq SSSR mamlakatlari o‘rtasida yaqin hamkorlikni o‘rnatishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bu davlatlarning iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha farqidir. Ta’kidlash lozimki, iqtisodiy farqning mavjudligi SSSR paytidagi respublikalar o‘rtasida yuzaga kelgan mehnat taqsimotiga borib taqaladi. Umuman olganda, MDHning aksariyat mamlakatlarida milliy iqtisodiyotlar sobiq SSSRdan meros bo‘lib qolgan bir tomonlama tuzilishga ega edilar. Milliy ishlab chiqarishning bunday monotonligi hamdo‘stlik davlatlarining yetakchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardan texnologik orqada qolishiga, ularning mahsulotlarining raqobatbardoshligini pasayishiga olib keldi.

Bundan tashqari, a’zo mamlakatlarda asosiy fondlarning ma’naviy va jismoniy eskirish darajasi yuqoriligi, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi, jumladan, energetika, transport, uy-joy kommunal xo‘jaligi, moliya tizimlaridagi qoloqlik ham integratsion jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu muammolarning asosiy yechimi sifatida hamdo‘stlik doirasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish edi. Davlatlar o‘rtasida ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatning turli sohalarida hamkorlikning kengayishi bu mamlakatlar iqtisodiyotida o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmining oshishiga, ustuvor tarmoqlarda keng ko‘lamli xalqaro loyihalarni amalga oshirishga, xorijiy kapital oqimining o‘sishiga va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining oshishiga hamda tarkibiy qayta qurishga yordam beradi.

2000-yillarning boshlariga kelib, MDH doirasidagi qarorlarni qabul qilish mexanizmlarining murakkabligi bir qator davlatlarning integratsiyasiga to‘sqinlik qilgani aniq bo‘ldi. Ushbu muammoni hal qilish yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini (YevrAzES) tashkil topishi bo‘ldi, uning asosiy vazifasi postsovet hududida iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam berish edi. Bundan tashqari, Rossiya va Belarus Ittifoq davlatini tuzdilar. 2007-2010 yillarda uchta davlat - Rossiya, Belarus va Qozog‘iston o‘rtasida bojxona Ittifoqini tashkil etilishi YevrAzES doirasida integratsiyaning ijobiy yutug‘i sifatida ko‘rildi. 2010-yil iyul oyida ish boshlagan bojxona ittifoqiga a’zo barcha mamlakatlarda bojxona ittifoqining ishlash tartibini belgilaydigan yagona bojxona Kodeksi kuchga kirdi. Kodeksga muvofiq umumiy bojxona chegaralari belgilandi, ular doirasida ishtirokchilarning o‘zaro savdosida bojxona to‘lovlari va boshqa iqtisodiy cheklovlar qo‘llanilmaydi (maxsus himoya, antidemping va kompensatsiya choralari bundan mustasno), shuningdek uchinchi davlatlar bilan savdo qilish uchun yagona bojxona tarifi va boshqa tartibga soluvchilar qo‘llaniladi.

YevrAzESda integratsiyani chuqurlashtirishning navbatdagi bosqichi bojxona ittifoqi ishtirokchilari tomonidan yagona iqtisodiy

makonni (YeEP[25]) yaratilishi bo‘ldi, uning doirasida bozor tamoyillari asosida iqtisodiyotni tartibga solishning bir xil turdagi huquqiy normalari va mexanizmlari faoliyat ko‘rsatishi belgilandi. Shuningdek, yagona transport, energetika va axborot infratuzilmasini shakllantirish, soliq, pul-kredit, moliya, savdo va bojxona siyosatini muvofiqlashtirish rejalashtirildi. Umuman olganda, bularning barchasi YeEPga a’zo davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining to‘siqsiz harakatlanishi uchun sharoit yaratilishiga qaratilgan edi. Umumiy iqtisodiy makon MDHning uchta davlatini bosqichma-bosqich erkin savdo zonasidan bojxona ittifoqi orqali ishtirokchi davlatlarning umumiy bozorigacha yaratish bilan iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirishi lozim edi.

Iqtisodiy integratsiya davlatlarni emas, balki bozorlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. U bir nechta muhim va majburiy shart-sharoitlarni talab qiladi, bular eng avvalo iqtisodiy va huquqiy tizimlarning muvofiqligi, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning sinxronligi va bir yo‘nalishliligidir. Biroq, MDH doirasida bular umumam olganda kuzatilmadi. Asosiysi o‘zaro manfaatli va o‘zaro teng huquqlik asosidagi integratsiya yuz bermadi. Shuningdek, ba’zida davlat rahbarlarining shaxsiy ambitsiyalari, milliy manfaatlar ustunligi, a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi chegaraviy nizolar, korrupsiya, integratsiyaga bo‘lgan qarashlarning turlichaligi, vakolatlarni davlat usti organlariga berishni istamaslik, sun’iy integratsiyaga intilish, integratsiyaning bir bosqichi to‘liq amalga oshirilmasdan keyingi bosqichga tayyorgarliklarsiz qadam bosish kabi holatlar MDH da va YeEPda tom ma’nodagi integratsiyani yaratishda to‘sqinlik qilmoqda.

Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida tuzilgan bojxona ittifoqi va YeEPning rivojlanishi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqini (YeOII) (YeAES-Йевразийский экономический союз) shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. YeAES 2014-yilda tuzildi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi -Yevroosiyo makonidagi integratsiya

[25] YEEP davlatlararo integratsiya shakllaridan biri bo‘lib, uning maqsadi assotsiatsiya ichidagi tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish va uning chegaralaridan tashqarida jamoaviy proteksionizmni amalga oshirishdir.

loyihasi bo‘lib, uning maqsadi postsovet mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy yaqinlashuviga qaratilgan. YeOII tovarlar, shuningdek xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakati erkinligini, iqtisodiyot tarmoqlarida kelishilgan, muvofiqlashtirilgan yoki yagona siyosatni amalga oshirishni ta’minlashi belgilangan. YeOII milliy iqtisodiyotlarni har tomonlama modernizatsiya qilish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda a’zo davlatlar aholisining turmush darajasini ko‘tarish manfaatlarini ko‘zlab barqaror rivojlanish uchun sharoit yaratish maqsadida tashkil etilgan.

Agar YeOII maqsadlariga qabul qilingan bayonotlar, rejalar, shartnomalar nuqtayi nazaridan tahlil etsak, ular juda ham yuqori maqsadlarni ko‘zlagan. Buni quyidagi jadval orqali ko‘ramiz:

9-jadval

Yevroosiyo Hamkorligi strategiyasining maqsadlari

Umumiy maqsad – Yevroosiyoni tinchlik, ilg‘or rivojlanish va sivilizatsiyalar hamkorligi makoniga aylantirish			
Birinchi darajali maqsadlar			
1. Yevroosiyo energetika va ekologiya hamkorligi	2. Yevroosiyo innovatsiya va texnologiyalar hamkorligi	3. Iqtisodiy hamkorlik	4. Ijtimoiy-demografik hamkorlik
1.1. Tabiiy resurslarni baholash va saqlash	2.1.Asosiy innovatsiyalarni baholash va qo‘llab-quvvatlash	3.1. Ko‘pikli iqtisodiyotni yengish	4.1. Depopulatsiyani yengish
1.2. Tabiiy resurslarni qayta tiklanadigan manbalarga almashtirish	2.2. Yangi texnologik tuzilmalarni keng miqyosda rivojlantirish	3.2. Iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirish	4.2. Migratsiya oqimlarini optimallashtirish
1.3. Atrof-muhitni har tomonlama yaxshilash	2.3.Fan, ta’lim, davlat va biznes o‘rtasidagi innovatsion hamkorlik	3.3. Yevrosiyoda monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlarini olib borish	4.3. Mehnat salohiyatidan samarali foydalanish

9-jadvalning davomi

1.4. Tabiiy ofatlarni bashorat qilish monitoringi	2.4. Mamlakat-larning haddan tashqari texnologik qutblanishini bartaraf etish	3.4.Boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish	4.4. Hayot darajasi va sifatini oshirish, qashshoqlikka barham berish
1.5. Arktikani qutqarish		3.5. Yevroosiyo maqsadli fondlari tizimini yaratish	4.5. Sog‘liqni saqlashni ilg‘or rivojlantirish
Ikkinchi darajali maqsadlar			
5. Ijtimoiy-madaniy sohada hamkorlik	6. Yevroosiyo xavfsizligini mustahkamlash	7. Yevroosiyo hamkorligi institutlarini barpo etish	
5.1. Fanning ilg‘or rivojlanishi	6.1. Terrorizm va ekstremizmga barham berish	7.1. Yevroosiyo sivilizatsiyalari bo‘yicha sammitlar	
5.2.Ta’limning ijodkorligi, fundamentalligi va uzluksizligini oshirish	6.2. Qurollanish poygasini tugatish va qurol nazoratini ta’minlash	7.2. Yevroosiyo Parlamentlararo Assambleyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish	
5.3.Madaniy meros va xilma-xillikni saqlash va boyitish	6.3. Ijtimoiy kuchlar hamkorligini mustahkamlash	7.3. Yevroosiyo integratsiyasini kuchaytirish	
5.4. Jamiyat va oilaning axloqiy asoslarini mustahkamlash	6.4. Axborot xavfsizligini ta’minlash	7.4. Megaloyihalarni amalga oshirish	
5.5. sivilizatsiya qadriyatlari tizimini saqlash		7.5. Yevroosiyo fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish	

Manba: Большое евразийское партнёрство: прошлое, настоящее, будущее: избранные труды X Евразийского научного форума: коллективная монография. Том первый. – СПб.: Университет при МПА ЕврАзЭС, 2018. – 424 с. (Серия “Евро-Азиатские исследования”).

Jadvaldan ko‘rinadiki, maqsadlar yuksak, ulug‘, jimjimador va iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy integratsiyalashishni nazarda tutgan. Bularni amalga oshirish uchun a’zo davlatlar integratsiyani chuqurlashuviga xalal berayotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishlari, integratsiyaning cho‘qqisiga erishgan Yevropa Ittifoqi tajribasidan samarali foydalanishlari zarur hisoblanadi.

Yevroosiy iqtisodiy ittifoqi doirasida integratsion jarayonlarning asosiy xronologiyasini quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:

10-jadval

Yevroosiyo integratsiyasi bosqichlari

1995	Bojxona ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma
1996	Iqtisodiy va gumanitar sohalarda integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risida shartnoma
1999	Bojxona ittifoqi va yagona makon to‘g‘risida shartnoma
2000	Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma
2003	Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish to‘g‘risidagi bitim
2007	Yagona bojxona hududini yaratish va Bojxona ittifoqini shakllantirish to‘g‘risidagi bitim; Bojxona ittifoqi komissiyasi to‘g‘risidagi bitim
2010	Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining Bojxona ittifoqi faoliyatining boshlanishi. Bojxona ittifoqining Yagona bojxona tarifi va Bojxona ittifoqining tashqi iqtisodiy faoliyatini yagona tovar nomenklaturasi kuchga kirdi. Bojxona ittifoqining ichki chegaralarida bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati bekor qilindi
2011	Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi to‘g‘risidagi shartnoma. Yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasi deklaratsiyasi
2012	Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining Yagona iqtisodiy makonini faoliyat ko‘rsata boshlashi
2012	Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi faoliyatining boshlanishi
2014	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma
2015	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi faoliyatining boshlanishi
2018	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi yangi Bojxona kodeksining kuchga kirishi

Manba: Muallif tomondan tuzildi.

Ta’kidlash joizki, YeOII o‘z oldiga to‘g‘ri va katta maqsadlarni qo‘ygan bo‘lsada, u xuddi MDH integratsiyasi singari to‘la ma’noda haqiqiy integratsion tashkilotga aylanmayapti. Ushbu ittifoq bir qator

muammolar va qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanadi. Nima uchun MDH hududida zamonaviy jahon iqtisodiyotining barcha muammolariga javob beradigan samarali integratsiya birlashmasi yaratilmayapti degan savol ko‘pchilik olimlar, mutaxassislar va keng jamoatchilikni qiziqtirib keladi. Bunda iqtisodiyot va siyosat sohasidagi tadqiqotchi olimlarning fikrlari xilma-xil. Yuqorida MDH ning samarali faoliyat yuritmayotganligi sabablari bayon etilgan edi. Ular bevosita YeOIIga ham taalluqli hisoblanadi. Endi olimlarning fikrlarini mujassamlashtirgan holda tavsiflaydigan bo‘lsak, MDH va YeOII integratsiyasi zaifligi sabablarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

(1) birinchidan, rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish hamdo‘stlik mamlakatlarining davlat iqtisodiyotini butunlay boshqacha sharoitlarga aylantirdi, bu yerda o‘yinning mutlaqo boshqacha qoidalari mavjud. Bunday sharoitda SSSRning sobiq respublikalarida notanish omillar paydo bo‘ldi, jumladan, mamlakatning raqobatbardoshligi; davlatlar iqtisodiy manfaatlarining nomuvofiqligi, MDHning turli davlatlari ko‘zlagan maqsadlarning nomuvofiqligi; tashqi iqtisodiy aloqalarda sheriklar tanlashda nafaqat yaqin, balki juda muhim bo‘lgan tovarlar uchun uzoq xorijdan ham hamkorlarga ustunlik berilishi; davlatlarning texnik-iqtisodiy rivojlanishini turli darajasi, ularda ishlab chiqarishning turli tizimlari mavjudligi;

(2) ikkinchidan, barcha davlatlar to‘liq integratsiyalashmaganligi sababi shundaki, davlat iqtisodiyotining real integratsiyasini yadrosi yuqori darajadagi sanoatlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda o‘zaro ta’sir qilishdir, bunda davlatlar bir-birlarini barcha turdagi mahsulotlarning keng assortimenti bilan ta’minlaydilar, tarmoqlar ichidagi savdo sezilarli darajada rivojlanadi, to‘ldiriladi. Faqatgina ushbu texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasida davlatlar minglab savdo, sanoat, bank va boshqa munosabatlar bilan bir-biriga yaqinlashadi hamda tobora yagona iqtisodiy tizimga aylanadi. Bunday holat kuzatilmaganligi bois integratsiya chuqurlashmayapti;

(3) uchinchi mamlakatlardan farqli o‘laroq, MDH mamlakatlari ichida tovar aylanmasining past ulushi, MDH doirasidagi tovar

aylanmasining past diversifikatsiyasi, MDHning ko‘plab mamlakatlarini iqtisodiyoti mineral xomashyo eksportiga yo‘naltirilganligi;

(4) yuqori sifatli xorijiy tovarlardan farqli o‘laroq, MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardosh emasligi;

(5) MDH hududida turli mojarolarning paydo bo‘lishi va avj olishi: so‘nggi yillardagi Rossiya-Ukraina mojarosi, urushi, tog‘li Qorabog‘dagi ziddiyatlar, Pridnestrove, Abxaziya va boshqalar;

(6) YEOIIning institutsional jihatdan zaifligi, ya’ni qabul qilingan qarorlar, shartnomalar, kelishuvlarni amalga oshiruvchi real institutlarning yo‘qligi yoki ularning faoliyatidagi sustkashlik. Shuningdek, a’zo mamlakatlarda siyosiy elitaning jiddiy yondashmasligi;

(7) Hanuzgacha davlatlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlari to‘liq joriy etilmaganligi, mulkning daxlsizligi ta’minlamaganligi, monopoliyaning mavjudligi va tegishlicha halol raqobat muhitining yo‘qligi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning erkinligini cheklanganligi, boshqaruv tizimining meyordan ortiq byurokratlashganligi, korrupsiya darajasining yuqoriligi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini haddan ziyodligi.

Bu kabi salbiy holatlar integratsiyani samarasiz qilib qo‘ymoqda. O‘zbekiston ayni paytda ushbu tashkilotga kuzatuvchi maqomiga ega. Ushbu tashkilotga a’zo bo‘lish masalasida qisqa tarixdan saboq chiqargan holda qaror qabul qilish lozim bo‘ladi.

Sovet Ittifoqi parchalanishi oqibatida MDHning tuzilishi bilan birgalikda yana bir tashkilot vujudga keldi. Uning nomi GUAM bo‘lib sobiq ittifoq respublikalari bo‘lgan Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlatlaridan tarkib topdi. Bu tashkilot yuzaga kelishida hududiy muammolar alohida omil bo‘ldi. Moldovada Pridnestroviya, Gruziyada Abxaziya va Janubiy Osetiya, Ozarbayjonda Tog‘li Qorabog‘, Ukrainada Qrim va Donbass. Bular Rossiya tomonidan qo‘llab-quvvatlagan, tan olinmagan va qisman tan olingan davlatlardir.

Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova – bo‘lajak GUAM a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik boshlanishi 1996-yilning 14-martida

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) ixtisoslashtirilgan qo‘mitasi yig‘ilishida ularning qo‘shma bayonotlarini ko‘rib chiqilishi bilan boshlandi. 1997-yilning 10-oktabr kuni ular GUAM maslahat forumiga asos soldilar. GUAMga a’zo davlatlar Yevropa mamlakatlari tomonidan Rossiyani chetlab o‘tib, Yevroosiyo qit’asining ikki qismini bog‘lashi kerak bo‘lgan Yevropa–Kavkaz–Osiyo transport yo‘lagini yaratishda muhim bo‘g‘in sifatida qaraldi. Shuningdek, kelajakda GUAM hududi uglevodorodlarni Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga yetkazib berishni diversifikatsiya qilishga imkon beradi va shu bilan uning Rossiyadan yetkazib berishga bog‘liqligini kamaytiradi degan maqsad bor edi. O‘zbekiston 1999-yilda bu tashkilotga qo‘shilgan va tashkilot GUUAM deb nomlangan. GUUAM davlatlarining keyingi qadamlari postsovet hududidan tashqarida ham sodir bo‘ldi. 1999-yil aprel oyida Vashingtondagi NATO sammitida "beshlik" tashkilot faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiruvchi qo‘shma bayonot chiqardi. 2000-yil sentabr oyida, BMTning Ming yillik sammiti doirasida ishtirokchi davlatlar rahbarlari GUUAM Nyu-York Memorandumini imzoladilar. Ammo 2005-yilda O‘zbekiston ushbu tashkilotdan chiqib ketdi va sabab qilib tashkilotning siyosiylashganligi ko‘rsatildi. GUAM Ukrainadagi rangli inqilobdan so‘ng yana faollashdi. 2006-yilda ushbu tashkilot ODER-GUAM (Организация за демокраию и есономическое развитие –GUAM) Demokratiya va iqtisodiy rivojlanish uchun-GUAMga aylantirildi. GUAMning o‘ziga xos xususiyati uning yevro-Atlantika va Yevropacha yo‘nalishda ekanligidir. Mazkur tashkilot submintaqaviy integratsion guruh sifatida o‘z faoliyatini samarali olib bormadi. Uning faoliyatida to‘xtalishlar, uzilishlar ko‘p sodir bo‘ldi. Ayni paytda tashkilot mavjud bo‘lsada, uning o‘rni sezilmaydi.

6.3. MDHning boshqaruv organlari

MDHning tashkiliy tuzilmasi hamdo‘stlikning ta’sis shartnomasi, Ustavi bilan belgilangan. Shunga ko‘ra, Ustavda 10 ta organ, ya’ni asosiy siyosatni belgilovchi, muvofiqlashtiruvchi va ijro etuvchi, ma’muriy va yordamchi organlar ko‘rsatilgan. MDHning asosiy siyosatini belgilovchi organlari bu hamdo‘stlikning barcha sohalaridagi eng qudratli organi bo‘lgan Davlat rahbarlari kengashi (DRK) va Hukumat rahbarlari kengashi (HRK) hisoblanadi.

DRK MDHning oliy organi bo‘lib, hamjamiyatga a’zo davlatlarning umumiy manfaatlariga taalluqli masalalarni muhokama qiladi va hal qiladi, HRK esa iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa MDHga a’zo davlatlarning umumiy manfaatlar bo‘yicha ijroiya organlarining hamkorligini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. MDHning ushbu doimiy bo‘lmagan asosiy organlari yiliga kamida ikki marta vaqti-vaqti bilan muntazam yig‘ilishlar o‘tkazishi mumkin va navbatdan tashqari yig‘ilishlar ishtirokchi davlatlardan birining tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

MDH Ustavida qayd etilgan MDHning ijro etuvchi-muvofiq-lashtiruvchi organlari Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Mudofaa vazirlari Kengashi, Chegara qo‘shinlari bosh qo‘mondonlari Kengashi va Iqtisodiy Kengashdir. MDH Ustavida qayd etilganlardan tashqari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va savdo kabi sohalarda ishlovchi alohida kelishuvlarga asoslangan bir qancha qo‘shimcha tarmoq Kengashlari mavjud. MDHning asosiy organlarini qarorlar qabul qilish usuliga o‘xshab, muvofiqlashtiruvchi-ijro etuvchi organlarning qarorlari faqat konsensus asosida qabul qilinadi. Biroq, ushbu organlar tomonidan qabul qilingan qarorlar maslahat xarakteriga ega va majburiy emas.

MDHning ma’muriy organi sifatida belgilangan organ Ijroiya qo‘mitasidir. 2000-yilda e’lon qilingan “Ijroiya qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom”da qo‘mita MDHning yagona doimiy ijro etuvchi, ma’muriy va muvofiqlashtiruvchi organi sifatida belgilangan. Nizomga ko‘ra, Qo‘mita DRK, HRK, davlatlar tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Iqtisodiy kengash

va Hamdo‘stlikning boshqa organlari faoliyatini tashkil etish uchun javobgardir. MDH doirasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlash qo‘mitaning eng fundamental vazifalari qatoriga kiradi, jumladan, erkin savdo zonasini yaratish va faoliyat ko‘rsatish, iqtisodiy hamkorlikning yuqori darajasiga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash va kelajakda. Nizomga ko‘ra, qo‘mitaga MDH davlatlarining taklifiga binoan DRK tomonidan tayinlanadigan MDH Ijrochi kotibi rahbarlik qiladi.

MDHning maslahat bo‘linmalari shaklida tashkil etilgan yordamchi organlari - Parlamentlararo Assambleya (PA), Iqtisodiy sud va Inson huquqlari bo‘yicha komissiya hisoblanadi. Ular maslahat bo‘linmalari sifatida tuzilganligi va hech qanday hokimiyatga ega emasligi natijasida ushbu organlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar MDHning asosiy organlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Ushbu organlar ichida ko‘zga ko‘ringanlari PA bo‘lib, u 1992-yil mart oyida rasmiy ravishda "o‘zaro manfaatli masalalarni muhokama qilish va hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha maslahat organi" sifatida tashkil etilgan. MDH Ustaviga ko‘ra, PA parlamentlararo maslahatlashuvlar o‘tkazadi, Hamdo‘stlik doirasidagi hamkorlik masalalarini muhokama qiladi va tegishli takliflarni ishlab chiqadi.

MDHning yana bir yordamchi organi - Xo‘jalik sudidir. Sud MDH ishtirokchi-davlatlari tomonidan tuzilgan shartnomalarning bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida 1992-yilda MDH tomonidan tasdiqlangan “MDH Xo‘jalik sudi to‘g‘risidagi nizom” asosida sud organi sifatida tashkil etilgan. Sudning vakolatlariga Hamdo‘stlikka a’zo davlatlar tomonidan o‘z zimmalariga olgan iqtisodiy majburiyatlarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni va a’zo davlatlarning kelishuvlari bilan uning vakolatlari doirasida tasniflangan boshqa nizolarni hal qilish ham kiradi.

MDHning keyingi yordamchi organi MDH Ustavi bilan tuzilgan “Inson huquqlari bo‘yicha komissiya” hisoblanadi. Komissiya “Hamdo‘stlikning maslahat organi bo‘lib, Hamdo‘stlik doirasida a’zo davlatlar tomonidan inson huquqlari bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan

majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Komissiyaning tashkil etilishiga Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin paydo bo‘lgan aholi muammolari asosiy turtki bo‘lgan. Ammo ushbu komissiya faoliyati umuman olganda samarali bo‘lmadi.

Tayanch iboralar: Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Yagona iqtisodiy makon, GUAM

Nazorat savollari

1. SSSRning parchalanishini asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini (MDH) tuzish zaruriyati va uning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadlarini yoriting.
3. MDHning asosiy muammolariga nimalar kiradi?
4. GUAMning maqsadlari nima va uning rivojlanish tendensiyalarida nimalar kuzatildi?
5. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tuzish sabablarini tushuntiring.
6. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi qachon, qayerda va qaysi sabablar tufayli tashkil topdi?
7. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari nimalarda ko‘rinmoqda?
8. Rossiya-Belarus Ittifoqi tuzilishining sabablari va undagi holatlarni tavsiflang.
9. MDHni boshqaruv organlarini tavsiflang.

VII BOB. BRIKS VA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

7.1. BRICSning maqsadlari, faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari va rivojlanish bosqichlari.

7.2. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkil etilishining shart-sharoitlari, uning rivojlanish bosqichlari va istiqbollari.

7.1. BRICSning maqsadlari, faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari va rivojlanish bosqichlari

BRICS (BRIKS) qisqartmasi 5 ta asosiy iqtisodiyoti o‘sayotgan, global Janubda iqtisodiy o‘sish uchun eng katta imkoniyatga ega bo‘lgan millatlar: Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrikani o‘z ichiga oladi. 2020-yilgi Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, birgalikda ushbu beshta mamlakat dunyo aholisining taxminan 42%, dunyo geografik hududining 26,7%, YaIMning 24% va xalqaro savdoning 16% foizini tashkil qiladi. Mazkur atama dastlab iqtisodchi (Jim O’Neill) Jim Neill tomonidan global janubda iqtisodiy o‘sish uchun eng katta imkoniyati bo‘lgan davlatlarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Uning asosiy tezisi ushbu mamlakatlar dunyo o‘sishini egallaydigan darajada rivojlanib ketishi edi. Ushbu davlatlar o‘zlarining ulkan iqtisodiy blok qurish, resurslar, texnologiya va ishchi kuchi almashinuvini mustahkamlash imkoniyatlarini ko‘rganlaridan keyin 2006-yilda o‘z munosabatlarini rasmiylashtirishni boshladilar. Tashkilot 2006-yilda Peterburg xalqaro iqtisodiy Forumi paytida tuzilgan. Dastlabki “BRIC” ko‘rinishidagi qisqartma Janubiy Afrikani o‘z ichiga olmagandi, u keyinchalik 2010-yilda qo‘shildi. Rasmiy ittifoq tuzilganidan keyin BRICS jadal sur’atlarda moliyaviy aloqalarni mustahkamladi, diplomatik aloqalarni kengaytirdi va global siyosiy iqtisodiyotda yanada kattaroq o‘rnlarga da’vat qila boshladi. Ularning maqsadlari global janub davlatlari global geosiyosat va xalqaro bozorda yanada teng huquqli ravishda qatnashishlari uchun xalqaro munosabatlarga ta’sir o‘tkazish edi. Ular global

janub mamlakatlariga kattaroq ovoz berish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi (BMTXK) kabi global boshqaruv institutlarini isloh qilishni bir necha bor qo‘llab-quvvatladilar. Shu sababli, ular global iqtisodiy va siyosiy tartiblarga potensial ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan yangi paydo bo‘layotgan, o‘sayotgan iqtisodiyotlarning ramziga aylandilar. Ittifoq o‘ta norasmiy va kelib chiqish jihatidan turlicha bo‘lgani uchun tanqid ostiga olinganiga qaramay, ushbu sifatlar ko‘pincha kelgusidagi hamkorlik yo‘lidagi to‘siqlardan ko‘ra ustun jihatlar sifatida ko‘rsatiladi. BRICS maqsad-lariga erishish yo‘lida bir qancha qo‘shma tashabbuslarga qo‘l urishda davom etayabdi. J. Neillning fikricha Xitoy va Hindiston ishlab chiqa–rilgan tovarlar va servislar bilan ta’minlash bo‘yicha dominant global kuch bo‘lishi mumkin. U Braziliya va Rossiya ularga xomashyo yetkazib berishini hamda shu tariqa Braziliya va Rossiyani jahonda asosiy xomashyo yetkazib beruvchiga aylantirishini taxmin qilgan edi. U kengroq hamkorlik bilan ushbu to‘rt davlatning bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi muqarrar ravishda global janub davlatlaridan tashkil topgan birinchi ulkan iqtisodiy blokni yuzaga keltiradi degan.

Ayrim tadqiqotchilar, BRICS tashkil topishi fonida global iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zarishlar jarayoniga e’tibor qaratadilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin Bretton-Vudsdagi uchrashuvlar natijasida vujudga kelgan global dunyo tartibi xalqaro valuta tizimini va Xalqaro Valuta Fondi (XVF) Jahon banki kabi qo‘shimcha institutlarni joriy qildi. Asosan global shimol mamlakatlaridan tashkil topgan bu organlar global janub mamlakatlarini xalqaro valuta sistemasining ta’siriga tushirgan va ushbu asr boshida BRICS iqtisodiyotlarining vujudga kelishi bilan ushbu status-kvoda o‘zgarish bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Shunday qilib, tadqiqotchilarga ko‘ra BRICS mamlakatlari oxir-oqibat G7ning iqtisodiy va siyosiy qudratini ortda qoldirishlari mumkin. Shu jihatdan ayrimlar uchun BRICS xalqaro maydonda Amerika Qo‘shma Shtatlari boshchiligidagi global shimol ittifoqiga qarshi to‘siqqa o‘xshaydi. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga to‘la qonli a’zo bo‘lib kirish

uchun Eron, Argentina, Saudiya Arabistoni, Misr, Efiopiya, Jazoir, Bangladesh, Venesuela da’vogarlik qilmoqdalar.

BRIC davlatlari strategik hamkorlik orqali katta iqtisodiy va siyosiy kuchga ega bo‘lish potensialini ro‘yobga chiqargan iqtisodiy blokni yaratishga harakat qilmoqdalar. Ularning oliy darajadagi ilk sammiti 2009-yilda Rossiyada bo‘lib o‘tdi, unda a’zo davlatlar rahbarlari moliyaviy aloqalarni mustahkamlash, diplomatik munosabatlarni oshirish va ko‘p tomonlama tashkilotlarda yanada muhim rol o‘ynashni targ‘ib qilishga kelishib olishdi. Ushbu dastlabki sammit davomida e’lon qilingan qo‘shma bayonotda ular "xalqaro huquq, tenglik, o‘zaro hurmat, hamkorlik, kelishilgan harakatlar va barcha davlatlarning birgalikda qarorlar qabul qilishlari”ga chaqirishdi. Vakillik ittifoqiga ega bo‘lish istagida, ular 2010-yil oxirida Janubiy Afrikani tashkilotga qo‘shilishga taklif qilishdi va shu bilan hozirda qo‘llanilayotgan "BRICS" qisqartmasini yaratishdi. Janubiy Afrikaning qo‘shilishi BRICSning kengroq siyosiy intilishlarini ko‘rsatib beradi.

BRIKS hozirda Ustav tashkiloti emas, balki diplomatik sheriklik kabi ishlayotgan bo‘lsa-da, o‘z hamkorliklarini institutsionalizatsiya qilish niyatida ekanligini bildirib o‘tishgan. U Shanxayda BRICS Tower shtab-kvartirasiga ega. An’anaviy doimiy kotibiyat, umumiy yig‘ilish yoki xodimlar o‘rniga unda qo‘shma "virtual kotibiyat" yo‘lga qo‘yilgan. BRICS tashkil etilganidan buyon ham doimiy ravishda faoliyatlarini muvofiqlashtiradigan, jamoaviy kun tartibini belgilaydigan yig‘ilishlar o‘tkazilib kelinadi. Sammitlarda har yili a’zo davlatlar tomonidan navbat bilan raislik va mezbonlik qilinadi. Dastlabki bosqichlarda BRICS deklaratsiyalarining aksariyati xalqaro savdo-iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikka qaratilgan bo‘lib, boshqa sohalardagi hamkorlikka unchalik e’tibor bildirilmas edi. Ularning deklaratsiyasi borgan sari tinchlik, xavfsizlik, taraqqiyot va xalqaro aloqalar sohasidagi hamkorlikni ham qamrab oldi. Ushbu keng ko‘lamli mavzular har bir a’zo davlatning qo‘shgan hissasini aks ettiradi, chunki kun tartibini belgilash asosan mezbon davlatiga bog‘liq bo‘ladi. Guruh qarorlarini qabul qilish va

hamkorlik qilishdagi bunday moslashuvchanlik BRIKSni an’anaviy ko‘p tomonlama tashkilotlardan ajratib turadi.

BRICS o‘rtasidagi hamkorlik a’zo davlatlar o‘rtasida umumiy manfaatli masalalar bo‘yicha diplomatik koalitsiyaga aylanib, turli sohalarga kengaydi. Bu sog‘liqni saqlash, savdo, qishloq xo‘jaligi, statistika, texnologiya, fan, akademiya, sud tizimi, madaniyat festivallari va mudofaa sohalaridagi hamkorliklarni o‘z ichiga oladi. BRIKS davlatlari global xavfsizlik, AQSHning hukmronligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ustuvor ahamiyat berish kabi muammo-masalalarda bir necha bor birgalikda harakat qilishgan. Garchi ular BMT kabi global tashkilotlarning global qarorlar qabul qilishdagi markaziy rolini ko‘p jihatdan qo‘llab-quvvatlasalar ham, ular ushbu institutlarni isloh qilishga intiladilar. Misol uchun, xalqaro tinchlik va xavfsizlikda o‘zlarining kattaroq o‘ringa egalik qilishga intilishlarini ko‘rsatish uchn BRICS mamlakatlari 2012-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashidagi barcha o‘rinlarni egallashga qaror qilishdi. BRIKS hamkorligini tezlashtirgan sabablardan biri global iqtisodiy tizimni isloh qilish edi va ular uni qayta belgilash yo‘lida qadam tashlashni boshladilar. Ular xalqaro iqtisodiy o‘sish, savdo va sarmoya oqimining yangi manbasiga aylanmoqda. Bunga 2013-yilda a’zo mamlakatlar o‘rtasida biznes sarmoyasini osonlashtirish uchun BRICS Biznes Kengashi kabi tashabbuslarni boshlash kiradi. BRICS 2014-yilda global janub mamlakatlari iqtisodiy o‘sishini oshirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma va rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishda duch keladigan muammolarni hal qilish uchun Yangi Taraqqiyot bankini (YaTB) tashkil etdi. O‘sha yili a’zo davlatlar uchun potensial qisqa muddatli likvidlik bosimining zararlarini oldini olish uchun BRICSning Shartli Zaxiralari to‘g‘risidagi kelishuv (ShZT) imzolandi. Ijtimoiy-iqtisodiy va inson rivojlanishi loyihalariga hissa qo‘shish BRICSning asosiy maqsadlaridan biri qilib belgilangan. Xususan, YaTB barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish uchun yaratilgan edi. Ular iqlim o‘zgarishini yumshatish, sog‘liqni saqlash sohasidagi muammolar, huquqiy tizimdagi adolatsizliklar, oziq-ovqat xavfsizligi va inson

taraqqiyoti bo‘yicha boshqa loyihalar bo‘yicha birgalikda ishlab hamkorlik loyihalarini amalga oshirmoqdalar. Shuningdek, BRIKS kinofestivali (2016), akademik forum (2009) va siyosiy qonun-qoidalarni ishlab chiqish va baholash uchun ekspertlar tarmog‘ini yaratadigan BRICS tahlil markazi (2013) kabilar yo‘lga qo‘yilgan.

BRICSni hali xalqaro munosabatlar yoki xalqaro institutning yangi ko‘rinishi deb tasdiqlash mumkin emas, garchan unda ayrim ijobiy va yangicha o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lsada, BRICSning istiqbollariga to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirgi dunyoda kechayotgan qarama-qarshilik, ayniqsa, Rossiya bilan Ukraina o‘rtasida bo‘layotgan urush mojarolari, Rossiyaga nisbatan qo‘llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar sharoitida uning oldiga qo‘ygan maqsadlari to‘liq amalga oshishiga umidli qarab bo‘lmaydi.

7.2. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkil etilishining shart-sharoitlari, uning rivojlanish bosqichlari va istiqbollari

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)-2001-yil 15-iyunda Xitoyning Shanxay shahrida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Rossiya va Xitoy davlatlari rahbarlari uchrashuvida tuzilgan bo‘lib, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hisoblanadi. Ayni paytda unga yuqoridagi davlatlardan tashqari, Hindiston, Pokiston va Eron davlatlari a’zolikka qabul qilinganlar. Afg‘oniston, Belarus va Mo‘g‘uliston kuzatuvchi maqomiga ega. Bundan tashqari, Armaniston, Ozarbayjon, Kambodja, Nepal, Shri-Lanka, Saudiya Arabistoni, Misr va Turkiya ShHTga dialog hamkor davlatlar hisoblanadi.

ShHTning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash;
- savdo, siyosat, tadqiqot, iqtisod, texnologiya va madaniyat sohasida samarali hamkorlikni rivojlantirish;

- ta’lim, transport, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, turizm va boshqa sohalarda hamkorlik;
- mintaqadagi xavfsizlik, barqarorlik va tinchlikni saqlash hamda ta’minlash uchun birgalikdagi sa’y-harakatlarni amalga oshirish;
- mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi kurashish;
- demokratik, oqilona va adolatli yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy tartibni o‘rnatish sari harakat qilish;
- tashkilot o‘zining ichki siyosatini o‘zaro manfaat, ishonch, maslahatlashuvlar, tenglik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va umumiy rivojlanishga intilish tamoyillariga asoslanadi, tashqi siyosat esa qo‘shilmaslik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, ShHT rasman 2001-yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar o‘tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi, ya’ni o‘sha yillarda XXR Sovet Ittifoqiga chegara masalalarini hal qilish maqsadida murojaat qilgan. SSSR parchalanganidan keyin Rossiya va Markaziy Osiyo mintaqasining yangidan tashkil topgan davlatlari ko‘rinishida muzokaralarning yangi subyektlari paydo bo‘ldi. Rossiya va Xitoyning barcha hududiy muammolari qo‘shnilari, ya’ni Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan muvaffaqiyatli hal etilgandan so‘ng, ushbu mamlakatlar rahbarlari samarali mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarini ochdilar. O‘shanda Yevroosiyoning eng yirik ikki davlati bo‘lgan Rossiya va Xitoy boshqa jahon kuchlarining Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyaning Uzoq Sharqida ehtimoliy kengayishini cheklash va oldini olish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini o‘z rahbarligida birlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

“Shanxay beshligi” ShHT tuzilishidan oldin, ya’ni Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Xitoy va Tojikiston davlatlarini o‘z ichiga olgan siyosiy birlashmaga aylandi. Uning boshlanishi 1996-1997 yillardagi, “Chegara hududida harbiy sohada ishonchni mustahkamlash to‘g‘risidagi bitim” va “Qurolli kuchlarni o‘zaro qisqartirish to‘g‘risidagi bitim” tuzilgan paytga borib taqaladi, bular tashkilotni tuzishda asosiy

hujjatga aylandi. Shanxay beshligida bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Muzokaralar formati ikki tomonlama, ya’ni Xitoy va boshqa mamlakatlar formatidan besh tomonlama, ya’ni uyushmaning har bir a’zosi muzokaralarning mustaqil tomoniga aylandi. Bundan tashqari, muzokaralar mavzusi kengaydi. Ular nafaqat chegaralarga tutash hududlarda qurolli kuchlarning qisqarishi va harbiy sohada ishonchli munosabatlarni mustahkamlash usullarini, balki Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi harbiy va iqtisodiy integratsiyaning qiyinchiliklarini ham muhokama qildilar. Shunday qilib, “beshlik” xalqaro mintaqaviy tuzilmaga aylandi. Keyinchalik “beshlik” ning integratsiya maydoni O‘zbekistonning unga qo‘shilishi hisobiga kengaydi, shundan so‘ng nafaqat ko‘p tomonlama, balki ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi mintaqaviy birlashmaga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

2002–yilning iyun oyida Sankt-Peterburgda a’zo davlatlar vakillarining sammitida Shanxay hamkorlik Tashkilotining Ustavi (Xartiyasi) imzolandi va u 2003–yilning 19–sentabridan kuchga kirdi. U ShHTning maqomini belgilab beruvchi va uning maqsadlari, tamoyillari, tuzilishi hamda faoliyat yo‘nalishlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat bo‘ldi.

ShHT o‘sishda davom etdi. 2017–yilning 8-9–iyun kunlari Ostonada ShHT sammiti bo‘lib o‘tdi, u yerda Pokiston va Hindiston rasmiy ravishda tashkilotning to‘liq a’zolari sifatida qabul qilindi. 2005-yildan beri Eron ShHTda kuzatuvchi davlat maqomiga ega edi. 2021-yilda mamlakatning tashkilotga qo‘shilish jarayoni boshlandi. 2022-yil sentabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan ShHT sammitida Eronning tashkilotga a’zo bo‘lish majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandium imzolandi. 2023-yilning 4-iyulida Hindistonda bo‘lib o‘tgan sammitda Eron tashkilotning to‘la qonli a’zosiga aylandi.

ShHT o‘z faoliyat yo‘nalishlarini doimiy ravishda kengaytirib borayotgani uni o‘ziga xosligini ko‘rsatadi va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqaviy tuzilmalaridan ajratib turadi, ular umuman iqtisodiyot, siyosat yoki xavfsizlik masalalariga yo‘naltirilgan tashkilotlardir. ShHT xalqaro hamkorlikka yondashuvlarni kengaytiruvchi va siyosat,

iqtisodiyot, madaniyat, xavfsizlik, gumanitar munosa-batlarning turli jihatlarini qamrab oluvchi ko‘p bosqichli tuzilmadir.

ShHT doirasida iqtisodiy hamkorlik ancha muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalishda tashkilot kelajakda ShHT makonida erkin savdo zonasini yaratish bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikdan manfaatdor hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy globallashuv jarayonlarini chuqur-lashtirish sharoitida dinamik va barqaror o‘sishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘p tomonlama hamkorlikni kuchaytirish ShHTning asosiy zamonaviy ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar zamonaviy dunyoda ushbu sohada taraqqiyotning muhim dvigateliga aylanganligi sababli raqamli transformatsiya sohasida hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud, shu bois raqamlashtirish bo‘yicha kompleks hamkorlikni kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Madaniy aloqalarni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilish va saqlash, xalqaro miqyosda festival hamda ko‘rgazmalar tashkil etish, mamlakatlar o‘rtasida madaniy almashinuvni chuqurlashtirish, gumanitar yordam ko‘rsatish ShHTning tinchlik va barqaror taraqqiyotni saqlash bo‘yicha amaliy faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ShHT davlatlari o‘zaro munosabatlarda “Shanxay ruhi”ga amal qiladi. Bu ibora qarorlarni konsensus asosida qabul qilish, o‘zaro ishonch va manfaatdorlik, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikka hurmat bilan yondashuv, birgalikda taraqqiy etishga intilish tamoyillariga qat’iy amal qilish demakdir.

Ta’kidlash joizki, ShHTda Xitoy asosiy rolni o‘ynaydi. Tashkilotning shakllanishi va rivojlanishida Xitoyning hissasi yuqori. Chunki Xitoy birinchi navbatda bundan manfaatdordir.

Bir kamar va bir yo‘l tashabbusi keng ko‘lamli ta’siri tufayli Xitoy va ShHT o‘rtasidagi munosabatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bir kamar va bir yo‘l aloqalarni kuchaytirish va ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida avvalo infratuzilmani rivojlantirish, savdoni osonlashtirish va sarmoyaviy hamkorlik orqali iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Transport tarmoqlarini rivojlantirish, yo‘llar, temir yo‘llar va

portlar kabi mintaqaviy aloqani yaxshilash, savdo aloqalarini mustahkamlash ShHT doirasida iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashadi.

ShHT murakkab tashkiliy tuzilishga ega. Unda qarorlar qabul qilish jarayoni bir qancha muhim qadam va mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Qaror qabul qilish birinchi navbatda sammitlar va yig‘ilishlar orqali amalga oshiriladi.

ShHTning yuqori organi – Davlat rahbarlari kengashi (DRK) hisoblanib, u tashkilotning Xartiyasiga binoan raislik qiluvchi tomon hududida yiliga bir marta o‘tkaziladi va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi, faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi, ichki tuzilma va boshqa davlatlar, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini hal qiladi, ishtirokchi-davlatlar rahbarlari milliy va mintaqaviy manfaatlarga oid tashabbuslarni ilgari surish imkoniga ega bo‘ladilar. ShHT Hukumat Rahbarlari Kengashi (HRK) tashkilotning ko‘p tomonlama hamkorlik strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlarini muhokama qilish, dolzarb muhim iqtisodiy va boshqa hamkorlik masalalarini hal qilish uchun yiliga bir marta yig‘iladi.

ShHT yig‘ilishlarining kun tartibi oldindan belgilanadi va a’zo davlatlar muhokama qilinadigan mavzular yoki masalalarni taklif qilishlari mumkin. Pekinda joylashgan ShHT Kotibiyati kun tartibini muvofiqlashtirish va muhokamalarga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Kotibiyatning yuqori pog‘onasida Bosh Kotib bo‘lib, u ishlarni muvofiqlashtiradi, tahliliy, huquqiy va tashkiliy masalalar bo‘yicha ma’lumot beradi hamda tashkilot faoliyatini texnik qo‘llab-quvvatlaydi. Kotibiyat ShHTning huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkilotning kuzatuvchilar va muloqot bo‘yicha sheriklar bilan hamkorligini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, u tashkilot faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni olib boradi hamda a’zo davlatlar kelishganidek, shu maqsadda tegishli hujjatlarni tuzadi.

Qarorlar qabul qilinishidan oldin a’zo davlatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish, umumiy til topish va konsensusga erishish uchun maslahatlashuvlar va muzokaralar olib

boradilar. ShHT hamkorlik bo‘yicha xavfsizlik, iqtisodiyot, savdo va madaniyat kabi muayyan sohalar bo‘yicha turli ishchi guruhlar va ekspert qo‘mitalarini tuzgan. Ushbu guruhlar chuqur tadqiqotlar olib boradi va tegishli masalalar bo‘yicha tavsiyalar beradi.

ShHT a’zo davlatlar ustidan suveren nazoratni o‘rnatmaydi yoki o‘z qarorlari va tavsiyalarini bajarish vakolatiga ega emas. Qaror qabul qilishning rasmiy kodlangan tartibi ham mavjud emas. ShHT norasmiy muhokamalar asosida ishlaydi va qaror qabul qilinishi uchun konsensual ma’qullash zarur. Ushbu boshqaruv kelishuvlarini hisobga olgan holda, ShHTning ko‘p tomonlama kooperatsiya doirasi modelini Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasiga (ASEAN) yaqinroq deb ta’riflash mumkin. U ASEAN yo‘liga o‘xshash o‘zaro ta’sir kodeksi bilan boshqariladi, bu a’zolar o‘rtasida ishonch va xayrixohlikni yaratish uchun norasmiy o‘zaro ta’sir va konsensus qurish yondashuvini ko‘rsatadi.

11-jadval

ShHT sammitlari

ShHT Davlat rahbarlari Kengashi		
Mezbon davlat	**Manzil**	**Sana**
Xitoy	Shanxay	14-Iyun, 2001
Rossiya	Sankt-Peterburg	7-Iyun, 2002
Rossiya	Moskva	29-May, 2003
O‘zbekiston	Toshkent	17-Iyun, 2004
Qozog‘iston	Ostona	5-Iyul, 2005
Xitoy	Shanxay	15-Iyun, 2006
Qirg‘iziston	Bishkek	16-Avgust, 2007
Tojikiston	Dushanbe	28-Avgust, 2008
Rossiya	Yekaterinburg	15-16-Iyun, 2009
O‘zbekiston	Toshkent	10-11-Iyun, 2010
Qozog‘iston	Ostona	14-15-Iyun, 2011
Xitoy	Pekin	6-7-Iyun, 2012
Qirg‘iziston	Bishkek	13-Sentabr, 2013
Tojikiston	Dushanbe	11-12-Sentabr, 2014
Rossiya	Ufa	9-10-iyul, 2015
O‘zbekiston	Toshkent	23-24-iyun, 2016
Qozog‘iston	Ostona	8-9-iyun, 2017
Xitoy	Sindao, Shandong	9-10-iyun, 2018
Qirg‘iziston	Bishkek	14-15-iyun, 2019

ShHT Davlat rahbarlari Kengashi		
Mezbon davlat	**Manzil**	**Sana**
Rossiya	Sankt-Peterburg	10-noyabr, 2020
Tojikiston	Dushanbe	16-17-sentabr, 2021 (Onlayn tarzda olib borildi)
O‘zbekiston	Samarqand	15-16-sentabr, 2022
Qozog‘iston	Almati	14-sentabr, 2001
Xitoy	Pekin	23-sentabr, 2003
Qirg‘iziston	Bishkek	23-sentabr, 2004
Rossiya	Moskva	26-oktabr, 2005
Tojikiston	Dushanbe	15-sentabr, 2006
O‘zbekiston	Toshkent	2-noyabr, 2007
Qozog‘iston	Ostona	30-oktabr, 2008
Xitoy	Pekin	14-oktabr, 2009
Tojikiston	Dushanbe	25-noyabr, 2010
Rossiya	Sankt-Peterburg	7-noyabr, 2011
Qirg‘iziston	Bishkek	5-dekabr, 2012
O‘zbekiston	Toshkent	29-noyabr, 2013
Qozog‘iston	Ostona	14-15-dekabr, 2014
Xitoy	Chjenchjou (Zhengzhou)	14-15-dekabr, 2015
Qirg‘iziston	Bishkek	2-3-noyabr, 2016
Rossiya	Sochi	30-noyabr, 2017
Tojikiston	Dushanbe	11-12-oktabr, 2018
O‘zbekiston	Toshkent	1-2-noyabr, 2019
Hindiston	Dehli	30-noyabr, 2020
Qozog‘iston	Ostona	25-noyabr, 2021
O‘zbekiston	Samarqand	15-16-sentabr, 2022
Hindiston	Goa	4-5-may, 2023

Bugungi kunda ShHT o‘tgan yutuqlarga asoslanish va kelajakka intilishning muhim pallasida turibdi. ShHTning kelajakdagi yo‘nalishi tashqi muhit tomondan ham, uning ichki rivojlanishi tomonidan ham oldindan belgilanishi kerak. ShHT tashkil etilganidan buyon mintaqaviy boshqaruv uchun mas’ul bo‘lgan mintaqaviy ko‘p tomonlama xalqaro tashkilot sifatida kelajakda katta ahamiyat kasb etishi va sezilarli yutuqlarga erishishi mumkin.

Tayanch iboralar: ShHT, BRIKS, Shanxay beshligi. Shanxay ruhi

Nazorat savollari

1. Shanxay Hamkorligi Tashkilotining yuzaga kelishini asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. BRIKSning tashkil topishini asosiy omillarini tushuntirib bering.
3. BRIKSning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
4. ShHTning asosiy maqsadlarini yoriting.
5. BRIKS va ShHTning rivojlanishini zamonaviy tendensiyalarini tavsiflang.
6. Shanxay ruhi nima?
7. BRIKS va ShHTning istiqbollari haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

VIII BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI

8.1. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari.

8.2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki.

8.1. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari

Markaziy Osiyo atamasi Osiyoning markazida joylashgan va Xitoy hamda Rossiya kabi buyuk davlatlar bilan chegaradosh beshta mustaqil davlatga nisbatan qo‘llaniladi. Bu besh davlat - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston SSSR tarkibida bo‘lgan va u parchalanganidan keyin mustaqillikka erishgan. Ularning madaniyati nisbatan o‘xshash va Tojikistondan tashqari barcha davlatlar aholisi turkiydir. Barcha Markaziy Osiyo davlatlari, umuman olganda sunniy islomga e’tiqod qiladi.

SSSR parchalanganidan keyin bu davlatlarning har biri o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo‘lini tanladi. Turkmaniston barcha mintaqaviy va global tuzilmalarda ishtirok etishdan bosh tortdi va neytral davlat maqomini oldi. Mintaqadagi barcha davlatlar birin-ketin yangi Konstitutsiyalarini qabul qildilar. Shuningdek, barcha davlatlar o‘z milliy iqtisodiyotlarini bozor munosabatlari asosida rivojlantirishni, fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlat barpo etishni hamda inson haq-huquqlarini oliy qadriyatga aylantirishni, aholining turmush darajasini muttasil oshirib borishni maqsad qilib belgiladilar.

Mustaqillikka erishgandan keyingi 32 yildan ortiq vaqt mobaynida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida integratsiyalashuv bo‘yicha jarayonlar rang-barang tus oldi, unda kelishuvlar, ahdlashuvlar, shartnomalar bilan bir qatorda munozarali, bahsli, ziddiyatli, qarama-qarshi holatlar ham kuzatildi. Ayrim hollarda ushbu jarayonda fuqarolar, davlat

rahbarlari o‘rtasida dahanaki janglar, kichik urushlar ham sodir bo‘ldi. Integratsiyalashuvda ayrim paytlarda umuman turg‘unlik holatlari ham ro‘y berdi.

Markaziy Osiyo rivojlanishining integratsion assotsiatsiya modellarini izlash mintaqa mamlakatlari rivojlanish strategiyasining muhim elementi bo‘lib, ular dunyoning iqtisodiy va siyosiy xaritasidagi o‘rnini belgilab beradi. Biroq, Markaziy Osiyoda birinchi integratsiya loyihalari doirasida ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlik keng rivojlanmadi va yagona iqtisodiy makon yaratishga urinishlar muvaffaqiyasizlikka uchradi.

Agar ushbu masalalarni tahlil etadigan bo‘lsak, ularning aksariyati chegara bilan bog‘liq vaziyatlarda sodir bo‘lgan. Ammo shunga qaramasdan, mustaqillikning ilk yillaridan Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtirish g‘oyalari ilgari surilgan. Markaziy Osiyo davlatlarini integratsiyalash bo‘yicha birinchi tashabbus O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan edi. U “Turkiston – umumiy uyimiz” shiorini o‘rtaga tashlab, masalaning siyosiy tomoniga e’tibor qaratib, mintaqadagi etnik guruhlarning ijtimoiy va madaniy birlashuviga urg‘u bergan edi.

1991-yil dekabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari **Markaziy Osiyo Hamjamiyati (MOH)** deb nomlanuvchi o‘zlarining integratsion birlashmalarini yaratishga harakat qilishdi. Bu jarayon bosqichma-bosqich institutsionallashtirildi, MOHdan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga (MOIH) va undan **Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT)**ga o‘tdi hamda davlat rahbarlari siyosiy birlashish niyatida ekanliklarini bayon qilishdi. Biroq, asta-sekin tashkilot yana bir yirik integratsiya loyihasiga, ya’ni YevroAzESga singib ketdi. Gap shundaki, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishishlari bilan mintaqada geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari bo‘lgan bir qator yirik, yetakchi davlatlar o‘z nigohlarini tashlay boshladilar. Ularning aksariyati Markaziy Osiyoni birlashishidan manfaatdor emaslar, balki o‘zlari boshchiligidagi turli integratsion guruhga mintaqa davlatlarini qo‘shilishini xohlaydilar. Qayta urinishlarga qaramay, Markaziy Osiyo

davlatlari shu paytgacha o‘zlarining umumiy manfaatlarini ifodalovchi mintaqaviy tashkilot tuza olmadilar. Shuningdek, o‘tgan yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida integratsiyalashuv kechmaganligining ichki mintaqaviy sabablari ham mavjud. Bular:

(1) siyosiy irodaning yetishmasligi;

(2) mintaqada yetakchilik uchun kurash;

(3) hududiy-chegaraviy muammolar;

(4) suv-energetika yetishmasligi muammolari;

(5) iqtisodiy rivojlanishning turli darajalari;

(6) turli siyosiy rejimlar;

(7) mintaqaviy hamkorlik va integratsiya yuzasidan turlicha qarashlar mavjudligi.

Markaziy Osiyoda integratsiyalashuv darajasi past ekanligi yoki uning umuman yo‘qligini markaz va periferiya munosabatlari nuqtayi nazaridan ham ko‘rish mumkin. Bunda sanoati rivojlangan mamlakatlar markaz, rivojlanayotgan mamlakatlar esa chekka hududlar sifatida qabul qilinadi. Bu oldingi davrga ko‘proq xos holatdir. Zamonaviy real siyosatda esa siyosiy bosim vositalaridan foydalanishga va natijada rivojlanishning muayyan qadriyatlari hamda modellarini joriy etishga asoslangan.

Xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarning vujudga kelishi va mavjudligini tahlil qilishda ham realistik yondashuv mavjud. Mintaqaviy gegemon o‘z hokimiyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy yoki iqtisodiy hukmronlik yo‘li bilan emas, balki xalqaro rejim yaratish orqali amalga oshirishi mumkin. Realistlar xalqaro tashkilotlar a’zolari ulardan faqat o‘z milliy manfaatlarini ko‘zlash uchun foydalanadi deb hisoblashadi. Shuning uchun u yoki bu davlatning qaysidir yetakchi davlat ostida bo‘lgan birlashmaga a’zo bo‘lib kirishi har doim ham uning milliy manfaatlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Markaziy Osiyodagi har qanday xalqaro institutsional tuzilmalar ko‘pincha tashqi kuchlar, odatda Rossiya – integratsiya loyihalarida asosiy rolga ega bo‘lgan dominant o‘yinchi ta’siri ostida shakllangan. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning xavfsizlik sohasida (KXShT) va

uning iqtisodiy sohasida (YeOII) Rossiya boshchiligidagi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Xitoy boshchiligidagi tashkilotlar esa Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va hozirda eng katta loyiha hisoblangan “Bir kamar (bir makon) va bir yo‘l” tashabbusidir. Markaziy Osiyo davlatlari Qora dengiz hamkorlik tashkiloti va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi boshqa millatlararo integratsiya guruhlarida ham ishtirok etadilar.

Markaziy Osiyo Rossiyadan tashqari, Xitoy uchun ham muhim mintaqa bo‘lib, uning to‘rtta davlati bilan chegaradosh, madaniyatida o‘xshashliklar mavjud. Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur avtonom viloyati Xitoy hukumati uchun eng muammoli hudud hisoblanadi. U Markaziy Osiyo davlatlari Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Tojikiston bilan chegaradosh.

Xitoy Xalq Respublikasining (XXR) Markaziy Osiyodagi asosiy maqsadlari xavfsizlik, o‘zaro iqtisodiy hamkorlik, o‘zining g‘arbiy chegaralarini iqtisodiy rivojlantirish va Markaziy Osiyoning energetika resurslaridan foydalanishdir.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ko‘plab mintaqaviy tashkilotlar tuzildi, biroq ularning aksariyatiga Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan jiddiy munosabat bo‘lmagan. Ular shunchaki prezidentlar o‘rtasidagi uchrashuvlar va munozaralar uchun platforma bo‘lib xizmat qilgan. Sammitlar odatda hech qanday amalga oshirish mexanizmlaridan mahrum bo‘lgan niyat deklaratsiyasi bilan yakunlangan.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasiga baho berishda biz MDH va YeOIIdagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqsak maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ulardagi muammolar ushbu mintaqaga ham xos va qolaversa, mintaqadagi mamlakatlar MDHga a’zo. Mintaqadagi uchta davlat esa YeOII a’zosi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida qaror qabul qiluvchilar mintaqaviy hamkorlik zarurligini to‘liq tushunib, hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Siyosiy tahlilchilar mintaqaviy integratsiya alohida davlatlarning suverenitetini mustahkamlab, iqtisodiy o‘sishning tezlashishiga imkon berishini ta’kidladilar.

8.2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki

O‘zbekiston hududiy jihatdan O‘rta Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, respublikada Markaziy Osiyo aholisining 45%i yashaydi. (2023-yil 1-yanvar holatida aholi soni-35 163 944 kishi). O‘zbekiston qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston davlatlari bilan chegaralanib, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlari bilan transport hamda telekommunikatsiya va axborot vositalari orqali bog‘lanib turuvchi muhim strategik hisoblanadi.

O‘zbekiston − double-landlocked, (ikki tomonlama dengizga chiqa olmaydigan) ya’ni hatto qo‘shnilari ham dengizga bevosita chiqish yo‘li yo‘q mamlakat hisoblanadi. Ammo boshqa jihatdan O‘zbekiston strategik joyda, Yevroosiyoning Sharq va G‘arbni birlashtiruvchi yerusti yo‘laklarining barcha chorrahalarida joylashgan.

1991-yilda SSSR parchalanishi bilan barcha sobiq sovet respublikalari, shu jumladan, O‘zbekiston ham og‘ir ahvolga tushib qoldi. Postovet hududida iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning markazlashtirilgan tizimi yo‘q qilindi, o‘nlab yillar davomida rivojlangan tovar va pul muomalasi tizimi yo‘q qilindi.

Ushbu burilish natijasida O‘zbekiston nafaqat sobiq sovet respublikalari oldida an’anaviy iste’molchilar va yetkazib beruvchilarni yo‘qotdi, balki Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlari moliya tizimidan ajralib qoldi. Mamlakat iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi va asosan paxtachilikka yo‘naltirilgan edi. Bundan tashqari, bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yuzaga kelgan edi.

Shunday vaziyatda mamlakat birinchi navbatda, iqtisodiyotni bo‘hrondan chiqarish vazifasini bajarishi zarur edi. Shuning bilan bir paytda mustaqil davlat sifatida o‘zining tashqi siyosatini ishlab chiqishi muhim edi. Bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish asosiy vazifa edi.

Mamlakat tashqi siyosatini ishlab chiqishda milliy manfaatlar ustuvor qilib belgilandi. Bu O‘zbekistonning 1990-yillarda yuzaga kelgan va shu kungacha davom etayotgan integratsiya jarayonlaridagi ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlarida o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi[26].

O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etishining asosi ochiq turdagi bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni vujudga keltirishdir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘plab integratsion jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, barcha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doimiy ravishda olib borilmoqda. Ayni chog‘da O‘zbekiston dunyoning 144 ta davlati bilan diplomatik munosabatlarga kirishgan. O‘zbekiston ko‘pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki va shu kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a’zo hisoblanadi.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib, Birinchi Prezident I. Karimov shunday degan edi: “Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang‘ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan

[26] Каримов И.А. «Ўзбекистон буюк келажак сари». -Т.: «Ўзбекистон», 1998. 266-267-б.

sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiya–lashuvi serqirra jarayondir”[27].

Jahon iqtisodiyotida aloqalarining asoslarini muayyan mintaqaviy guruhlar yoki ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsion salohiyati tashkil qiladi.

“Salohiyat” atamasi biror subyektda yashirin, o‘zini hali to‘liq namoyon kilmagan imkoniyatlar mavjudligini bildiradi, bu imkoniyatlar obyektiv yoki subyektiv shart-sharoitlarga muvofiq ularning faoliyat sohasida o‘zini namoyon etmagan bo‘ladi[28]. Iqtisodiy nazariyada ham salohiyat har qanday sohadagi mavjud vositalar, imkoniyatlar to‘plami sifatida ta’riflanadi, ammo shu bilan birga “salohiyatli” atamasi “amalga oshirish qobiliyatiga ega” degan ma’noni anglatadi, uning mavjudligi va foydalanilishi ehtimoliy omil hisoblanadi[29].

“Mamlakatning integratsion salohiyati deganda, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning subyektlari (integratsiyalashayotgan mamlakatlar) amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish va iqtisodiy hamkorlik predmeti bo‘lgan tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va odamlarning aqliy qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan majmuini tushunmoq zarur. O‘zbekistonning integratsion aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan omillarning (integratsion salohiyatining) quyidagi ustunliklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- O‘zbekistonning Yevroosiyo mintaqasida qulay geostrategik joylashuvi;
- yer, mineral-xomashyo va o‘simliklarning katta zaxirasi;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan tuproq-iqlim sharoitlari;
- tashqi savdoda eksport salohiyati;

[27] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997, 299-бет.
[28] Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов У.Н. Микроиқтисодиёт. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2000 й. – 21 б.
[29] Большой энциклопедический словарь. В 2-х т. / Гл.ред. А.М.Прохоров. –М.: Советская энциклопедия, 1991. Т.2.

- davlatlararo koopresiyalashuv va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;
- odamlar salohiyati, nisbatan arzon va tez ko‘payib borayotgan mehnat resurslarining, (jahon miqyosida olib qaraganda) mavjudligi;
- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda, MDHning boshqa mintaqalari bilan bog‘lab turadigan, avtomobil va temir yo‘l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;
- respublikada chet el kapitalini investitsiya qilish va o‘zaro foydali tashqi iqtisodiy integratsion hamkorlikni kafolatlaydigan barqaror siyosatning mavjudligi”[30].

Mamlakatlar o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy, geosiyosiy yoki geoiqtisodiy manfaatlariga asoslanib birlashadilar. Ushbu manfaatlarni amalga oshirish uchun turli xil integratsiya guruhlari yaratiladi. Yuqoridagi boblarda ta’kidlab o‘tganimizdek, zamonaviy jahon iqtisodiyotida dunyodagi barcha davlatlar u yoki bu darajada integratsion jarayonda ishtirok etmoqdalar. Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarning iqtisodiyoti ochiq iqtisodiyot hisoblanadi. Shuning uchun O‘zbekiston ham boshqa mamlakatlar qatori integratsion jarayonlarda faol bo‘lmoqda va ochiq, pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini ko‘p vektorli yoki ko‘p qirrali asosda olib bormoqda. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv bo‘yicha ko‘p darajali tizimga amal qilmoqda. Ko‘p darajali tizim quyidagilarda ifodalanadi:

(1) global;
(2) transkontinental;
(3) mintaqalararo;
(4) mintaqaviy;
(5) mahalliy.

Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari mavjud bo‘ladi.

[30] Назарова Г.Ғ., Ахмедов И.А., Хамидов О.Б., Иминов З.М. Халқаро иқтисодий ташкилотлар ТДИУ, 2011 й. 187-188 бетлар.

O‘zbekiston yuqoridagi barcha integratsiya darajalarda qatnashgani holda 2016-yildan keyingi siyosatda, eng avvalo, qo‘shni respublikalar bilan integratsiyalashuvga ko‘proq e’tibor berib kelmoqda va buni bosh ustuvor vazifa qilib belgilagan. 2023-yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasida:

- O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- oliy va yuqori darajada o‘zaro tashriflarni tashkil etish;
- “Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;
- yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni birgalikda hal etish;
- savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi hamda hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;
- mintaqaning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish hamda transport infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari (shu jumladan, chegara hududlari) o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish ko‘zda tutilgan[31].

O‘zbekistonning turli darajadagi integratsion jarayonlarda ishtirokining bir yo‘nalishini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin:

[31] https://strategy.uz/index.php?news=1278

12-jadval

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalardagi ishtiroki

Integratsion birlashma	Tashkil etilgan va O‘zbekis-ton a‘zo bo‘lgan vaqti		Tarkibi	Maqsadi va vazifalari
MDH	1991	1991	Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya*, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmanisgon, O‘zbekiston, Ukraina*	Hamdo‘stlik doirasida erkin savdo hududini yaratish, savdo-iqgisodiy hamkorlik samaradorligini oshirish, tovarlarning erkin harakatlanishini ta’minlash
Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT)	1964	1992	Afg‘oniston, Eron, Pokiston, Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Turkmanistn, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston	O‘zaro savdoni kengaytirish; barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoit yaratish; savdo to‘siqlarini bekor qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat; xalqaro forumlarda umumiy yondashuv orqali jahon savdosi hajmini oshirish
Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi (MOH) 2004-yildan YeOIH bilan birlashti-rilgan	1994	1994	Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, O‘zbekiston	Suv, yoqilg‘i resurslari va suv xo‘jaligi obyektlaridan barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda oqilona foydalanish; mintaqaning umumiy transport infratuzilmasini yaratish; ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish;

8-jadvalning davomi

Integratsion birlashma	**Tashkil etilgan va O‘zbekis-ton a‘zo bo‘lgan vaqti**		**Tarkibi**	**Maqsadi va vazifalari**
				gumanitar sohada o‘zaro hamkorlik va ekologik muammolarni birgalikda hal etish; xavfsizlikni ta’minlash masalalarida hamkorlikni faollashtirish.
Shanxay Hamkorlik tashkiloti (ShHT)	1996	2001	Rossiya, Xitoy, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, O‘zbekiston	Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash. Yagona iqtisodiy bozorni yaratish.
Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH)	2000	2005	Rossiya, Belarus, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, O‘zbekiston*	Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish. A’zo mamlakatlarda iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni kelishib olish; yagona transport tarkibi va transport bozorini yaratish; yagona bojxona tarifini joriy etish; milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish

Manba: A. Vaxabov va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: Baktriya press. 562-563 betlar.

*- ayni paytda a’zo hisoblanmaydi

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-son Farmonida mamlakatimizni rivojlantirish yuzasidan juda ulkan vazifalar o‘rtaga tashlangan. Jumladan, YaIM ikki barobarga ko‘paytirish, O‘zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishini ta’minlash, 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional

islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, Respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish, ksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlat-lariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish, dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish, xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilik tashqi siyosati olib borilishini izchil davom ettirish, hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish, barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish[32].

Ko‘rinib turibdiki, rejalar ulkan, niyatlar ulug‘, biroq har bir qabul qilingan qaror, ishlab chiqilgan strategiya to‘liq bajarilsa, mukammal amalga oshirilsa shundagina biz maqsadga erishamiz, aholi farovonligini o‘sishini ta’minlay olamiz. Strategiyada qo‘yilgan vazifalar bevosita mamlakatni globallashgan dunyoda integratsiyalashishni chuqurlashtirishni talab etadi. Shuning uchun amalda jiddiy o‘zgarishlar qilishimiz shart. Buning uchun esa ochiq, pragmatik siyosat yuritishimiz,

[32] https://lex.uz/ru/docs/6600413

bozor munosabatlariga to‘liq o‘tishimiz, monopoliyadan holi iqtisodiyotni barpo etishimiz, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga to‘la erkinlik berishimiz, mulkning daxlsizligini ta’minlashimiz, xususiy mulk shakliga ustuvorlik berishimiz, adolatli qonunlar va ularning ustuvorligini ta’minlashimiz, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha aniq ishlarni amalga oshirishimiz, korrupsiyani tugatish bo‘yicha aniq ishlarni bajarishimiz, boshqaruv strukturasini ixchamlashtirishimiz va uni halol, professional, prinsipli kadrlar bilan butlashimiz, kadrlar masalasida meritokratiya tamoyillarini to‘liq joriy etishimiz, inson haq-huquqlariga rioya etishni to‘la ta’minlashimiz juda ham zarur hisoblanadi. Shundagina mamlakatning jozibadorligi oshadi va natijada keng miqyosda investitsiyalar oqib keladi, xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuv kuchayadi. O‘zbekistonning tabiiy resurslar va boshqa moddiy-ashyoviy, inson resurslari bo‘yicha salohiyati yuqori, ammo ulardan to‘liq, samarali foydalanishimiz, safarbar qilishimiz darkor. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zolikka kirish bo‘yicha hozirgi kunda olib borayotgan sezilarli qadamlari ham dunyoga integratsiyalashuvimiz darajasini oshiradi.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotlardagi ishtirokida yangi davlatlarning paydo bo‘layotganligi ijobiy holatdir. Jumladan, O‘zbekiston turkiy dunyoga birlashish maqsadida Turkiy tilli davlatlar Kengashiga (hozirda-Turkiy davlatlar tashkiloti) rasman 2019-yilning sentabr oyida a’zo bo‘lib kirdi. Ushbu tashkilot hali rivojlanish bosqichida va faoliyat natijalari ko‘rinmaydi, ammo uning oldiga qo‘ygan maqsadlari amalda joriy etilsa barcha ishtirokchilar uchun manfaatli bo‘ladi. O‘zbekiston eng avvalo ushbu tashkilotga a’zoligi iqtisodiyotga yo‘naltirilgan. Bunda transport koridorlarini tashkil etish ahamiyatli hisoblanadi, transport-logistika yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lash uchun yangi istiqbollar yaratiladi, hududlararo savdoni rivojlantirish bilan birga mamlakatning yangi bozorlarga chiqishi, transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bu mamlakatimizning ko‘p vektorli tashqi siyosatiga, ya’ni mintaqamizda qandaydir yirik ishtirokchiga qaram bo‘lmaslik uchun muvozanatli tashqi

siyosat yuritish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga mos keladi. Biz an’anaviy bo‘lib qolgan Rossiya va Xitoydan tashqari boshqa salohiyatli davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishimiz zamon talabidir.

O‘zbekiston “Markaziy Osiyo + Rossiya Federatsiyasi”, “Markaziy Osiyo + Xitoy Xalq Respublikasi”, “S5 + 1” (AQSH), “Markaziy Osiyo + Yaponiya”, “Markaziy Osiyo + Koreya Respublikasi”, “Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi” hamkorligi doirasida mintaqaviy muloqotning turli formatlarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan ham ishonchli va do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi. Arab dunyosi davlatlari, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar mamlakatimizga istiqbolli investitsiya bozori sifatida qiziqish bildirmoqda. Prezidentning 2019-yildagi BAAga tashrifi davomida qiymati 10 milliard dollar bo‘lgan 10 ta muhim va 11 ta investitsion hujjat imzolangan edi. Shuningdek, 2023-yilda O‘zbekiston Misr bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan bir qator hujjatlarni imzoladi, bu esa Afrika davlatlariga chiqishimiz uchun istiqbolli loyiha hisoblanadi.

O‘zbekiston tashqi siyosatida Afg‘oniston doimo muhim hisoblangan. Afg‘onistonda tom ma’noda tinchlik o‘rnatilishidan, u yerda inklyuziv hukumat tuzilishidan, millatlararo totuvlik o‘rnatilishidan barcha qatori, ayniqsa O‘zbekiston manfaatdordir. Shuning uchun O‘zbekiston Afg‘onistondagi tinchlik jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ilgari surishda faol ishtirok etmoqda, shuningdek, Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan ham iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash yo‘nalishida ish olib bormoqda. 2023-yilning 29-30 sentabr kunlari O‘zbekiston Prezidentining Germaniyaga tashrifi chog‘ida bir qator mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sohalar bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi. Jumladan, investitsiyaviy, innovatsiyaviy, texnologik aloqalar va

almashinuvni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, transport-kommunikatsiyaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, “yashil” kun tartibini ilgari surish, Germaniya standartlariga muvofiq turli tarmoqlar uchun mutaxassislarni tayyorlash, Afg‘oniston aholisiga gumanitar yordam ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishga tomonlar ahdlashdilar.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvi yo‘nalishida ShHT doirasida hamkorlik asosiy o‘rinni egallamoqda. Keyingi yillarda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining qariyb 50 foizi ShHT mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ko‘p vektorli transport-kommunikatsiya yo‘laklarini barpo etish loyihalarini ilgari surish va uni amalga oshirish doimo O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Bunda ShHT doirasida hamkorlik muhim sanaladi. ShHTga a’zo davlatlarni bog‘-lovchi janubiy yo‘laklar Markaziy Osiyoni Yevroosiyodagi trans-kontinental transport yo‘laklari chorrahasiga aylantiradi. Bu yo‘nalishda Mozori Sharif-Kobul-Peshovar va Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘llari qurilishi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim loyiha hisoblanadi. Yangi temir yo‘l O‘zbekistonni Kaspiy dengizidagi Turkmaniston xalqaro dengiz porti bilan bog‘laydigan temir yo‘l tarmog‘iga ulanadi va keyinchalik Ozarbayjonning Boku porti orqali Kavkaz, Turkiya va Qora dengizga yoki Shimoliy-Janubiy xalqaro transport koridori orqali Eron, Hindiston, Fors ko‘rfaziga chiqadi.

O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun ham ichki va ham tashqi siyosatini oqilona olib borishi lozim. Ayni paytda integratsiyalashuv jarayonida uni diversifikatsiya qilinishi muhimdir va shuning bilan birgalikda asosiy e’tibor milliy manfaatlar ustunligiga, o‘zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikka qaratilishi lozim.

Tayanch iboralar: MOH, MOHT, IHT, KXShT, salohiyat.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo davlatlariga umumiy tavsif bering.
2. Nima uchun Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi nisbatan samarali amalga oshirilmayapti?
3. Integratsion salohiyat deganda nimani tushunasiz?
4. O‘zbekiston qaysi xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotlarda faol ishtirok etmoqda va qaysi yo‘nalishlarda?
5. O‘zbekistonni 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasida tashqi iqtisodiy siyosat yo‘nalishida qanday vazifalar qo‘yilgan?
6. O‘zbekistonni iqtisodiyotini rivojlantirish va dunyodagi integratsion jarayonlarda ishtirokini kuchaytirish uchun asosiy qanday ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaysiz?
7. O‘zbekistonning ShHT doirasidagi faoliyatiga baho bering.

IX BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBALLASHUV JARAYONLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

9.1. Globalizatsiyaning mohiyati va uning nazariy asoslari.
9.2. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari.
9.3. Global muammolar va ularni hal etish yo‘nalishlari.

9.1. Globalizatsiyaning mohiyati va uning nazariy asoslari

Bugungi kunda turli davlatlar, ularning kompaniyalari va fuqarolari bir-biri bilan u yoki bu shaklda chambarchas bog‘langan. Nafaqat davlatning ichki va tashqi siyosati, balki mintaqaviy va xalqaro ishlar o‘rtasida ham chegaralar rivojlanmoqda. Mintaqaviy jarayonlarni ko‘rib chiqishda mintaqalashtirishga aniq ta’sir ko‘rsatadigan va aksincha, mintaqaviy jarayonlar ta’sir qiladigan globallashuv tushunchasi muhimdir.

"Globallashuv"atamasi o‘tgan asrning 80-yillaridan ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlardan biriga aylandi, ammo hozirgacha u to‘g‘risida umumiy qabul qilingan ta’rif mavjud emas. Globallashuv turli jabhalarda, oddiydan murakkabgacha bosqichda belgilanadi, uning umumiy tavsifi xalqaro tizimdagi aktyorlarning o‘zaro ta’sirini kuchayishi yagona global tarmoqning shakllanishiga olib kelishidir. Globalizatsiyaning mohiyatini ochishda, ayniqsa, iqtisodiyotdagi ma’nosini tavsiflashda bir qator u bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rib chiqish zarur. Bular baynalmilallashuv, institutsional, tashkiliy va boshqalardan iborat.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida rivojlangan tegishli ijtimoiy-siyosiy sharoitlar: sayyorada iqtisodiyotda yangi tartib o‘rnatish zarurligini belgilab bergan mustamlakachilik konsepsiyasining qulashi va sovuq urushning tugashi–ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizim o‘rtasidagi qarama-qarshilik bosqichi jahon jamiyatini birlashtirishga va dunyoni ajralmas tushuncha sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi.

1989-yilda Vashington konsensusi qabul qilindi, uning tamoyillari jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillari harakatini to‘liq

liberallashtirish, xususiylashtirish, davlat tomonidan tartibga solish va mulk huquqlarini birlashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tamoyillar, aslida, neoliberal modelni ifodalaydi va milliy davlatlarning iqtisodiy rivojlanish vektorini aniqlashda ularning funksiyalari va rolini izchil yo‘qotishiga olib keladi.

Kapital milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiy tizimiga bog‘laydigan eng muhim omillardan biridir. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab global moliyaviy aloqalar o‘sib bordi va kredit, tadbirkorlik hamda boshqa kapital turlarini birlashtirgan kapitalning xalqaro migratsiyasi boshlandi, ular yuzlab milliard dollarni tashkil etib, yangi moliyaviy bozorlarning shakllanishiga olib keldi, bu yerda katta miqdordagi bo‘sh turgan moliyaviy resurslar foydali foydalanishni qidira boshladi. Shunday qilib, dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti jahon moliyaviy tarmog‘ining minglab turli xil moliya institutlarini o‘z ichiga olgan juda ko‘p sonli aloqalar bilan o‘raldi.

Baynalmilallashuv natijasi bo‘lgan yana bir jarayon bu jahon iqtisodiyotining transmilliylashuvidir. Transmilliylashtirish sanoat firmalari, banklar, xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning xalqaro faoliyatini kengaytirish, ularning alohida mamlakatlarning milliy chegaralaridan tashqariga chiqish jarayoni hisoblanadi. Transmilliylashtirish global biznes jarayonlarining institutsional jihatlariga, ya’ni butun dunyo bo‘ylab transmilliy korporatsiyalar (TMK) va banklar (TNB) faoliyatiga qaratilgan. TMKlar hajmi jihatidan ulkan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarini bog‘laydigan ishlab chiqarish va tarqatish tuzilmalariga yetib boradi. Jahon iqtisodiyotida jahon ishlab chiqarishining asosiy nisbatlarini, jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlarini rivojlantirishni belgilaydigan bir necha yuz yirik kompaniyalar ustunlik qiladi. Ba’zi TMKlarning salohiyati nafaqat kichik, balki o‘rta davlatlarning ham qobiliyati bilan taqqoslanadi.

Yuqoridagi jarayonlarning ketma-ketligi, ya’ni tashqi savdoni erkinlashtirish davrida boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun milliy iqtisodiyotning ochilishi, keyingi xalqarolashtirish yoki baynalmilallashtirish jarayoni ushbu o‘zaro ta’sir amalga

oshiriladi, uning asosiy o‘tkazgichlari TMK bo‘lib, tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat va bilimlarning yagona sayyoraviy bozorining shakllanishiga olib keladi. Globallashuv xalqarolashtirish jarayoni rivojlanishining natijasidir va uning eng yuqori bosqichini ifodalaydi.

"Global" tushunchasi (Lat. Globus-fransuzlardan shar, Global-keng qamrovli, universal). Bu atama birinchi marta Janubiy Amerikalik iqtisodchi Teoder Levitt (T. Levitt) tomonidan 1983-yilda "Bozorlarning globallashuvi" tadqiqotida bozorlarni birlashtirish jarayonini aks ettirish uchun kiritilgan deb ishoniladi (Harvard Business Review). Jahon iqtisodiyotining asosiy subyektlari sifatida davlatlar; transmilliy korporatsiyalar; xalqaro institutlar va tashkilotlar tan olingan. 1985-yilda amerikalik olim R.Robertson Globalizatsiya iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishini ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

“Dunyo bir xillik tomon harakat qilmoqda, shu jumladan, texnologiya jihatidan. Yangi iqtisodiy voqelik natijasida standartlashtirilgan iste’mol tovarlari uchun global bozorlar ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Ushbu yangi voqelikdan foydalanadigan korporatsiyalar ishlab chiqarish, tarqatish, marketing va menejmentdagi ulkan miqyosdagi iqtisodlardan foyda ko‘radi. Ushbu afzalliklarni arzonroq narxlarga aylantirish orqali ular hali ham dunyo qanday ishlashi haqidagi eski taxminlar changalida yashayotgan raqobatchilarni yo‘q qilishlari mumkin”[33].

Globallashuvni uzoq tarixiy jarayonning natijasi deb hisoblash mumkin, uning asosiy divigateli ilmiy-texnik taraqqiyotdir. Ishlab chiqarish va kapitalni xalqarolashtirishning to‘liq shakli sifatida TMKlarning moliyaviy-iqtisodiy ta’sirining o‘sishi, xalqaro savdoning rivojlanishi, davlatlararo migratsiya oqimining kuchayishi va xalqaro mehnat bozorini yaratilishi globalizatsiya elementlaridir.

[33] T. Levitt. The Globalization of Markets. https://hbr.org/1983/05/the-globalization-of-markets

Jahon iqtisodiy munosabatlarining globallashuvi – bu alohida korxonalarga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p darajali hodisa; tovar, moliya va valuta bozorlari hamda mehnat bozorlari; mintaqaviy, milliy iqtisodiyot. Bozor munosabatlari sharoitida mikrodaraja jahon iqtisodiy munosabatlari globallashuvining tarkibiy asosini tashkil etadi, chunki alohida korxonalar, firmalar, tadbirkorlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning belgilovchi subyektlari hisoblanadi[34].

Ko‘pgina adabiyotlarda globallashuvni belgilaydigan asosiy shartlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Ishlab chiqarish (ilmiy, texnik va texnologik):

- ishlab chiqarish ko‘lamining sezilarli o‘sishi;
- yangi texnologik jarayonlarni joriy etilishi;
- yangi avlod transport vositalaridan foydalanish, aloqa va ularni birlashtirilishi;
- ilmiy va intellektual almashinuv natijasida bilimlarga chuqur kirilishi;
- axborotni qayta ishlash, saqlash va yangilashdan foydalanishning ilg‘or texnologiyalarining joriy etilishi;

2. Tashkiliy:

- transmilliy kompaniyalar ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatning xalqaro shakli sifatida rivojlanishi;
- BMT, JST, Jahon banki, XVF va boshqa xalqaro bo‘lgan tashkilotlar rolining o‘sishi;

3. Iqtisodiy:

- ayrim sohalardagi barcha mamlakatlar uchun yagona standartlarning (texnologiya, moliya, standartlashtirish va ekologiya, madaniyat va ta’lim)joriy etilishi;
- makroiqtisodiyotda yagona mezonlarni qo‘llash siyosati (soliqlar, monopoliyaga qarshi siyosat, bandlik va boshqalar.);

[34] Мельянцев В. А. Современная глобализация и воздействие на экономически продвинутые и развивающиеся страны//Вестник Московского университета. Востоковедение. 2018. № 1.С.98–119.

- iqtisodiy savdoning turli shakllarini liberallashtirilishi (tovarlar va xizmatlar) va jahon savdosi erkinligini ta’minlash maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirishning boshqa shakllari;

4. Axborot:

- turli sohalarda (moliyaviy, sanoat, iqtisodiy, ilmiy-texnik) axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishning tubdan yangi tizimlarini joriy etilishi;
- global tarmoqlarni yaratish uchun nou-xaulardan foydalanish va moliyaviy hamda tovar bozorlarini birlashtirilishi;
- turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish, tijorat, ilmiy va texnik jarayonlarni boshqarishni markazlashtirish. Kompyuterlashtirish, plastik kartalarni joriy etish va tezkor moliyaviy operatsiyalardan faol foydalanish chegara va masofadan qat’i nazar operatsiyalar, o‘tkazmalar o‘tkazish imkonini beradi;

5. Siyosiy:

- G‘arb va Sharq o‘rtasidagi siyosiy farqlarni tekislanishi;
- fuqarolar, kapital, tovarlar va xizmatlarning harakatlanish erkinligini ta’minlaydigan chegaralarni bosqichma-bosqich yo‘q qilinishi;

6. Madaniy va ijtimoiy:

- turli madaniyat, hudud, millat va ma’naviy an’analarga ega odamlarning harakatchanligini oshishi;
- bozor iqtisodiyoti va erkin savdoni baholashning bir qismi sifatida yagona baholash tizimidan foydalanilishi;
- eng ko‘p ishlatiladigan aloqa, o‘rganish va madaniyatlararo uchun yagona tilni ajratilishi;
- masofaviy o‘qitish hamkorlik va tajriba almashish chegaralarini yanada kengroq o‘zgartirish imkonini berishi;
- "inson kapitali"ni ko‘paytirish ustidan davlat nazoratining zaiflashishi, mehnat resurslarini o‘qitishni liberallashtirish.

Globallashuvni umuman olganda yuqoridagilardan kelib chiqib, uchta guruhga ajratib, (1) iqtisodiy, (2) madaniy (ijtimoiy) va (3) siyosiy

jihatlarda ko‘rish mumkin. Iqtisodiy globallashuv milliy iqtisodiyotlarning global iqtisodiyotga o‘tishini, ya’ni ishlab chiqarish va bozorning xalqaro xarakterga ega bo‘lishini va moliyaviy oqimlarning mamlakatdan mamlakatga oqib o‘tishini anglatadi. Axborotni cheksiz tarqatish sharoitida madaniy (ijtimoiy) globallashuv millatlar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarning yumshatilishiga, shaxslar va ijtimoiy guruhlarning harakatchanligi oshishiga imkon beradi. Siyosiy globallashuvning ramzi Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT), Jahon banki, Xalqaro Valuta Jamg‘armasi (XVJ) va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) hamda boshqa shu kabi xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib borishida ifodalanadi. Globallashuv davlatlar va xalqaro tizimdagi boshqa nodavlat subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o‘zgartirdi. Bir tomondan, globallashuv xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochadi, boshqa tomondan, xalqaro raqobatni keltirib chiqaradi, ishtirokchilar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar tufayli xavfni (riskni) oshiradi. Globallashuvning asosiy sharti shundan iboratki, jamiyatlar o‘rtasidagi integratsiya darajasining ortib borishi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning aksariyat turlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Hech bir mamlakat va hatto eng rivojlangan davlat ham ayni damda iqtisodiy masalalarni milliy darajada tanho yecha olmaydi. Barcha davlatlar, birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar globallashuvga moslashish yo‘llarini topishga intildilar; ba’zilari JSTga a’zo bo‘lishni tanladilar, boshqalari yangi qoidalar ishlab chiqishga, boshqalari mintaqaviy guruh tuzishga harakat qildilar. Zamonaviy dunyoda davlatlar hamkorligi ikki tomonlama, submintaqaviy, mintaqaviy va transmintaqaviy darajada amalga oshirilishi mumkin. Ular orasida mintaqaviy integratsiya eng keng tarqalgan va samarali shakl hisoblanadi. Mintaqaviy integratsion birlashmalarning aksariyati iqtisodiy maqsadlarda tashkil etilgan. Ikki tomonlama yoki mintaqaviy iqtisodiy bitimlar integratsion hamkorlikning asosiy shakli bo‘lib, odatda, turli xil milliy siyosatni uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy integratsiyani ta’minlashga qaratiladi. Iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyotini birlashtirish jarayoniga to‘liq mos keladi, uning asosini tashkil etadi va globallashuvning o‘zi

xalqarolashtirishning yuqori bosqichidir, uni yanada rivojlantirish, juda uzoq vaqt davomida miqdoriy o‘zgarishlarni to‘plash sifatli sakrash natijasidir. Dunyo aksariyat transmilliy kompaniyalar uchun umumiy bozorga aylanib bormoqda va bundan tashqari, ko‘plab mintaqalar ularning faoliyati uchun ochiq.

Iqtisodiy globalizatsiyani kengroq tushunish uchun globalizatsiya va mintaqalashtirish, mintaqalashuv (regionalization), atamalarini tahlil etish talab etiladi.

Globallashuv va mintaqaviylik bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan va bir-birini kuchaytiradigan, bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir, bu esa iqtisodiy mintaqaviylik va iqtisodiy ko‘p tomonlama munosabatlar o‘rtasidagi keskinlikning oshishiga olib keladi[35].

Mintaqalashtirish – bu bitta davlat ichida makonni mintaqaviy-hududiy tuzilish jarayoni, shuningdek mintaqalarni xalqaro munosabatlarga davlatlararo darajada kiritish jarayoni. Mintaqalashtirish mintaqaviylik bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviylik – bu insoniyat jamoalari hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini hududiy tashkil etishning tabiiy, organik tamoyili hisoblanadi. Mintaqaviylik birgalikda yashaydigan etnik, irqiy va lingvistik guruhlarning ijtimoiy birligi kabi toifalarda tahlil qilinadi; ma’lum bir hududda ishlaydigan iqtisodiy va sanoat birliklarining iqtisodiy jihatdan bir-birini to‘ldirishi; madaniyat, din, tarixiy an’analar bilan bog‘liq umumiy qadriyatlarning uyg‘unligidir.

Globallashuv dunyoning turli qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishini nazarda tutadi va bunga nafaqat xalqaro munosabatlar tizimi, balki mintaqalashtirish orqali ham erishiladi. Mintaqalashtirish jarayoniga globallashuv sharoitida mintaqaviy o‘ziga xoslikni saqlash vositasi sifatida qarash mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, globalizatsiya va mintaqalashtirishning rivojlanish mantig‘i mos keladi, ularning farqini faqat miqyosda ko‘rish mumkin. Globallashuv xalqaro munosabatlar ishtirokchilari sonini ko‘paytiradi, davlatlar va mintaqalarning xalqaro

[35] Katzenstein P. J. Regionalism in Comparative Perspective // Cooperation and Conflict. 1996. Vol. 31. № 2. p. 123-159.

maydondagi sheriklari doirasini kengaytiradi. Globallashuvga mintaqalarning o‘zaro ta’siri natijasida erishish mumkin. Submilliy mintaqalarning xalqaro maydonga kirishi, ularning faoliyatini milliy chegaralardan tashqariga tarqalishi, davlatlarning tashqi siyosatini baynalmilallashuvi dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlar, o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirning kuchayishi jarayonlaridir. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirishni nazarda tutadigan murakkab o‘zaro bog‘liqlik tashqi siyosat sohasini kengaytirdi, ya’ni davlatlarning tashqi aloqalari hajmini oshirdi. Shunday qilib, davlatlar mintaqalari orqali globallashuv yanada rivojlandi. Mintaqalashtirish universal jarayondir. Hududlarning avtonomiyasi ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi, ular davlatni mustaqil ravishda ishlashga da’vo qiladigan alohida qismlarga ajratish, shuningdek, jamiyat taraqqiyotida mintaqalarning roli ortib borishi bilan tavsiflanadi. Integratsiya va mintaqalashtirish hozirgi sharoitda rivojlanishning tabiiy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi, ular bir butunga ega bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va muvozanatlashtiradi hamda globallashuvni chuqurlashtiradi. Yangi asrimizda axborot texnologiyalarining rivojlanishi mintaqalashtirish ijtimoiy makonini tashkil etish tamoyillarini o‘zgarishiga olib keldi va "tarmoq zanjirini" paydo qilib hududlar ierarxiyasini almashtirdi.

Mintaqalashtirish, mintaqaviylik bilan bog‘liq yana bir atama transmintaqalashtirishdir. XXI asrning boshlarida paydo bo‘lgan va hozirgi vaqtda rivojlanishda davom etayotgan tendensiyalardan biri bu transmintaqalashtirish – bu alohida davlatlarni ham, mintaqaviy birlashmalarni ham o‘zaro ta’sirlar orbitasiga tortadigan yirik xalqaro mintaqalararo, muayyan ma’noda institutsional klasterlarning shakllanishidir. Transmilliy oqimlarning ko‘payishi natijasida dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini mustahkamlaydigan globallashuv transmintaqaviylikni ko‘paytirish va chuqurlashtirish imkoniyatini rivojlantirdi.

Globallashuv atamasini iqtisodiy jihatdan ta’riflaganimizda yana ikkita ma’noni keltirish mumkin:

(1) bu hodisa sifatida dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlari o‘rtasida moliya, savdo va kommunikatsiyalar sohasida o‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotganini anglatadi;

(2) iqtisodiy rivojlanish nazariyasi sifatida uning asosiy ko‘rinishi shundaki, dunyoning turli mintaqalari o‘rtasida integratsiyaning yuqori darajasi sodir bo‘lmoqda va bu integratsiya iqtisodiy o‘sish hamda ijtimoiy ko‘rsatkichlarga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kaliforniya universiteti sotsiologiya professori M. Kastells global–lashuv tushunchasini "yangi kapitalistik iqtisodiyot" sifatida berdi va globallashuvning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ta’kidladi: axborot, bilim va axborot texnologiyalari mahsuldorlik o‘sishining asosiy sabablari hisoblanadi. Bugungi iqtisodiyot, qoida tariqasida, tarmoq zanjiri orqali tashkil etilgan: menejment, ishlab chiqarish va tarqatishning tarmoq tuzilishidir va uning tabiati globaldir.

9.2. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari

Globallashuvning ijobiy ahamiyati yuqori bo‘lib insoniyatning imkoniyatlari ko‘p marotaba o‘sib borayotganligi, uning hayotiy faoliyatini ko‘p jihatlari to‘liq hisobga olinganligi, jahon iqtisodiyotining globallashuvi global muammolarni hal qilish uchun yaxshi asos yaratayotganligidir.

Globallashuvning ijobiy foydalari sifatida yana quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

(1) globallashuv ixtisoslashuv va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishiga olib keladi. Bu holatda mablag‘lar va resurslar eng oqilona taqsimlanadi, bu o‘rtacha turmush darajasining oshishiga va mamlakat aholisining hayot istiqbollarini kengayishiga ta’sir qiladi;

(2) globallashuv jarayonlarining muhim afzalligi ishlab chiqarish miqyosida xarajatlarning kamayishi bo‘lib, bu umuman xarajatlarning pasayishiga va tegishlicha narxlarning pasayishiga hamda shu sababli, barqaror iqtisodiy o‘sishga olib kelishi mumkin;

(3) globallashuvning afzalliklari, shuningdek, barcha tomonlarni qoniqtiradigan o‘zaro manfaatli asoslarda erkin savdoning afzalliklari bilan bog‘liq;

(4) globallashuv raqobatning kuchayishi, yangi texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ularni mamlakatlar orasida ommalashtirishni rag‘batlantiradi. Uning doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘sish sur’ati jahon savdosining o‘sish sur’atlaridan oshib ketdi, qaysiki bu sanoat texnologiyalari tarqalishining asosiy omillaridan biridir. Globallashuvning afzalliklari rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or ilmiy, texnik, texnologik va malaka darajasidan boshqa mamlakatlarda tegishli sohalarda foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy foyda bilan belgilanadi, bunday hollarda zamonaviy yechimlarni joriy etish qisqa vaqt ichida va ancha past narxlarda amalga oshiriladi;

(5) globallashuv jarayonlari xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bu yerda gap alohida mamlakat yoki korporatsiya kuchi ostida bo‘lmagan yangi raqobatbardosh sohalar haqidadir. Ichki raqobatchilarga cheksiz rivojlangan tashqi raqobatchilar qo‘shiladi. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv asosan iste’molchilar uchun foydalidir, chunki raqobat ularga o‘zlari yoqtirgan narsani tanlash imkoniyatini beradi va sifatli mahsulotlar narxini pasaytiradi;

(6) globallashuv dunyo miqyosida ishlab chiqarish jarayonini ratsionalizatsiya qilish va ilg‘or texnologiyalarni ommaga joriy etish natijasida, shuningdek, dunyo miqyosida yangi texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etish foydasiga raqobatbardosh bosim natijasida mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi;

(7) globallashuv davlatlarga ko‘proq miqdordagi moliyaviy resurslarni safarbar qilish imkoniyatini beradi, chunki investorlar ko‘payib borayotgan bozorlarda yanada kengroq moliyaviy vositalardan foydalanadilar;

(8) jahon iqtisodiyotining globallashuvi insoniyatning umumbashariy global muammolarini, asosan ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi, bu inson sa’y-harakatlarining birlashishi va

mamlakatlarning turli sohalardagi harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq.

Dunyodagi globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bir talay bo‘lishiga qaramasdan, unga bo‘lgan munosabat turlichadir. Olimlar, ziyolilar va umuman mamlakatlar aholisining ayrim guruhlari o‘rtasida globalizatsiyaga nisbatan salbiy qarashlar mavjud. Asosan globallashuv rivojlangan davlatlar tomonidan yaxshi kutib olingan bir paytda rivojlanayotgan davlatlarda xavotirlar kuzatiladi. Bu globallashuvning afzalliklari asimmetrik ravishda taqsimlanganligi natijasidir. Shubhasiz, globallashuv imkoniyatlar chegaralarini kengaytiradi, ammo, afsuski, uning foydalari butun dunyo hamjamiyati uchun bir xil emas va uning xarajatlari notekis taqsimlangan.

Globallashuvning zamonaviy jarayonlari asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida sodir bo‘ladi va ikkinchi o‘rinda rivojlanayotgan mamlakatlarga ta’sir qiladi. Globallashuv birinchi guruh davlatlarining pozitsiyalarini mustahkamlaydi, ularga qo‘shimcha imtiyozlar beradi. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro mehnat taqsimoti sharoitida globallashuv jarayonlarining kengayishi globallashuv subyektlariga emas, balki obyektlarga aylanib borayotgan kam rivojlangan mamlakatlarning hozirgi o‘rnini to‘xtatish bilan tahdid qilmoqda.

Globallashuvning alohida davlatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri darajasi ushbu davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga bog‘liq. Globallashuv jarayonida boyliklarning teng taqsimlanmaganligi mintaqaviy va milliy darajada turli mojarolar xavfini tug‘diradi. Tez rivojlanayotgan mamlakatlar boy mamlakatlar ro‘yxatiga kiritilgani holda kambag‘al davlatlar ularning ortidan ancha orqaga tushib boradi. Globallashuv afzalliklarining asimmetrik taqsimlanishini hisobga olgan holda, ma’lum bir mamlakatda globallashuvning salbiy oqibatlari asosan, ushbu davlatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga bog‘liq bo‘ladi. Jahon globallashuvi sharoitida ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan markazdan qochuvchi kuchlarning salbiy ta’sirini namoyon etishi mumkin, bu mamlakat ichidagi an’anaviy munosabatlarning uzilishi, kam yoki raqobatbardosh bo‘lmagan tarmoqlarning tanazzulga uchrashi, o‘tkir

ijtimoiy muammolarning kuchayishi mumkin. Globallashuvning og‘riqli oqibatlarini jahondagi past rivojlangan mamlakatlar boshidan kechirishi mumkin. Ushbu mamlakatlarning aksariyati xalqarolashtirishda xomashyo yetkazib beruvchilar va ko‘p mehnat talab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar sifatida ishtirok etib, ular rivojlangan kuchlarga har tomonlama bog‘liq va past daromadlarga ega, shuningdek jahon bozorlari konyunkturasiga bog‘liq.

Globallashuvning salbiy oqibatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- past malakali ishchilarning turmush darajasini pasayishi;
- rivojlangan mamlakatlar bozorlarida ishsizlikning o‘sishi.

Ushbu tahdid mehnat harakatchanligi bilan bog‘liqdir. Global xarakterga ega bo‘lgan ommaviy migratsiya dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirishning muhim manbaiga aylanmoqda. Barqaror-sizlantiruvchi omillar bandlikning yangi shakllari va mamlakatlar mehnat bozorining globallashuvi bo‘lishi mumkin. Tashqaridan nisbatan arzon ishchi kuchi oqimi rivojlangan davlatlarning mehnat bozorida raqobatni kuchaytira boshladi, bu esa millatlararo munosabatlarning murakkablashishiga va ushbu mamlakatlarda millatchilikning keskinlashishiga olib keldi. Mehnatning erkin harakatlanishini salbiy oqibatlari uzoq vaqtdan beri potensial xavf sifatida tan olingan va hozirda ko‘plab mamlakatlarda bu real voqelik sifatida tan olingan. Shu sababli, deyarli barcha mamlakatlar ishchilarning erkin harakatlanishi ustidan nazoratning muayyan shakllarini joriy qildilar. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, tayyor va malakali ishchi kuchi eng katta harakatchanlik bilan ajralib turadi va kerakli bozor joyini tezda topish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Globallashuv jarayoni sharoitida aksariyat mamlakatlar bilimdon mutaxassislar va yuqori malakali ishchilarni ularga viza berish va o‘z bozorida ishlashga ruxsat berish orqali jalb qilishga harakat qilishadi. Mamlakatlararo mehnat oqimining paydo bo‘lishi unumdorlikning o‘sishiga erishishga imkon beradi, chunki butun dunyo bo‘ylab ishchilarni taqsimlashda eng maqbul yo‘l topiladi.

- haddan tashqari sanoatlashtirishning global iqlimga salbiy ta’siri;

- boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutning, shuningdek, aholi toifalari orasida daromadlar bo‘yicha tafovutlarning katta bo‘lishi;
- alohida mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosati monopollashgan TMKlarga bevosita bog‘liq bo‘lishi. Birinchi o‘ringa chiqqan transmilliy kompaniyalar o‘z manfaatlarini davlatdan ustun qo‘yadilar, buning natijasida milliy hukumatlarning roli zaiflashadi va boshqaruv funksiyalarining bir qismi turli tashkilot va uyushmalarga o‘tadi;
- rivojlangan mamlakatlardan texnologik rivojlanish jihatidan ortda qolishning chuqurlashuvi;
- jamiyatda tabaqalanishning o‘sishi va uning konsolidatsiyasi, ijtimoiy guruhlarning parchalanishini boshlanishi, odamlar o‘rtasidagi an’anaviy aloqalarning uzilishini boshlanishi, shuningdek, ma’lum bir jamoaga mansub odamlarning, ma’lum bir professional yoki etnik guruhga mansublik hissining yo‘qolishi;
- globallashuvdan foyda va imtiyozlarning notekis taqsimlanishi nafaqat mamlakatlar bo‘ylab, balki alohida tarmoqlar sharoitida ham kuzatiladi. Tashqi savdo va eksport bilan bog‘liq tarmoqlardan foyda ko‘radigan tarmoqlar globallashuv jarayonlaridan sezilarli darajada yutqazadigan, bozor ochiqligi oshgani sababli raqobatdosh ustunliklarini yo‘qotadigan bir qator tarmoqlarga nisbatan ko‘proq kapital va yuqori malakali ishchi kuchini oladi;
- iqtisodiy qaramlikning kuchayishi va tashqi qarzlar bilan muammoli vaziyatning vujudga kelishi.

Shuningdek, globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri bu milliy iqtisodiyotlarning global darajadagi o‘zaro bog‘liqligi tufayli global beqarorlikdir. Natijada, bir mamlakatdagi mahalliy iqtisodiy tebranishlar yoki inqirozlar ham mintaqaviy, ham global oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Globallashuvning turli bosqichlarida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri turlicha bo‘lgan. Rivojlanishning hozirgi bosqichida turli mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jadal rivojlanmoqda. Bu davom etayotgan globallashuv

jarayonlarining ta’siri sezilarli darajada oshgani bilan bog‘liq. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy dunyoda jahon hamjamiyatining barcha subyektlari, davlatlar va ularning hukumatlaridan tortib, xususiy biznes va oxirgi iste’molchilargacha yaqin integratsiya va o‘zaro aloqasiz barqaror rivojlanishga erishish mumkin emas. Transport aloqalarining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot, institutsional to‘siqlar va cheklovlarning kamayishi va boshqa ko‘plab omillar globallashuvning kuchayishiga hamda xalqaro savdoning kuchayishiga yordam beradi.

9.3. Global muammolar va ularni hal etish yo‘nalishlari

Sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichida har qachongidan ham keskinroq muammolar paydo bo‘ldiki, ularni hal qilmasdan, insoniyatning iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida yanada oldinga siljishi mumkin emas. Iqtisodiyot umuminsoniy faoliyatning faqat bir qismi bo‘lishiga qaramasdan, yangi asrimizda tinchlikni, tabiiy muhitni va insoniy muhitni, shuningdek, axloqiy, diniy va falsafiy qadriyatlarni himoya qilish hamda saqlash muammolari ko‘p jihatdan uning dunyoda rivojlanishiga bog‘liq.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida alohida davlatlar chegarasidan tashqariga chiqadigan va jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan muammolar paydo bo‘ldi. Ushbu muammolar global maqomini oldi.

"Globallik" atamasi lotincha "globus", ya’ni Yer so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "fazoviy-sayyoraviy o‘lchov" degan ma’noni anglatadi. Bugungi kunda "global muammolar" tushunchasi universallik, har tomonlama qamrab olish ma’nosiga ega ya’ni nafaqat butun dunyoda sodir bo‘ladigan, balki istisnosiz barchaga tahdid soladigan narsa; global -yer yuzidagi hamma narsani, har tomondan qamrab olishni anglatadi, ya’ni bular inson hayoti, barcha tirik mavjudotlar, butun yashash muhitidir[36].

[36] Уэллс Герберт Джордж. История цивилизации / пер. с англ. В. Азова. – Москва: АСТ, 2022-стр. 60–66

Global muammolarning xavfi shundaki, ularni milliy darajada yo‘q qilib bo‘lmaydi va global tartibga solishni talab qiladi. Shunga ko‘ra, amalda amalga oshirish nihoyatda qiyin bo‘lgan masalalar bo‘yicha dunyo mamlakatlari iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotiga rivojlanish sur’atlarining sezilarli darajada sekinlashishi bilan tahdid soluvchi jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolarini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi va yaqin kelajakda hal qilishni talab qiladi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolari – bu alohida mamlakatlar chegaralaridan tashqariga chiqadigan va jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muammolardir.

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolarini mohiyati shundan iboratki, ular u yoki bu tarzda dunyoning mutlaqo istalgan mamlakatining iqtisodiy tizimiga va aholisiga ta’sir qiladi, global muammolarni esa faqat dunyoning barcha mamlakatlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan bartaraf etish mumkin.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu global muammolarning bir qator xarakterli xususiyatlari mavjudligida o‘zini namoyon qiladi. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolarini asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

(1) ular global xarakterga ega va sayyoramizning butun aholisining kelajagi uchun muhimdir;

(2) shoshilinch tarzda yechimga ehtiyoj bor;

(3) faqat butun dunyo hamjamiyatining umumiy sa’y-harakatlari tufayli bartaraf qilinishi mumkin;

(4) jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli regressiya bilan tahdid qiladi;

(5) nazorat qilish qiyin bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va texnik omillar tufayli yuzaga keladi;

(6) ular tabiatan murakkab bo‘lib, jahon iqtisodiyotining ko‘plab global muammolarining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Olimlar tomonidan global muammolarni o‘rganish jarayonida ular tomonidan turlicha tasniflashlar, guruhlashtirishlar amalga oshirilgan.

Keng tarqalgan tasniflagichga ko‘ra global muammolar uch guruhga bo‘linadi:

(1) insoniyatning asosiy ijtimoiy hamjamiyatlari bilan bog‘liq muammolar (jahon urushi tahdidi, shu jumladan, termoyadroviy urush, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovut va boshqalar);

(2) inson va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq muammolar (ekologik, energiya va oziq-ovqat, kosmik tadqiqotlar va boshqalar);

(3) inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar (kasalliklarni yo‘q qilish, savodsizlikni tugatish va boshqalar)[37].

Keyingi tasniflashlar bo‘yicha jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolarini quyidagi turlari mavjud:

1. "Jamiyat-jamiyat" (intersotsial) munosabatlardan, ya’ni ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, davlatlar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar, masalan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutni oshirish muammosi, global iqtisodiy muammolar, mojarolar.

2. "Jamiyat-tabiat" munosabatlaridan kelib chiqadigan muammolar. Bunga jamiyatning tabiatga munosabatini uyg‘unlashtirish muammolari kiradi, masalan, tabiiy resurslarning kamayishi muammosi, ekologik muammolar.

3. "Inson-jamiyat" munosabatlaridan kelib chiqadigan muammolar, insonning turli rivojlanishi va yaxshi kelajak uchun sharoitlarni ta’minlash masalalariga ta’sir qiladi, masalan, epidemik kasalliklarni, shu jumladan, koronavirusni yoki boshqa kasalliklarni yo‘q qilish muammosi.

[37] Герман Р. Э., Бесленеев М. С. Глобальные проблемы современности: курс лекций/ Карачаевск: Карачаево-Черкесский гос. ун-т им. У. Д. Алиева, 2016. стр.15.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolari nafaqat turlari, balki ierarxiyasi bilan ham farqlanadi. Eng dolzarb muammolar ro‘yxati doimiy emas va muntazam ravishda o‘zgarib turadi. Masalan, butunjahon moliyaviy bo‘hroni oldinroq eng keskin muammo bo‘lgani holda, 2019-yilda global iqtisodiy mojarolar Xitoy va AQSH o‘rtasidagi savdo urushi bo‘ldi, hozirda esa Rossiya-Ukraina urush mojarosi jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Demak, jahon iqtisodiyotining global muammolari – bu butun dunyoga taalluqli bo‘lgan va dunyo jamiyatining mutlaqo barcha a’zolarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan hal qilishni talab qiladigan muammolardir. Ular o‘zaro bog‘liq va inson hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarning eng muhimlari quyidagilardir:

- qashshoqlik va qoloqlikni yengish muammosi;
- tinchlik va demilitarizatsiya muammosi;
- oziq-ovqat muammosi;
- tabiiy resurslar muammosi;
- ekologik muammo;
- demografik muammo;
- inson taraqqiyoti muammosi.

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolari masalasi tubdan yangi emas. 1960-yillarda jahon ilmiy hamjamiyati vakillari jahon iqtisodiyotidagi global jarayonlarni tahlil qilib, ularning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlari haqida ogohlantirganlar. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolarini tahlil qilishda bir nechta yondashuvlar shakllangan. Futuristik yondashuv vakillari global muammolar jiddiy xavf tug‘dirishini inkor etmaganlar, lekin umuman olganda, yanada faol iqtisodiy rivojlanishni bashorat qilishgan. Pessimistik yondashuv vakillari insonning tez o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga qodir emasligiga ishora qilib, global muammolarni hal qilish imkoniyatini rad etishgan. BMT ekspertlari guruhi va Rim klubi iqtisodchilari esa global muammolar oqibatlarini qisman yumshatish bilan o‘rtacha iqtisodiy o‘sishni bashorat qilishgan.

Rus olimi P.K. Levin zamonaviy global muammolarni quyidagi turlarga bo‘ladi:

1. Cheklangan resurslar muammolari:

1.1. Global energiya balansi muammosi.

1.2. Global suv muammosi.

1.3. Iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar.

1.4. Inson resurslari muammosi: demografiya va migratsiya.

2. Davlatlarning notekis iqtisodiy rivojlanishi muammolari:

2.1. Global giyohvandlik muammosi.

2.2. Yadro qurolini tarqatmaslik rejimi.

2.3. Terrorizmning global muammosi.[38]

Ta’kidlash joizki, har bir global muammo turini yana bir qancha guruhlarga ajratish mumkin. Umuman insoniyat oldidagi hozirgi global muammolarni quyidagicha ajratsak ham mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

- iqlim o‘zgarishi;
- suvning ifloslanishi;
- inson huquqlarining buzilishi;
- gender notenglik;
- global sog‘liq muammolari;
- atrof-muhitning ifloslanishi;
- qashshoqlik va ochlik;
- migratsiya;
- qurol yarog‘ va urushlar;
- narkotika va odam savdosi;
- ekstremizm va terrorizm.

Tipologiyalarda ajratishda global muammolarning birini boshqasidan ko‘ra muhimroq sanash mumkin emas. Har bir muammoning o‘zini strukturasi mavjud va yuqorida ta’kidlaganimizdek, ular bir-biri bilan bog‘langan.

Jahon iqtisodiyotining global muammolarini o‘rganishda barqaror rivojlanish konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu konsepsiya birinchi

[38] Левин П. К. Проблема долговой экономики как глобальная проблема современности // Современные тенденции в экономике и управлении: новый взгляд. – 2010. – № 2. – стр. 31–36.

marta 1987-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ta’kidlangan bo‘lib, unda jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim muammo insoniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash ekanligi aytilgan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi davlatlar va ularning fuqarolarining hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish mas’uliyatini nazarda tutadi. Bunga uchta asosiy yo‘nalishdagi ishlar natijasida erishiladi:

(1)iqtisodiy;

(2)ekologik;

(3) ijtimoiy.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqishda nafaqat moliyaviy foyda, balki ekologik va ijtimoiy oqibatlarni ham hisobga olish kerak. Salbiy ekologik oqibatlarga e’tibor bermaslik atrof-muhitga katta zarar yetkazishi mumkinligi bilan asoslanadi, bu esa dunyo aholisi uchun ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. 1992-yilda ushbu konsepsiya BMTga a’zo davlatlar tomonidan Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan konferensiyada qabul qilingan.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida global muammolarning paydo bo‘lishiga ko‘plab omillar yordam berdi. Biroq, ijtimoiy taraqqiyotning turli omillari jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga alohida emas, balki bu omillarning global darajada murakkab o‘zaro ta’siri natijasida ta’sir ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda eng dolzarb bo‘lgan jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolarining mutlaq aksariyati ilgari ham sodir bo‘lgan, ammo bunday keskin shaklda emas. So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyotining global muammolarining keskinlashishiga olib kelgan bir qator holatlar mavjud.

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi global muammolarning kuchayishiga sabab bo‘lgan holatlardan biri bu dunyo aholisining tez o‘sishi bo‘ldi. 1950-yillarda dunyo aholisi taxminan 2,8 milliardni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda 8 milliardan oshdi. Tabiiyki, dunyo aholisining bunday tez o‘sishi uning hayotiy faoliyatini ta’minlash uchun tabiiy resurslar sarfining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Natijada, ishlab chiqarish, energiya va oziq-ovqat hajmining doimiy

o‘sishiga ehtiyoj bor, bu ma’lum salbiy oqibatlarga olib keladi. Ta’kidlash lozimki, ayrim davlatlarda aholining kamayishi, o‘lishlar soni tug‘ilishlardan ko‘p bo‘layotganligi, aholi strukturasida yoshi kattalarning salmog‘i oshib borayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan ayrim davlatlarda tug‘ilish tez sur’atlarda o‘smoqda. Ayniqsa, iqtisodiyoti qoloq, past rivojlangan davlatlarda tug‘ilish darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

Ilmiy-texnika inqilobi (ITI) jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga bir xil ta’sir ko‘rsatmadi. Bir tomondan, ITI yutuqlari tufayli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, ularning turlarini kengaytirish mumkin bo‘ldi. Boshqa tomondan, ITI salbiy oqibatlarga olib keldi, masalan, sanoat chiqindilari hajmining tez o‘sishi natijasida atrof-muhitning faol ifloslanishi, ishlab chiqarish jarayonida ITI yutuqlarining teng ravishda amalga oshirilmasligi tufayli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutning oshishi yuz berdi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqarolashuvi ham jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi global muammolarning kuchayishiga olib keldi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining mustahkamlanishi natijasida dunyoning bir mamlakatida yoki mintaqasida yuzaga keladigan iqtisodiy jarayonlar dunyoning boshqa mamlakatlariga yuqori tezlikda tarqal-moqda. Zamonaviy sharoitda muhim iqtisodiy qudratga ega bo‘lgan ikki mamlakat o‘rtasidagi ziddiyat umuman global iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolarining keskinlashishiga davlatlar tomonidan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi - iqtisodiy siyosatning noto‘g‘ri ishlatilishi ham sabab bo‘ldi. Bu ayniqsa, Markaziy banklarning monetar siyosatiga taalluqlidir, so‘nggi yillarda kreditlarning faol berilishi tufayli davlatlar tomonidan xalqaro qarz bozorida qarz olishning ko‘payishiga olib keldi, bu ham iqtisodiy inqirozlar va global tashqi qarzning o‘sishi ko‘rinishida bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolarini, xususan, ekologik muammoni og‘irlashtiradigan omillardan biri insoniyat tomonidan tabiiy resurslardan mas’uliyatsizlik bilan foydalanishdir. Bularga kimyoviy vositalarni haddan ziyod qishloq xo‘jaligida qo‘llash, o‘rmonlarning kesilishi, katta hajmdagi sanoat chiqindilarining yuzaga kelishi kabilar kiradi.

Global muammolarning iqtisodiy xarakteri global jarayonlarning asosiy qismini egallaydi. Iqtisodiyotga nisbatan global iqtisodiyot jumlasini ishlatish iqtisodiyotning tobora xalqarolashuvi bilan bog‘liq.

Dunyo aholisining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va uning farovonligini oshirishning muhim sharti yalpi ichki mahsulot darajasining oshishi bilan belgilanadigan iqtisodiy o‘sishdir. Shunga muvofiq iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari har qanday davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarish darajasining o‘sishiga asoslangan bo‘lib, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish darajasining oshishi ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu oqibatlar qatoriga so‘nggi yillarda global tus olgan ekologik muammolar ham kiradi. Qarama-qarshilik yuzaga keladi: bir tomondan, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun ishlab chiqarish darajasini oshirish kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarishning tez o‘sishi bilan bog‘liq global ekologik muammolarni hal qilish kerak. Shu munosabat bilan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining iqtisodiy va ekologik jihatlari o‘rtasida murosa topish zarurati tug‘iladi, bunda iqtisodiy o‘sish ekologik muvozanatni saqlash bilan birga kechadi. Hozirgi kunda shuning uchun barqaror iqtisodiy o‘sish zarur va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish darkor.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy harakatlantiruvchi kuchi transmilliy korporatsiyalardir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning liberallashuvi tufayli transmilliy korporatsiyalar tovar va xizmatlarni eng daromadli mamlakatlarda ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada transmilliy korporatsiyalar o‘z ishlab chiqarishlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashtira boshladilar, chunki rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi arzonroq, soliqlar pastroq va

ekologik standartlar rivojlangan mamlakatlarga qaraganda unchalik qattiq emas. Ishlab chiqarishning rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga siljishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turli oqibatlarga olib keldi. Ijobiy oqibatlar qatoriga transmilliy korporatsiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilganligi kiradi. Ammo shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning konsentratsiyasi natijasida atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanishiga olib kelgan. Rivojlangan mamlakatlar, o‘z navbatida, o‘zlarining transmilliy korporatsiyalari faoliyatidan foyda ko‘radilar, chunki ular jahon miqyosida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Natijada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi mavjud tafovut yanada kengayib, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutni kamaytirish uchun xalqaro mehnat taqsimotining amaldagi tamoyillarini rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan adolatliroq qilish kerak. Bu birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlardagi transmilliy korporatsiyalar bo‘linmalarida ishlaydigan ishchilarga haq to‘lash bilan bog‘liq.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining global muammolari kompleks hal qilishni taqozo etadi. Tabiiy resurslarning kamayishi muammosini qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish va iqtisodiyotning noresurs tarmoqlarini rivojlantirish orqali dunyo davlatlarining foydali qazilmalarga qaramligini bosqichma-bosqich bartaraf etish yo‘li bilan hal qilish mumkin. Ekologik muammoni ekoinnovatsiyalarni joriy etish va soliqni tartibga solish usullarini qo‘llash orqali hal qilish mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutning kengayishi muammosini ushbu mamlakatlarda mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat qonunchiligini kuchaytirish, shuningdek, xalqaro mehnat taqsimoti tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish orqali bartaraf qilsa bo‘ladi. Jahon mamlakatlari tashqi qarzining o‘sib borishi muammosini moliyaviy barqarorlik sohasida yagona xalqaro standartlarni keng joriy

etish, moliyaviy munosabatlarni tartibga solishni joriy etish orqali bartaraf etish mumkin.

Global iqtisodiyotning global muammolari bilan bir qatorda global rivojlanish tushunchasi ham mavjudki, u bevosita global muammolarni yechish orqali planeta miqyosida rivojlanishni nazarda tutadi.

"Global rivojlanish – bu kambag'al davlatlar gullab-yashnayotgan davlatga aylanishi uchun butun dunyo bosib o'tishi kerak bo'lgan yo'l. Buning uchun insoniyat yer kurrasining kelajagi oddiy, biroq juda muhim narsalarga bog'liq ekanligini anglashi darkor. Dunyoning barcha mamlakatlaridagi hamma odamlar har kuni kosasida ovqat; har tun boshi uzra boshpana; farzandlari uchun maktab; xastalanganlarida shifokor va dori-darmon; pul ishlab topishiga imkon beruvchi ishga ega bo'lishlari kerak. Rivojlanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Rivojlanishga ko'p yillik nizolarni bartaraf etishdan tortib, savdo-sotiqni rag'batlantirishda, kishilar salomatligini mustahkamlashda va ta'lim darajasini oshirishda yordam ko'rsatishgacha bo'lgan turli omillar ta'sir ko'rsatadi"[39].

Pokistonlik iqtisodchi Mahbub-ul Haq rivojlanishning asosiy maqsadi insonlar uzoq, sog'lom va ma'naviy hayot kechirishini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlagan.

Global rivojlanish yo'nalishida jahon hamjamiyati miqyosida qilingan chora-tadbirlardan biri bu BMT tomonidan 2000-yilda qabul qilingan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari hisoblanadi. Mazkur hujjatga ko'ra 2015-yilga kelib, dunyoga qashshoqlikni bartaraf etish, odamlarning bilim darajasini oshirish, atrof-muhitni himoya qilish, inson haq-huquqlari va erkinliklari tengligini ta'minlash, kasalliklarga qarshi kurashish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasida erishish kerak bo'lgan vazifalarga oid majburiyatlar belgilab olingan edi.

Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarini qisqacha ta'rifi bu dunyo mamlakatlari rahbarlarining qashshoqlik darajasini pasaytirish va aholi farovonligini oshirish kabi global masalalar yuzasidan o'zaro kelishib olgan muhim vazifalaridir. Ushbu maqsadlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan hamda aniq muddat, vazifa va ko'rsatkichlarni talab etadigan

[39] https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/mdg_bk_uzb_preview.pdf

sakkizta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlar quyidagilardan iborat:

(1) O‘ta qashshoqlikka va ochlikka barham berish.

(2) Umumiy boshlang‘ich ta’limga erishish.

(3) Ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.

(4) Bolalar o‘limini kamaytirish.

(5) Onalar salomatligini yaxshilash.

(6) OIV/OITSga, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish.

(7) Ekologik barqarorlikni ta’minlash.

(8) Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni kuchaytirish.

2015-yilga qadar ushbu maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha dunyo davlatlari tomonidan muayyan ishlar qilinib siljishlar ro‘y bergan. BMTning turli komissiyalari doimiy monitoringni amalga oshirib borgan. 2015-yilga kelib jahondagi 193 ta mamlakatning rahbarlari yana yig‘ilishib BMTning navbatdagi sammitida yangi Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini qabul qilishdi.

Barqaror Rivojlanish Maqsadlari barcha mamlakatlar – kambag‘al, boy va o‘rta rivojlangan mamlakatlar uchun harakatga chaqiruvdir. U farovonlikni yaxshilash va sayyoramizni himoya qilishga qaratilgan. Davlatlar qashshoqlikka barham berish bo‘yicha sa’y-harakatlar iqtisodiy o‘sishni oshirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik kabi qator muammolarni hal qilish, shuningdek, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sa’y-harakatlari bilan birga borishi zarurligini ma’qullaganlar.

Barqaror rivojlanish o‘n yettita maqsadni o‘z ichiga olib, quyidagilardan iborat:

(1) Qashshoqlikka barham berish.

(2) Ochlikka barham berish.

(3) Sog‘lik va farovonlikni ta’minlash.

(4) Sifatli ta’lim.

(5) Gender tenglikni ta’minlash.

(6) Toza suv va sanitariya.

(7) Arzon va toza energiya.
(8) Munosib bandlik va iqtisodiy o‘sish.
(9) Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma.
(10) Tengsizlikni qisqartirish.
(11) Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari.
(12) Mas’uliyatli ishlab chiqarish va iste’mol.
(13) Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish.
(14) Dengiz ekotizimlarini asrash.
(15) Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash.
(16) Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv institutlari.
(17) Barqaror rivojlanish yo‘lida hamkorlik.

Ushbu hujjatning qabul qilinishi global taraqqiyotda paradigmali o‘zgarishni ko‘rsatdi. Bir tomondan, jahon hamjamiyati birinchi marta iqtisodiy o‘sish jarayonida rivojlangan mamlakatlar duch kelgan muammolarga jiddiy e’tibor qaratdi, ikkinchi tomondan, globallashuv va mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida vujudga kelgan insoniyat uchun muammoli sohalar ko‘lamining sezilarli darajada ko‘payishini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmasligi tan olindi. Xususan, sayyoramiz aholisining haddan tashqari ko‘payishi va resurslar tanqisligi kabi global muammolarning kuchayishi yangi ishlab chiqarish va iste’molning barqaror modellari manbalarni izlash zaruratini yuzaga keltirdi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning global muammolari dunyodagi mutlaqo har qanday mamlakat manfaatlariga ta’sir qiladi va jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli regressiya bilan tahdid soladi. Ular tabiatan murakkab va shuning uchun ularni yo‘q qilish butun dunyo hamjamiyatining moliyaviy, moddiy, mehnat, intellektual, texnologik va axborot resurslari birlashtirilgan taqdirdagina mumkin bo‘ladi.

Tayanch iboralar: Vashington konsensusi, mintaqalashuv, global iqtisod, barqaror iqtisodiy o‘sish, yashil iqtisodiyot.

Nazorat savollari

1. Globalizatsiyaning mohiyatini va u to‘g‘risidagi nazariyalarni tushuntirib bering.
2. Globalizatsiyaning ijobiy tomonlarini sanab bering.
3. Globalizatsiyaning salbiy ko‘rinishlarini tavsiflang.
4. Global muammolarning yuzaga kelish sabablari nimalardan iborat?
5. Global muammolarning turkumlab, tavsiflang.
6. Global muammolarni yechish yo‘llarini ko‘rsating.
7. Global rivojlanish nima?
8. Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari nimalardan iborat?
9. Barqaror rivojlanish maqsadlarini yoriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
3. Каримов И.А. “Ўзбекистон буюк келажак сари”. Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
4. Вахабов А.В., Таджибаева Д.А., Хажибакиев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. - Т.: Бактрия пресс, 2015.
5. Алимов А.М. “Глобаллашув ва минтақавий иқтисодий интеграция жараёнлари. - Т.: Тошкент Давлат Шарқшунослик институти нашриёти, 2016.
6. Исаев Қ. Халқаро иқтисодиёт. -Т.:Маънавият, 2021.
7. Исмаилова Н.С., Шагазатов У.У. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик. –Т.: IQTISODIYOT, 2019.
8. Назарова Г.Ғ., Ахмедов И.А., Хамидов О.Б., Иминов З.М. Халқаро иқтисодий ташкилотлар. -Т.: ТДИУ, 2011.
9. Jim Sheffi, Andrey Korotayev, Leonid Grinin. Globalization: Yesterday, Today, and Tomorrow. USA. Emergent Publications, 2013.
10. Balassa B. The Theory of Economic Integration. Routledge, 2011.
11. Jovanovic M. The Economics of International Integration. Cheltenham, E. Elgar Pub., 2006.
12. Molle W. The Economics of European Integration: Theory, Practice, Policy. Aldershot, Ashgate, 2006.
13. Niemann A., Schmitter P. Neofunctionalism. European Integration Theory. Ed. by Wiener A., Diez T. Oxford, Oxford University Press, 2004.

14. Pelkmans J. European Integration. Methods and Economic Analysis. Harlow, Pearson Education, 2006.
15. Haas, Ernst B., ed. (2004) [1958]. The uniting of Europe: political, social, and economic forces, 1950–1957 (3rd ed.). Notre Dame, Indiana: University of Notre Dame Press.
16. Tinbergen, J. On the Theory of Economic Integration. Les Cahiers de Bruges (Bruges Quarterly), 1952.
17. Simon Hix. The Political System of the European Union. Palgrave Macmillan, 2005.
18. Loukas Tsoukalis. The New European Economy. The politics and economics of integration. Oxford University Press,1993.
19. Шифф М., Уинтерс А. Региональная интеграция и развитие / пер. с англ. – М.: Весь Мир, 2005.
20. Шерьязданова К.Г. Современные интеграционные процессы: учеб. пос. Казахстан. Алматы: “Қазақ университети”, 2016.
21. Шреплер Х.А. Международные экономические организации. Справочник. М.: “Международные отношения”, 1999.
22. Булатов А.С. Мировая экономика: учебник. М.: “Экономистъ”, 2005.
23. Семак Е.А. Международная экономическая интеграция: Учебное пособие. Мн.: БГУ, 2012.
24. Халанский И.В. Интеграция Центральной Азии в контексте глобализации. – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2014.
25. Мисько О.Н. Международная экономическая интеграция. – СПб: Университет ИТМО, 2015.
26. Уэллс Герберт Джордж. История цивилизации / пер. с англ. В. Азова. – Москва: АСТ, 2022-стр. 60–66.
27. Лагутина М. Л. Мир регионов в мировой политической системе XXI века. СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского Политехнического университета, 2016.

28. Рожкова, Л. В. Международная интеграция и международные организации: учеб.-метод. пособие. Пенза: Изд-во ПГУ, 2015.

29. Jovid Ikromi. International Economic Integration: The Educational and Methodological Guide. Dushanbe.: Technological university of Tajikistan, 2022.

30. Фролова Е. Д. Мировая экономика и международные экономические отношения: современное состояние, проблемы и основные тенденции развития: учебное пособие. Екатеринбург: УрФУ, 2016.

31. Шакурова Н.Е. Расширение Европейского Союза на восток в контексте эволюции политической системы единой европы/ Гражданин. Выборы. Власть. № 3(17), 2020.

32. Жуков Е.Ф. Международные экономические отношения. М.: ЮНИТИ, 2000.

33. Кондратьева Н. Б. Европейская модель интеграции рынков. Становление и перспектива: монография. Федеральное государственное бюджетное учреждение науки Институт Европы Российской академии наук. – М. : РАН, 2020.

34. Энтин Л.М. Право Европейского Союза. Новый этап эволюции: 2009–2017 годы. – М.: Изд-во “Аксиом”, 2009

35. Стрежнева М.В. Европейский союз в глобальном экономическом управлении. -М.: ИМЭМО РАН, 2017.

36. Найман В.Д. Характер интеграционных процессов в ЕС и АСЕАН: сопоставительный анализ. Вестник РГГУ. Серия “Политология. История. Международные отношения.”. 2016;(3):71-82.

37. Байков А.А. "Интеграционные маршруты" Западно-Центральной Европы и Восточной Азии/ Международные процессы. – 2007. – Том 5, №3 (15). – стр. 4-17.

38. Лёвина Н.П. Лиссабонский договор-новый основополагающий документ Европейского Союза/Вестник РУДН, серия Юридические науки, № 3, 2010.

39. Юнусов Ҳ.М. Европа Иттифоқи ҳуқуқи (Европа Иттифоқи ва ҳамжамиятлари ҳуқуқи): Дарслик. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2007.

40. Калиш Я.В. Теория и практика интеграции стран Западной Европы: актуальные проблемы/ Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета, №4 (24), 2016.

41. Буторина О.В. Европейская интеграция: учебник. М.:Деловая литература, 2011.

42. Ю. Борко “Европейский союз: углубление и расширение интеграции” -М.: “МЭиМО”, №8, 2000.

43. Стрежнева М.В. Теории Европейской интеграции/ Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25. Международные отношения и мировая политика. № 1, 2009.

44. Григорьев Г.С. Институциональные концепции функционализма и неофункционализма как основа процессов международной интеграции/ Европейский вектор экономичного розвитку. № 2 (13), 2012.

45. Шишков Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века. Почему не интегрируются страны СНГ? –М.: НПШ “Тысячелетие”, 2001.

46. Шишков Ю.В. Интеграция-процесс прежде всего экономический// Наука и жизнь. №2, 1998.

47. Шемятенков В.Г. Европейская интеграция. Учебное пособие. –М.: Международные отношения, 2003.

48. Манькина А.С. Интеграционные процессы в современном мире. –М.: Макс-Пресс, 2005.

49. Комкова Е.Г. Перспективы НАФТА //США, Канада: экономика, политика, культура. 2018. № 2. стр. 5–19.

50. Костюнина Г.М. Интеграционная модель АСЕАН+1: основные положения соглашений и влияние на внешнеэкономические связи // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения. 2017. Т. 17. № 3. стр. 441-457.

51. Семенов К.А. Международные экономические отношения: Курс лекций. –М.: Гардарики, 2000.

52. ФедоровскийА. Эволюция АТЭС и перспективы региональных интеграционных процессов/МЭиМО №1, 2012.

53. Кондратьева, Н.С. Единый рынок ЕС: теория и практика / Мировая экономика и международные отношения. 2014. №3. - стр.74-87.

54. Каширина Т. В. Американо-мексиканские отношения: от НАФТА к НАФТА 2:0.//Гуманитарные и юридические исследования. 2021. №4. стр. 55–60. DOI:10.37493/2409-1030.2021.4.6.

55. Bagdasaryan Kniaz. Особенности развития и функционирования региональных интеграционных объединений на примере ЕАЭС/ Leibniz-Informationszentrum Wirtschaft, (2021).

56. Волков С. Н., Константинова О. В. Африканская континентальная интеграция – новый шаг на пути к многополярному миру // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения. 2023. Т. 23, № 1. стр. 157–167. https://doi.org/10.22363/2313-0660-2023-23-1-157-167.

57. Киреев А. П. Вехи экономической мысли: Т.6. Международная экономика. Высшая школа экономики, Институт “Экономическая школа”. – М.: ТЕИС, 2006.

58. Костюнина Г.М. Карибское Сообщество: эволюция интеграционных тенденций/ Российский внешнеэкономический вестник, №8, 2010.

59. Хейфец В.Л. Международная интеграция: учеб. пособие. СПб.: ГУАП, 2022.

60. Икромов Д.З. Международная экономическая интеграция. Учебник и практикум. –М.: Юрайт, 2020.

61. Либман А.М. Модели экономической интеграции: мировой и постсоветский опыт.– М., 2009.

62. Байков А.А. Идеологический компонент в эволюции Евросоюза. – Полис. Политические исследования. № 1. 2013.

63. NAFTA, 20 Years Later: Do the Benefits Outweigh the Costs? Feb 19, 2014. A business journal from the Wharton School of the University of Pennsylvania.

64. Yoshinobu Yamamoto. Globalism, Regionalism and Nationalism: Asia in Search of Its Role in the 21st Century. Wiley-Blackwell Publishers. 2000.

65. Румянцев В.П. Идеология панарабизма и ближневосточная политика США и Великобритании в 1950-е гг. Издательства Томского университета, 2008.

66. Цыкунов Г.А. Содружество независимых государств у исторической черты// Известия Иркутского государственного университета. №11. 2015.

67. Багдасарян К. М. Анализ модели экономической интеграции / Журнал экономической теории. 2019. -Т. 16. № 3.

68. Большое евразийское партнёрство: прошлое, настоящее, будущее: избранные труды X Евразийского научного форума: коллективная монография. Том первый.-СПб.: Университет при МПА ЕврАзЭС, 2018. (Серия “Евро-Азиатские исследования”).

69. Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов У.Н. Микроиқтисодиёт. –Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2000.

70. Большой энциклопедический словарь. В 2-х т. / Гл.ред. А.М.Прохоров. –М.: Советская энциклопедия, 1991. Т.2.

71. Герман Р. Э., Бесленеев М. С. Глобальные проблемы современности: курс лекций/ Карачаевск: Карачаево-Черкесский гос. ун-т им. У. Д. Алиева, 2016.

72. Мельянцев В.А. Современная глобализация и воздействие на экономически продвинутые и развивающиеся страны/Вестник Московского университета. Востоковедение. 2018. № 1. стр.98–119.

73. Katzenstein P. J. Regionalism in Comparative Perspective // Cooperation and Conflict. 1996. Vol. 31. № 2. p. 123-159.

74. T. Levitt. The Globalization of Markets. https://hbr.org/1983/05/the-globalization-of-markets
75. CIA World Fact book 2022
76. Villareal, M. Angeles, Fergusson, I. F. NAFTA Renegotiation and Modernization/ https://ecommons.cornell.edu/items/07210efd-0980-4f13-9e90-9061427e331e
77. https://european-union.europa.eu
78. https://www.saarc-sec.org/
79. https://ec.europa.eu/eurostat/documents/2995521/15725179/2-18012023-AP-EN.pdf/e301db8f-984c-27e2-1245-199a89f37bca, https://viborc.com/unemployment-rates-in-europe-per-country-latest-data-for-2022/
80. https://fas.org/sgp/crs/row/R44981.pdf
81. https://www.worlddata.info/trade-agreements/nafta-freetrade
82. https://www.imf.org/en/Countries
83. http://www.au.int/en/content/treaty-establishing-african-economic-community
84. https://strategy.uz/index.php?news=1278
85. https://lex.uz/ru/docs/6600413
86. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/mdg_bk_uzb_preview.pdf

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) va globalizatsiyaning mohiyati.....6
1.2. Integratsiyaning nazariy asoslari 19
1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va darajasi 25
1.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning samaradorlik ko‘rsatkichlari.....32

II BOB. YEVROPADA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

2.1. Yevropada integratsion jarayonlarning yuzaga kelishini tarixiy asoslari 36
2.2. Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari 40
2.3. Yevropa Ittifoqini boshqaruv organlari.....55
2.4. Yevropa Ittifoqi integratsiyasining samaradorligi va uning istiqbollari.....64

III BOB. SHIMOLIY AMERIKADA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV XUSUSIYATLARI

3.1. Shimoliy Amerikada iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishini ichki va tashqi shart-sharoitlari. NAFTAning samaradorligi 70
3.2. Shimoliy Amerika integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.....83
3.3. Shimoliy Amerika integratsiyasining qayta tuzilishi sabablari va zamonaviy holati.....86

IV BOB. OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQALARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

4.1. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasining (The Association of Southeast Asian Nations (ASEAN)) shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 93
4.2. ASEANning boshqaruv organlari 101
4.3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Hukumatlararo forumining (The Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC)) tashkil etilishi va faoliyati. APEC rivojlanishida zamonaviy tendensiyalar.....103

V BOB. JANUBIY OSIYO, AFRIKA, ARAB VA LOTIN AMERIKASI MINTAQALARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

5.1. Janubiy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari 108
5.2. Afrika mintaqasida integratsion jarayonlarning rivojlanishi 118
5.3. Arab dunyosida integratsion jarayonlarning xususiyatlari 124
5.4. Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari 139

VI BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI (MDH) DAVLATLARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUVNING XUSUSIYATLARI

6.1. Postsovet hududida reintegratsiyaning yuzaga kelishi omillari. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH) tashkil topishi 150
6.2. MDHning rivojlanish bosqichlari 156
6.3. MDHning boshqaruv organlari 166

VII BOB. BRIKS VA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI
7.1. BRICSning maqsadlari, faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari va rivojlanish bosqichlari.....169
7.2. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkil etilishining shart-sharoitlari, uning rivojlanish bosqichlari va istiqbollari 173

VIII BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI
8.1. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanish bosqichlari.....181
8.2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki.....185

IX BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBALLASHUV JARAYONLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI
9.1. Globalizatsiyaning mohiyati va uning nazariy asoslari 197
9.2. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari.....205
9.3. Global muammolar va ularni hal etish yo‘nalishlari 210

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 223

QAYDLAR UCHUN

ABDURAXMONOV FARXOD ABDUFARMONOVICH

INTEGRATSIYA VA IQTISODIY GLOBALLASHUV

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2024

Muharrir:	**M. Hayitova**
Texnik muharrir:	**M. Tursunov**
Musavvir:	**Sh. Zoxidova**
Musahhih:	**L. Ibragimov**
Kompyuterda sahifalovchi:	**Sh. Nurullayev**

Nashriyot litsenziyasi № 1400

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899.920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 05.01.2024.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Times New Roman» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 15,5. Nashriyot bosma tabog‘i 14,75.
Tiraji: 30. Buyurtma № 85

«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Ziyo MFY, Talabalar ko'chasi, 96-1-uy